Тарихий ёзувларда Имхотепнинг архитектор сифатида Мирсдаги катта-катта қурилишларни лойиҳасини чизиб, бу ишларга раҳбарлик қилган. Имхотепгача Мисрдаги барча қурилишлар асосан хом ғишдан бўлиб, ғишнинг мустаҳкамлигини таъминлаш мақсадида унга сомон қўшилган. Тошни йўниб, ундан девор тиклаш техникаси такомиллашгандан кейингина Мисрда катта қурилишларга асос солинган. Ҳатто, кейинги даврларда қурилган Миср эҳромлари ва йирик қурилишларга ҳам Имхотеп Саққарада биринчи қурган Жосернинг

зинасимон эхроми андоза қилиб олинган.

Сўнги подшолик даврида Миср инқироз жараёнини бошидан кечирди. Ягона Миср аввал иккига, сўнгра майда номларга (давлатчаларга) бўлиниб кетади. Миср аввал Нумибия, Оссурия, Эрон таъсирига тушиб қолади ва ниҳоят, мил. ав. 332 йили Александр Македонский томонидан эгалланади. Шу билан Мисрнинг қадимги даври маданияти тугайди.

Мисрликларнинг турли соҳаларидаги билимлари жаҳон фанининг ривожига муҳим ҳисса қўшган. Юнонлар Мисрни қадимги донишмандлар юрти, мисрликларни эса ўз устозлари деб ҳисоблаб келишган. Пифагор, Сукрот, Платон, Аристотель ва бошқа донишмандлар Мисрга бориб, илм ўрганиб келган эдилар.

Қадимги Миср маданияти ҳозирга қадар ҳам яшаб келмоқда. Бу маданият жаҳон маданияти ривожига ҳам катта ҳисса қўшди. Юнон файласуфи Платон Миср маданиятини «Жами цивилизацияларнинг онаси» деб бежиз айтмаган.

Хитойнинг қадимги санъат ёдгорликлари мил. ав. III минг йилликка мансуб. Хитойнинг кўп жойларидан нафис ишланган сопол идишлар, жез ва нефритдан ишланган ва шакли ҳамда гули ҳар хил бўлган буюмлар, хайвонларнинг Инъ даврига мансуб тошдан ишланган ҳайкалчалари, Чжоу даври (мил. ав. XI–III асрлар) га мансуб амалий-безак санъати асарлари топилган. Мил. ав. I минг йилликдан қилич сопи, мебель тайёрлашда локдан фойдаланишган. Мил. ав. IV–III асрларга оид шойига тушъ сиёҳлари билан расм солинган асар сақланган. Хань даври мақбараларидан мифология ва дунёвий мавзудаги рельеф ҳамда ёзувлар, одам, уй хайвонлари тасвирланган сопол идишлар, олтин ва кумуш билан безатилган жез буюмлар топилган. Кулолчилик маҳсулотлари, айниқса чинни буюмлари ҳозиргача ўзининг нафислиги, бетакрорлиги билан ажралиб туради.

Буюк ипак йўли атамаси қадимда ишлатилмаган. Бу йўлни тарихий, географик ва маданий жиҳатларини илмий ўрганиш амалда қўплаб мамлакат олимлари томонидан XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошланган. Уни тадқиқ этишда Фарбий Европа, Россия ва Япония олимлари салмоқли ҳисса қўшдилар. 1877 йил машҳур немис олими Карл Рихтгофен ўзининг «Хитой» номли йирик илмий асарида улкан Евросиё материгининг турли қисмларини боғловчи йўллар тизимини «Ипак йўли» деб атаган, кейинчалик «Буюк ипак йўли» атамаси қабул қилинган.

«Буюк ипак йўли» биргина савдо-сотик билан чекланибгина қолмай, балки айни пайтда дипломатия, диний ва маънавий қадриятларнинг тарқалиш йўли ҳам эди. У Шарқ ва Ғарб цивилизациясини боғловчи йўл бўлиб, унда Марказий Осиё халқлари воситачилик қилганлар.

Буюк ипак йўли – қадимда ва ўрта асрларда Шарқ ва Ғарб мамлакатларини илк бор ўзаро боғлаган қитъалараро қарвон йўли (мил.ав. II аср милодий XV аср). Буюк ипак йўли атамаси ушбу йўлдан ташилган қимматбаҳо товар – Хитой ипаги билан боғлиқ. Ғарб мамлакатлари узоқ вақтгача ипакчилик сир-асрорларидан беҳабар бўлишган.

Хитойнинг дастлабки донишмандларидан бири Кун-Фу Цзи – бўлган. Бизга бу исмнинг лотинчалашган кўриниши – Конфуций кўпроқ маълум. Конфуций тафаккур тараққиётининг мислсиз гуллаб-яшнашини, Хитой маданияти асосларининг яратилиши даврини бошлаб берди. Олимлар орасида кенг тарқалган фикрга қарамасдан, уни том маънода Хитой динининг асосчиси деб бўлмади. Унинг исми кўпинча Зардуштра ва Будда билан ёнма-ён айтилса-да, дини ва

эътиқод масалалари унинг дунёқарашида унча катта аҳамият касб этмаган.

Конфуций мамлакат бирлашишидан уч аср илгари, Хитой ҳозирги ўз ҳудудининг кичик бир қисмини эгаллаган даврда яшаган. Анъанавий тарихшунослик бу даврда мамлакатни Чжоу сулоласи (мил. ав. 1122-249) бошқарган деб ҳисоблайди. Аслида ҳам «Осмон ўғли» мақомига эга бўлган бу сулола вакилларининг обрў-эътибори юқори бўлган, лекин уларда ҳақиқий ҳокимият бўлмаган. Чжоу ванлари муқаддас шахслар саналиб, Осмон уларга «ишониб топширилган» мамлакатда фақат маросимий вазифаларни бажарарди. Конфуций комил инсон (цзюн-цзи) ҳақидаги ғояни яратди. Цзюн-цзи, яъни юксак маънавийтли инсон икки асосий хусусиятга эга бўлиши керак: инсонийлик ва масъулият (аждодлар олдидаги қарз)ни ҳис қилиш. Комил инсон, энг аввало, ишончли ва фидойи бўлиши лозим, бунинг учун тинимсиз, ўзини аямасдан ўз ҳукмдори, ўз отаси ва ўзидан катта барчага бирдай хизмат қилиши ва доимо камолот сари интилиши зарур.

Конфуцийликнинг илк кўринишида ахлоқ масаласи биринчи ўринга қўйилган, диний эътиқод эса иккинчи даражали саналган. Диний масалалар, ақидаларга конфуцийлик анча вазминлик билан муносабатда бўлди. Аммо, диний маросим, расм-русмларнинг тарбиявий аҳамиятини мақтади. Бироқ қадимдан давом этиб келаётган диний кадрятлар, урф-одатларга Конфуций ҳурмат билан муносабатда бўлган.

Бир қарашда, Конфуций таълимоти ҳар бир кишининг оилада, жамоат орасида, давлат ва жамият ишларида ўзини қандай тутиши, ҳаёт талабларига қай тарзда жавоб бериши ҳақидаги ниҳоятда оддий ғоя ва қарашлардан иборатдек бўлиб туюлади. Лекин ана шу оддийликда шундай буюк куч яширинганки, унинг таъсирида ҳар бир инсон ўз она Ватанининг муқаддаслиги, ўзини халқ деб аталадиган уммондаги кичик, лекин керакли заррача эканлиги, заррачада эса қуёш акс этиши мумкинлигини англайди, умрни қандай ўтказиш, ҳаётни қай тарзда ташкил этишни ўрганиб олади.

Фалсафанинг энг мураккаб масаларини ҳал қилишда ҳам Конфуций ҳамма учун тушунарли бўлган оддий формулалардан фойдаланган. Масалан, унинг «Фаровонлик – мақсад, ислоҳотлар унга эришиш йўли, барқарорлик эса бунинг кафолати ва асосий шартидир», деган сўзлари ҳар бир киши, оддий фуқаро ёки олий мартабали давлат хизматчиси учун ҳам тушунарлидир. Шу сабабдан ҳам ушбу формула Конфуций замонидан ҳозирги давргача Хитой ички сиёсатининг бош тамойилларидан бири, фуқаролар фаолиятининг асосий мезони сифатида хизмат қилиб келмоқда.

Конфуций фалсафасида кўпчилик тушунмайдиган баландпарвоз ва мавҳум ғоялар, оддий одамлар англаши қийин бўлган мураккаб мулоҳазалар йўқ. Шу маънода уни ҳақиқий ҳаёт фалсафаси, оддий одамлар учун тушунарли бўлган, умрни мазмунли ўтказишга, халқни юксак маънавийтли қилишга хизмат қиладиган фалсафадир. У ҳар бир кишини бу ёруғ оламга нима учун келганлиги, ўз олдида қандай мақсадлар қўйиши ва уларга эришиш учун қандай йўллардан бориши лозимлигига ўргатади. Табиатни севиш ва ардоқлаш, она Ватанга хизмат қилиш, халқ дарди билан яшаш бу фалсафадаги оддий инсон учун тушунарли бўлган ҳаёт ҳақиқатининг мазмунини англаш орқали ифодаланади.

Хулоса. Бир қарашда, Конфуций таълимоти ҳар бир кишининг оилада, жамоат орасида, давлат ва жамият ишларида ўзини қандай тутиши, ҳаёт талабларига қай тарзда жавоб бериши ҳақидаги ниҳоятда оддий ғоя ва қарашлардан иборатдек

бўлиб туюлади.

Шундай қилиб, қадимги Хитой ўзига хос бетакроп маданияти билан жаҳон маданиятини ривожланишига ўз ҳиссасини қўшди. Унинг таъсири айниқса Жануби-Шарқий Осиё мамлакатлари маданиятининг шаклланиши ва ривожланишида кучлироқ акс этди.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, инсоният цивилизациясининг кўҳна ва йирик марказлари – Миср ва Хитой маданиятлари цивилизациялари шаклланиб, маданий тараққиётга сезиларли таъсир кўрсатди. Қадимги Шарқ маданияти «илк кашфиётчи ва асосчи сифатида улкан миссияни» бажарди; илк ёзувни яратди ва давлатчилик пойдеворини қуриб, этник, касбий, мулкый ва ижтимоий аҳволи билан фарқланувчи кишиларнинг бирга яшашлари учун шароитни шакллантирди. Бошқа маданиятлар ибтидоий ва қадимги Шарқ маданиятининг тажриба ва ютуқларидан фойдаландилар.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент; «Ўзбекистон», 2017.

2. Каримов Б., Зияев Ф., Тулаганова С. «Маданиятшунослик». Ўқув-усубий қўлланма. Тошкент; «Иқтисод-Молия», 2016.

3. Худайқулов Х., Баратов Р. «Маданиятшунослик». Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент; «Ўзбекистон Миллий Университети», 2007.

4. Комилов Н. «Тафаккур карвонлари». Шарқу Фарбнинг цивилизациявий алоқалари». – Тошкент; «Шарқ», 2011.

5. Хайруллаев М. «Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти». – Тошкент; «Фан», 1994.

6. Низомиддинов Н. «Қадимги Хитой тарихи, диний эътиқоди ва маданияти». Тошкент; «Фан ва теология», 2014.

7. Саидов У. «Шарқ ва Фарб: Маданиятлар туташган манзиллар», Тошкент; «Янги аср авлоди».

SOVET DAVRIDA O'ZBEK KINO SAN'ATINING XALQARO MADANIY ALOQALARDA TUTGAN O'RNI

Ernazarov Fayzullo Narzullaevich

tarix fanlari doktori (DSc), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Jahon tarixi" kafedrasida professori

Annotatsiya: Madaniyat tushunchasida kino san'ati adabiyot, teatr, tasviriy san'at va musiqa bilan bevosita bog'liq holda uyg'unlashib ketadi. Asl qiymatga ega bo'lgan kino asari o'z tarkibida ma'lum bir madaniyat ma'lumotlarini birlashtirib, boshqa san'at turlariga qaraganda tomoshabinlarga qisqa muddatda keng miqyosda ta'sir qila oladi. Sovet davri o'zbek kinosida ham ana shunday ijobiy xususiyatlarni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Sovet davrida o'zbek kino san'atining xalqaro madaniy aloqalar rivojidadagi o'rni yuqori darajada bo'lishiga ushbu sohaning iste'dodli va jonkuyar ijodkorlarining zaxmatli mehnati yotadi. Mazkur maqolada bu to'g'risida batafsil tahliliy axborotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kino, kino san'ati, madaniy aloqalar, Kinematografiya Davlat qo'mitasi, Xalqaro kinofestivallar, "O'zbekfilm".

МЕСТО УЗБЕКСКОГО КИНО В МЕЖДУНАРОДНЫХ КУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЯХ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

Эрназаров Файзулло Нарзуллаевич

Доктор исторических наук, профессор кафедры всеобщей истории Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Аннотация: В понятии культуры кино напрямую связано с литературой, театром, изобразительным искусством и музыкой. Фильм, обладающий оригинальной ценностью и объединяющий в своем содержании информацию определенной культуры, может оказать более широкое воздействие на зрителей за более короткий период времени, чем другие формы искусства. Подобные положительные черты мы отчетливо видим в узбекском кино советской эпохи. Высокий уровень узбекского кинематографа в развитии международных культурных связей в советское время обусловлен упорным трудом талантливых и энтузиастичных творцов этой области. В данной статье представлена подробная аналитическая информация по этому вопросу.

Ключевые слова: кино, кинематография, культурные связи, Госкино, Международные кинофестивали, «Узбекфильм».

THE ROLE OF UZBEKISTAN CINEMA IN INTERNATIONAL CULTURAL RELATIONS IN THE SOVIET PERIOD

Ernazarov Fayzullo Narzullaevich

Doctor of Historical Sciences (DSc), Professor of the Department of "World History" of the Nizami Tashkent State Pedagogical University

Annotation: In the concept of culture, cinema is directly related to literature, theater, fine arts and music. A film work of original value, combining in its composition the information of a certain culture, can have a wider impact on the audience in a short time than other types of art. We can clearly see such positive features in the Uzbek cinema

of the Soviet period. The high level of the role of Uzbek cinema in the development of international cultural relations in the Soviet period is due to the hard work of talented and enthusiastic creators of this field. This article provides detailed analytical information on this.

Key words: cinema, cinematography, cultural relations, State Committee of Cinematography, International film festivals, «Uzbekfilm».

Ma'lumki, o'zbek kino san'ati XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan. Dastlabki kinofilmlar 1908 yildan Toshkent, Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda namoyish etilgan. Kinooperator X.Devonov tomonidan suratga olingan hujjatli film bilan boshlangan ushbu san'at turi 1931 yilda N.G'anievning "Qasam" badiiy ovozi orqali o'zbek milliy kino san'atiga asos soldi. 30-yillarning boshida Respublikada badiiy filmlarni ishlab chiqarish bosqichi boshlanib, 1932 yilda Toshkent kino-studiyasida kinoxronika sektori tashkil etildi. 1938 yilda M.Qayumov tashabbusi bilan "Toshkent to'qimachilik kombinati" nomli hujjatli film yaratildi. Ikkinchi jahon urushi davrida yuzaga kelgan siyosiy vaziyat Sovet Ittifoqi hududidan kinostudiyalar O'zbekistonga ko'chirilishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida Toshkent kinostudiyasida "Aleksandr Parxomenka" (1942), "Ikki jangchi" (1943), K.Yormatov tomonidan "Biz g'alaba qilamiz" (1941), "Frontdagi do'stlarga" (1942), "Vatan savdosi" (1943) kabi kinofilmlar yaratildi.

Madaniy aloqalar davlat strategiyasining bir qismini tashkil etadi. Aytish mumkinki, kino san'ati "sovuq urush" yillaridagi madaniy aloqalarda siyosatga ta'sir qiluvchi kuchli vosita vazifasini bajardi. Tarixchi-lar tomonidan sovet davlati tomonidan kinofilmlar eksport qilingani va ular dunyoda targ'ibot vositasini bajargani keltiriladi. Sovet hokimiyati yillarida kino sohasida madaniy aloqalarni targ'ib etish vazifasini soveteksportfilm, sovet elchixonasi va boshqa tashkilotlar bajargan.

O'zbekistonda kino san'ati sohasidagi madaniy aloqalar xalqaro kinofestivallar, kinoasarlal almashinuvi va kinoaktyorlar hamkorligi kabi yo'nalishlarida olib borildi.

O'zbekiston SSRda 1950 yilda birinchi marotaba "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining 25 yilligiga bag'ishlangan" yubiley festivali tashkil etilib, unda 12 ta sovet filmi hamda Toshkent badiiy film-lar studiyasining "Alisher Navoiy", "Tohir va Zuhra", "Farg'ona qizi", "Azamat", "Farhod chiroqlari", "To'rt darvozali shahar" kabi badiiy va hujjatli filmlari namoyish qilindi.

Aynan XX asrning 50-yillari nafaqat siyosatda o'zgarishlar, balki kinematografiyada ham ahamiyatli natijalarni vujudga keltirdi. Kommunistik mafkuraviy yo'nalishdagi o'zgarishlar natijasida Sovet filmlari orqali Sovet davlati xorijda boy madaniyatga ega bo'lgan mamlakat sifatida xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'ldi. Jumladan, 1960 yil yanvarida "Soveteksportfilm" Dehli shahrida birinchi sovet filmlari festivali-ni o'tkazdi. Unda "Insonning taqdiri", "Nepallik bola", "Nyu Yorkdagi sovet ko'rgazmasi" kabi filmlar namoyish etildi. 1961 yilda mazkur tash-kilot 16-20 oktyabrda Haydarobod, 3-9 noyabrda Vizagapatam, 10-16 noyabrda Gantur, 17-23 noyabrda Nilor, Kalkutta, Bombay shaharlarida kinofesti-vallar tashkil etdi. Mazkur festivallarda "Layli va Majnun", "Mamlyuk", "Jo'natilmagan xat", "Yulduzlarga birinchi qadam", "Turnalar uchmoqda", "Mamlakatda 1 may marshlari", "Ali bobo va qirq qaroqchi", "Qadimiy ramz-lar" va "Qizlar bahori" filmlari namoyish etildi. 1956-1959 yillarda Coveteksportfilm tomonidan 10 ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan, 20-25 ta qisqa metrajli filmlarni yil davomida sotishga muvaffaq bo'lindi.

Mazkur jaryonda O'zbekiston kino san'ati ham faol ishtirok etib, 1961 yilda Moskvada o'tkazilgan II xalqaro kinofestivalda O'zbekiston va Vetnam kinoijodkorlari tomonidan yaratilgan "Vetnam-mening vatanim" filmi tomoshabinlar hukmiga havola etildi. Shuningdek, Vetnamda o'zbek kinematograflarining "Qirq yil va bir kun", "Lyuba, Roza, Abdulla", "Mening dugonalarim" kabi hujjatli filmlar ham namoyish qilindi.

Sovet hokimiyati yillarida kino san'ati xalqni, o'sib kelayotgan yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashda partiyaning jangovar, ta'sirchan ommaviy mafkuraviy ta'sir quroli bo'lgan. Shu sababli 60-yillarda o'zbek kinoustalarining Osiyo mamlakatlari kinoijodkorlari bilan hamkorlikda suratga olingan filmlarida ham ana shu ruh ustuvor bo'lgan. Ammo shunday filmlar ham borki, ularda umuminsoniy g'oyalar, xalqning ma'naviy ildizlariga murojaat ko'zga tashlanadi. Jumladan, Sh.Rashidov va V.Vitkovich ssenariysiga asosan (Mirzo Bedilning "Komde va Mudan" poemasi asosida) 1961 yilda yaratilgan "Ikki dil dostoni" filmi Hindiston va O'zbekis-tonda suratga olindi. Film rejissyori K.Yormatov bu asarni "Hindiston bilan mushtarak taqdirimiz haqidagi asar", – deya e'tirof etgan edi. Shuningdek, o'zbek kinoustalari tomonidan yaratilgan "Inson taqdiri", "Tiriklar va o'liklar", "Gamlet", "Pomir bolalari", "Zumrad" kabi film-lar chet ellik muxlislarning e'tiborini qozongan. Xalqaro kino bozorlari va jamoatchilik ko'riklarida o'zbek kinoijodkorlari yaratgan eng yaxshi filmlar ham muvaffaqiyat qozongan. Sh.Abbosovning "Sen yetim emassan", K.Yormatovning "Osiyo ustida bo'ron", L.Fayzievning "Ulug'bek yulduzi", Y.A'zamovning "Oydin sahifa" va "Farg'onalik besh og'ayni", R.Botirovning "Dorbozlar", A.Hamroevning "Yor-yor", Z.Sobitovning "Fidoi", E.Eshmu-hamedovning "Nafosat" badiiy filmlari Osiyo kinoekranlarida namoyish etildi.

SSSRda madaniyat masalalarini o'rganuvchi aksariyat tadqiqotchilar madaniyat sohasi alohida emas, balki KPSS faoliyatining g'oyaviy-tarkibiy qismi bo'lganligini qayd etishadi. Mazkur sohada davlat va partiyaning yagona siyosati mavjud edi. Bu jarayonda ularni ajratib ko'rsatishgina emas, balki Kompartiya Markaziy qo'mitasi tomonidan qabul qilingan s'ezd qarorlarida aynan madaniyat tilga olinmasa-da xorijiy aloqalar va g'oyaviy kurashda qabul qilingan qarorlar madaniy jarayonlarni boshqarishga o'z ta'sirini ko'rsatar edi.

Shu ma'noda, 60-yillarning oxiri – 80-yillarning boshida SSSR Ministrlar soveti va partiya Markaziy qo'mitasi tomonidan targ'ibot yo'nalishida ma'lum bir sana va yubileylarga bag'ishlangan tadbirlar yuzasidan bir qator qarorlar qabul qilingan. Bu sohada olib borilgan tadbirlar natijasi sifatida 1963 yili Osiyodagi 6 ta mamlakat 35 sovet filmi sotib olgan bo'lsa, 1965 yilda 9 mamlakat 73 ta sovet filmi o'z ekranlarida namoyish qilgan. 1965-1968 yillar davomida Osiyo mamlakatlari teleekranlarida namoyish qilingan sovet filmlarining soni 200 dan ko'proqni tashkil etgan. Shu davrda, ayniqsa, televideniya orqali sovet filmlarini namoyish etish muhim ahamiyat kasb etgan edi. Yaponiya, Livan, Suriya, Eron, Iroq, Iordaniya, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Gonkong, Filip-pin, Singapur, Tailand, Kambodja, Hindiston, Pokiston, Malayziya, Turkiya kabi mamlakatlar xalqlari teleekranlarida sovet filmlarini tez-tez ko'rish mumkin edi.

Shuningdek, mamlakat ichida madaniyat sohasi vakillari tomonidan kino san'ati yo'nalishida aniq ishlab chiqilgan tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, 1966 yilda SSSR kinematografiya qo'mitasi tomoni-dan kinoijara yo'nalishida kamchiliklar qayd etilib, Moskvada Amerikada suratga olingan "Ba'zilar sur'atni afzal ko'rishadi" (Некоторые предпо-читают в темпе) komediyasi bilan birga "Lenin Polshada" sovet

tarixiy filmi ko‘rsatilgani tanqid etildi. KPSS markaziy qo‘mitasi raisi A. Romanovning qayd etishicha, mazkur filmlarning bir vaqtdagi namoyishi tomoshabinlarning sovet filmlariga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirdi. Bu bilan ular mafkuraviy yo‘nalishda olib borilayotgan tadbirlarimizga katta zarar keltirishdi”.

XX asrning 60-70 yillarida sovuq urush sharoitida dunyo xalqlarining birdamligi va tinchligini ta‘minlashda xalqaro kinofestivallarning roli tobora oshib bordi. Kino san‘atining jahon xalqlari hayotida tutgan o‘rnini hisobga olib, Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlarning xalqaro kinofestivalini tashkil etishga qaror qilindi. Boshqa tomondan, bunday ko‘rinishdagi tadbirlardan “sovet madaniyati”ni targ‘ib etish, kinobozori uchun o‘z o‘rniga ega bo‘lish maqsadlari ham nazarda tutilgan edi.

Davomli tashkil etilgan kinofestivallarining tashkilotchisi sifatida O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti Kinematografiya Davlat qo‘mitasi, SSSR va O‘zbekiston Kinematografchilar soyuzi tashabbus ko‘rsatdi. 1968 yildan boshlab 1988 yilgacha jami 10 marta Toshkent shahrida uch qit‘a – Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarning xalqaro kinofestivali o‘tkazildi. Kino san‘ati sohasidagi bunday aloqalar madaniy jarayonda o‘ziga xos katta burilish bo‘ldi. Bu festival Osiyo va Afrika mamlakatlari kino san‘atining eng yaxshi asarlarini namoyish qilish va rag‘batlantirish, turli mamlakatlar kino ijodkorlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish hamda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qilish vazifasini bajara oldi.

Mazkur kino anjuman 1-marta 1968 yil 21-31 oktyabr kunlari Toshkentda “Tinchlik, ijtimoiy ravnaq, xalqlar ozodligi va mustaqilligi uchun” shiori ostida bo‘lib o‘tgan. Ushbu kinoanjumanning bosh mavzusi Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashini tasvirlovchi filmlarni namoyish qilishdan iborat bo‘lgan.

Birinchi xalqaro kinofestivalda Afrika qit‘asidan 26 nafar, Lotin Amerikasi mamlakatlaridan jami 113 nafar, Osiyo mintaqasiga kiruvchi 21 ta davlatdan 87 nafar kinoijodkorlar qatnashgan. Ishtirokchilarning aksariyatini yapon kinoustalari (33 nafar) tashkil etib, shuningdek, hindistonliklar (16 nafar), Shri Lankalik (6 nafar), Iroqlik (6 nafar), mug‘ulis-tonlik (4 nafar), Indoneziya, Kambodja va Malayziyadan (3 nafar), Vetnamdan (2 nafar), Iordaniya, Eron, Yaman Arab Respublikasi, KXDR, Quvayt, Pokiston, Suriya, Turkiya, Filippin yarim orolidan (3 nafar) san‘atkorlar ishtirok etishgan. 1968 yil bo‘yicha mavjud ma‘lumotlar shundan dalolat beradiki, kino san‘ati sohasidagi madaniy aloqalar tizimida Yaponiya va Hindiston kinoijodkorlari bilan hamkorlik jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilgan.

Toshkentda Osiyo va Afrikamamlakatlari bilan o‘tkazilgan kinofestivalda O‘zbekiston va boshqa ittifoqdosh respublikalar kinosiga “sovet kinosi” deb nisbat berilishiga qaramay, o‘zbek filmlarining jahon miqyosida taqdim etilgani tarixiy ahamiyatli hodisadir. Xalqaro kinofestivallarda namoyish etilgan o‘zbek kinoijodkorlarining hujjatli kino asarlari xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston xalqini yaqinlashtirishda oltin ko‘prik vazifasini o‘tadi.

Bu jarayonda “Do‘stlik va madaniy aloqalar O‘zbekiston jamiyati” faol ishtirok etib, uning butun faoliyati “O‘zbekistonda sodir bo‘lgan buyuk ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar”ni, “lenincha tashqi siyosatning muvaffaqiyatlarini targ‘ib qilish”ga qaratilgan edi. Respublika Do‘stlik jamiyati ning Osiyo mamlakatlari bilan olib borilgan targ‘ibot-tashviqot ishi “boshqa sotsialistik mamlakatlar bilan birgalikda sotsializm va kommunizm qurish uchun qulay xalqaro vaziyatni ta‘minlashdan iborat bo‘lib, sovet

davlatining maqsadlariga erishishiga ko'maklashgan". Kommunistik partiya-ning madaniy aloqalardan ko'zlangan ana shu siyosiy maqsadi kino san'ati vositasida ustalik bilan amalga oshirildi.

1972 yilda Toshkent shahrida Osiyo va Afrika mamlakatlari kinematograflarining II Xalqaro kinofestivali tashkil etildi. Unda 60 dan ortiq mamlakat (307 nafar ishtirokchi) ishtirok etib, ulardan 24 ta Osiyo mamlakatlari delegatsiyasi (117 nafar ishtirokchi) tashkil etgan. Osiyo va Afrikadagi mamlakatlar xalqaro II Toshkent kinofestivali faqat milliy madaniyatlarini yaqinlashuvi va boyib borishiga, Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan O'zbekiston o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni rivoj topishigagina emas, balki barcha kino san'ati arboblari dunyoda tinchlik va taraqqiyot uchun birgalikda olib borayotgan kurashlariga katta hissa bo'lib qo'shilganligi matbuotda yoritib borilgan.

O'zbek kinematograflari xorijda tashkil etilgan kinofestivallarda ham faol ishtirok etishgan. Jumladan, 1973 yilning noyabr oyida KXDRda sovet kinofilmlari festivali bo'lib o'tdi. Kinematografiyada kinoijodkorlar hamkorligi bu yillarda o'zining samarasini bera boshladi. Masalan, o'zbek kinorejissyori N.G'aniev, K.Yormatov, L.Fayziev, Z.Sobitov Hindiston kino arboblari orasida mashhur bo'lib, Robindranad Tagorning "Emirilish" asari asosida "Gang qizi" deb atalgan film o'zbek rejissyori Hoji Ahmar tomonidan suratga olindi. Rejissyor M.Og'amirzaev va E.Karimov tomonidan R.Tagorning "Yorug'lik va zulmat" asari asosida ikkinchi film ishlandi.

70-yillarda O'zbekiston madaniy aloqalaridagi rivojlanish "O'zbekfilm" kinostudiyasi ishlab chiqargan bir nechta kinofilmlarning Lotin Amerikasi, Arab Sharqi, Birma, Indoneziya, Hindiston, Yaponiya, Iroq, Eron kabi jahonning 40 dan ortiq mamlakatlarida namoyish qilinishiga sabab bo'ldi.

1976 yilda O'zbekiston kinematograflari Toshkent IV xalqaro kinofestivalida "Olov-li sohil" badiiy filmi va "O'zbekiston-75", "Go'ri Amir", "Osmonni kaftingda tut", "Toshkent jasorati", "Insonlarga quvonch bag'ishla" hujjat-li filmlarini taqdim etishgan. Ushbu festivalda o'zining reallik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Yaponiya kinosi alohida e'tibor qozondi. Arxiv materiallaridan ma'lum bo'ldiki, festivalning mazmuniy mun-dariyasi insonparvarlik g'oyalarini amalga oshirishda, tinchlik va ozodlik, sotsial taraqqiyot kuchlarining reaksiya g'oyalar va kuchlar ustidan uzil-kesil g'alabasida kinoning ustuvor rolini ko'rsatib berishdan iborat bo'lgan.

1978 yilning 23 may – 1 iyun kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan navbatdagi V xalqaro kinofestivalda 64 ta davlatdan 400 nafardan ortiq kinomatograflar ishtirok etdi. Bu kinofestival ham uch qit'a kino san'ati namoyandalarining do'stligi va birodarligi tobora mustahkamlab, ijodiy hamkorligi va hamjihatligi yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi kino san'atining ulkan, sermazmun bayramiga aylangan.

1980 yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan VI xalqaro kinofestivalda O'zbekistonning Turkiya kinosan'ati bilan madaniy aloqalari sezilarli ravishda o'sdi. Bunda xalqaro kino bozoridagi 71 ta kinoijara firmalaridan 5 tasi Turkiya hissasiga to'g'ri keldi. Festival davomida xorijiy davlatlar bilan 40 dan ortiq shartnoma tuzildi va 100 ga yaqin Sovet film-lari sotildi. Bular orasida "O'zbekfilm" kinostudiyasining "Muhabbat va nafrat" filmi ham bor edi.

Toshkentda 1982 yil 24 may – 3 iyun kunlari o'tkazilgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari VII xalqaro kinofestivali unda qatnashgan mamlakatlar kino san'ati tarixida katta voqea bo'ldi. Bu an'anaviy festivalda ishtirok etayotgan mamlakatlar soni yildan-yilga ortib borgan. "Tinchlik, sotsial taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun!" degan g'oya ostida o'tkazilgani bu festivalning obro'-e'tibori,

nufuzi va ahamiyati va mohiyatini ko'rsatuvchi aniq faktdir. Ezgulik yo'lida xizmat qilayotgan, uning tantanalari uchun kurashayotgan ilg'or fikrli kishilarning, xususan, kinematograflarning eng dolzarb, original, kelgusida o'zining betakror samaralarini beradigan izlanishlari to'g'risidagi fikr-mulohazalar Toshkentda muhokama qilindi. Jahonning turli burchaklaridan Toshkentga kelayotgan san'atkorlarning maqsadi kino san'atini tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun kurash ishiga yanada faolroq jalb qilishdan iborat bo'lgan.

Ta'kidlash lozimki, har bir xalqaro kinofestival mohiyatan sovet hukumati talablaridan chetga chiqmagan holda o'tkazilgan. Xorijiy mamlakatlar kinematograflari ayni vaqtda tinchlikka tahdid solayotgan, ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'layotgan, xalqlar qaramligini fosh qilishga ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatdi.

Toshkentda o'tkazilgan Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqaro kinofestivalida taniqli kinorejissor K.Yormatov aytganidek, mazkur festival ijodiy aloqalarni yanada mustahkamlash, turli mamlakatlar kinematograflari o'rtasida professional tajriba almashish, ular o'rtasidagi hamkorlikni ravnaq toptirish, gumanizm g'oyalarini barqaror etishga ko'maklashdi.

Umuman, Toshkent kinofestivali turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirishda, tinchlik va ozodlik uchun kurash g'oyasini tarannum etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Hindistonlik kinorejissor Mrinal SEN ta'kidlaganidek: "Biz O'zbekistonda o'zimizni xuddi o'z uyimizdagidek his etamiz. Bu yerda hamma teng, hammaga bab-baravar imtiyozlar beriladi, muloqot va aloqalar yengil va oson yo'lga qo'yiladi".

O'zbek kinofilmlari "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" g'oyalarga bo'ysundirilganiga qaramay, bu davrda kino san'atining eng noyob iqtidorlari kashf etildi; siyosiy va mafkuraviy cheklovlarga qaramay, Osiyo mintaqasi xalqlariga o'zbek kinematografiyasining o'ziga xos xususiyatlari namoyish etildi. Mazkur davr ziddiyatli, chigal va muammoli bo'lishiga qaramay O'zbekiston kinematografiyasi sinovli davrni bosib o'tdi va nisbatan tajribaga ham ega bo'ldi. O'zbek san'atkorlarining fidoiyligi tufayli hind, vetnam, shri-lanka, birmalik kinoijodkorlar bilan hamkorlikda san'at namunalari yaratildi. Bunday aloqalar millatlararo do'stlik, qardoshlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashda muhim rol uynaganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dyakonov S. Soviet cultural diplomacy in India, 1955-1963. Unpublished Master of Arts (History) thesis at Concordia University Montreal, Quebec, Canada. April 2015.
2. Тинчлик ва дўстлик фестивали // Ўзбекистон маданияти. 1961, 29 август.
3. Комил Ёрматов в кино // Комсомольская правда. 1961, 25 декабря.
4. Исломов Н. Совет фильмлари Осиё экранларида // Ўзбекистон маданияти. 1968, 23 август.
5. Ражабов Қ., Қандов Б. Жаҳон тарихидаги сулола ва давлатлар. 30. 3-китоб.
6. Қаюмов А.П. Тошкент халқаро анжумани // Ўзбекистон маданияти. 1968, 14 ноябрь.
7. ЎзМДА Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 826-йиғмажилд, 16-варақ.
8. ХКФ котибияти маълумотномаси. 1968 йил 10 июль // ЎзМДА Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 822-йиғмажилд, 7-варақ.
9. Шукурова Ҳ. Порлоқ саҳифалар // Ўзбекистон маданияти. 1973, 31 август.
10. ЎзМДА, Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 1687-йиғмажилд, 1-варақ.
11. Никитина А. Киноходимлар ҳамкорлиги // Ўзбекистон маданияти. 1973, 12 ноябрь.
13. Хўжаев С. Давр талаби // Тошкент ҳақиқати. 1976, 28 май.
14. Факт ва рақамлар // Ўзбекистон маданияти. 1980, 20 май.
15. Тошкент ҳақиқати. 1984 йил 23 май.

QADIMGI XORAZM VOHASIDA BRONZA DAVRI IJTIMOIIY MUNOSABATLAR TARIXI

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich
Urganch davlat universiteti, Tarix kafedrasida dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Maqolada Xorazm vohasining bronza davri tarixida ijtimoiy masalalar va munosabatlar tarixi tahlil ostiga olinib, Tozabog' yob va Amirobod madaniyatlariga tegishli manzilgohlar misolida arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bronza davri, urug'doshlik tuzumi, ijtimoiy munosabatlar, urug'chilik jamoalari, matriarxat an'analari, Tozabog' yob va Amirobod madaniyatlari.

ИСТОРИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ БРОНЗОВОГО ВЕКА В ДРЕВНЕМ ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ

Матякубов Хамдам Хамиджанович
Ургенчский государственный университет, доцент кафедры истории,
кандидат исторических наук (PhD)

Аннотация. В статье на основе результатов археологических исследований на примере поселений, принадлежащих тозабогевской и амирабадской культурам Хорезмского оазиса, анализируется история социальных проблем и взаимоотношений в истории эпохи бронзы.

Ключевые слова: бронзовый век, родовая система, общественные отношения, родовые общины, матриархальные традиции, тозабогевская и амирабадская культуры.

THE HISTORY OF BRONZE AGE SOCIAL RELATIONS IN THE ANCIENT KHOREZM OASIS

Matyakubov Khamdam Khamidjanovich
Urgench State University, Associate Professor, Department of History, Candidate
of Historical Sciences

Annotation. The article analyzes the history of social problems and relationships in the history of the Bronze Age based on the results of archaeological research using the example of settlements belonging to the Tozabogeb and Amirabad cultures of the Khorezm oasis.

Keywords: bronze age, clan system, social relations, clan communities, matriarchal traditions, Tozabogeb and Amirabad cultures.

Kirish. Nazariy-uslubiy jihatdan urug'doshlik tuzumi tarixini o'rganishga Morgan – Engels nazariyasi qo'llanildi. Bu umumiy tarzda, Markaziy Osiyo ibtidoiy tarixiga oid urug'doshlik jamiyati mavzusiga bag'ishlangan boblarida o'z aksini topib, matriarxat davri jamoalarida ayollarning mavqei erkaklarnikiga nisbatan baland bo'lganligi uqtirilgan. Bunda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy o'rnini ochib beruvchi dalillar sifatida, bolalarni tarbiyalashdan tashqari, ularning termachilik mashg'uloti, o'tin yig'ib g'amlash va turarjoydagi uchoqda o'tni davom ettirish, ovqat tayyorlash, hayvon terilarini tozalash va boshqa ishlari qayd etilgan [22, c. 16-18.; 11, c. 233-235.; 4].

Tahlil va natijalar. Arxeologik adabiyotlarda, birinchi galda manzilgohlar va turarjoylar,

toshdan va suyakdan ishlangan mehnat qurollari, sopol idishlar va boshqa topilmalarni o'rganishga katta ahamiyat berilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va tashqi aloqalar mavzusi arxeologiya masalalarining bayonidan so'ng, maqolalar va monografiyalar mazmunida joy olar edi. Bunday yondashuvni Markaziy Osiyo arxeologiyasiga mansub hammulliflikda tayyorlangan umumlashma ishlarida ham ko'rish mumkin [15].

Ushbu holat bronza davrida ham saqlanib qoladi va moddiy madaniyatda o'z ifodasini topadi. Xorazm vohasida urug'doshlik tuzumi tarixini o'rganishga katta hissa qo'shgan M.A.Itinaning bir qator ilmiy ishlarida arxeologiya masalalarini yechish bilan birga ayrim muhim nazariy muammolar ham tahlil qilingan. Jumladan, uning "Istoriya stepnykh plemen Yujnogo Priaralya" nomli monografiyasida, Xorazm vohasi bronza davrida Yevroosiyoning dasht hududlarida shakllangan "dasht madaniyati" doirasida rivojlanganligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, dasht qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni o'rganishda arxeologiya va etnografiya ma'lumotlarning o'rni hamda qadimgi ijtimoiy uyushma shakllarni tadqiq etishda, 1960 yillarda G'arbda paydo bo'lgan "manzilgohlar arxeologiyasi" yo'nalishining uslubiy ko'rsatmalaridan foydalanish jihatlari ochib berilgan [8, c. 5-11].

Xorazm vohasida bronza davriga oid Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlariga tegishli manzilgohlar Amudaryo qadimiy Oqchadaryo o'zanining janubiy qismi atroflarida aniqlangan. Tadqiqotlar natijalari S.P.Tolstov va M.A.Itinaning ishlarida yoritilib, bronza davri madaniyatining vohada kelib chiqishi, manzilgohlar va turarjoylar, arxeologik topilmalar – sopol idishlar, mehnat qurollari, metall buyumlari va ularning xronologiyasi ko'rib chiqilgan [17, c. 174-175.; 189, c. 62-74] hamda M.A.Itina tomonidan Tozabog'yob madaniyati mil. avv. XVI-XI asrlar va Amirobod madaniyati mil. avv. XI-VIII asrlar bilan belgilangan [9, c. 85].

Shuningdek, M.A.Itinaning yozishicha, Markaziy Osiyo janubidagi tarixiy-madaniy viloyatlariga nisbatan Orolbo'yi bronza davri aholisining xo'jalik sohasi va moddiy madaniyatining rivojlanish darajasi taxminan bir ming yil orqada qolgan bo'lsada, ammo Tozabog'yob madaniyatining urug' jamoalari xo'jaligida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik yetakchilik qilgan [8, c. 176-182]. Buni asoslab berish uchun S.P.Tolstov va B.V.Andrianovning ishlari tilga olindi [8, c. 176-182]. Lekin S.P.Tolstov Tozabog'yob makonlari atroflarida sug'orish inshootlari izlarining aniqlanmaganligini ko'rsatib, tuproqda dehqonchilik ekinlarining o'sishi uchun nam yetarli bo'lgan joylardan foydalanilganligi haqida xulosaga kelgan [20, c. 85], ya'ni "qair" yoki "liman" degan ziroatkorlik usuli qo'llanilgan.

Xorazmda sug'orilish va dehqonchilik madaniyati tarixiga oid Ya.G'.G'ulomovning katta fundamental asarida ham vohadagi ilk dehqonchilik liman usuliga asoslanganligi qayd etildi [25]. Aksincha, B.V.Andrianov Oqchadaryo havzasida ko'p tarmoqli irrigatsiya tizimi, kanal va ariqlarning mavjudligi to'g'risida yozgan [2, c. 106-109].

Tozabog'yob madaniyatiga mansub, qo'lda ishlangan sopol idishlar va ularning sirti geometrik naqshlar va turlicha chiziqlar bilan bezatilishiga ko'ra, bu kulolchilik buyumlar, Janubiy Ural, Qozog'iston va Sibir dashtlarida bronza davrida yoyilgan Andronovo madaniyati sopol idishlarga o'xshab ketadi. Boshqa arxeologiya materiallarida shunday tashqi o'xshashliklar bronzadan ishlangan buyumlarda va bezaklarda ko'rinadi. Shu tariqa, Janubiy Ural va G'arbiy Qozog'iston hududlaridan Xorazm vohasiga Andronovo madaniyati qibilalarining ko'chib kelishi va mahalliy aholisi bilan qorishib ketishi tufayli. Tozabog'yob madaniyatining paydo bo'lishi to'g'risida masala ruyobga chiqarilgan.

Shu qatorida, tozabog'yobliklarning xo'jalik hayotida chorvachilikka nisbatan irrigatsiya sug'orilishiga asoslangan ziroatkorlikning yetakchiligi qayd etildi [7, c. 75-86, 173-176].

V.M.Massonning maqolasida tozabog'yobliklar turmush tarzida dasht madaniyatlari an'analarning namoyon bo'lganligi qatorida, ular hayotida sug'orma dehqonchilikning ahamiyati haqida ham so'z yuritilgan [12, c. 88].

Asqarovning yozishicha, Tozabog'yob va Amirabod madaniyati rivoj topgan so'nggi bronza davri Xorazm vohasida murakkab irrigatsiya tizimi, sug'orish kanallar bunyod etilmagan, ular vohada mil. avv.VI asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Shuningdek, bronza davrida mahalliy aholi vakillari yarim yerto'lalarda istiqomat qilishi va vohada shaharsozlik madaniyatining izlari aniqlanmaganligi holatlari tilga olingan. C. Baratovning ishida ham shunga o'xshash qarashlar joy olib, Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlari xo'jaligini chorvachilik tashkil etganligi uqtirilgan [2, c. 24-25].

V.N.Yagodinning aytishicha, bronza davri Quyi Amudaryo havzasida o'ziga xos hususiyatlardan iborat sug'orilish tizimining asoslari shakllanadi, biroq bu yerda paxsa va hom g'ishtdan turarjoylar qurilmagan va urbanizatsiya jarayonlari boshlanmagan [10, c. 56-57].

Shuni ta'kidlash kerakki, avvaldan C.P.Tolstov Xorazmda dehqonchilik tarixi "ibtidoiy shakl"dan, ekinlarning o'sishi uchun nam tuproqdan foydalanilgan holda boshlanganligini to'g'ri yoritgan. Ammo keyingi yillarda bu boradagi fikrlar o'zgarib, Oqchadaryo vohasida mil. avv. IX-VIII asrlarda magistral kanallarning vujudga kelishi [16, c. 5-7] va ibtidoiy tuzumning ichida quldorlik munosabatlarining shakllana boshlanishi aytib o'tilgan [19, c. 75].

Bizningcha, C.P.Tolstov, B.V.Andrianov va M.A.Itinalar Xorazm vohasidagi bronza davri magistral kanallarga tegishli o'lchov ko'rsatkichlarini (kanallar uzunligi bir necha kilometr, o'zanlarining eni 10-13 metrni tashkil etganligini) va sun'iy sug'oriladigan yerlardan qishloq xo'jaligi uchun foydalanish darajasini oshirib yuborishgan. Eng asosiysi, vohada parvarish qilingan ekinlar turlari aniqlanmagan hamda, arpa, bug'doy va tariq kabi don qoldiqlari topilmagan [13, c. 196].

XX asrning 30-yillaridan ijtimoiy masalalarini talqin qilishda an'anaviy qarashlar ustunlik qilgan. Ularga ko'ra, bronza davrida dasht chorvadorlar jamiyatida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ayniqsa, haydov - yaylov tizimi, yaylovlarning mavsumlar bo'yicha taqsimlanishi va mavsumiy ko'chishlarning vujudga kelishi natijasida, chorvadorlarning ijtimoiy tuzumida o'zgarishlar yuzaga kelgan. Ular ichida chorva podalarining alohida patriarxal oilalarining xususiy mulkiga aylanishi va urug'chilik jamoalarida mulkiy tengizlikning paydo bo'lishi haqida fikr ilgari surilib, Orolbo'yi hududlarida urug' qabila tizimi, ya'ni qabilalar guruhlarining vujudga kelishi qayd etildi [24, c. 228-229].

Shuningdek, M.A.Itina ijtimoiy va oilaviy uyushma shakllarini aniqlashda Xorazm vohasida qadimiy dehqonchilik sohasidagi ayollar mehnatining muhurligi sababli, matriarxat an'analarning saqlanib qolganligini hisobga olish lozim deb yozgan [8, c. 227-228]. Ammo ayollarning ijtimoiy o'rni chorvadorlar jamiyatida ham baland bo'lganligi, misol tariqasida, sak-massagetlar tarixiga oid yozma manbalarda ma'lum.

Xorazm vohasida urug'doshlik tuzumi tarixi misolida matriarxatdan ota urug'i - patriarxatga o'tish masalasi yetarlicha ko'rib chiqilmagan. Arxeologiya ma'lumotlari asosida ko'proq urug'chilik jamoalarning xo'jalik sohalari, turmush tarzi va moddiy madaniyati o'rganilgan.

Maxsus adabiyotlarda matriarxat tuzumidan patriarxatga o'tish sabablarini yoritishda

umumiy qabul qilingan quyidagi omillar keltirilgan:

chorvachilik xo‘jaligi sohasining yoyilishi;

yerni haydab dehqonchilik qilish hamda uning sun‘iy sug‘orish –irrigatsiya shaklini rivojlanishi;

metallga ishlov berish va mis, bronzadan yasalgan mehnat qurollaridan foydalanish;

jamiyatda erkaklar mehnati ahamiyatining oshib borishi;

xotinning erini turarjoyiga o‘tishi [23, c. 96-97].

XXI asr boshlarida chop etilgan ishlarda urug‘chilik jamiyatning ayrim jihatlari ochib berilgan. Adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik sohasining rivojlanishi, shu jumladan, dashtlarda chorvachilikning yoyilishi bilan birga, juft kichik oilalardan iborat alohida katta oilalarning ajralib chiqishi oqibatida, ona urug‘i – matriarxat davriga xos mehnat jarayonida oziq-ovqat mahsulotlarini qo‘lga kiritish va iste‘mol qilishdagi jamoatchilik tamoyillari o‘z ahamiyatini yo‘qotadi, chunki bu odat xususiy mulkchilik va ishlab chiqarish kuchlarining o‘shishiga to‘siq bo‘lib, ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy topayotgan ishlab chiqarish kuchlariga mos kelmagan. Katta patriarxal oila o‘z turarjoylariga, mulkiga, ishlab chiqarish qurorlariga, qishloq xo‘jalik mahsulotlariga va chorvalariga egalik qilib, jamoani iqtisodiy jihatdan ta‘minlay oladigan mustaqil xo‘jalikni o‘zida aks ettirgan [14, b. 25].

Shu boisdan katta oilali ijtimoiy shakli, jamoaning iqtisodiy mustahkamlanishiga yo‘l ochib, aholining hududda aralash joylashishiga hamda yangi hududiy tashkilot-hududiy qo‘shnichilik jamoasining vujudga kelishiga imkon beradi [1, b. 89].

Xulosa. Fikrimizcha, so‘nggi bronza davri Xorazm vohasida, Tozabog‘yob va Amirobod madaniyatlari urug‘chilik jamoalarining tuzumiga xos iqtisodiy va ijtimoiy belgilarni arxeologiya va etnografik ma‘lumotlariga asoslanib qayta tiklash o‘ta murakkab bo‘lsada, biroq shunday uslubiy yondashuv vohadagi ijtimoiy uyushmasining tarixiy rekonstruksiyasiga ko‘maklashadi hamda mazkur usuldan foydalanish va uni yangi asoslarda rivojlantirish imkoniyatlari cheklanmagan [13, c. 120-124].

Xorazm vohasida urug‘chilik tuzumi tarixini o‘rganish yo‘nalishi bo‘yicha bilimlar bosqichma-bosqich to‘planib borgan. XX asr 30-yillarining oxirlari – 80- yillardagi vohada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tufayli tosh va bronza davriga oid ilmiy ma‘lumotlar qo‘lga kiritilib, alohida maqolalarda, monografiyalar va ilmiy to‘plamlarda yoritildi hamda eng qadimgi davr Xorazm tarixining ayrim muhim masalalarini talqin qilishda manba bo‘lib xizmat qildi. Shu o‘rinda xulosaning davomida aytib o‘tish kerakki, ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarda urug‘doshlik tuzumi tarixini ochib berish borasidagi yutuqlar bilan birga, ayrim kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Natijada, ba‘zi - bir masalalar o‘z yechimini topmadi va munozarali bo‘lib qolgan.

XX asrning 90-yillarida tosh davrining turli bosqichlariga mansub arxeologik yodgorliklar kashf etilib, Janubiy Orolbo‘yi va Ustyurt sarhatlariga ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini ko‘rib chiqish uchun ilmiy ma‘lumotlar kengayib bordi. Shu tariqa XXI asrning boshlaridan, yozma manbalarda yoritilmagan davrlarga tegishli arxeologik ma‘lumotlardan tarixiy manba sifatida foydalanish va ularni tarixiy nuqtai nazardan taxlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Тошкент: “Akademiya”, 2009. – Б. 89.

2. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы. – М.: “Наука”, 1969. – С 106-109.
3. Баратов С. Некоторые проблемы исследования древних культур Хорезма // O‘zbekiston tarixi. 2007. 4-сон. – С. 24-25.
4. Грязнов М.П., Окладников А.П. Первобытнообщинный строй // История Киргизии. Т. I. – Фрунзе, 1963.
5. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Тошкент: “Фан”, 1966. – С. 28.
6. Исламов У. Открытие неолитической культуры на Махан-Дарье // ОНУз. – Тошкент, 1961. № 1. – С. 61-68.
7. Итина М.А. Древнехорезмийские земледельцы // История, археология и этнография Средней Азии. – М.: “Наука”, 1968. – С. 75-86.
8. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. – М., 1977. Т.Х. – С. 5-11.
9. Итина М.А. К истории изучения бронзового века Южного Приаралья // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ, 1998. – С.85.
10. Массон В.М. Первобытнообщинный строй на территории Туркмении // Тр. ЮТАКЭ. – Ашхабад, 1956. Т.7. – С. 233-235;
11. Массон В.М. Цивилизации древнего Хорезма (этапы и пути самоидентификации) // ИМКУ. – Самарканд, 1999. Вып.30. – С. 88.
12. Матякубов Х.Х. К вопросу об общественном строе Южного Приаралья в эпоху поздней бронзы и раннего железа // Научная мысль. – М., 2014. № 4. – С. 120-124.
13. Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: “Akademiya”, 2006. – Б. 25.
14. Средняя Азия в эпоху камня и бронзы // Ответ.ред. В.М.Массон. – М. – Л.: “Наука”, 1966. – 288 с.
15. Толтов С.П., Андрианов Б.В. Новые материалы по истории развития ирригации Хорезма // КСИЭ. – М., 1957. Вып. XXVI. – С. 5-7.
16. Толстов С.П. Древнехорезмийские памятники в Каракалпакии // ВДИ. – М., 1939. № 3. – С. 174-175.
17. Тостов С.П. О месте тазабагыябской культуры среди культур степной бронзы // СЭ. – М., 1967. № 2. – С. 62-74.
18. Тостов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962. – С.47-60.
19. Воронец М.Э. Родовое общество // История Узбекской ССР. Т.1.Кн. первая. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1955. – С.16-18;
20. Хазанов А.М. Разложение первобытнообщинного строя и возникновение классового общества // Первобытное общество. – М.: “Наука”, 1975. – С. 96-97.
21. Заднепровский Ю.А. Памятники андроновской культуры // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: “Наука”, 1966. – С. 228-229.
22. Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: “Фан”, 1959. – 324 б.

TOSHKENT TOSHBOSMAXONALARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI XUSUSIDA

*Mirzoraximov Abbosjon Shodmonovich
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rektori*

Annotatsiya: Maqolada Toshkentda toshbosmaning paydo bo'lishi, shakllanish bosqichlari va rivojlanish xususiyatlari, toshbosma kitoblarning vujudga kelishi tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: toshbosma, qo'lyozma, "latta qog'oz", xattotlik, shirach, qog'ozrez

О ВОЗНИКНОВЕНИИ И РАЗВИТИИ ЛИТОГРАФСКИХ ТИПОГРАФИЙ ТАШКЕНТА

*Мирзорахимов Аббосжон Шодмонович
ректор Национального института изобразительного искусства и дизайна
имени Камолиддина Бехзода*

Аннотация: В статье приводятся сведения о появлении литографии в Ташкенте, этапах её становления и особенностях развития, а также об истории возникновения литографских книг.

Ключевые слова: литография, рукопись, «тряпичная бумага», каллиграфия, ширач, когозрез

ON THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF LITHOGRAPHIC PRINT HOUSES IN TASHKENT

*Mirzorakhimov Abbosjon Shodmonovich
Rector of the Kamoliddin Behzod National Institute of Fine Arts and Design*

Annotation: This article provides information about the appearance of lithographic printing in Tashkent, the stages of its formation, and its development characteristics, as well as the history of the emergence of lithographically printed books.

Keywords: lithography, manuscript, "rag paper," calligraphy, shirach, qog'ozrez

XIX asrning oxirlariga kelib toshbosma usulda kitob bosish O'rta Osiyoning yirik madaniyat markazlari hisoblangan bir qator shaharlarga kirib kelgan. Shubhasiz bu shaharlar orasida Toshkent shahri alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Toshkentda bir qator toshbosmaxonalar ishga tushdiki, ularda bosilgan asarlar bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Nima uchun o'sha vaqtda eng ilg'or va Turkiston sharoiti uchun ma'qul bo'lgan bu usul Toshkentdek yirik madaniy markazga ancha kech kirib kelganligi haqida akademik V.V. Bartold quyidagi fikrlarni bildiradi. Ruslarning kitob bosish usuli, musulmon dini ahlining qarshiligiga duch kelib, uzoq yillar davomida joriy qilinmay yurdi; "musulmonlar, - deb yozgan edi u, - ovro'paliklar qurol-aslahalarini so'zsiz joriy qilgan bo'lsalarda, kofirlarning boshqa ixtirosi kitob bosishni tadbqiq etish uchun din ahlilarining alohida bir farmoyishi zarur bo'lib qoldi. Negaki bosma kitoblardan foydalanish din bilan uzviy bog'liq bo'lgan maktab hayotini tamomila o'zgartirib yuborishi mumkin edi". Ammo o'lka hayotida kitob bosish usulining xiyla kech tarqala boshlaganligining asosiy sababi musulmon dini ulamolarining qarshiligi

deb ta'kidlash to'g'ri emas, asosiy sababi kitob bosishning bu usulini, mohiyatini yaxshi tushunmaslik va o'sha davrda ma'lum ma'noda vujudga kelgan biqiq holda rivojlanish, boshqa davlatlar bilan bu boradagi munosabatlarning kamligida bo'lgan. Shuningdek, qo'lyozma kitoblarning butun bir maktabi mavjud bo'lib, bu aholining ma'lum ma'noda talabini qondirib turgan. Keyinchalik toshbosma usuli din vakillarining alohida bir farmoyishsiz joriy qilinganligi, dinning rivojiga ijobiy ta'sir qilganligini ko'rish mumkin.

Toshkentda vujudga kelgan dastlabki toshbosma usulidagi shaxsiy bosmaxona S.I. Laxtin bosmaxonasi edi. 1889 yilda S.I. Laxtin bosmaxonasi ish jarayoni bilan tanishgan Z.X Furqat o'z fikrlarini "Turkiston viloyatining gazetisi" da bayon qilgan. Mazkur toshbosma xususida olib borilgan tadqiqotlar, bosmaxonaning tashkil topgan sanasini aniq belgilab bera olmagan, jumladan, Y. Abdullaev va R. Mahmudova bu bosmaxona 1877 yil, M. Rustamov 1876 yil ishga tushgan deb ta'kidlashgan.

Bu borada M. Rustamov boshqa tadqiqotchilarga qaraganda kengroq ma'lumot berib quyidagilarni ta'kidlaydi: S.I. Laxtin toshbosmaxonasi Toshkent pivo zavodi shirkati hovlisida ochilgan bo'lib, Viktor Fedorovich Pastuxovga tegishli bo'lgan. Dastlab bitta bosma mashina va bitta mixbosma dastgohidan iborat bo'lgan bu bosmaxonaga bir yildan so'ng toshbosma dastgoh o'rnatilib, tosh va mix bosmaxona deb atala boshlangan. Keyinchalik V.F. Pastuxov o'z korxonasini savdogar S.I. Laxtin uyiga ko'chiradi va u bilan birgalikda "Laxtin va Pastuxov" firmasini ochgan. 1879 yilda bu bosmaxona Rahmatulloboyning Mahram va Konstantinovsk ko'chalari burchagidagi hovlisiga ko'chirilib, 1880 yildan batomom S.I. Laxtin ixtiyoriga o'tgan. M. Rustamov matbaa haqida kengroq ma'lumot bergan bo'lsada ma'lumotlarning asosiy manbasi haqida to'xtalmagan. Matbaa haqidagi asosiy manba sifatida Furqatning maqolasi va matbaada nashr etilgan kitoblar tushuncha bera oladi xolos. M. Rustamovning ma'lumotlari bosmaxona 1877 yilda emas balki 1876 yildan V.F. Pastuxov tomonidan ochilgan degan xulosani keltirib chiqaradi, ammo bu fikrlar manbalari no'aniqligi bois bosmaxonaning ishga tushgan sanasini 1883 yil deb belgilash to'g'riroq bo'lar edi. Mazkur matbaada ilk bora nashr etilgan So'fi Olloyorning "Kitobi sabot ul-ojizini" asari bir tomondan, matbaa tarixini belgilashda asos bo'lsa, boshqa tomondan Toshkentdagi birinchi toshbosma asar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur kitob Toshkentlik xattot Sayidxo'ja tomonidan ko'chirilib, Nurmuhammad Esonboev noshirligida nashr etilgan bo'lib titul varaqasida kitobning sarlavhasi, nomeri, toshbosmaxona nomi, kitob bosish uchun ruscha ruxsatnoma va kitob bosilib chiqqan sana ko'rsatilgan – 1883 yil 30 noyabr. Bu matbaada o'zbek, arab va fors tillarida kitoblar nashr qilingan. Mazkur matbaada asarlar 10 nomda 11 nashri kutubxona fondlarida mavjud. Bu asarlarning nashr etilgan yili bo'yicha ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lib matbaa faoliyati xususida fikr yuritish imkonini beradi.

1887 yilda matbaada rus tuzem maktablari uchun darslik sifatida L.N. Tolstoyning "Odamlar nima bilan tirik" asarini Turkiston viloyati gazetisi noshirligida, 1888 yilda Alisher Navoiyning "Badoyi ul-vasat" asarini Raximxo'ja Eshon noshirligida, 1889 yilda "Misr mamlakatining muhtasar tavorixi" ni Turkiston viloyati gazetisi noshirligida, "Rozenbaxning Turkiston general-gubernatorligi Farg'ona muzoffotiga qilgan safari bayoni" nomli kitobini Farg'ona viloyati harbiy gubernatori noshirligida nashr etilgan.

1890-1892 yillarda matbaada nashr etilgan kitoblar nashri va ular haqida ma'lumotlar adabiyotlarda uchramaydi.

1893 yilda Alisher Navoiyning "Chihil hadis" asari, tarjima asarlardan "Ko'lumbning

turmushi” Turkiston viloyati gazetisi N.P. Ostroumov noshirligida, A. Bedilning “Devon”i, shuningdek, “Sharhi Fiqihi Kaydoniy” nashr etilgan.

1894-1898 yillarda matbaada nashr etilgan kitoblar mavjud emas. 1899 yilda “Sabot ul-ojizin” asari va nashr etilgan sanasi noma’lum kitoblardan “Al kifoyat al-Kofiya” chop etilgan.

S.I. Laxtin toshbosmasida kitoblar 1883 yildan 1899 yilgacha nashr etilgan, keyingi yillarda kitoblar nashr etilmagan. Bu holatni kitoblarning yo‘qolishi yoki ularning nusxasi kamligi bilan izohlash to‘g‘ri xulosa chiqarishga asos bo‘la olmagan holda, matbaaning 1899 yildan so‘ng ishlamaganligidan dalolat beradi.

1888 yilda Toshkentda O.A. Porsevning bug‘ kuchi bilan ishlaydigan mashinalar o‘rnatilgan mix-tosh bosmaxonasi hamda muqovaxonasi ishga tushirilgan. O.A. Porsevning bosmaxonasi nafaqat Toshkentda balki O‘rta Osiyodagi eng yirik bosmaxonalardan biri hisoblangan. Bu bosmaxona haqida “Turkiston viloyatining gazetisi”da ma’lumot beriladi. Bosmaxona aholining kitob va bosma materiallariga bo‘lgan talabini qondirish, kitoblarni butun o‘lkaga keng tarqatish, mahalliy aholi vakillaridan kadrlar yetkazib chiqarishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bosmaxonadan chiqqan kitoblar sifatli bo‘lib qog‘ozi va muqovalariga alohida e‘tibor berilgan.

M. Rustamovning ma’lumotlariga qaraganda, O.A. Porsev o‘sha vaqtlarda tajribali va ta’siri katta savdogarlardan hisoblanib, bir vaqtlari savdogarlar oqsoqoli ham bo‘lgan. Ammo u o‘zining korxonasiga ko‘p e‘tibor bermas, asosan yozuv-chizuv mahsulotlarini sotish ishlari bilan qiziqar edi. Bosmaxonaning butun ma’suliyati P.M. Fedosev zimmasiga yuklatilgan.

Bosmaxona o‘sha davrdagi eng mukammal texnika bilan jihozlangan bo‘lib, har qanday buyurtmani bajara olgan.

Mavjud ma’lumotlar O.A. Porsev toshbosmaxonasi 1888 yilda tashkil etilganligini ko‘rsatsada, unda bosilgan kitoblarning faqatgina 1895 yilgi nashri O‘zR FA ShI fondida saqlanmoqda. Undan oldin chiqqan kitoblar haqida ma’lumotlar yo‘q. 1895 yilda nashr etilgan Mashrabning “Mabdai nur” asari O.A. Porsev toshbosmaxonasidan chiqqan mahalliy tildagi ilk kitob hisoblanadi. Bu asar 1898 yilda “Shoh Mashrab”, 1900 yilda “Devoni Mashrab” nomi bilan nashr etilgan. 1898 va 1905 yillarda esa, Umarxonning devoni nashr etilgan. Tarjima asarlaridan 1905 yili “Bahori donish”, Lev Tolstoyning “Odamlar nima bilan tirik” kitoblari chop etilgan. O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”i ko‘pgina matbaalarda bir necha bor nashr etilgan. O.A. Porsev matbaasida ham bu asar 1902-1903 yillarda chop etilgan. Rabg‘uziyning “Qissas ul-anbiyo”si esa bu yerda 1903-1904 va 1905-1906 yillarda ikki marta nashr etilgan.

Mazkur matbaada 1904-1905 yillari “Favzulnajat”, “Hazor savoli malikai donishmand”, Navoiyning “Xamsa”si, 1911 yili esa “Devoni” chop etilgan. Bu yerda Xilvatiyning “Maktab charog‘i” kitobi, 1907 yili “Kitobi Zarqum”, 1914-1915 yillari “Huvaydoi Chimyoniy”, “Sabot ul-ojizin”, 1906 yili “To‘tinoma”, 1910 yili “Kitobi Sanubar”, “Chor darvesh”, “Shohnoma” va “Qissai mushu gurba” va boshqa asarlar chop etilgan.

Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari 1910 va 1913 yillarda Toshkentda “Zarbulmasali Mullo Gulxaniy”, degan nom bilan nashr etilgan.

Bu toshbosmada 1910 yilda “Devoni Muqimiy ma’-hajviyot”, “Hurliqo”, 1911 yila “Bayozi Xaziniy”, 1914-1915 yillarda “Savg‘oti Xislat”, “Tohir va Zuhra”, “Gulu

Bulbul”, Vasliyning “Qabul etimli”, Avloniyning “Adabiyot” xullas, jami 68 nashrdan iborat asarlar chop etilgan.

Toshkent shahrida ishga tushgan yirik matbaalardan biri V.M. Ilin toshbosmaxonasidir. Bu matbaada fanning turli sohalariga oid kitoblar nashr etilib keng aholining kitobga bo‘lgan ehtiyojini qoplashga katta hissa qo‘shgandir. V.M. Ilin matbaasining tashkil topishi haqida ham turli fikrlar mavjud, ba’zi manbalarda matbaa 1893 yilda tashkil topgan deyilsa, boshqalarida 1899 yilda tashkil topgan deb ma’lumot beriladi. Garchi “Turkiston viloyati gazetisi”da matbaa 1893 yilda ishga tushganligi yozilgan bo‘lsada kutubxona fondlarida 1893-1895 yilda nashr etilgan kitob mavjud emas. O‘zR FA SHI fondida V.M. Ilin matbaasiga tegishli 1896 yilda nashr etilgan kitob mavjud. Shundan kelib chiqib, matbaa tashkil topgan sanani 1896 yil deb belgilash mumkin, Turkiston viloyati gazetidagi ma’lumotlar matbaa uchun ruxsatnoma olinganligi xususida e’lon qilinganligi ehtimoli mavjud.

M. Rustamovning yozishicha, V.M. Ilin bosmaxonasi, O.A. Porsev va G.I. Demurov bosmaxonalari singari zamonasining yirik bosmaxonalardan bo‘lgan. V.M. Ilin matbaasida juda ko‘plab kitoblar nashr etilgan bo‘lib, quyida ularni yillar bo‘yicha ko‘rib chiqish mumkin.

1896 yilda “Zaynularab” Mullo Muhammad Zufar noshirligida nashr etilgan, yuqorida ta’kidlanganidek mazkur kitob matbaadan chiqqan birinchi kitob bo‘lib, kutubxonalarda bu yilda chiqqan boshqa kitob yo‘q.

1898 yilda bosmaxonada ikki nomda kitob nashr etilgan bo‘lib ular “Mabdai nur” Abdullo hoji ibn Asadullohoji noshirligida, “Sanubar” Sayid Akbar Xo‘ja Sayid Umar qori o‘g‘li noshirligida nashr etilgan.

Kutubxonalarda mazkur matbaada 1899 yilda nashr etilgan kitoblar mavjud emas.

1900 yilga kelib matbaada kitob bosib chiqarish birmuncha ko‘payib 5 nomda 7 nashr amalga oshirilgan. Jumladan, Mashrabning “Devoni Mashrab” asari, “Dostoni Zaynularab”, Muhammad Haramiyning “Musayibnomai turkiy” asari nashr etilgan. Alisher Navoiyning «Devon»i va “Favzalnajot» kitoblari 1900 yilda ikki bora nashr etilgani ahamiyatga molikdir. Kitobning birinchi nashri G‘ulom Rasul noshirligida “Terma Devon” nomi bilan chop etilgan bo‘lsa, ikkinchi nashri ham shu nom bilan Mullo Ortuq Abdurasulboy o‘g‘li noshirligida nashr etilgan, “Favzalnajot” asarining birinchi nashriga Asad an-Nabi noshirlik qilgan bo‘lsa, ikkinchi nashri Yakubxo‘ja ibn Podshoxo‘ja noshirligida “Favzalnajot” nomi bilan chop etilgan. Bosmaxona faoliyati juda samara tashkil etilgan.

Toshkentdagi yirik matbaalardan yana biri “G‘ulomiya” matbaasidir. Bu toshbosmaxonaning asoschisi G‘ulom Hasan Orifjonov (1874-1947) bo‘lib, Toshkentning Saqchimon mahallasida tug‘ilgan, u dastlab o‘z hovlisida 1889 yilda Muqovaxona ochgan, keyinchalik 1897 yilda Toshbosmaxonaga asos solgan. Uning bosmaxonasi nafaqat Toshkentda balki butun O‘rta Osiyodagi birinchi mahalliy aholi vakiliga tegishli shaxsiy bosmaxona hisoblangan. Bu davrda Toshkentda ko‘plab toshbosmaxonalar faoliyat yuritgan bo‘lsada, ular ichida eng sermahsuli juda ko‘plab kitoblar bosib chiqargan bosmaxona sifatida “G‘ulomiya” matbaasi alohida nufuzga ega.

“G‘ulomiya” matbaasining ishga tushish sanasi haqida turli fikrlar mavjud. Jumladan, «Turkiston viloyatining gazetisi» da 1907 yil 700 so‘mlik mashina sotib olinganligi haqida ma’lumot berilgan, «Vaqt» gazetasida 1908 yilda matbaa ishga tushganligi yozilgan, M. Rustamovning yozishicha bu toshbosma 1908 yilda ochilgan. R. Mahmudova bu bosmaxonaning ochilish sanasi noma’lum degan fikrni bildirib unda birinchi chiqqan kitob sifatida 1902 yilda

chop etilgan Alisher Navoiyning “Devoni” va “Majolis un-nafois” asarini ko‘rsatib o‘tgan. Ammo kutubxonalaridagi toshbosma asarlar orasida G‘. H. Orifjonov matbaasiga tegishli 1897 yilda nashr etilgan “Al Kofiya Ma’ fiqh” kitobi mavjud. Shu ma’lumotga tayangan holda, “G‘ulomiya” matbaasi 1897 yilda ishga tushgan degan fikr haqiqatga yaqinroq bo‘lar edi. Yuqoridagi ma’lumotlar, gazetalarda berilgan xabarlar, “G‘ulomiya” matbaasiga keyinchalik keltirilgan toshbosma mashinalari haqida e‘lon qilinganligini ko‘rsatadi.

1908 yildan boshlab matbaada kitob nashr etishning keskin oshganligini kuzatish mumkin. Bu yilda mazkur matbaada 15 nomda 18 nashr amalga oshirilgan. 1909 yillarda bosmaxonada 12 nomda 13 nashr, 1910 yilda matbaada 20 nomda 27 nashr, 1911 yilga kelib toshbosmaxona 30 nomda 38 nashrni amalga oshirgan.

1912 yilga kelib kitob nashr etishda bir oz pasayishni ko‘rish mumkin, bu yilda 20 nomda 27 nashr amalga oshirilgan. Jumladan, Abdullo Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” muallifi noshirligida, Xislat Xibbatulloxo‘janing “Armug‘on Xislat” asari To‘ychi Xofiz noshirligida, Mullo Zuhridin Muhammad Muso qori o‘g‘li noshirligida “Bayoz Mahbub”, Mullo Zuhridin bin mullo Muhammad muso qori noshirligida “Bayozi mahbul al-mahbub”, “Bibi Mushkul kushod” Ya‘kubxo‘ja noshirligida “Daqoiq ul-axbori turkiy”, Majzub Namongoniyning “Devon”i, Mullo Abdurauf hoji noshirligida Muqimiyning “Devoni Muqimiy” asari, Mullo Abdullo hoji va Mullo Mirmaxdum noshirligida “Dostoni Sohobqironi Abu Muslim”, Nizomiddin bin Husayinning “Ilmi Axloq” asari nashir Maktab kutubxonasi, Salimiyning “Ka‘b ul-axbor hikoyalari” kabi kitoblarni ko‘rsatib o‘tish lozim. 1913 yilda 25 nomda 33 nashr, 1914 yilda 10 nomda 14 nashr, 1915 yilda 10 nomda 15 nashr, 1916 yilda 14 nomda 19 nashr amalga oshirilgan. Mazkur kitoblarga Abdullo Avloniyning “Adabiyot”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin”, Navoiyning “Terma devon”i, Mullo Abduraufning “Al Islom ravnaq” kabi asarlarini keltirish mumkin. 1917 yilga kelib kitob nashr etishning keskin kamayib ketganligi ko‘zga tashlanadi. Bu yilda 6 nomda 6 nashr amalga oshirilgan xolos. Jumladan, Abdullo Avloniyning “Adabiyot, Mardikorlar ashulasi”, Mirazim Mirsultonovning “Guldastai huriyat”, Navoiyning “Majolis un-nafois”, Baxriddin al-Aziziyning “Milliy adabiyot yoxud yangi shkuf”, Tavalloning “Ravnaq ul-islom” asarlari nashr etilgan. Matbaada so‘nggi bor 1923 yilda “Bibi Mushkul kushod” nashr etilgan.

M. Rustamovning yozishicha G‘.H. Orifjonov o‘z toshbosmaxonasida o‘sha vaqt uchun eng katta tirajlarda (har qaysisi o‘rta hisobda 2000-3000 nusxadan) 200 dan ortiq nashrga ega bo‘lgan, 100 dan ortiq turli kitob va risolalar bostirib chiqargan. Toshkentdagi G.Ya. Yakovlev toshbosmasi 1908-1915 yillarda kitoblar chop etganligi ma‘lum, lekin uni tashkil topgan yili hozircha aniqlanmagan. G.Ya. Yakovlev toshbosmasida “Hadiyai Xislat”, “Malikai Dilorom”, “Bayozi yangi”, “Devoni Mashrab”, “Bayozi gulshani a‘shor” va boshqa asarlar nashr etilgan. Bundan tashqari “Turkiston kureri”, “Turkiston general-gubernatorligi” va “Osiyo” nomlari bilan ma‘lum bo‘lgan matbaalarda ham kitoblar chop etilgan. “Turkiston kureri” matbaasida “Qissai Go‘ro‘g‘li Sulton bo tasviri”, “Nasriddin Afandi” kabi asarlar, “Turkiston general-gubernatorligi” qoshidagi matbaada “Devoni Muqimiy” va boshqa asarlar nashr etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бетгер Е.К. Редкие книги // Правда Востока. – 1945.– № 145.
2. Малкин И.Т. Қоғоз тарихи. – СССР ФА нашриёти, 1940. – 19 б
3. П.Суворов. Искусство литографии...– Б.21.; Энциклопедик луғат. – Тошкент., 1988. – Б. 464.; Тошбосма. // Растар.– Т., 1999 йил.
4. Ҳамдамов П. Ўрта Осиёда совет китоб нашриётининг пайдо бўлиши. – Т., 1966. –1480 б.
5. Чабров Г.Н. У истоков узбекской полиграфии (Хивинская придворная литография 1874-1910 гг) // В кн. Книга, Исследования и материалы. – М., 1961. – С. 317-329.

JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILM-FAN VA MA'RIFAT YO'LIDA OLIB BORGAN HARAKATLARI

Tursunboyeva Xandona Sobirjon qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
<https://orcid.org/0009-0009-1445-3100>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirishga hissa qo'shgan, milliy istiqlol yo'lida jonini fido etgan jadid ma'rifatparvarlarimizning jadidchilik harakatlaridagi ilm-fan va ma'rifat yo'lida olib borgan say-harakatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jadid ma'rifatparlari g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va bugungi kunga tatbiq etilishi muhim bo'lgan o'rinlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Jadid, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, nashriyot, teatr, qadriyat, musulmon jamiyati.

ДЕЙСТВИЯ ДЖАДИДОВ-ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ НА ПУТИ НАУКИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

Турсунбоева Хандона Собиржон қизи
базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье представлена информация об усилиях наших джадидов-просветителей, которые способствовали повышению духовных и просветительских знаний нашего народа и отдали свою жизнь за национальную независимость. Обсуждается значение идей просветителей прошлого в воспитании молодежи и места, где важно их применять сегодня.

Ключевые слова. Джадидизм, просвещение, образование, издательство, театр, ценность, мусульманское общество.

THE ACTIONS OF THE JADID ENLIGHTENERS IN THE WAY OF SCIENCE AND ENLIGHTENMENT

Tursunboyeva Xandona Sobirjon qizi
PhD student Toshkent state Pedagogical University

Annotation. This article provides information about the efforts of our Jadid enlightenments, who contributed to increasing spiritual and educational knowledge among our people and sacrificed their lives for national independence. The importance of the ideas of the enlighteners of the past in the education of young people and the places where it is important to apply them to today are discussed.

Key words. Jadidism, enlightenment, education, publishing, theatre, value, Muslim society.

Kirish . Jahonning rivojlangan mamlakatlari tarixiy tajribasini o'rganish jarayonida shuni anglash mumkinki: ular mustaqillik va taraqqiyot yo'liga qadam qo'yishlari bilan asosiy e'tiborini, birinchi navbatda, yoshlarni o'qitish va tarbiyalashga qaratganliklarini ko'rish mumkin. Ta'limga bo'lgan bunday e'tibor tarixiy tajribalarda o'zini oqlagan.

Shuning uchun ham, davlatimiz islohotlarning hamma bosqichlarida ta'lim sohasiga alohida e'tiborini qaratib kelmoqda. O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya sifatiga va jarayoniga bog'liq bo'lib, maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarining barchasi yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Shu jihatdan olib qaralganda, zamonaviy axborot texnologiyalari va xorijiy tajribalarning ijobiy jihatlari amalda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchi-talabalarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoitlarni yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o'qishni o'rgatish orqali bilim olishga bo'lgan intilishlarini hamda qiziqishlarini orttirishdan iborat. Yosh avlod tarbiyasi xususida Abdurauf Fitrat: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq"- deya ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusida: "O'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz — „jadidchilik“, ya'ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalari bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz" — deya ta'kidladilar. "Bu ulug' zotlarning maqsadi — jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxonalar, muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlar g'afolat uyqusidan uyg'otib, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi". Turkistonda Jadidlar harakatining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi muhim jihatlari borasida N.Afaqova tomonidan o'rganilgan bo'lsa, pedagogik ta'limotlar tarixini, ma'rifatparvarlarning pedagogik me'rosini esa R.Abdullayev, D.Alimovlar tomonidan tadqiq etilgan. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun olib borgan kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar: yangi usul maktablarining tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallarni chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish asosida Turkistonda milliy demokratik davlatni qurish; ustuvorlik qilgan edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olinganidan so'ng, mustamlaka mamlakatga aylantiriladi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general gubernatorlaridan biri Kuropatkinning o'z kundaliklaridagi qaydlarida: "Biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik"- , qabilidagi so'zlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm-fani va madaniyati chor ma'muriyati to'siqlari orasidan Turkistonga sizib kirgan edi. Shu ijobiy ta'sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistondagi yangi Uyg'onish davrini boshlab bergan bo'lib, mahalliy ziyolilar orasida o'z xalqini ozod ko'rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uyg'onish, Ovropa ma'rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor tus olgandi. Shuningdek, O'rta asrlar o'rtiga tashlagan ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha - ma'rifatchilik tarzida namoyon qilish imkoniyati yaratilgandi. Zero, o'sha g'oyalarni yangilangan shakllarda

amalgga oshira oladigan ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar. Ma'rifatchilik g'oyalari asosan uch soha orqali taraqqiy topib bordi. Bular - maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmi hamda ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. XIX asr oxiri XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan, mustamlaka tufayli rivojlanishi past darajada bo'lgan o'lkada, chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish maqsadida Turkistonda, jadid ma'rifatparvar ziyolilari maydonga keldi. Jadidchilik rus mustamlaka siyosatiga qarshi milliy demokratik harakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy hamda madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Jadidchilik harakati avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari millatni taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish, hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirgan.

Muhokama. Turkistonda jadidchilik g'oyalari asosan XIX asrning 90 yillaridan yoyila boshlagan. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan. Jadidchilik harakati vakillaridan biri bo'lgan, diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) 1884 yilda jadid maktabini tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli «usuli savtiya», ya'ni «tovush usuli» nomi bilan shuhrat qozonadi. «Jadid» so'zi arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi. Ismoilbek g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari «jadidlar», uning g'oyalari esa «jadidchilik» nomini olgan edi. Ismoilbek Gaspirali darslik yaratadi, o'zining «Tarjimon» (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qilib, bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham yoyiladi. I.Gaspirali 1893 yilda Markaziy Osiyoda bo'lib, Buxoroning amiri Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga esa «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898 yilda To'qmoq (Qirg'iziston)da ham shunday maktab ochiladi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Maktablarning ochilishi xususida turkistonlik jadidlardan biri Hoji Mu'in Shukrullo: "Millatning taraqqiysi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko'rub, muhofaza qilmoqchi bo'lsak, avval saodat eshigi bo'lgan maktabimizni zamong'a muvofiq isloh qilish kerak", - deb yozgan edi. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. O'zbek bolalari uchun maxsus yaratilgan ilk alifbo Saidrasul Aziziyning 1903 yilda chop etilgan "Ustodi avval" darsligi bo'lsa, undan keyin 1917 yil oktyabrigacha o'zbek ma'rifatparvarlarining ellikka yaqin alifbo va o'qish kitoblari chop etiladi. Aliasqar ibn Bayramali Kalinning "Muallim us-soniy"

(1903), Munavvar qori Abdurashidxonovning “Adibi avval” (1907), “Adibi soniy” (1909), Serikboy Oqaevning “Xrestomatiya, ya’ni terma kitob” (1911), Qori Usmon ibn Abduholiq Shoshiyning “Ta’limi avval” (1910), Shokir qori ibn domla Zokirning “Ta’limi avval” (1910), Mulla G’ulomiddin Akbariy (Kabirzoda)ning “Ta’limi soniy” (1912), Abduvahob ibn Abdullo Xo’qandiyning “Tahsili alifbo” (1912), Mulla Rustambek ibn Yusufbek hojining “Ta’limi avval” (1914), Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yengil adabiyot” (1914), “O’qish kitobi” (1914), “Qiroat kitobi” (1915), Muhammadjon Rasuliyning “Bolalar bog’chasi” (1915), Muhammadamin Fahriddinovning “Rahbari soniy” (1916) singari alifbo va o’qish kitoblari yaratiladi. Bu darsliklar orasida Abdulla Avloniy asarlari alohida ahamiyatga ega bo’lib, uning “Birinchi muallim” (1912), “Ikkinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yohud axloq” (1913), “Maktab gulistoni” (1916) va to’rt qismdan iborat bo’lgan “Adabiyot yohud milliy she’rlar” (1909-1916) darsliklari o’zbek bolalar adabiyotida XX asr boshlaridagi eng yorqin sahifalarni tashkil etadi. Xususan, Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” (1903), Munavvar qori Abdurashidxonovning “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi Muallim”, “Ikkinchi Muallim” (1912) darsliklari alohida e’tiborga molikdir.

Jadidlar o’z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari va ular uchun yaratilgan darsliklari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratgan edilar. Adabiyot ham davr voqealariga hamohang bo’lib, 1910 yillardayoq ma’rifat va ozodlik g’oyalari uning markaziy mavzusiga aylanib bo’lgan edi. Adabiyotga esa “millat” va “vatan” tushunchalari kirib keldi. Milliy she’rlarga rag’bat kuchaydi, yangi zamonaviy dostonchilik yaratildi, ayniqsa, publitsistika (M.Behbudiy, A.Fitrat, M.Abdurashidxonov) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O’zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti deb davrlashtirildi. Adabiyotdagi bunday uyg’onish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham ro’y berdi. Jadidlar o’zbek xalqi hayotiga tom ma’nodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo’lga qo’yila boshlandi. Yevropada ko’povozli musiqa san’ati bilan tanishgan jadidlar o’zbek an’anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga da’vat etishdi. 1919 yilda Toshkentning eski shahar qismi (hozirgi „Turon“ kutubxonasi yonidagi bino)da jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) bo’limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san’at vositasi bilan millat qadrini ko’tarish, san’atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar. Jadidlar Toshkentda 1905-1906 yillarda “Taraqqiy” (muharriri Ismoil Obiliy), “Xurshid” (muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov), 1907-1908 yillarda “Shuhrat” (muharriri Abdulla Avloniy), “Osiyo” (muharriri Ahmadjon Bektemirov), “Tujjor” (muharriri Saidkarimboy Saidazimboy o’g’li), Buxoroda 1912 yilda “Buxoroyi sharif” (muharriri Mirzo Jalol Yusufzoda), “Turon” (muharriri G’iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913 yilda “Samarqand” (muharriri Mahmudxo’ja Behbudiy), Toshkentda “Sadoyi Turkiston” (muharriri Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jaev), Qo’qonda “Sadoyi Farg’ona” (muharriri Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913-1915 yillarda “Oyina” (muharriri Mahmudxo’ja Behbudiy), Toshkentda 1915 yil “Al-isloh” (muharriri Abdurahmon Sodiq o’g’li) jurnallarini nashr ettirdilar. Shuningdek, 1917-1918 yillarda Toshkentda “Najot” (muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov), “Kengash” (muharrirlari Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori Abdurashidxonov), “Turon” (muharrirlari M. Afandizoda, Abdulla Avloniy), “Ulug’ Turkiston” (muharriri Kabir Bakirov), “Turk so’zi” (muharriri Temirbek Xudoyorxonov), “Samarqandda

Hurriyat” (muharrirlari Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Abdurauf Fitrat), Qo'qonda “Tirik so'z” (muharriri Obidjon Mahmudov), “El bayrog'i” (muharriri Bo'lat Soliev) gazetalarini va “Kengash” (muharriri Hamza Hakimzoda Niyoziy), “Yurt” (muharriri Ashurali Zohiriy) jurnallari chop etildi. Matbuot millat dilidagi gaplarni o'z sahifalariga ko'chirish bilan kifoyalanib qolmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish kerakligi masalasini o'rta qo'ydi. 1909 yilda Toshkent ziyolilari tomonidan “Jamiyati xayriya” tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag'al musulmonlarga madaniy-ma'naviy jihatdan yordam ko'rsatish masalasi qo'yildi. Bu jadidlarning millatni boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo'lida ko'rilgan tadbirlari edi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o'zligini anglab, birgalikda uyushishga chaqirgan edi. Mashhur advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev oliy o'quv yurtlarini tashkil etish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish masalalarini bayon qilib bordi. Jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar ekan, “Xalqni har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi millat ongining ochqichi” ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga hozirlay oldi. Bu davrda esa “Erk”, “Turon”, “O'qituvchilar jamiyati” kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori Abdurashidxonov aytganidek: “Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi”. Jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan yaratilgan ilm-fanga chorlovchi asarlardan bevosita o'quv kitoblarigacha, pandnomalardan darsliklargacha barchasi ma'rifatparvarlik mahsuli, ushbu harakatning turli bosqichlari natijasidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, XX asr boshlari yaratilgan darsliklar, kitoblarning mavzu ko'lami: ma'rifatparvarlik davrining yetakchi xususiyatlari - yosh avlodni zamonaviy maktablarga chorlash, maktab ta'rifi, ilmga targ'ib, o'quv qurollari ta'rifi singari ma'rifiylik yetakchi mohiyat kasb etadigan mavzular, axloq-odob, vatanparvarlik, qisman ota-ona va farzand munosabatlari mavzulari hamda tarbiyaviy mohiyat kasb etadigan majoziy xarakterdagi asarlardan iborat. Bu asarlar ba'zan madhiya, chaqiriq (shior) xarakterida bo'lsa, ba'zan ilm va jaholatni qarama-qarshi tasvirlash, yosh kitobxonni komil inson qilib tarbiyalash, yaxshi fazilatlarini egallashi, yomon sifatlardan qutulishga chorlashi hamda Ona-Vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlikka undash, Vatan tuprog'ini, uning benazir tabiatini kuylash ruhidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. U, B, Nigmanova & D, Jalolova (2024) Jadid ma'rifatparvarlari: Abdulla Avloniy, Fitrat va Behbudiyning tarbiyaviy qarashlari, International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” <https://doi.org/10.5281/zenodo.10802347>

2. P, Qosnazarova. (2024). XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining o'ziga xos xususiyati “Modern science research”

3. A, Murodov (2023) Jadidlar ilmiy merosi asosida pedagogika oliy ta'lim

tashkilotlari talabalarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish // falsafa.d. (PhD) dissertation, Tashkent

4. Iroda, Otaqulova (2023) Abdulla Avloniyning ta'lim borasidagi o'rni va ahamiyati, «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» International scientific journal <https://doi.org/10.5281/zenodo.785452>

5. A, Jonuzaqov (2022) “Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi» mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. PEDAGOGS international research journal volume-4 issue-1

6. Dilorom, Alimova. (2022). Jadidchilik fenomeni. Tashkent., “Akademnashr”

7. “Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2016) “Toshkent islom universiteti” nashriyot – matbaa birlashmasi

8. Begali, Qasimov, (2006) M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tashkent, “Ma'naviyat”

9. Begali, Qasimov (1994) Maslakdashlar. Behbudiy. Ajziy. Fitrat. Tashkent: Sharq

10. Mahmudxo'ja, Behbudiy (1904) “Tarjimon”

БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ҲИНДИСТОН БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ

Shuxrat Yodgorovich Qudratov

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligining Hindiston bilan qizgin savdo-sotiq olib borilganligi, amirlikning markaziy shaharlarida hind savdogarlariga ham erkin yashash huquqi berilganligi, buxorolik savdogarlar ham Hindistonda faol savdo ishlari olib borilganligi to'grisida batafsil ma'lumot berilgan. Shu bilan birga, hind savdogarlari Buxoro shahridagi Rashid, Badriddin, Domla sher, Ismoil xo'ja va Mirzagul karvonsaroylaridan mehmonxona va olib kelgan mahsulotlari uchun omborxona sifatida foydalanilganliklari to'grisida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: savdo markazi, karvon yo'llari, bojxona, gazlama, ipak, to'quvchi, savdogar, karvonsaroy, firma, tijorat.

ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА С ИНДИЕЙ

Кудратов Шухрат Ядгарович

доцент кафедры Археологии и истории Бухары, д.ф.и.н. (PhD)

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается активная торговля Бухарского эмирата с Индией, предоставление индийским купцам права свободного проживания в центральных городах эмирата, а также активная торговая деятельность бухарских купцов на территории Индии. Кроме того, отмечается, что индийские купцы использовали такие караван-сарай в Бухаре, как Рашид, Бадриддин, Домлашер, Исмаилходжа и Мирзагул, в качестве гостиниц и складских помещений для привезённых товаров.

Ключевые слова: торговый центр, караванные пути, таможня, ткань, шелк, ткач, купец, караван-сарай, фирма, торговля.

TRADE RELATIONS BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND INDIA

Kudratov Shukhrat Yadgarovich

Senior Lecturer of the Department of Archaeology and History of Bukhara, (PhD)

Abstrakt: This article provides a detailed analysis of the active trade relations between the Bukhara Emirate and India, highlighting the granting of the right to free residence for Indian merchants in the central cities of the emirate, as well as the vigorous trading activities of Bukhara merchants in India. Additionally, it is noted that Indian merchants utilized caravanserais such as Rashid, Badriddin, Domlasher, Ismailkhoja, and Mirzagul in Bukhara as inns and warehouses for their imported goods.

Keywords: trade center, caravan routes, customs, textiles, silk, weaver, merchant, caravanserai, firm, commerce.

Kirish. Бухоро амирлиги ўрганилаётган даврда Ҳиндистон билан ҳам қизгин савдо-сотик ишларини олиб борган. Амирликнинг Бухоро ва Қарши шаҳарлари Ҳиндистоннинг машҳур савдо марказлари – Пешовар, Шикарпур ҳамда Мўлтон билан Афғонистоннинг Қобул, Ҳирот, Қандаҳор орқали ўтувчи карвон йўллари билан боғланган эди.

Adabiyotlar tahlili. E.K.Мейендрофнинг Путешествие из Оренбурга в Бухару., Демезоннинг Записки о Бухарском ханстве, Ўзбекистон Миллий архиви, И-1-фонд, 20-рўйхат, 1394-йиғмажилд, Ўзбекистон Миллий архиви, И-1-фонд, 34-рўйхат, 714-йиғмажилд, Ўзбекистон Миллий архиви, И-3-фонд, 2-рўйхат, 25-йиғмажилд, Ўзбекистон Миллий архиви, 2-фонд, 1-рўйхат, 66-йиғмажилд, Ўзбекистон Миллий архиви, И 2-фонд, 1-рўйхат, 66-йиғмажилдларида Бухоро амирлигининг Ҳиндистон билан савдо алоқалари тўғрисида батафсил тўхталиб ўтилган.

Natija va muhokoma. Бухоро амирлигининг марказий шаҳарларида барча хорижий савдогарлар каби ҳинд савдогарларига ҳам эркин яшаш ҳуқуқи берилган. Аммо ислом динига эътиқод қилмаганлари учун мол қийматининг 5 фоизи миқдорида бож тўлаганлар. Ҳиндистонлик савдогарлар Бухорога шойи газламалар, марварид ва қимматбаҳо тошлар ҳамда нил бўёғи олиб келганлар. Бухоро тўқувчилигида нил бўёғи “индигофера” деган ўсимлик илдизидан олинган. Бу XIX аср ихтироси бўлган кўк-сарғиш бўёқ бўлиб, бўялган матолар ювилганда, ранги қуёш нурида оқариб кетмас эди. Асосан Мўлтонда тайёрланадиган бу бўёқ мўлтонликлар томонидан ҳар йили жами 1000 туяда келтирилган.

Ҳинд савдогарлари Бухорога, асосан, Кашмир қаламдонлари, зар ипдан кашталар тикиб тайёрланган чойшаблар, ҳидланадиган тамаки, кокос ёнғоғидан тайёрланган кулдонлар, туя терисидан тайёрланган тарозилар, банорас кимхоби олиб келишган. Шунингдек, чит газламалар, қора қиём, мурч, мусулмон илоҳиётчилиги ва ҳуқуқчилигига оид китоблар салмоқли ўринни ташкил этган [1].

Бухоролик савдогарлар Ҳиндистонда ҳам фаол савдо ишлари олиб борганлар ва XIX аср охиридан олиб бордиган асосий маҳсулотлари хом ипак, ип-газлама, жун, от, гиламлар, бодом, майиз, қуритилган мевалар, Россия ва Бухоро олтини ва кумушидан қуйилган ёмбилар, шунингдек, Россиядан Бухорога келтирилган гулдор духобаларни ташкил этган. Бухоро ипаги ҳиндистонлик тўқувчилар учун жуда қимматли ҳисобланган ва юқори нархларда сотиб олинган. Бухородан олиб борилган молларини сотиб бшлган савдогарлар қайтишда Бухорога “ҳайдари” [2] ва “носирхони” газламаси, дока, гулдор матолар, ип-газлама ва шойидан тўқилган оқ рўмоллар, занжабил, долчин, каркидон шохлари, новвот, хина, ўсма, зарчуб (овқатга қўшиб истеъиол қилинадиган илдиз), Ҳайдаробод ақиқлари олиб келганлар [3].

Ҳинд савдогарлари Бухоро шаҳридаги Рашид, Бадриддин, Домла Шер, Исмоилхўжа ва Мирзагул карвонсаройларидан меҳмонхона ва олиб келган маҳсулотлари учун омборхона сифатида фойдаланганлар. Ҳинд савдогарлари орқали Бухорога инглиз маҳсулотларининг катта миқдорда кириши Россия империясини хавотирга сола бошлайди. Натижада 1870 йилдаёқ ҳиндистонлик ва бухоролик савдогарлар тижоратида уларга катта фойда келтирувчи Европа маҳсулотлари контрабанда моллари деб, эълон қилиниб мусодара қилина бошлаган [4].

1894-1900 йилларда Ҳиндистондан, Ҳимолайнинг жанубий-ғарбий ёнбошларидан, Пешовар атрофларидан Бухорога ҳар йили 20-30.000 пуд чой олиб келинган. Амирликда бу чой навлари “навхузур” ва “патта” деб аталган. Бухоро бозорларида чойнинг нархи жуда арзон бўлиб, Тошкент, Самарқанд ва Хива бозорларида белгиланган божлар ҳисобиган икки баробар қиммат сотиларди [5].

XIX аср охирларида Бухоро амирлигида кўпроқ шакарпурлик, мўлтонлик, бомбайлик ҳинд савдогарлари яшаганлар. Уларнинг сони 5000 нафардан ортик бўлиб, Бухоро ва амирликнинг барча шаҳарларида савдо билан шуғулланишган. Бухородаги ҳинд савдогарлари икки гуруҳга бўлинган. Биринчи гуруҳ турли маҳсулотлар савдоси билан шуғулланган бўлса, иккинчи гуруҳ саррофлик ва судхўрлик билан шуғулланган. 1894 йил маълумоларига кўра, Бухоро шаҳри ва унинг атрофида 90 ҳинд судхўрлик билан шуғулланган. Бу даврда Бухорода 30 мингдан 500 минг тилла тангагача сармояси бўлган 10 нафар йирик ҳинд савдогари бўлиб, уларнинг Ҳиндистоннинг йирик шаҳарларида ҳам фирмалари мавжуд эди [6].

1890 йилларда Каспийорти темир йўлининг Бухоро амирлиги ҳудуди орқали ўтказилиши Бухоро-ҳинд савдоси йўналишида муайян ўзгаришлар ясади. Ҳиндистонга Бухоро ипагини жўнатувчи савдогарлар эндиликда молни Красноводсккача темир йўл орқали, у ердан Каспий денгизи орқали Бокуга, сўнгра Батумига келтирилиб, денгиз йўли орқали Бомбайга жўната бошладилар. Савдо йўллари бошқариш руслар қўлига ўтгач, ҳиндистонлик савдогарларнинг бу йўллардан фойдаланиш суръати пасая бошлади. Чунки Қора денгиз порти – Батумида ҳинд чойининг ҳар бир пуди учун рус божхоналари олаётган юқори бож савдогарлар даромад кўришдан маҳрум қилиш даражасига олиб борди. Бухоро бозорларида энг сифатли чойининг пуди 38-40 рубл бўлган шароитда биргина Батуми портида 21 сўмлик бож тўлаш бошқа харажатларни ва Бухородаги закотни ҳам қўшиб ҳисоблаганда, табиийки, пешоварлик савлогар манфаатини бутунлай йўққа чиқарар эди.

1894 йилдан Бухоронинг Россия божхонаси доирасига киритилиши амирликнинг Шарқ мамлакатлари билан савдо алоқаларини чеклади уни Россиянинг ички бозорига айлантириб, Осиё тижоратидаги мавқеини синдирди, шунингдек, инглиз-ҳинд молларини сиқиб чиқарди.

Россия ҳукуматининг чой навларига белгиланган 1895 ва 1899 йиллардаги бож амирликнинг иқтисодий манфаатларига катта зарар келтирган. Чунки амирлик рус божхонаси доираси таркибига киритилгунгача келтирилган чет эл чойидан фақат 2,5 фоиз бож олинар, натижада бозордаги энг юқори чой нархи шароитида ҳам хонлик божхонасининг оладиган солиқ миқдори ҳар бир пуд чой ҳисобига 1 рублдан ошмас эди [7]. Натижада Амир Абдулаҳадхон рус сиёсий агенти В. Игнатъевни Карманадаги қароргоҳига чақириб, амирликдаги рус божхона назорати ўрнатилган пайтда камбағал аҳоли истеъмоли учун қуйи навли чойлар учун бож миқдорини ўзгартирмасликни рус маъмуриятдан сўраганини эслатиб, эндиликда қуйи навли чойга ҳам 12 рубл бож белгиланганлиги чой нархининг ошиб кетишига сабаб бўлгани, бу оддий аҳоли учун қимматлик қилаётганини таъкидлайди [8]. Ярим мустамлака шароити Бухоро амирлиги ва Ҳиндистон мол айирбошлаш ҳажмининг қисқариб кетишига сабаб бўлди. Шунингдек, Россия ва Англиянинг империячилик манфаатлари ва ўзаро рақобатлари туфайли мураккаблашиб, бухоролик ва ҳиндистонлик савдогарларнинг узок замонлардан буён давом этиб келаётган эркин тижорат фаолиятларига салбий таъсир кўрсатди.

Xulosa. Хуллас, ҳинд савдогарлари Бухорога бир қатор маҳаллий аҳоли учун муҳим бўлган товарларни олиб келган бўлсалар, бухоролик савдогарлар Ҳиндистонда ҳам фаол савдо ишларини олиб борганлар. Бироқ, Россия ва Англиянинг империячилик манфаатлари, ўзаро рақобатлари мураккаблашиши

оқибатида бухоролик ва ҳинд савдогарларининг эркин тижорат фаолиятига путур етди.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Москва: Наука, 1975. – С. 129.
2. Бухоро амирлиги бозорларидаги энг харидоргир газлама. Амир Ҳайдар (1825-1860) бухоролик моҳир тўқувчиларни чақириб, бу матони тўқишларини топшириқ берган. Улар ҳар қанча урунмасинлар ҳиндларникидек нафис чиқмаган.
3. Демезон П. Записки о Бухарском ханстве. – С. 77-78.
4. Ўзбекистон Миллий архиви, И-1-фонд, 20-рўйхат, 1394-йиғма жилд, 5-варақ.
5. Ўзбекистон Миллий архиви, И-1-фонд, 34-рўйхат, 714-йиғма жилд, 8-варақ.
6. Ўзбекистон Миллий архиви, И-3-фонд, 2-рўйхат, 25-йиғма жилд, 333-варақ.
7. Ўзбекистон Миллий архиви, 2-фонд, 1-рўйхат, 66-йиғма жилд, 1-варақ.
8. Ўзбекистон Миллий архиви, И 2-фонд, 1-рўйхат, 66-йиғма жилд, 12-варақ орқаси.

STRENGTHENING OF THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF GENERAL SECONDARY EDUCATION SCHOOLS IN KASHKADARYA REGION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS

*Gulbahor Nuriddinovna Yuldasheva,
University of Economics and Pedagogy graduate student, Karshi*

Abstrakt: In this article, in the years of independence, the strengthening of the material and technical base of general secondary schools in Kashkadarya region, the work done for the education of students and young people in schools is analyzed based on archival sources, and the necessary suggestions and recommendations are given.

Keywords: school, education, library, hall of activists, sports hall, heating, attendance, students, graduates, reform, qualification, skills, schools of the next generation.

УКРЕПЛЕНИЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

*Юлдашева Гулбахор Нуриддиновна,
Университет экономики и педагогики магистрант, Карши*

Аннотация: В данной статье на основе архивных источников анализируется работа, проделанная по обучению учащихся и молодежи в школах, в годы независимости укрепление материально-технической базы общеобразовательных школ Кашкадарьинской области. даются необходимые предложения и рекомендации.

Ключевые слова: школа, образование, библиотека, зал актива, спортивный зал, отопление, посещаемость, учащиеся, выпускники, реформа, квалификация, навыки, школы следующего поколения.

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATIDAGI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING MODDIY-TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR

*Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti, Qarshi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi, maktablarda o'quvchi – yoshlarni ta'lim olishlari uchun amalga oshirilgan ishlar arxiv manbalariga asoslanib tarixiy tahlil etilgan hamda kerakli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, ta'lim, kutubxona, faollar zali, sport zal, issiqlik ta'minoti, navbatlilik, o'quvchi-yoshlar, bitiruvchi, islohot, malaka, ko'nikma, barkamol avlod maktablari .

Kirish. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim

va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchilardir. Ma’lumki, murakkab o‘tish yillarida maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e’tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi.

Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, ayniqsa viloyatlarda xususan Qashqadaryo viloyatidagi umumta’lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan xalq ta’limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlandi. Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta’limi tizimi tiklandi [1; 60-b].

So‘nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta’lim maktabi yangidan qurildi. Ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta’lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta’lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatidaga umumiy o‘rta ta’lim maktablari yuzasida tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Nigora Sharopova ayniqsa samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib brogan [2,3,4].

Janubiy viloyatlarda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni bajarish yuzasidan ma’lum ishlar amalga oshirildi. Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va yangilarini bunyod etish yuzasidan izchil tadbirlar olib borildi. Qashqadaryo viloyatidagi umumta’lim maktablarini yangi o‘quv yiliga tayyorlash bo‘yicha maxsus shtab tashkil etildi, reja va tadbirlar aniq ishlab chiqildi. 1999-yil Qashqadaryo viloyati umumta’lim maktablariga moliya boshqarmasi ko‘zda tutilmagan xarajatlar hisobidan yaroqsiz partalar o‘rniga yangi o‘quvchilar partasini sotib olish uchun xalq ta’lim boshqarmasiga 15 mln so‘m mablag‘ ajratildi. Shundan Qarshi shahri va tumani maktablariga 1 mln 200 ming so‘m, G‘uzor tumaniga 1 mln 300 ming so‘m, Shaxrisabz tumaniga 1 mln 400 ming so‘m ajratildi [5, 110-b].

Ta’lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o‘qituvchilarning alohida o‘rni va ta’siri borligi hisobga olinib, ko‘rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta’limi tizimiga 12 ming 871 nafar erkak o‘qituvchi qaytdi. Pedagog xodimlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o‘qituvchilarning ish haqi o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo‘shimcha oylik ustamalar to‘lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o‘qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o‘qituvchilarga pensiyasi to‘liq miqdorda berilmoqda. “Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz, – dedi Prezidentimiz. – Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag‘ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog‘liq”.

Ammo amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yig'ilishda tanqid qilib o'tildi. Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda chet eldagi ilg'or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi. Davlatimiz rahbari "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi. Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta'lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarurligiga alohida e'tibor qaratildi. "Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak», dedi Shavkat Mirziyoyev [6; 63-b].

Mustaqillik yillarida barcha viloyatlarda, xususan, Qashqadaryo viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo'yicha hukumat tomonidan samarali islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda 2003-2004-o'quv yilida 9834 ta umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatib, ularda 6263,1 ming nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 2014-2015-o'quv yilida 9733 ta umumta'lim maktablarida 4339,7 ming nafar o'quvchi tarbiyalandi [7; 203-b].

Ammo hamma joyda ham ahvol bir xil emas edi. Masalan, 2001-yil Qashqadaryo viloyati tumanlarida jami 38 ta avariya holatidagi maktablar bo'lib, shundan, 15 tasi Dehqonobod tumanida, 12 tasi Chiroqchi tumanida edi. Viloyatdagi 1078 ta umumta'lim maktablaridan 146 tasi kapital ta'mirga muhtoj. Ayniqsa, Kasbi, Kitob, Chiroqchi, Shaxrisabz, Yakkabog' tumanlarida bunday maktablar ko'pchilikni tashkil etdi [8; 211-b].

Keyingi yillarda ham bu kabi holatlar davom etdi. 2003-yil yanvarda Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasi o'rganilganda, mavjud 1083 ta maktabning 80 tasi butunlay yaroqsizligi, 504 ta maktab esa ta'mirtalab ekanligi aniqlandi. Tumanlardagi ko'pchilik maktablar bir vaqtlar paxsadan qurilgan. Ayni vaqtda ularni zax bosgan, cho'kkan. Devorlari yorilib, ustunlari chiriy boshlagan. Dehqonobod, Koson, Chiroqchi tumanlari maktablarida ahvol og'ir edi.

Birgina Dehqonobod tumanida 21 ta maktab nihoyatda xarob ahvolda bo'ldi. Hatto viloyat markazi Qarshi shahrida ham ana shunday nochor ahvoldagi maktablar mavjud edi. Ba'zi tumanlarda o'quvchilar o'tgan asrning 30-yillarida qurilgan, ta'mirlanmagan maktab binolarida ta'lim oldi. 2003-yil 10-yanvarda Qashqadaryo viloyati hokimi "Viloyatdagi xaroba holatdagi umumta'lim maktablarining o'rniga yangi maktab binolarini qurish to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. Qarorda ta'kidlanishicha, 2003-yil viloyat maktablarini kapital ta'mirlash uchun mahalliy byudjetdan o'tgan yilgidan 61,5 foiz ko'p, ya'ni 737 million 667 ming so'm mablag' ajratildi. 32 ta umumta'lim maktablari homiy tashkilotlarga birlashtirilib, 19 ta maktab qurilishi rejaga kiritildi. Ajratilgan mablag'lar birinchi navbatda isitish tizimini qayta ta'mirlash, tabiiy gaz o'tkazish qulay bo'lgan maktablarni gazlashtirish, tomchi o'tayotgan binolarning tomini ta'mirlash ishlariga sarflandi [9; 64-b].

2024 yil 1 sentabr holatida Qashqadaryo viloyatida jami 1230 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari mavjud bo'lib ularda jami 669 439 nafar o'quvchi – yoshlar ta'lim olmoqda. Bugungi kundagi maktablarning sig'imi jami 550338 nafar o'quvchi-yoshlarga mo'ljallangan bo'lib, hozirda viloyatda maktablarda o'quvchi-yoshlar 1.2 koeffisientda ta'lim olmoqdalar. Qarshi shahrida 49 ta, Shahrisabz shahrida 25 ta, G'uzor tumanida 84 ta, Dehqonobod tumanida 105 ta, Qamashi tumanida 100 ta, Qarshi tumanida 70 ta, Kasbi tumanida 61 ta, Kitob tumanida 97 ta, Koson tumanida 102 ta, Ko'kdala tumanida 99 ta, Mirishkor tumanida 43 ta, Muborak tumanida 34 ta, Nishon tumani 47 ta, Chiroqchi tumanida 125 ta, Shahrisabz tumanida 86 ta va Yakkabog' tumanida 103 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyat yuritmoqda [10; 3-b].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, Qashqadaryo viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollari hamda har bir tuman va shaharning “o'sish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Qashqadaryodagi bir qancha umumiy o'rta ta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi belgilangan

Aholi turmush farovonligi darajasi mamlakatning faqat iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan emas, balki ijtimoiy sohalar taraqqiyoti darajasi bilan ham ifodalanadi. Aynan ijtimoiy sohada davlatning insonparvarlik darajasi har tomonlama yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy soha taraqqiyotining qay darajadali ma'lum jihatdan mamlakatdagi siyosiy va psixologik muhitni, aholining umumiy kayfiyatini belgilaydi. Ijtimoiy sohalarning o'sishi xududlarning umumiy iqtisodiy taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladi.

2017-yil yilda ta'lim davlat siyosatining eng ustivor yo'nalishiga aylandi. Davlat byudjetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar byudjet xarajatilari qismining 33.7 foizi darajasida rejalashtirilib, ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan harajatlar hajmi mamlakatimiz YAIM tarkibida 10-12 foizni tashkil etadi. O'zbekiston ta'lim maydoni ulkan hajmga ega bo'lib, 10 mingga yaqin maktab, 1556 ta litsey va kollejlari, 100 dan ziyod oliy o'quv yurtlarida yangi ta'lim tizim asosida bilim va tarbiya olib, zamonaviy kasb-hunarlarga ega bo'lib, mamlakatimiz ta'lim modelining samarasini namoyon etmoqdalar. Yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zamirida oliy ta'limning o'rni va ahamiyatiga ulkan xissa qo'shildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim rivojlanishining kelgusidagi har bir muvaffaqiyati, muammoli masalalari echim topishi xayotiy masala ekanligi teran tushuntirildi [11; 64-b].

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek ta'lim tizimi bir necha million fuqaroni birlashtirib, mamlakatning ertangi kuniga birinchi galdagi daxldor soha ekanligi barchamizga ayon bo'lib bormoqda. Shuningdek, globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanishni taqazo etayotganligi ham kundek ravshan. Bejizga 2016-2020 yillarning may oyigacha oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 62 dan ortiq me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilinmaganligini teran anglamog'imiz lozim [12; 6-b].

Biz shu o'rinda ularning ba'zilariga to'xtalib o'tsak, mavzuning mazmun moxiyatini tushunarli bo'ladi. Oliy ta'limning yangi sifat bochqichiga ko'tarilishiga xizmat qiluvchi ushbu Farmon va qarorlarning qabul qilishni yoshlarimizning jaxonning rivojlangan

mamlakatlardagi ta'lim standartlariga to'la mos keladigan bilimlarni egallashlariga, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu me'yoriy xujjatlar yana shunisi bilan e'tiborliki unda faqatgina yutuqlar sanab o'tilmay, ishchan tanqid, muammolarni e'tirof etish orqali kelajak taraqqiyot uchun konstruktiv g'oya va takliflar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, mamlakat Bosh Vaziri Sh.Mirziyoev 2016-yil 30-sentyabrda "1 oktyabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni" munosabati bilan yo'llagan tabrigida shunday degan edi: "Ayni paytda bugungi kunda oldimizdayanada muhim va dolzarb vazifalar turganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada ilm-fan va ta'lim tarbiya sohasini moddiy texnika bazasini yanda mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va domlarning mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bo'lib kirayotgan yanrgi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi" [13; 2-b].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, 1997-2004-yillar va 2004-2017-yillar hamda 2017-yildan hozirgi kungacha O'zbekiston xalq ta'limi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishining holati turlicha bo'ldi. Qashqadaryo viloyatida xalq ta'limi tizimi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishida qator muammolar ham yig'ilib bordi.

Ta'lim sohasi moddiy ta'minotini yaxshilashda turli ishbilarmon homiylarning o'rni ham katta bo'ldi. Ular o'z mablag'lari hisobidan maktab binolari qurilishiga, ta'mirlash ishlariga, kutubxonalar fondlarini boyitishga munosib hissa qo'shdi. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida nodavlat maktablar ham samarali faoliyat yuritmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yurt qahramonlarining qadri baland, xotirasi muqaddas.// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.-T.:O'zbekiston, 2018.

2. Sharopova Nigora Akbarovna, Measures to incentive teachers in the southern regions during the years of independence. International journal of philosophical studies and social sciences. Vol 4, Issue 4 (2024) P. 211-217

3. Sharopova Nigora Akbarovna, Повышение квалификации учителей южных регионов в годы независимости. ХОРАЗМ МА'МУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ –10/3-2024. В.109-111.

4. Sharopova Nigora Akbarovna, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE SECONDARY SCHOOLS OF THE SOUTHERN REGIONS. Oriental Journal of History, Politics and Law, 4(01), 60–66.

5. Sharopova Nigora Akbarovna, Повышение квалификации учителей южных регионов в годы независимости. ХОРАЗМ МА'МУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ –10/3-2024. В.109-111.

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajgimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz "O'zbekiston" 2017

7. Sharopova Nigora Akbarovna, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE SECONDARY SCHOOLS OF THE SOUTHERN REGIONS. Oriental Journal of

History, Politics and Law, 4(01), 60–66.

8. Sharopova Nigora Akbarovna, Measures to incentive teachers in the southern regions during the years of independence. International journal of philosophical studies and social sciences. Vol 4, Issue 4 (2024) P. 211-217

9. Sharopova Nigora Akbarovna, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE SECONDARY SCHOOLS OF THE SOUTHERN REGIONS. Oriental Journal of History, Politics and Law, 4(01), 60–66.

10. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024. // www.stat.uz

11. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Hujjatlar to'plami. 2017 yil, 6-son, 76-modda

12. Mirziyoyev Sh.M "Qonun ustuvorligi-inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" "O'zbekiston". 2017

13. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024. // www.stat.uz

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI SOHASIDA EKOLOGIK-IQTISODIY TA'LIM MAZMUNINING KONSEPSIYASI

*Chorshanbiyev Sherhali Esanpo'latovich,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda "hayot faoliyati xavfsizligi sohasida ekologik-iqtisodiy ta'lim mazmunining ilmiy - nazariy asoslari" tushunchalarini shakllantirish, unda texnika inson faoliyatining turli sohalariga jadal kirib borishi, stereotiplarning o'zgarishiga, fikrlashning va jamiyat o'zining qiyofasi deformatsiyasiga olib keldi. Inson intellektining o'zgarishi madaniyat va ma'naviy qadriyatlar darajasining pasayishiga, texnokratik tafakkur rivojlanishiga olib kelganligi asoslangan.

Shuningdek, shaharlarda aholining demografik o'sishi, sanoat-energetika salohiyatining oshishi, tabiiy atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va ekologik farovonlik o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi hamda ekologik-iqtisodiy inqirozning kuchayishiga olib kelishining dolzarb masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: hayot faoliyati xavfsizligi, texnogen yondashuv, ekologik-iqtisodiy ta'lim, ekologik ta'lim va tarbiya, uslubiy dialog, ekologik farovonlik va boshqalar.

ПОНЯТИЕ СОДЕРЖАНИЯ ЭКОЛОГО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЛАСТИ БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Чоршанбиев Шерhали Эсанпулатович,
Исследователь Каршинского государственного университета.*

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование у учащихся понятий "научно-теоретические основы содержания эколого - экономического образования в области безопасности жизнедеятельности», при котором интенсивное внедрение методик в различные сферы деятельности человека привело к изменению стереотипов, деформации мышления и образа самого общества. Обосновано, что изменение интеллекта человека привело к снижению уровня культуры и духовных ценностей, развитию технократического мышления.

Освещены также актуальные вопросы демографического роста населения в городах, наращивания промышленно-энергетического потенциала, усиления техногенного воздействия на природную среду, обострения конфликта между научно-техническим прогрессом и экологическим благополучием, а также обострения эколого-экономического кризиса.

Ключевые слова: безопасность жизнедеятельности, техногенный подход, эколого-экономическое образование, экологическое образование и воспитание, методический диалог, экологическое благополучие и др.

THE CONCEPT OF THE CONTENT OF ENVIRONMENTAL AND ECONOMIC EDUCATION IN THE FIELD OF SAFETY OF LIFE ACTIVITIES

*Chorshanbiyev Sherali Esanpulatovich,
Researcher at Karshi State University.*

Annotation. In this article, the formation of the concepts of “scientific-theoretical foundations of the content of ecological - economic education in the field of safety of life activities” in students, in which the technique has rapidly entered various spheres of human activity, led to a change in stereotypes, deformation of thinking and the image of society itself. It is based on the fact that the change in human intelligence led to a decrease in the level of culture and spiritual values, the development of technocratic thinking.

Also highlighted are the pressing issues of demographic growth of the population in cities, increased industrial and energy potential, increased Man-Made influence on the natural environment, increased conflict between scientific and technological progress and environmental well-being, and the fact that it leads to an exacerbation of the environmental and economic crisis.

Keywords: safety of life activities, man-made approach, environmental-economic education, environmental education and education, methodological dialogue, environmental well-being, etc.

Kirish. O'tgan asrning birinchi yarmi sanoatlashtirishning jadal o'sishi bilan ifodalanib, bunda zavod va fabrikalarning tutab turgan mo'rilari ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyotning yuksak yutuqlari deb baholanardi va inson idrokining qudrati oldida katta zavqni chaqirardi. XX asrning ikkinchi yarmi va uchinchi ming yillikning boshlanishi tabiiy atrof-muhit holatining keskin yomonlashuvi, iqtisodiy o'sish va bu o'sishni qo'llab-quvvatlovchi ekologik tizim holati o'rtasidagi yaqin aloqaning bardavom yo'qligi bilan tavsiflanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda oshib borayotgan ekologik-iqtisodiy inqiroz hamda ijtimoiy rivojlanishning tobora kuchayib borayotgan muammolari xalq xo'jaligi barcha tarmoqlari davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari vakillaridan rivojlangan mamlakatlarning barqaror ekologik-iqtisodiy rivojlanishga o'tishning yangi strategik rejasini ishlab chiqishni talab qiladi [1,179].

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyot rivojlanishining texnogen turi taraqqiy etib, u tabiatga ko'p ta'sir qiladigan va tabiatga zarar keltiradigan, ya'ni ekologik omilni (tabiiy resurslardan foydalanishga cheklov) hisobga olmaydi, bu esa ekotizimlarning buzilishiga olib keladi va insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bumerang kabi ta'sir ko'rsatishi, binobarin, Yerda hayot mavjudligiga tahdid solishi mumkin.

Texnogen yondashuv va atrof-muhitga iste'molchilik munosabati, tabiatdan ustun turish va uni jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirish istagi inson, tabiat va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarning uzilishiga olib keldi, garchi ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llariga turli darajadagi va miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda e'tibor qaratilgan. 1979 yilda BMT ning “Rivojlanish uchun fan va texnologiyalar bo'yicha” anjumanida barcha mamlakatlarga “tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ilm-fan va texnologiyaning mavjud qadriyatlar va

madaniyat bilan uyg'unligini hisobga olgan holda ilmiy tendensiyalar va ayrim texnik loyihalarning oqibatlarini baholashning ichki imkoniyatlari"ni rivojlantirish tavsiya qilindi [1, 80].

O'tgan asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi masalalarini kam aks ettirgan va biron-bir texnik vositani amaliyotga joriy etishda inson omilini hisobga olish minimal rol o'ynagan. Bugungi kunda mavjud murakkab ijtimoiy-texnik tizim insonni qimmatli va noyob ongli faoliyatning eng muhim elementi sifatida emas, balki uning komponentlaridan biri sifatida ko'rishda davom etmoqda. Zamonaviy texnogen sivilizatsiyaning yuzaga kelgan inqirozi uning mafkuraviy ideallari va qadriyat yo'nalishlarining noadekvatligini yana bir bor tasdiqlaydi [2, 148-149 b].

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Yuzaga kelgan ziddiyat E.M. Babasov tomonidan chuqur o'rganilib, uning mohiyati ochib berilgan: "Mafkuralashtirilgan, gipotetik dunyo tamoyillaridan foydalanib, fan voqelikning o'ziga xosligini aks ettira olmayapti. Ushbu mafkuralashtirish qatlamlaridan paradigma o'zgarishigacha tozalangan fan jamiyat faoliyatida o'zining munosib o'rnini, ma'lum bir holatini egallashga intilishi kerak. Faqat shu holatdagina tafakkur o'z mohiyatiga ko'ra ekologik toza bo'lib, jamiyatning global evolyutsiyasining tabiiy va uyg'un jarayoniga hissa qo'shadi.

Ekologik-iqtisodiy bilimlarning, tabiiy ekotizimlar, ekologik-iqtisodiy tizimlar, ijtimoiy-madaniy jarayonlar va ijtimoiy-tabiiy tizimlar rivojlanish qonuniyatlarining birligi, sivilizatsiya inqirozini yengishda ekologiya va iqtisodning ahamiyati dunyoning ekologik-iqtisodiy manzarasi haqida yangi tushuncha beradi. Bundan kelib chiqadiki, eng maqbul ta'lim tizimining asosiy afzalligi insonparvarlik yo'nalganligi hamda umuminsoniy qadriyatlarga yo'nalish bo'lishi kerak.

Ko'plab faol olimlar (G.V.Akopov, A.I.Valitova, V.I.Vernadskiy, E.V.Girusov, N.N. Moiseyev, G.A.Yagodin va boshq.) fikricha, ekologik-iqtisodiy muammolar o'rnashib qolgan qarashlar va stereotiplarni, insonlarning tabiiy muhitga nisbatan atvorini qayta ko'rib chiqish orqali hal qilinishi kerak. Bu jamiyatning ekologik va iqtisodiy jihatdan xavfsiz va barqaror rivojlanishini shakllantirish imkonini berib, bunda ijtimoiy ta'sir vositasi sifatida jamoatchilik ongi ijtimoiy nazorat mexanizmlari majmuining normal ishlashini ta'minlash imkonini beradi, pirovardida aholi atrof-muhitning ijobiy holatini saqlashga ongli ravishda ustuvor ahamiyat beradi [3, 179].

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Global ekologik-iqtisodiy muammolarning mavjud o'sib borishi, inqirozlar va keng ko'lamli ofatlarning rivojlanishi aksariyat iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda tabiiy muhitning holatini to'g'ri hisobga olishni talab qiladi. Paradoks shundaki, bugungi kunda Yerdagi chuchuk suvning zahirasi va sifati jahon olmos zahirasi qaraganda yuqoriroq qiymatga ega, ammo ekologik omil hali ham iqtisodiyotdan tashqari omil deb hisoblanadi va kam qadrlanadi. Dunyodagi hozirgi vaziyatning dramatik jihati shundan iboratki, hali klassik iqtisodchilar A. Smit, D. Rikardo va K. Marks iqtisodiy paradoksni hal qilishga urinishgan: agar narx foydalilikka bog'liq bo'lsa, unda nima uchun eng yuqori foydali ta'sirga ega bo'lgan bepul boyliklar (masalan, suv va havo) odatda juda past yoki umuman qiymati bo'lmagan holda baholanadi, ammo foydasi insonning tabiiy ehtiyojlari nazaridan yaqqol bo'lmagan boyliklar (olmos va hok.) juda yuqori qiymatga ega.

1968 yilda Parijda bo'lib o'tgan YUNESKO hukumatlararo anjumani biosfera

resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha "Inson va biosfera" deb nomlangan keng qamrovli harakatlar dasturini ko'rib chiqdi va qabul qildi. Mazkur anjumanda insoniyatning barqaror ekologik-iqtisodiy rivojlanishi uchun ekologik ta'limning maqsadga muvofiqligi va global zarurati ilk bor ta'kidlandi.

1977 yilning kuzida Tbilisida YUNESKO tomonidan YUNEP (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi) bilan birgalikda chaqirilgan ekologik ta'lim bo'yicha birinchi hukumatlararo anjumani dunyoda ekologik ta'limning rivojlanishi uchun muhim turtki bo'ldi. YUNESKO atrof-muhit sohasida ta'lim va tarbiyaning quyidagi asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi:

- atrof-muhitni texnologik va ijtimoiy jihatlarni (iqtisodiy, siyosiy, madaniy-tarixiy, axloqiy va estetik) hisobga olgan holda tabiiy va texnogen yaxlitligida ko'rib chiqish;
- uzluksiz bo'lishi: maktabgacha ta'lim darajasidan boshlash va hayot davomida rasmiy va norasmiy ta'limning barcha bosqichlarida davom ettirish;
- har bir fanning o'ziga xos mazmuniga tayangan holda fanlararo xususiyatga ega bo'lish, imkoni boricha yaxlit va muvozanatlashgan istiqbolni yaratish;
- talabalar boshqa geografik hududlardagi atrof-muhit sharoitlarini yaxshiroq tushunishlari maqsadida atrof-muhit asosiy muammolarini mahalliy, milliy, mintaqaviy va xalqaro tizimlar nuqtai nazaridan o'rganib chiqish;
- atrof-muhitning hozirgi va kelajakdagi holatiga e'tibor qaratish;
- talabalarga o'qitishni rejalashtirishda ishtirok etish imkoniyatini berish va ularga qaror qabul qilishlari uchun sharoit yaratish; atrof-muhit muammolarining alomatlari va haqiqiy sabablarini aniqlashga yordam berish; tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'qitishda amaliy faoliyat va ilg'or tajribalardan kengroq foydalanish [3,98].
- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

1990 yil yanvar oyida Moskvada "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashash uchun rivojlanish bo'yicha global forum" bo'lib o'tdi, unda YUNESKO Bosh direktori F.Mayor forum a'zolariga murojaatida atrof-muhit muammolarni hal etishda "Global tarbiya" eng muhim omil bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Global tarbiyaning mohiyati bolalar bog'chalaridan tortib universitetlargacha bo'lgan barcha ta'lim dasturlari markaziga atrof-muhit muammolarini qo'yish, o'qituvchilar va boshqaruv apparati xodimlarini bu borada tayyorlashni nazarda tutadi. Taraqqiyot strategiyasi umumiy ta'lim integratsiyasiga tayanadi. "Agar biz har bir bolaga quyidagi oddiy va ishonarli fikrni singdirmasak, bizning omon qolishimiz, atrof-muhitni muhofaza qilishimiz faqat mavhum tushunchalar bo'lib qolishi mumkin: odamlar – bu tabiatning bir qismi, biz hayotning o'zini qanday sevsak, daraxtlarimiz va daryolarimizni, ekin maydonlarimizni va o'rmonlarimizni shunday sevishimiz kerak" [4,122].

O'sha davrda BMT Bosh kotibi lavozimini egallagan X.Peres de Kuelyar forum ishtirokchilariga murojaat qilib, ushbu muammoni hal qilishda turli yondashuvlarni (siyosiy, iqtisodiy, gumanitar) muhokama qilish mumkinligini, ammo ijobiy o'zgarishlar ro'y berishi uchun Yer yuzidagi barcha odamlar bu qanchalik muhimligini tushunishlari uchun muammoni hal qilishning dolzarbligiga butun dunyo e'tiborini qaratish kerakligini aytdi. X. Peres de Kuelyar jamoaviy xavfsizlik tamoyili nafaqat siyosiy va harbiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham xalqaro siyosat va aniq harakatlarning asosiy tamoyiliga aylanishi kerakligini ta'kidladi.

YUNESKO fikricha, ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishda umumiy ta'lim

muhim rol o'ynashi kerak, bunda "global ta'lim tarmog'i" konsepsiyasini ishlab chiqish asosiy strategik maqsad bo'lishi kerak. Global muammolar va yaqinlashib kelayotgan xavf-xatarlar bilan tanishish maktabgacha ta'lim tizimlaridan boshlanishi kerak va bu sayyora miqyosida inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam berardi [4, 43].

Davlatning ekologik va iqtisodiy siyosati jahon va mahalliy rivojlanish tajribasidan foydalangan holda uni amalga oshirishda mamlakat aholisi va butun jamiyat ishtirok etadigan strategiya va taktikani ishlab chiqishi kerak. Bu yerda inson ongini ekologizatsiyalash, iqtisodiyotni ekologizatsiyalash muammolarini hal etishning konseptual modeli va strategiyasini ishlab chiqish hamda aholini ekologik-iqtisodiy tarbiyalash dasturini yaratish zarurligi haqida gap bormoqda.

Ekologiya va iqtisodiyot Rivojlangan mamlakatlar milliy xavfsizligining asosiy komponentlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Rivojlangan mamlakatlarning milliy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimida iqtisodiy masalalarni hal etishda ekologik va iqtisodiy axborot va ta'limning rolining kuchayishi kuzatilmoqda, shu sababli, ekologik va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalarini birlashtirish, ekologik va iqtisodiy xavfsizlik sohasida kombinatsiyalangan o'qitish darajasini oshirish zarurati dolzarb bo'lib bormoqda [5,86].

Zamonaviy iqtisodiy nazariyaning vazifalaridan biri sifatida ekologik qadriyatlar va omillarni iqtisodiy toifalar qatoriga kiritish zarurati ko'rsatiladi. Iqtisodiyot ekologizatsiyasi, ekologik-iqtisodiy tafakkur, ekotsentrik dunyoqarashni shakllantirish hozirgi davrning eng muhim talabidir. Iqtisodiyot ekologizatsiyasi deganda atrofdagi dunyoga yanada har tomonlama va tizimli yondashish, tabiatning inson hayotidagi o'rni anglash, shuningdek, ishlab chiqarishning tabiatga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ekologizatsiyasi tushuniladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, ekologiya va iqtisodiyot hozirgi kunda inson va jamiyat ma'naviy, ijtimoiy va ishlab chiqarish hayotining barcha sohalariga tegishli bo'lib, har tomonlama ekologik va iqtisodiy tayyorgarlik davlatlarning ekologik va iqtisodiy siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni saqlash ekologik ta'limning o'zaro bog'liq muhim komponentlari bo'lib, insonning mohiyati bilan chuqur bog'langan. XX asrda sanoatlashtirishning jahon taraqqiyoti davrida inson tabiatni o'ziga bo'ysundirishga va tabiat inson ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilganligini va inson mavjudligining bir qismi ekanligini isbotlashga harakat qildi. Ammo bunda insoniyat chuqur xatoga yo'l qo'ydi, chunki insonning o'zi ming yillar davomida shakllangan tabiat va madaniyatning bir qismidir. 1854 yilda Sietl (AQSH) hindu rahbari Tyaun Morez ajoyib so'zlarni aytdi: "Yer sayyorasi – bizning onamiz... Agar barcha yulduzlar vafot etsa, odamlar to'liq yolg'izlikdan o'lishadi. Hayvonlar bilan nima sodir bo'lsa, odamlar bilan ham shu sodir bo'ladi. Hamma narsa o'zaro bog'liq... inson Yerga tupursa, o'ziga tupurgan bo'ladi... Yer insonniki emas, inson Yerniki" [5, 13-b].

Insonning sog'lom muhitda xavfsiz yashash sharoitlarini ta'minlash, o'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligini saqlash, tabiiy tizimlarni tiklash, madaniy va tarixiy qadriyatlarni salbiy texno- va antropogen ta'sirlardan himoya qilish, ya'ni barkamol shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratish – murakkab, lekin shu bilan birga axloqiy va shuning uchun zaruriy jarayondir (A.A.Gostev, V.I.Danilov- Danilyan, V. Dejkin va boshq.).

Mazkur muammo bilan faol shug'ullanayotgan xorijiy va mahalliy olimlarning fikricha, tabiatdan foydalanish erkinligi tabiatni muhofaza qilish va Yerdagi hayotni barqarorlashtirish maqsadida muayyan ma'naviy va huquqiy qonunchilik bazasi bilan qat'iy tartibga solinishi kerak. Odamlarning tabiatdan foydalanish bo'yicha majburiy cheklovlar ostida yashashni istamasligi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning rivojlanishiga, tabiat va odamlarning tanazzulga uchrashiga olib keldi va pirovardida Yerdagi barcha hayotning nobud bo'lishga sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisi va ishlab chiqarish obyektlari xavfsizligini ta'minlash muammolari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalarida olib borilayotgan islohotlar, shuningdek, atrof-muhitning qaytmas buzilishi xavfi ortib borayotgani bilan chambarchas bog'liq. Ekstensiv iqtisodiy o'sish jarayonlari ekologik tizimlarning degradatsiyasiga olib keladi va bu, o'z navbatida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga putur yetkazadi.

Ekologik tizim – bu tabiiy muhitning obyektiv mavjud bo'lgan, fazoviy va hududiy chegaralariga ega bo'lgan, uning jonli va jonsiz elementlari yagona funksional yaxlitlik sifatida o'zaro ta'sir qiladigan va moddalar, energiya va axborot almashinuvi bilan o'zaro bog'langan qismidir. Ekotizim tushunchasi ilk marotaba 1935 yilda ingliz biologlari Artur Djordj Tensli tomonidan kiritilgan. Ekotizimning muvazansizligi doimiy ravishda tashqi va ichki ta'sirlar hamda insonning faol iqtisodiy faoliyati ta'sirida seziladi [6, 114].

Tabiiy atrof-muhitga tobora kuchayib borayotgan texnogen ta'sir, darhol foyda olishga urinishlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va ekologik-iqtisodiy farovonlik o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi mamlakatda ekologik-iqtisodiy tizimning buzilishiga olib kelmoqda va yaqin kelajakda halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy tizim – bu mulk munosabatlari va unda amal qiluvchi tashkilot shakllari asosida jamiyatda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar majmuidir. Ekologik-iqtisodiy tizim – bu ma'lum bir hudud bilan chegaralangan va texnobiosferaning bir qismini ifodalagan tizim bo'lib, unda tabiiy, ijtimoiy va sanoat tuzilmalari va jarayonlari modda, energiya va axborot aylanishining o'zaro qo'llab-quvvatlanadigan oqimlari bilan bog'langan.

Ekologik-iqtisodiy tizimning mavjudligi va o'z-o'zini saqlab qolish qobiliyati bog'liq bo'lgan muhim xususiyatlaridan biri bo'lib salbiy hodisaning yuzaga kelishi ehtimoli deb tushuniladigan xavf hisoblanadi. Salbiy hodisalar insonlarning hayoti va sog'ligini saqlashga huquqlarining, tashkilotlar va ishlab chiqarish obyektlarining esa faoliyati va rivojlanishiga huquqlarining buzilishiga olib keladigan xavfli tabiiy, texnogen va ijtimoiy hodisalar (voqea, avariya, hujum, bezorilik va boshq.) natijasida paydo bo'lishi mumkin. Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash xavf kabi obyektiv voqelik va jamiyatning uning oldini olish, ehtimolli oqibatlarni kamaytirish va bartaraf etish ehtiyoji o'rtasidagi ziddiyatlarni tartibga solishda ijtimoiy hodisa sifatida vujudga keladi [6, 128].

Ekologik-iqtisodiy xavfning potensial manbalari bo'lib har qanday iqtisodiy (sanoat), maishiy, harbiy va boshqa faoliyat obyektlari hisoblanadi. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, butun jahon hamjamiyati umumiy xavfsizlikka quyidagi tahdidlarni ajratib ko'rsatishi va doimiy nazoratga olishi kerak: harbiy tahdidlar, iqtisodiy-ijtimoiy tahdidlar, ekologik tahdidlar, terrorizm tahdidlari (zamonaviy dunyoda tobora kengayib borayotgan xavfning yangi turi).

Inson jamiyatining rivojlanishi hech qachon nizolarsiz bo'lmagan, ya'ni tabiiy atrof-

muhit va sivilizatsiya rivojlanishi o'rtasida har doim ziddiyat mavjud bo'lgan. Insonning moddiy boyliklarini doimiy ravishda oshirishga intilishi tabiiy resurslardan haddan ortiq foydalanishga olib keladi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga va mamlakat ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishga olib keladi.

Tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'p jihatdan to'g'ri iqtisodiy qarorga (yondashuvga) bog'liq bo'ladi, ya'ni iqtisodiyot va ekologiya doimiy yaqin va uzviy aloqada bo'lishi kerak. Ekologiya va iqtisod (ekonomika) yunon tilida bitta ildizga ega – "οἶκος – uy, xo'jalik", lekin aslida bu ikki tushuncha, bu ikki hayotiy muhim tarkibiy qism "zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uyi"ga ikki xil kirish va ikki xil chiqish yo'li bo'lib qolmoqda.

O'tgan asrda insoniyat jamiyatining tabiatni zabt etish va uning ustidan mutlaq hukmronlikka ega bo'lishga urinishi, bu yondashuvning yorqin misoli bo'lgan "Inson oliy aqlidir va tabiat unga bo'ysunishi kerak", "Mamlakatimizda hisobsiz tabiiy boyliklar mavjud", "Biz tabiatdan marhamat kutishimiz shart emas, tabiatdan boyliklarni tortib olish – bizning vazifamiz" kabi g'oyalar muvaffaqiyatli bo'lmadi, balki muammoni yanada kuchaytirdi.

Bugungi kunda dunyoda har bir kishiga yiliga 20 tonnadan ortiq sanoat va boshqa turdagi chiqindilar to'g'ri keladi. Har yili atmosferaga 200 million tonnadan ortiq oltingugurt va azot oksidi, murakkab ifloslantiruvchi moddalar chiqariladi, har yili milliardlab tonnalarda chiqariladigan karbonat angidrid miqdori ko'paymoqda.

Tirik organizmlarning chiqindilari odatda tabiatdagi modda tabiiy aylanishiga mos bo'lgan holatda, tabiiy resurslarning tobora ortib borayotgan miqdorini sarflayotgan insonning xo'jalik faoliyati vaqt birligida shunchalik ko'p chiqindilar hosil qiladiki, tabiiy ekotizimlar endi ularni o'zlashtira olmaydi. Demografik prognozga ko'ra, 2015 yilga borib dunyo aholisi 5,8 milliarddan 7,4 milliard kishiga ortadi, ayni vaqtda aholi jon boshiga YAMM (yalpi milliy mahsulot) 3000 dollardan 4350 dollargacha oshishi, mahsulotning qo'shimcha qiymati esa 1000 dan 1500 AQSH dollargacha oshishi kutilmoqda [6, 136-b].

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Cheksiz iqtisodiy o'sish tabiiy tizimlarning o'zlashtirish funksiyasi chegarasidan oshib ketishiga olib keladi va ekologik nomutanosiblik rivojlanishining asosiy sababiga aylanishi mumkin, bu esa bumerang tarzida iqtisodiyotda yana ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda barqaror ishlashini ta'minlash uchun mamlakat, hudud, alohida korxonalar va hok. birgalikda tabiiy muhit va iqtisodiyotni muhofaza qilish bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqishi shart.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, ekologik-iqtisodiy xavf xavfsizlikni ta'minlash faoliyatining obyekti bo'lib hisoblanadi. Robert lug'atiga ko'ra, "xavfsizlik" atamasi birinchi marta XII asrda qo'llanila boshlangan bo'lib, insonning har qanday xavfdan himoyalangan xotirjam ruhiy holatini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI

1. R. Sultonov Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari. T.: «Musiq», 2007.
2. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasining ma'ruzalari. T.: «O'qituvchi», 2001y.
3. Shodimetov Y. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T.: «O'qituvchi». 1994.
4. Holmo'minov J. Ekologiya va qonun. T.: «Adolat», 2000.
5. Egamberdiyev R, Eshchonov R. Ekologiya asoslari. T.: «Zar qalam», 2004.
6. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T.: «O'zbekiston», 2003-y.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

THE DEFINITION AND LINGUISTIC ASPECTS OF THE CONCEPT OF LOVE IN ENGLISH AND UZBEK

Alibekova Zilola Abdulkhayit qizi
Jizzakh State Pedagogical University, (PhD)

Abstrakt. This article discusses the concept of love in Uzbek and English, as well as in various dictionaries in other languages, and its linguistic and cultural features. The reasons for the linguistic and cultural similarities and differences between languages in general and in particular are analyzed.

Keywords: love, affection, gender, lingo culturology, identification, union, interest, passion, emotion, Abstraktion.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КОНЦЕПТА ЛЮБВИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Алибекова Зилола Абдулхаитовна
Джизакский государственный педагогический университет, (PhD)

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие любви в узбекском и английском языках, а также в различных словарях на других языках, и его лингвистические и культурные особенности. Анализируются причины лингвистических и культурных сходств и различий между языками в целом и в частности.

Ключевые слова: любовь, привязанность, гендер, лингвокультурология, идентификация, союз, интерес, страсть, эмоция, абстракция.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA «MUHABBAT» TUSHUNCHASINING TA’RIFI VA LINGVISTIK JIHATLARI

Alibekova Zilola Abdulkhayit qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillari hamda boshqa tillardagi turli lug‘atlarda ishq tushunchasi, uning lingvistik va madaniy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Umuman olganda, tillar o‘rtasidagi til va madaniy o‘xshashlik va farqlarning sabablari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sevgi, mehr, jins, lingvokulturologiya, identifikatsiya, birlashma, qiziqish, ehtiros, hissiyot, mavhumlik.

Our language wide and rich possibilities research reach through his position and authority increases and this through grow upcoming our youth deep knowledge and beautiful culture the owners in being service We are comprehensive important has been from tasks one let’s say error it won’t be. Past of the century last ten in the year independent linguistics science has become Linguistic culture the language culture event as, “language personality cultural characteristics vision to the world to look linguistics from the prism determiner as a language learns national language, when language separately national

of mentality expression acts as «. Main category - concept in Linguistics different from the sides studied.

The concept of « man». in his mind culture clot; it is “cultural values not the creator simple of a person himself to culture entrance and from him outside to him effect showing is something «. The concept of « love» is subjective category of culture universal «, as individual life also means individual existence from the border exit through, also human with to unite aspiration through forms. absolute good the concept of « love « in dictionaries explain for simple mother language in understanding dictionary in the dictionary SI Ojegov «of the Russian language dictionary «: « A dictionary is concepts, interpretations or another to the language translations with words collection (typically alphabet order). « On the other hand, VGGak's According to the lexicographer, « society is speech collective carrier – and from the dictionary help asking, like to the lexicographer question like giving person between intermediary task will do.” Dictionary, Sapirin in his opinion, a lot in terms of of culture development level reflection to continue need « Dictionary of the tongue content side as always known one of society cultural come exit reflection bringer characters complex task performs Big dictionary, his according to some cultural of complexes antiquity reliable pointer being service will.»

To all attempts despite the language lexicon system complete descriptive single vocabulary within impossible it seems VV Dubichinsky right as noted, « language any dictionary scientific in the analysis this event another in appearance, another point of view from the point of view present reach possible has been some aspects always own on the contrary without finding will remain.» That's why for lexicography development present stage we are very a lot different different dictionary publications we will observe. Dictionaries different classifications there is. We are the most famous to classification - LVShcherba classification we rely on; he is one row to contradictions is based on « Lexicographic of works all in abundance language units in description two the approach separate show possible: semasiological (from form to content) and onomasiological (content units this content official to express to methods).

« So, speak up dictionary composition basically two in measure lexicographic interpretation takes: from character to understanding and from the concept to the mark. « From the mark to conception « dimension explanation in the dictionary complete done is increased, his initial task dictionary unity semanticization is to do Let's get philosophical and psychological encyclopedic of the concept of « love « in dictionaries semantic appearances seeing Let 's go on the ground words « from the sign to the concept « dimension given. Philosophical encyclopedic in the dictionary love sincere and deep feeling, another to a person, a person to the team or to the idea aspiration as is described. Note that must be love of the event importance and complexity his biological and spiritual, personal and social, intimate and general important contradictions intersection with is determined.

Dictionary ancient Greek in the language there is has been different different love of types work developed terminology present is enough «Eros» is it by itself appear to be and passionate itself giving , enthusiastic love being , it is physical or to spirituality focused , but always his to the object « from below looks up and pity or indulgence does not leave room for «Filia» is it love-friendship , love , social connections and personal selection because of of the person to the individual has been love «Storge» - devoted to love , especially family , «agape» - selfless to « neighbor « and humiliating is love

. In ethics love means « people between so relationship it is understood that when one person the other to himself near, himself with thinks it depends and that or this way with him himself identification does: u union and approach feels the need, own interests and others determines with him aspirations, optional respectively physical and spiritual himself to another gives and him mutually to take over strives.» Linguistic encyclopedic in the dictionary love one of the people another to the individual relatively stable, deep, dominant has been attraction to do feeling, intuitive respectively maximum value as acceptance made, passion to the power achieved as is described.

The individual is intimate love feeling society traditions and standards , family education to himself special features with depend However , love appear in being , close person's absolute acceptance to be done determiner situation factors are also fundamental reason role to play can «Love is to a person has been spiritual and emotional attitude the most high appearance Beloved person absolute acceptance to be done sometimes to him relatively generally accepted done of requirements to shorten take comes » Here we Stendhal half-forgotten crystallization theory we remember can Philosopher his « Love about ” brochure salty in the mines horn if left , him crystal covers it bright in a miracle previous the horn never who he wrote that he does not know . Crystallization, as Stendhal noted, « love is called madness. « Of madness the essence, however, to man the biggest pleasure dedicates.» Great psychological in the encyclopedia of love manifestation to be to the object depends has been love varieties given : 1) brotherhood love (« equal people between love «) of love all of types basis organize doer main is a type ; 2) motherhood love (« to mother has been in love sexual closeness to do sharp condemned «); 3) erotic love (Author: basically opposite gender of their bodies sensual wishes to satisfy directed will be); 4) himself love (Author : there is selfishness in this himself in love to others damage deliver superior stands); 5) To God love MIEnikeev's psychological encyclopedic in the dictionary love wide in the sense , « to each other has been aspiration , own in existence to each other respect denotative and even to this contribution It is considered « adding «.

Love is close love and away has been to love is divided. Christianity by announcement made , antique of the period main moral value suitable coming moral value , own near has been love one of time in itself broader in content was Own near has been love , that's it of a person rights , services and services discussion without one person another, as well as himself for to stand means Concept content in learning etymology important place holds That's why for we are Uzbek and English etymological « love « in dictionaries (Arabic « love (un) « , « säb «, « sev « verbs « love «) of the concept interpretation offer we do Uzbek of the language explanatory in the dictionary « Love [a. - love , love ; link] 1 Someone's to someone from the heart surrender feeling love Love beauty do not choose , sleep is a place . Proverb. Girl The wayfarer deep love, his alone the name to hear with heart waves was This is loving girls to his heart Summer when. cancer the sun with together entered was Oybek, Chosen works. Everything in place, only will pass Visol buried fire love G. Joraeva, Iqbal. 2 To someone thing or to work giving, inclination feeling, love. To the music love to put to art has been love Wrestlers to one love to the other hatred with looking standing people in his eyes exciting on the face two the world struggle reflection as if was M. Ismaili, Ferghana until My father even if you are not me fatherhood love with loved loyal and kind Without a person, that is spiritual my father A. Qadiri, Past days 3 Love (women name).” In style given is English from

the language different respectively this Abstrakt the horse person (female) name also used in adjectives with English from the language difference if he does, that's it of the word synonym has been « Love 1 Opposite gender of people (land and wife, boyfriend and girl's) to each other relatively deep intimate, from the heart and unselfishly warm relationship feeling love Love is money not for sale, heart to money not found Proverb.

Love his [Gulnor's] heart every day again deeper taking over the pain after strengthening, the true meaning of love understands started Oybek, Chosen works. Love is human to the heart clarity, light, to the heart good dreams puts they say S. Ahmed, Court. Love pulling will it be Stone scales with. E. Vahidov, Love. 2 Someone near someone or to something relatively affection, love feeling my time grown up - love of the Motherland! My chest is full of love for the Motherland! Oh. Mirza. « In style expressed and opposite gender to the representative and to the country relatively love in the sense of application expressed. Yu.S. Stepanov points out that the key of the word meaning of understanding passive, historical layer included information own into takes Internal form or etymological feature or etymology only researcher and to researchers open is given but this this the concept users for concept content this layer in general there is it's not means it's not. He is them for indirectly there is being his based on another layer and meanings to the body came and holding stood up « Y.S. Stepanov the concept of « love «. to learn endings since « internal linguistic form three from the component consists of: a) two person's mutually similarity, b) installation or alarming with this action similarity «, c) this action done increase, or rather, « circle cycle according to the model, in which both it's the participant's turn with the role of «address» and « addressee «. they do.» R.G.Akhmetyanov briefly Tatar historical and etymological the concept of « love « in the dictionary with synonym the words « yar, soyu « for explanations there is. The word « Yor «. second in the sense of « beloved «; Aziz « Persian yar» dus, created from the word «kese «. come came out; ancient literary in the language wound up the word means « companion «. means English of the language etymological in the dictionary (The Barnhart concise dictionary of etymology) to the word « love «. the following comment given: love in the 13th century the horse love in the form of used; next love (probably before the 14th century); ancient English taken from Lufu (before 725). Until 1121 love verb Louvain in the form of used; later on, Loven in the form (probably before the 12th century); ancient English taken from Lufian (before 725). So, and compared the concept of « love « in languages ancient of times since applied came and each in the language known structural to changes met Ours in our opinion, etymological in terms of this Tatar and English the concept of « love « in languages for similar is a feature. In dictionaries of understanding in the transfer similarity and differences partially universal, partial to himself special to the feature have is, « each in the language speakers own languages prism through the world differently to see for this event appropriate” In general when Abstrakt of horses a person life, faith and marriage style with depends the fact that because of linguistic and cultural in terms of certain to himself to properties have to be natural case.

USED LITERATURE

1. Гак, В.Г. Сопоставительная лексикология. /В.Г.Гак. М., -1977. - С.276.
2. Дубичинский, В.В. Теоретическая и практическая лексикография/ Дубичинский. В.В. Вена–Харьков, 1998.-С.245.
3. Еникеев, М.И. Психологический энциклопедический словарь



4. Кобозева.И.М.Лексическая семантика /И.М.Кобозева.М., 2000.С.214
5. Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред.В.Н.Ярцева. М., 1990.-С.204.
6. Маслова,В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. М.:Академия, 2001.- 208 с.
7. Можейко М.А. Любовь / М.А.Можейко // Новейший философский словарь: 3-е изд., исправ. Мн., 2003. - С. 578-580.
8. М.И.Еникеев. М., 2008. - С.376. Barnhart concise dictionary of etymology. – New York,1995.- P.341.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати., II жилд. Тошкент: Университет., 2000.
10. Степанов, Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е, исп.идоп. – М., 2001,- 824с.- С.40.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI DISKURSI VA MATNIDA KOGEZIYA HAMDA KOGERENTLIK: IZOMORFIK VA ALLOMORFIK JIHATLAR

*Ashurova (Latipova) Nargizaxon Valijon qizi
Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchi doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida diskurs va matnida kogeziya tushunchasi yoritib beriladi. Shuningdek, kogerentlik, izomorfik va allomorfik jihatlarining qanday ahamiyat kasb etishi kogeziya matnida tilshunoslikda chog'ishtirish orqali muhimlik tomoni tushuntiriladi

Kalit so'zlar: diskurs, kogeziya, kogerentlik, izomorfik va allomorfik jihatlar

COHESION AND COHERENCE IN THE DISCOURSE AND TEXT OF UZBEK LINGUISTICS: ISOMORPHIC AND ALLOMORPHIC ASPECTS

*Ashurova (Latipova) Nargizaxon Valijon qizi
Independent Doctoral Researcher at Andijan State University*

Annotation. This article sheds light on the concept of cohesion in Uzbek linguistics, both in discourse and text. It also explains the importance of coherence, isomorphic and allomorphic aspects in the context of cohesion in linguistics through comparative analysis.

Key words: discourse, cohesion, isomorphic and allomorphic aspects

СВЯЗНОСТЬ И СВЯЗНОСТЬ В ДИСКУРСЕ И ТЕКСТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ: ИЗОМОРФНЫЙ И АЛЛОМОРФНЫЙ АСПЕКТЫ

*Ашурова (Латыпова) Наргизахон Валиджонова
независимый соискатель Андижанского государственного университета*

Аннотация. В данной статье освещается понятие связности речи и текста в узбекском языкознании. Также в лингвистике важность связности, изоморфности и алломорфности объясняется в тексте связностью через контраст.

Ключевые слова: дискурс, сплоченность, изоморфные и алломорфные аспекты

Kirish (Introduction). Diskurs va matn barcha o'zaro bog'liq muloqot va ko'rsatmalar. Diskurs, bir mamlakat yoki jamiyatning o'ziga xos til va uslubidagi ta'til, fikr va qarorlarni ifodalashga davo etadi. Matn esa yozma yoki o'zaro muhokama uchun chestiy materialni ifodalaydi. Bu ikkisi bir-birini qo'llab-quvvatlashi mumkin va ular bilan bir qatorda o'zingizning fikrlarini tabiiy tutishingiz mumkin. Diskurs va matnning o'zgaruvchanligi haqida gapiraylik. Diskurs matnlardagi ma'noni tushunishning uslubini anglatadi, buning o'zgaruvchanlik huquqiy, ijtimoiy yoki siyosiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Matn esa ma'noni ifodalashning ko'pincha (lekin shart emas) chiqargan uslubi. Bu quyidagi belgilardan tashkil topadi: so'zlar, so'z to'plamlari, stata, jumlarlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review). So'ngi yillarda tilshunoslik sohasida matnlaro muloqot, kogeziya va kogerentlik tushunchalarining o'rganilishi kuchaymoqda. Bu borada M.A.K.Haliday va Ruqaiya Hasanlarning "Cohesion in English" asari fundamental ahamiyat kasb etadi; ular matnlaro bog'liqlikni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida referensiya, ellipsis, substitutsiya va bog'lovchilar

kabi tushunchalarni batafsil yoritib berishgan. Shuningdek, M.Beyker, P.Portner va C.Maienborn, E.Hatch, A.C.Henry, A.Algryani, K.Kunz va E.Steyner, P.Helati va boshqalarning ishlari ishlarini kogerentlik, izomorfik va allomorfik tushunchalarni chuqurroq tahlil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).

Tilshunoslik nuqtai nazaridan diskurs bu jonli muloqot jarayoni bo'lib, u yozma nutqdan muhim farqlarga ega. Diskursning asosiy xususiyatlaridan biri uning spontanligi, mavzuga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishi, tugallanganligi, mavzuga bevosita aloqador bo'lib tinglovchiga tushunarli tarzda ifoda etiladi. Diskurs muloqotning janrlararo o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi va unda jiddiylik yoki nojiddiylik, rituallik, munosabatlarni boshqarish, muloqotning masofaviy aloqalari hamda munozara kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, diskurs ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik omillar orqali shakllanadi va voqealikka bog'liq bo'lgan matn sifatida namoyon bo'ladi. Diskurs nutq yaratuvchilarning kognitiv jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda ijtimoiy maqsadga xizmat qiladi. Diskurs "voqealarga to'la hayot" sifatida ta'riflanadi, shu sababdan "matn" tushunchasidan farqli o'laroq, u eski matnlarga nisbatan ishlatilmaydi. Zero, bunday matnlar jonli hayot bilan bevosita bog'lanish imkoniyatiga ega emas. Bundan tashqari, diskurs muloqot jarayonida paralingvistik elementlarni (mimika, jestlar) ham jalb qiladi. Bu xususiyatlar muloqotda asosiy vazifalardan biri bo'lgan — suhbatdoshga his-tuyg'ularni (ritmik, referent, semantik, hissiy-bo'yoqdor) yetkazish va illokutiv kuchni (undov jestlari, ishontirish) oshirishga yordam beradi. Muhimi shundaki, har ikkala tushuncha – diskurs va matn – o'z mazmunlarini samarali ifodalash va mo'ljallangan tushunchalarni aniq yetkazish uchun mantiqiy bog'liqlik va struktural-semantik jihatidan mutanosib bo'lishlikka ehtiyoj sezadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Aytish joizki, diskurs va matn tahlilida "kogeziya" va "kogerentlik" tushunchalari muloqotning ma'no va mazmun birikmasini shakllantiruvchi, uning mohiyatini yuzaga chiqarib beruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Matnning mohiyatan bir-biriga bog'liqligini ta'minlash jarayoni keng ko'lamlil murakkab til vositalari tizimiga asoslanadi. Ushbu jarayon "kogeziya" va "kogerentlik" kabi ilmiy tushunchalarning tadbiq etilishiga yo'l ochadi. Zero "kogeziya" atamasining birinchi ma'nosi molekulyar yoki kimyoviy bog'lanish sohasida qo'llaniladi, ya'ni molekulalarning jismda ulanishi, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ifodalaydi, matnda esa tarkibiy qismlarining mantiqiy va ma'noli bog'lanishiga misol bo'ladi. Biroq, matn tuzilishidagi kogeziya na faqat ilmiy va texnik matnlarda, balki har qanday turdagi muloqotda ham juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu uzviy bog'lanish jarayonining tizimlilik va tartiblilik asosini belgilab beradi.

Kogeziya - tilshunoslikda fundamental tushuncha hisoblanib, asosiy matnni qanday tuzilganligini va ma'noni qanday uzatishni tushuntirishda katta ahamiyatga ega. Kogeziya matn ichida birlashish va bog'lanish jarayonini hosil qiluvchi grammatik, semantik va leksik xususiyatlarni mujassam etadi. Shuningdek, kogeziya jumlar va paragraflarni bir-biriga bog'lashga ko'maklashuvchi, ma'lumot va ma'no oqimini osonlashtiruvchi turli xil lingvistik vositalarni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalar matnning boshqalariga nisbatan qanday bog'liqlikni aniqlashda yordam beradi va matnning tezlik bilan o'qilishiga poydevor bo'ladi. O'quvchilar yoki tinglovchilar o'rtasidagi muloqotni kuzatish va matndagi turli elementlarning bir-biriga qanday aloqalanganligini anglab yetishini ta'minlaydi. Kogeziyani tushunish tilshunoslarni nazariy qismi uchun ham, til

amaliyotchilari uchun ham juda muhim, chunki u tildan foydalanishni boshqarishning murakkab mexanizmlarini yoritadi.

I.R. Galperin o'zining tilshunoslik sohasidagi ishlarida matnning tarkibiy va funksional xususiyatlarini ochib beradi. U matnni tahlil qilishda asosiy deb topilgan sakkizta kategoriyani sanab o'tadi: ma'lumot berish qobiliyati, bo'linuvchanlik, kogeziya (ya'ni matn bo'ylab aloqalar tizimi), kontinium (matnning vaqt va makon bo'yicha izchilligi), qismlar avtosemantiyasi (qismlarning o'z-o'zidan ma'no beruvchi xususiyatlari), retrospeksiya va prospeksiya (matnning o'tmish va kelajakka qarab yo'naltirilganligi), modallik, yaxlitlik va tugallanganlik. Ushbu kategoriyalar matnning tuzilishini va uni qanday qabul qilinishini aniqlovchi asosiy mezonlar sifatida xizmat qiladi. Ko'rinadiki, odam va uning tana a'zolarini biridan ajratib bo'lmaganidek, kogeziya ham matn tarkibida yotuvchi matn bo'ylab so'z va iboralarning bir-biriga bog'lanishini ta'minlovchi til vositalaridan foydalanish jarayonidir. Demak, I.R.Galperin keltirgan sakkiz kategoriya ichida kogeziya allaqachon mavjud bo'lib, bu matn bo'ylab so'z va iboralar o'rtasidagi aloqalarni ifodalaydi. Kogerentlik esa bu aloqalarning mantiqiy va tizimli ekanligini, butun bir matnning semantik yaxlitligini ta'minlovchi kontseptual va kontekstual elementlarning uyg'unligini ta'minlaydi. Shuning uchun bu ikkala tushuncha bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan kelib chiqib, to'qqizinchi kategoriya sifatida kogerentlikni matnning poydevori sifatida e'tirof etib, uni yuqoridagi asosiy deb topilgan sakkizta kategoriyalar safiga qo'shishni joiz, deb bilamiz: kogerentlik (matnning semantik yaxlitligini ta'minlovchi kontseptual va kontekstual element).

V. Dressler va R.A.de Bograndlar o'z ishlarida matn (textuality) ning sifatli va samarali bo'lishini belgilovchi yetti asosiy kategoriyani ta'kidlaydilar. Ular quyidagicha ifodalangan: 1) (cohesion) kogeziya: matnning bir-biriga bog'liq bo'lishi grammatik, leksik, ritmik va grafik vositalar orqali ta'minlanadi. Bu vositalar matn qismlarini bir-biriga integratsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, natijada matnning strukturaviy yaxlitligi hosil bo'ladi; 2) (coherence) kogerentlik: matnning turli qismlari o'rtasidagi semantik va mantiqiy aloqalar (masalan, sabab-oqibat, referensiya, vaqt va makon bilan bog'liq munosabatlar) asosida tashkil topadi; 3) (intentionality) intensionallik: matnning strukturaviy va ma'noviy yaxlitligi uning kommunikativ maqsadlari bilan chambarchas bog'liq. Matnning har bir elementi ma'lum bir kommunikativ niyatni ifoda etishga qaratilgan; 4) (acceptability) adresatlik: matn va uning qabul qiluvchining ijtimoiy mavqei, ruhiy holati va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda yoziladi (boshqacha aytganda-retsipient tanlovi bo'lib matnni yanada samarali va ta'sirchan qiladi); 5) (informativity) informativlik: matn uzatilayotgan axborotning adresat uchun muhimligi yoki yangilik darajasini ifodalaydi. Bunda matnning qabul qilinishi va ta'siri darajasini belgilanadi; 6) (situationality) situativlik: matnning mazmuni va strukturaviy qurilishi uning kommunikativ sharoiti va vaziyati bilan chambarchas bog'liq. Vaziyat matnning tuzilishi va mazmunini ta'sirlaydi va unga moslashishni talab qiladi; 7) (intertextuality) intertekstualik: matnning tarkibida boshqa matnlardan olingan, lekin qayta ishlangan invariant mazmun-ma'no mavjud. Bu holat matnning kontekstual bog'lanishlarini kengaytiradi. Ushbu kategoriyalar matnni tahlil qilishda chuqurroq yondashuvlarni taqdim etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib matnning turli jihatlarini, jumladan uning tuzilishi, ma'nosi, kommunikativ samaradorligi va ijtimoiy ta'sirini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

M.Beykerning e'tirof etishicha, kogeziya, ya'ni uyg'unlik – matnning turli qismlari o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi leksik, grammatik va boshqa o'zaro munosabatlarning

izchil tarmog'idir. Bu tizim matnni tashkil etuvchi so'z, ibora, jumla hamda paragraflar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Kogeziya matnning strukturaviy elementlarini bir-biriga ulagan holda mazmunli matn yasalişhini ta'minlaydi. Kogeziya matnni bir butun holda ushlab turadi va unga ma'no beradi. Ushbu tushuncha ko'proq mantiqiy aloqalarni ta'riflovchi, mantiqiy bog'liqlikni yuzaga keltiruvchi texnik uslubdir.

I.S.Gerasimovning ma'lumotiga ko'ra kogeziya XVIII asrning o'rtalari va oxirgi yillarida harbiy xatlar matnlarida uchragan bo'lib, matnlarning mazmuni turli til vositalari yordamida bog'langan. Ushbu davr harbiy maktub matnlarida ko'p takroriy ifodalar (so'z va iboralarning qayta ishlatilishi) ham kuzatiladi. Shuningdek, matnda bog'liqlikni ta'minlash uchun ko'rsatish va miqdor olmoshlari hamda turli bog'lovchilar ishlatiladi. Umuman olganda, XVIII asr oxiriga kelib harbiy maktublarning matnlarida bog'liqlik tipik vositalar orqali ta'minlanadi: leksik takrorlar, turli mantiqiy mazmunga ega olmoshlar hamda birikmalar. Anglashiladiki, matnda kogeziyani ta'minlash uchun qo'llanilgan turli til vositalari, jumladan, leksik takrorlar, ko'rsatish va miqdor olmoshlari, turli bog'lovchilar rus harbiy xatlarida kuzatilganligi aniqlangan.

“Kogerentlik” termini esa lotinchada “cohaerens — aloqadagi, bog'liqlikdagi” ma'nolarini bildirib, aslida bu termin birinchi marotaba fizikada qo'llanilib, bir nechta tebranish yoki to'lqin jarayonlarining vaqt bo'yicha sinxronizatsiyasi va ularning o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladigan korrelyatsiyani anglatadi. Bu tebranish yoki to'lqinlar fazalarining uygunlashuvi orqali aniq va barqaror to'lqinini hosil qilish qobiliyatini ifodalaydi. Demak, tilshunoslik sohasida ham “kogerentlik” matnning mazmunini tashkil etuvchi kontseptual aloqalar haqida gapiradi, g'oyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish va dalillarning ketma-ketligi matnning tushunarli va yaxlit qolishini ta'minlaydi. Tilshunoslikdagi «kogerentlik» tushunchasining paydo bo'lishi, asosan, matnning kommunikativ va semantik yaxlitligini o'rganishga qaratilgan so'nggi asr tadqiqotlarida rivojlangan.

Matn tahlilida eng muhim deb qaraladigan ikki tushuncha — bu matnning mazmuni va ifoda rejasini belgilaydigan yaxlitlik (butunlik) hamda bog'liqlik (kogerentlik) dir. Biroq, bu ikki tushunchani qarama-qarshi qo'yish to'g'ri emas deb hisoblash mumkin, chunki kogerentlik aslida yaxlitlikning ifodasi va uni aks ettiruvchi ko'rinishidir. Olimlar yaxlitlikni matnning ma'lum bir mavzuiy-mazmuniy birligi bilan bog'liq bo'lgan struktur-semantik birlik sifatida tasvirlashadi. Bizningcha, ushbu birlik matnning ichki mohiyatini va tashqi ifodasini birlashtiruvchi omillardir.

Ko'rinadiki, “kogeziya” va “kogerentlik” tushunchalari izchil matn nazariyasining asosiy tushunchalariga kiradi. Ular matnning asosiy, qurilish xususiyatlari ifodalaydi hamda matnlilikning zaruriy mag'zi hisoblanadi. “Kogerentlik” matnning mazmun (tematik) tomoniga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni matn mazmunining umumiy qamrovini tashkil etilishi, kommunikativ vaziyat va matnni taqdim etuvchi va qabul qiluvchining bilimlari to'plami alohida ahamiyat kasb etadi.

Kogeziya - bu matnni ifodaviy tuzilishini tashkil etuvchi umume'tirof etilgan mezonlardir, matn birliklarining grammatik, semantik va leksik vositalar yordamida bir-biriga matn birliklari sifatida zanjirsimon ulanishni tashkil etadi. Kogeziya - matn qismlari o'rtasidagi bog'lanishlarni, jumladan, matnning bir kontekstdan boshqasiga o'tishini aniqlovchi til shakllari va bog'lanish vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Demak, matnning tashqi bog'lanishligi formal usullar yordamida tashkil etilgan

kogeziya sifatida ta'riflanadi, shu bilan birga, ichki, mazmuniy bog'lanishlik esa kogerentlik sifatida qaraladi. Bog'lanishlik tushunchasi matnning strukturasi kogeziya va kogerentlikning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishini anglatadi. Bu ikki element matnning mazmunan va shaklan bog'liq bo'lishini ta'minlaydi.

Conclusion (Xulosa).

Ushbu tadqiqot doirasida diskurs, matn, kogeziya va kogerentlik kabi tilshunoslikning muhim tushunchalarining farqli jihatlari ko'rib chiqildi. Ko'rinib turibdiki, «kogeziya» va «kogerentlik» tushunchalari izchil matn nazariyasining markaziy tushunchalaridan hisoblanadi. Ushbu matnning eng muhim, strukturaviy xususiyatlarini ifodalaydi va matnlilikning zaruriy mohiyati hisoblanadi. «Kogerentlik» matnning ma'nosi (tematik) jihatiga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni zaruriy mohiyati deb matn mazmunining umumiy tuzilishi, kommunikativ vaziyat va matnni taqdim etuvchi hamda qabul qiluvchining bilimlari majmui muhim rol o'ynaydi.

Demak, matnning tashqi aloqadorligi formal usullar orqali tashkil etilgan kogeziya sifatida belgilanishi, ichki mazmuniy aloqadorlik esa kogeziya sifatida ko'riladi. Bog'lanishlik tushunchasi matn strukturasi kogeziya va kogerentlikning bir vaqtning o'zida mavjudligini bildiradi. Bu ikki komponent matnning mazmuni va shakl o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 138 с
2. Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – С. 47.
3. L De Beaugrande R., Dressler W.V. Introduction to Text Linguistics. – London, New York: Longman, – 1981. – P. 179.
4. De Beaugrande R., Dressler W.V. Introduction to Text Linguistics. – London, New York: Longman, – 1981. – P. 179.
5. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. New York: Routledge. 3rd ed., 2018. – P. 81
6. Герасимова И.С. Средства реализации когезии в региональных документах середины и конца XVIII века // Научный диалог. — 2017. — № 12. — С. 69.
7. Герасимова И.С. Средства реализации когезии в региональных документах середины и конца XVIII века // Научный диалог. — 2017. — № 12. — С. 69.
8. Бобрикова Е. Н. Средства связности текста в литературе “потока сознания”: на материале романа Джеймса Джойса “Улисс”: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Ростов-на-Дону, 2008. — С. 18.

ЗАМОНАВИЙ МЕДИАДА МУҲАРРИРНИНГ ЎРНИ ВА ИШТИРОКИ

*Абдюжанова Вазира Хусан қизи,
Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар
университети, ф.ф.ф.д. (PhD), Тошкент, Ўзбекистон*

Аннотация. Бугунги кунда муҳаррир касбининг аҳамияти ва унга бўлган талаб тобора ортиб бормоқда. Негаки, ахборот маконининг глобаллашуви ва контентни аудитория учун мослаштириши зарурати, медиа платформаларни ривожлантириши, оммавий ахборот воситаларининг рақобатбардош бозорида контент сифатига талабларнинг ошиши сабабидан журналистик матн хусусиятлари бирмунча мураккаб кўриниши олди.

Таҳрир иши билан шуғулланувчи муҳаррир ушбу жараёнда нашр этилган материалларнинг сифати ва ишончилиги, манتيқий ва факт билан боғлиқ хатоликларнинг олдини олиши, турли нашрлар ва платформаларда аудиториянинг қизиқишини ўрганиши ва сақлаб қолиши учун жавобгардир.

Мақолада муҳаррирнинг касби, унга қўйиладиган талаблар, кундалик вазифалар, таҳрирлаш борасидаги муҳим вазифаларга эътибор қаратилган.

Таянч сўзлар: муҳаррир, қўлёзма, таҳрир, ижодий ҳамкорлик, касбий этика, онлайн таҳрир, замонавий кўникмалар.

РОЛЬ И УЧАСТИЕ РЕДАКТОРА В СОВРЕМЕННЫХ СМИ

*Абдюжанова Вазира Хусан кизи,
университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
ф.ф.ф.д. (PhD),
Ташкент, Узбекистан*

Аннотация. Сегодня значимость профессии редактора и востребованность на неё все больше возрастает. В связи с глобализацией информационного пространства и необходимостью адаптации контента для аудитории, развитием медиаплатформ, повышением требований к качеству контента на конкурентном рынке СМИ особенности публицистического текста стали несколько сложными.

Редактор отвечает за обеспечение качества и достоверности публикуемых материалов, предотвращение логических и фактических ошибок, а также исследование и поддержание интереса аудитории к различным публикациям и платформам.

В статье речь идет о профессии редактора, требованиях, повседневных, важных задачах редактирования.

Ключевые слова: редактор, рукопись, редактирование, творческое сотрудничество, профессиональная этика, онлайн-редактирование, современные навыки.

THE ROLE AND PARTICIPATION OF EDITOR IN MODERN MASS MEDIA

*Abdujuanova Vazira Khusan khizi,
Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan
f.f.f.d. (PhD), Tashkent, Uzbekistan*

Today the importance of the editor's profession and the demand for it are increasing more and more. Because of the globalization of the information space and the need to adapt the content for the audience, the development of media platforms, the increase in the requirements for the quality of content in the competitive mass media market, the features of the journalistic text have become somewhat complicated.

An editing editor is responsible for ensuring the quality and reliability of published materials, avoiding errors of logic and fact, and researching and maintaining audience interest across a variety of publications and platforms.

The article focuses on the editor's profession, requirements, daily tasks, and important editing tasks.

Key words: editor, manuscript, editing, creative collaboration, professional ethics, online editing, modern skills.

Глобаллашув шароити ахборотни тез тайёрлаш ва уни аудиторияга сифатли қилиб узатишда соҳа мутахассислари олдида бир қатор принципларга қатъий амал қилиш талабини қўймоқда. Бу жараён аниқ, тез ва ишончли материал тайёрлашда муҳаррирларнинг ахборот матнини услубий, мантикий, стилистик хатолардан холи бўлишига жиддий эътибор беришини тақозо қилмоқда. Медиаматнларнинг бу жиҳатларига етарлича аҳамият бермаслик оқибатида оммавий ахборот воситалари матнларида услубий хато ва ғализликлар, фактлар билан боғлиқ муаммолар мавжудлиги кўзга ташланмоқда. Мана шу жараёнда таҳририятда матн билан ишловчи, уни нашр талаби ва формати асосида таҳрирлаб материалларнинг хатосиз чоп этилишига масъул ҳисобланувчи муҳаррирнинг ўрни ва иштироки янада муҳим ҳисобланади.

Муҳаррир ким, унинг замонавий медидадаги иштироки қандай?

Муҳаррир — турли оммавий ахборот воситалари, нашриётлар, ахборот платформалари ва бошқа медиа ресурслар учун матн яратиш, таҳрирлаш ва тузатиш учун масъул бўлган мутахассис ҳисобланади.

“Муҳаррир касби азалдан ўз анъаналарига эга бўлган, зеро дастлаб таҳрирлаш, муҳаррирлик матни адабий қайта ишлаш зайлида олиб борилган. Муҳаррир деганда аввало “ёзувчи, таҳрир қилувчи” маъноси англашилади. Бироқ аср боши (XX аср)га келиб муҳаррир нафақат ёзадиган, таҳрир қиладиган, балки таҳрир қилинган хабар ва мақолаларнинг газетада берилишини бошқарадиган, шунингдек, бошқа бир қанча вазифаларни ҳам бажара бошлади” [1,104]. Ушбу жиҳатларни ҳисобга олган ҳолда бажарадиган вазифасидан келиб чиқиб муҳаррирни қуйидаги тоифаларга бўлиш мумкин:

→ адабий ходим (бу жараёнда муҳаррир материал тайёрловчи, таҳрир сифатига жавоб берувчи ижодий ишчи, журналистик матннинг тизимли ва композицион даражаси учун масъул);

→ таҳририят жамоаси раҳбари (жамоа раҳбари сифатида муҳаррирдан ишни тўғри ташкил этиш, ҳар бир ходимнинг имконият-қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда ўз вазифасига максимал даражада йўналтира билиш, ташаббус ва мустақил фикрлаш кўникмаларига эга бўлиш талаб этилади);

→ кичик турдаги нашр ишларини ташкил етувчи директор (таҳририят ишини бошқариш, муаллиф ва мавзуларни топиш, тақдим этилган материални чоп этиш ёки рад этиш тўғрисида қарор қабул қилади, ишлаб чиқариш режасини тузиш, сифат билан боғлиқ масалаларни кўриб чиқиш ҳам унинг ваколати доирасига киради).

Матн билан ишловчи адабий муҳаррирдан саводхонлик, адабий тилни мукамал билиш, таҳрир маҳоратига эга бўлиш кўникмалари талаб қилинади. Бу сифатларга ўрганиш, амалиёт, доимий тарзда ўзини ўзи ривожлантириш орқали эришилади. Ўзбекистон Миллий энциклопедиясида “Муҳаррир — (араб.), редактор — 1) нашриёт ва б. масъул нашрларда муайян матнни турли жиҳатдан таҳрир қилиб, босмага тайёрловчи ходим; 2) айрим матбуот органлари (мас., газета)га раҳбарлик қилувчи шахс” [2,201] деган таъриф келтирилади.

Хорижлик олимлар муҳаррир сўзи француз тилидан олинган бўлиб, *redacteur* — “бирор нарсани таҳрир қилувчи шахс” деган маънони англатишини таъкидлашади [3.]

Ҳозирги кунда муҳаррир медиа соҳасининг барча жараёнларида бевосита иштирок етувчи кенг доирадаги мутахассисдир. Босма оммавий ахборот воситаларида қўлёзма материаллар билан ишловчи адабий муҳаррирнинг асосий вазифасини қуйидагича таснифлаш мумкин:

- ✓ қўлёзмани услуб жиҳатидан мувофиқлаштириш;
- ✓ қўлёзмани мазмунан бойитиш, ғоявий-адабий савиясини ошириш;
- ✓ материалнинг грамматик, фактик, мантикий хатоларини бартараф этиш;
- ✓ нашрнинг мақсади, формати, муайян талабларига мувофиқ қўлёзмани тартибга келтириб, тузатиш ва чоп этишга тайёрлаш.

Қўлёзма таҳририда муҳаррир “матннинг осон ўқилиши, маълумотларнинг енгил қабул қилинишини таъминлаш, мақоланинг жозибадорлигига путур етказмаслик” [4,90] каби қоидаларга риоя қилишни ҳам унутмаслиги керак. Муаллифларнинг таҳририятга топширган мақолаларида баъзан кескин, баҳсталаб фикрлар, ҳаяжонга берилган ўринлар учраб туради.

Қуйидаги қўлёзма матни бунга мисол бўлади:

“Ҳақни танимаганлар мунофиқ бўлади. Сериалда уларнинг типик кўриниши Зулянинг отаси Толя ва Ботир тимсолида инкишоф қилинган. Уларнинг хатти-ҳаракатидан киши “Ё, алҳазар” деб ёқа ушлайди. Инсонни бошқа жонзотлардан фарқлантирувчи белгиси раҳм-шафқат, саховат ва карамдир” [5].

Муҳаррир таҳририга эътибор қаратилса, ҳис-туйғуларга берилган ўринларни қисқартириш, айрим қисмларни тўлдириш орқали муаллиф фикри равон ифодаланишига эришилган:

“Сериалда Ҳақни танимаганларнинг типик кўриниши Зулянинг отаси Толя ва Ботир тимсолида намоён бўлади. Аслида ҳам одамни бошқа жонзотлардан фарқлантирувчи белги унинг инсоний фазилатлари: раҳм-шафқат, саховат ва

карамдир”.

Кўринадики, қўлёзмадаги савол туғдирадиган мулоҳазаларни таҳрир қилишда муҳаррирдан таҳлилий, танқидий кўникмаларга ега бўлиши, мафкуравий, сиёсий, диний ихтилофларни келтириб чиқарувчи, жамоатчиликда норозилик кайфиятини уйғотувчи фикрлар чоп этилиб кетишининг олдини олишга ҳаракат қилиши талаб қилинади.

Қўлёзма материалларда муаллиф мақсадини ўқувчига етказиб беролмаган ёки айтмоқчи бўлган фикрини яхлит ифодалай олмаган ўринлар учраб туради. Маҳорат масаласи ҳам баъзи ҳолатларда унга панд бериши мумкин. Мисол учун, “Устоз босиб ўтган мазмунли умр 86 ёшида, 2014-йил 14-мартда яқунига етди. Марҳум устоз умр йўлдоши Кимёхон ая билан 61 йил умр кечирдилар”.

Муҳаррир бундай ҳолатда муаллиф фикрининг тизимли ифодаланишига, мантиқийликни таъминлашга, матннинг ўқувчига тушунарли ва рағбатли услубда етказилишига эътибор қаратиши керак. Қўлёзмадаги ушбу қисм оддий усулда куйидагича таҳрирланган: “86 ёшида вафот етган устоз санъаткор умр йўлдоши Кимёхон ая билан 61 йил мазмунли умр кечирди”.

Куйидаги қўлёзма матнида муаллиф томонидан такрор сўзлар кўп қўлланилгани, жумлалар чўзилиб кетганини кўриш мумкин:

“Турк ёзувчиси Дундар Алпнинг “Шарқнинг энг буюк ҳукмдори Темур” романи наинки турк, балки жаҳон адабиётида Амир Темур ҳақида ёзилган биринчи романлиги ва тарихий воқеаларга, Амир Темур шахсига ҳаққоний муносабат билдиргани билан аҳамиятли. Бунгача Амир Темур ҳаёти хусусида кўплаб тарихий асарлар, драмалар, опералар, сайёҳларнинг, элчиларнинг кўрган-билганлари асосида асарлар ёзилган. Бироқ буларнинг аксариятида Амир Темур шахсига бир ёқлама ёндашиш бор эди”.

Ушбу қўлёзма таҳриридаги биринчи вазифа такрор сўзларни қисқартириш ёки ўриндоши билан алмаштириш, жумлаларни ихчам кўринишга келтиришдан иборат бўлиб, муҳаррир бу вазифани куйидаги кўринишда бажарган:

“Турк ёзувчиси Дундар Алпнинг “Шарқнинг энг буюк ҳукмдори Темур” романи муаллифнинг тарихий воқеаларга, соҳибқирон шахсига холис муносабати билан аҳамиятли. Бунгача яратилган кўплаб тарихий драмалар, опералар, сайёҳ ва элчиларнинг кўрган-билганлари асосида ёзилган асарларнинг аксариятида Амир Темур шахсига бир ёқлама ёндашиш бор эди”.

Муҳаррир ўз аудиториясининг қизиқишлари, талабларини яхши билиши, таҳрирда ҳам нашр ўқувчиларининг ёши, тоифасини эътиборга олиши керак. Мисол учун, болалар нашрларида чоп этиладиган мақолалар болалар тилига яқин, ўқиш ва тушуниш осон бўлиши талаб этилади. Шу сабабдан бундай материаллар таҳрири муҳаррирдан болаларбоп усулда ишлашни тақозо қилади. Бошқа турдаги нашрларда ҳам муҳаррир материаллар билан ишлашда таҳририят йўналишига мувофиқ услубдаги таҳрир турларини танлайди.

Матн билан ишлаш, умуман олганда, таҳририятдаги фаолияти давомида муҳаррир эга бўлиши лозим бўлган малака-кўникмаларини мутахассислар куйидагича кўрсатиб ўтишади:

— ижодий қараш. Муҳаррир қизиқарли мавзулар топа олиши, нашр саҳифаларини ўзига хос, оригинал материаллар билан тўлдириши, шундай тоифада ёзадиган муаллифларни таҳририятга жалб этиши ва улар билан дуч

келинадиган муаммоларга осон, қулай ечим таклиф қила олиши учун ижодий қарашга эга бўлиши;

— таҳрир санъати. Медиаматнларни тил, имло қоидалари ва ўзи фаолият юритаётган таҳририят йўналиши бўйича мукамал кўринишга келтириши;

— маҳорат. Муаллифлар материали билан ишлашда, нашр учун мос ёки мос эмаслигини аниқлашда, ўз аудиториясини, нашр нуфузи ва кўламини ушлаб туришда муҳаррир маҳорати муҳим роль бажаради;

— мулоқот. Муҳаррирнинг муаллифлар ва аудитория билан ишлашда ижобий муносабатни йўлга қўйиши таҳририят фаолиятининг муваффақиятини таъминлашга хизмат қилади.

Ўзбекистон халқ ёзувчиси Одил Ёқубовнинг “муҳаррирлар бугунги кун талабларидан ҳам хабардор кишилардир. Уларнинг кўли, кўзи таҳрирга мослашган. Улар шу соҳанинг усталари, ҳар бир асар яхши муҳаррирнинг таҳриридан ўтиши лозим” деган таъкидида ҳар қандай турдаги материалларнинг нашр жараёнида муҳаррирнинг ўрни муҳим аҳамиятга эгаллигини кўриш мумкин.

Замонавий медиада таҳрирнинг янги формати кўзга ташланади. Мисол учун, блоглар ва онлайн мақолалар.

Блог ва онлайн мақолалар кўпинча индивидуал муҳаррирлар томонидан тайёрланади. Бу жараён шахсий услубни яратишга имкон беради, аммо таҳрир жараёни яна ҳам муҳим бўлади, чунки ўқувчилар тезкор ахборот олишни кутадилар.

Ижтимоий тармоқлар (Instagram, Twitter, Facebook) учун яратиладиган контентда муҳаррирлар қисқа форматларда матнни ўқиш осон бўлишига ҳаракат қилишади ва таъсирли, эътибор тортадиган жиҳатларига урғу беришлари талаб этилади.

Адабий таҳрир нафақат матнни, балки видео ва визуал контентни ҳам ўз ичига олади. Видео сценарийлари ва подкастлар учун ҳам таҳрир жараёнлари муҳимдир — бу матн, аудио ва визуал материалларни уйғунлаштиришни талаб қилади.

Замонавий медиа соҳасида адабий таҳрирнинг муҳимлиги шундаки, у матнни тўғри ва самарали таҳрир қилиш, ўқилиши ва тушунилишини яхшилаш, шу билан бирга, медиа контентининг муваффақиятли тарқатилишига ҳам ёрдам беради.

Технологиялар ва медиа платформаларининг ривожланиши адабий муҳаррир учун янги имкониятлар яратади, шу билан бирга, янги кўникмаларни эгаллашни ҳам тақозо этади. Жумладан:

- Муҳаррирлар янги технологиялар, SEO, мультимедиа таҳрири каби кўникмаларни эгаллашлари керак. Шунингдек, матнни мобил телефонлар ва ижтимоий тармоқлар учун мослаштиришда тажрибага эга бўлишлари зарур.

- Онлайн платформалар ва ижтимоий тармоқлар тезкор янгиликлар тарқатишни талаб қилади. Муҳаррир матнни тез ва сифатли таҳрир қилиб, ўқувчининг эътиборини тортадиган шаклда тақдим этиши керак.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги замонавий муҳаррир оммавий ахборот воситалари учун материал тайёрлар экан, бу жараёнда ундан адабий тилни мукамал билиш, турли мавзуларда таҳлилий ва танқидий фикрлай олиш,

муаллифлар билан ишлаш, аудитория қизиқиши ва талабини ўрганиш билан бирга замонавий технологиялардан фойдалана билиш, турли платформалар учун тайёрланадиган матн таҳририда қандай жиҳатларга эътибор қаратиш кераклигини билиши талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Саидов Ҳ.О. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. Фил.фан.ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 1998. Б.104.

2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-жилд. Мирий-Пархиш. Таҳрир ҳайъати: А.Абдувоҳитов, А.Азизхўжайев, М.Аминов, Т.Даминов ва б. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. Б. 201.

3. Голуб И.Б. Литературное редактирование: учеб. пособие / И.Б. Голуб. - М.: Логос, 2010. 432 с. [хтtps://учебникфрее.ком/редактирование-литературное-стилистика/литературное-редактирование-учеб-пособие.хтмл](https://учебникфрее.ком/редактирование-литературное-стилистика/литературное-редактирование-учеб-пособие.хтмл). Мурожаат вақти: 11.03.2022.

4. Тўхлиева Н. Таҳрир маҳорати. Машқлар тўплами: методик қўлланма. Т.: Баёз, 2022. Б.90.

5. Таҳрир учун намуналар “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасидан олинди.

ЛЮБОВЬ СКВОЗЬ ПРИЗМУ КУЛЬТУР

Ахмедова Саодат

Ташкентский государственный университет востоковедения свободный
соискатель кафедры Арабская филология

Аннотация. В статье рассматриваются различные аспекты любви и её проявлений в контексте различных культурных традиций. Автор анализирует, как культурные нормы, ценности и исторические условия влияют на восприятие и выражение любви в разных обществах. Особое внимание уделяется сравнительному анализу понятий любви в западной и восточной культурах, а также изучению специфических форм и ритуалов, связанных с любовью в традиционных и современных сообществах. Статья демонстрирует, что любовь, несмотря на её универсальную природу, приобретает уникальные черты и значения в зависимости от культурного контекста, в котором она проявляется.

Ключевые слова: концепт, концепция, любовь, концепт любви, план концепта, подход, каритативный признак.

LOVE THROUGH THE PRISM OF CULTURES

Akhmedova Saodat

Tashkent State University of Oriental Studies free applicant of the Department of
Arabic Philology

Annotation. The article examines various aspects of love and its manifestations in the context of various cultural traditions. The author analyzes how cultural norms, values, and historical conditions influence the perception and expression of love in different societies. Particular attention is paid to the comparative analysis of the concepts of love in Western and Eastern cultures, as well as the study of specific forms and rituals associated with love in traditional and modern communities. The article demonstrates that love, despite its universal nature, acquires unique features and meanings depending on the cultural context in which it manifests itself.

Key words: concept, concept, love, concept of love, concept plan, approach, caritative feature.

MADANIYATLAR PRIZMASI ORQALI SEVGI

Ahmedova Saodat

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti arab filologiyasi kafedrasi doktoranti

Annotatsiya. Maqolada sevgi va uning turli madaniy an'analar kontekstida namoyon bo'lishi bilan bog'liq jihatlar o'rganiladi. Muallif turli jamiyatlarda sevgi tushunchasini qabul qilish va ifodalashga madaniy me'yorlar, qadriyatlar hamda tarixiy sharoitlar qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. G'arb va Sharq madaniyatlaridagi sevgi tushunchalarining qiyosiy tahliliga, shuningdek, an'anaviy va zamonaviy jamiyatlarda sevgi bilan bog'liq o'ziga xos shakllar va marosimlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola sevgi umumjahon mohiyatiga ega bo'lsa-da, u namoyon bo'lgan madaniy kontekstga qarab o'ziga xos xususiyatlar va ma'nolarni egallashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tushuncha, sevgi, sevgi tushunchasi, tushuncha rejalari, yondashuv,

karitativ xususiyat.

Любовь – одно из самых универсальных и одновременно культурно-зависимых явлений, которое играет центральную роль в человеческой жизни. Понимание и выражение любви сильно зависят от культурных, социальных и исторических контекстов, что делает её изучение особенно интересным и важным для понимания разнообразия человеческих отношений и эмоциональных переживаний.

В различных культурах любовь интерпретируется и проявляется по-разному. Культурные нормы, религиозные убеждения и социальные структуры определяют, как люди воспринимают и выражают этот концепт. Например, в некоторых культурах любовь часто связывается с обязательствами перед семьей и обществом, в то время как в других культурах она может подчеркивать индивидуальные чувства и выбор партнера.

Представления о любви менялись на протяжении истории человечества под влиянием социальных, экономических и культурных изменений. Например, в средние века в Европе любовь часто ассоциировалась с рыцарской галантностью и идеалами, а в период Просвещения любовь стала рассматриваться как индивидуальное чувство, освобожденное от социальных обязательств.

В современном мире концепция любви продолжает эволюционировать под влиянием глобализации, мультимедийных технологий и изменений в социальных структурах. Исследования показывают, что множество культур сохраняют уникальные подходы к любви, несмотря на глобализацию и культурный обмен. Ученые как И.А.Иванова, В.И. Карасик, В.Н. Колесов, Е.С. Кубрякова, А.Х. Мерзлякова, З.Д. Попова, Г.Г. Слышкин, И.А. Стернин, Ю.С. Степанов, В.Н. Телия, Р.М. Фрумкина, философов и теологов (Вл.Соловьев, Н.Бердяев, П.Флоренский, С.Булгаков, И.Ильин, Л.Карсавин и др.), поэтов и писателей (И.Бунин, А.Куприн, К.Бальмонт, А.Блок, А.Белый, З.Гиппиус и др.), критиков (В.Розанов, Д.Мережковский и др.), историков культуры и литературоведов (В.Жирмунский, А.Веселовский, Н.Арсеньев и др. внесли большой вклад концепта любви.

И.А. Иванова в своем исследовании дает определение: «индоевропейский корень *leubh-, совмещающий с себе два значения «заблудиться, сбиться с пути, прийти в беспорядок» и «жаждать чего-либо» находит отражение в древнем существительном – лыбы, которое трансформировалось под влиянием косвенных падежей в любовь и сохраняется без изменений в таких словах, как лыбиться, улыбиться (улыбаться), улыбка. Изучение лексемы любовь с точки зрения ее происхождения позволило установить, что глагол любить по своему происхождению и форме – каузативный; он в точности соответствует древнеиндийскому lobhauati – «возбуждать желание, заставлять любить, влюблять».

Для понимания современного осмысления любви в русском языке И.А.Иванова подчеркивает, что: «в современном русском языке утрачено религиозное осмысление любви, она стала категорией сугубо антропоцентрической. Языковое сознание современного человека апеллирует в первую очередь к межличностным отношениям (любовь:1) 'чувство глубокой привязанности к кому-, чему-либо'; 2) 'чувство горячей сердечной склонности, влечение к лицу другого пола'; 3) внутреннее стремление, влечение, склонность, тяготение к чему-либо»

Исследование любви как культурно-специфичного концепта позволяет глубже понять разнообразие человеческих отношений и эмоциональных переживаний

в различных культурных контекстах. Оно помогает расширить наши знания о влиянии языка, культуры, религии и исторических факторов на формирование представлений о любви. Дальнейшие исследования в этой области могут пролить свет на многообразие человеческих чувств и способов их выражения в различных культурах, способствуя культурному пониманию и взаимодействию на глобальном уровне.

В русской культуре начала XX века любовь стала предметом большого внимания и изучения проблем концепта любви - С.Г. Воркачев, он активно исследует концепты, которые являются ключевыми для понимания культуры и менталитета русского народа и пишет: «Имплицативная, производная семантика в составе концепта любви связана, прежде всего, с центральностью положения предмета любви в системе личностных ценностей субъекта и представлена через «каритативный блок»: благожелание, нежность, заботу, уважение к личности любимого, снисходительность к его слабостям и недостаткам, сострадание и жертвенность, преданность и готовность прощать – любовь «все покрывает, всему верит, всего надеется, все переносит». Каритативные признаки любви в русском пословичном фонде передаются паремиями «Любовь не знает мести, а дружба – лести»; «Ради/для милого дружка и сережка из ушка»; «Ради милого и себя не жаль»; «Милого жаль, а от постылого прочь бы бежал»; «Для милого не жаль потерять и многого»; «За милого и на себя поступлюсь»; «Любить – чужое горе носить, не любить – свое сокрушить»; «Куда мил дружок, туда и мой сапожок»; «Куда б ни идти, только с милым по пути»; «Хоть/люби не люби, да/только почаще взглядывай»; «Жена, ты любить не люби, а поглядывай!»; «Хоть не люби, только почаще взглядывай (т. е. угождай, служи)»; «Оттого терплю, что больше всех люблю»; «От того терплю, кого больше люблю»; «Полюби-ка нас в черне, а в красне и всяк полюбит»; «Полюби нас в черненьких, а в беленьких и всяк полюбит»; «Кто кого любит, тот того и голубит». Особенно выделяет русское паремиологическое сознание «миротворческие качества» любви: «Где советно, там и любовно»; «Где совет (союз, любовь), там и свет»; «Любовь да лад – не надобен и клад»; «Любовь да совет – на том стоит свет»; «Любовь да совет, так и горя (нуждочки) нет»; «Где любовь да совет, там и горя нет»; «Где любовь, там и совет»; «Совет да любовь, на этом свет стоит». Воркачев рассматривает любовь как сложное и многослойное явление, отражающееся в языке через различные лексемы, фразеологизмы и метафоры. В своей работе он подчеркивает, что любовь – это не только индивидуальное чувство, но и культурный феномен, который имеет свои национальные особенности и проявления: Любовь, как, впрочем, и любую эмоцию, невозможно вызвать произвольно, и признак неподконтрольности (как «внешней» – принуждения, так и «внутренней» – волевой) в русском языке уверенно занимает второе место по числу пословичных реализаций: «Любви, огня да кашля от людей не утаишь/спрячешь»; «Любовь закона не знает, годов не считает»; «Любовь не картошка: в горшке не сварить»; «Любовь не картошка: не выбросишь в окошко»; «Любовь не пожар, (а) загорится – не потушишь»; «Любовь на замок не закроешь»; «Сердцу не прикажешь»; «Из сердца не выкинешь, а в сердце не вложишь»; «Любовь рассудку не подвластна»; «Любовь за деньги не купишь»; «Насильно мил не будешь/Насилу не быть милу»; «Любовь не, пожар, а загорится – не потушишь»; «Поп руки свяжет и голову свяжет, а сердца не

связет»; «Бояться себя заставишь, а любить не принудишь»; «Крестом любви не свяжешь»; «Любовь не милостыня: её каждому не подашь»; «Деревенщина Ермил, да посадским бабам мил»»).

Труды С.Г. Воркачева позволяют глубже понять, как концепт любви отражает культурные и социальные реалии, а также как он влияет на восприятие и поведение людей.

За несколько десятилетий в России о любви писалось больше, чем за несколько веков, при этом данная литература выделялась интенсивностью поиска, оригинальностью мышления и глубиной мысли. «Концептуальное поле любви» описывает одно из главных человеческих чувств, а область чувств и эмоций «является именно той областью, где наиболее четко проявляется духовная культура народа». О важности концепта «любовь» в культуре ярко свидетельствуют слова Н.А.Бердяева: «Тайна всякой индивидуальности узнается лишь любовью».

Одно из самых ярких выражений концепта «любовь» нашло свое отражение в поэтическом творчестве Анны Ахматовой, в котором еще в 1922 году В.В. Виноградов выделил три семантические сферы. По мнению ученого, каждая из этих сфер «имеет в своем ядре слово, насыщенное множеством ассоциаций в сознании Ахматовой. Слова эти песня, молитва и любовь». После работы Виноградова было проведено множество исследований, подтверждающих, что любовь является основным мотивом творчества Ахматовой (см., например: Добин, 1968; Урбан, 1968; Эйхенбаум, 1969; Жирмунский, 1973; Гинзбург, 1987; Шилов, 1989; Вейдле, 1989; Павловский, 1991; Размахнина, 1993; Ваняшова, 1993; Пахарева, 1994; Бабенко, Ульянова, 1997; Шоркина, 1997; Кормилов, 1998; Бабурина, 1998) Важность концепта «любовь» для индивидуального стиля Ахматовой подтверждается словами В.М. Жирмунского: Основное место в лирике Ахматовой, безусловно, занимает любовная тема — как в народной песне и сонетах Петрарки, в лирике Гете и Пушкина, и во всей мировой поэзии вообще.

Прекрасными можно назвать высказывания В.М. Жирмунского, которые подтверждают значимость понятия «любовь» в индивидуальном стиле А. Ахматовой: «Основное место в лирике А. Ахматовой бесспорно занимает любовная тема - как в народной песне и в сонетах Петрарки, в лирике Гете и Пушкина и во всей мировой поэзии вообще. Любовь в стихотворениях Ахматовой - это чувство живое и подлинное, глубокое и человеческое, хотя в силу реальных жизненных причин тронутое печалью облагораживающего страдания». Многие исследователи творчества Анны Ахматовой отмечали, что в идиостиле поэтессы часто любовь изображается как страдание. Вдохновительницу ее поэзии идентифицировали как «скорбной Музой», ее творчество - «поэзией несчастной любви», а саму А.Ахматову называли «поэтом сиротства и вдовства». Всесторонне и полно охарактеризовал в целом ее любовную лирику Н.Банников: «Ахматова писала о любви с огромной силой лиризма. Тревожные, смятенные, горькие ахматовские строки о любви в представлении многих и многих долго как бы сливались с обликом самой поэтессы. Если расположить любовные стихи А.Ахматовой в определенном порядке, можно построить целую повесть со множеством мизансцен, перипетий, действующих лиц, случайных и неслучайных происшествий. Встречи и разлуки, нежность, чувство вины, разочарование, ревность, ожесточение, истома, поющая в сердце радость, гордыня, грусть - в каких только гранях и изломах мы не увидим любовь на страницах ахматовских книг. Это или тютчевский «поединок

роковой», или проклятие, пытка. В лирической героине стихов Ахматовой, в душе самой поэтессы постоянно жила жгучая, требовательная мечта о любви истинно высокой, ничем не искушенной. Любовь у Ахматовой - грозное, повелительное, нравственно чистое, всепоглощающее чувство.»

Концепт «любовь» в поэтическом творчестве А. Ахматовой играет важную роль в формировании её индивидуального мировоззрения и представляет собой сложное мысленное образование, состоящее из трёх смысловых планов: сердечное влечение к возлюбленному, глубокое чувство привязанности к Родине и друзьям, а также сильная увлечённость поэтическим творчеством. Эти смысловые аспекты концепта «любовь» не имеют четких границ и тесно переплетаются в поэтическом стиле Ахматовой, что подчёркивает уникальность её творческого мышления.

Т.Н.Данькова выделяет три вида смысловых планов концепта в творчестве А.Ахматовой: «ЛСП трех выделенных смысловых планов концепта «любовь» в творчестве А.Ахматовой неоднородны по своему объему и составу. Самым крупным и сложноорганизованным является ЛСП смыслового плана «чувство горячей сердечной склонности, влечение к возлюбленному. В названной лексико-семантической группировке присутствует несколько семантических линий (микрочастиц), объединенных ИС имени поля: «сильное сердечное чувство, несущее страдание, муку»; «мучительное чувство, способное привести к гибели», «сердечное чувство, дающее счастье», «глубокое, духовное чувство», «сердечное чувство, освященное небесами», «страстное чувство». Наиболее ярко в идиостиле поэта представлено микрополе «сильное чувство, несущее страдание, муку в котором выделяются фрагменты, объединенные потенциальными семами, производными от семы «страдание/ мука»: «разлука», «безответная любовь», «обман», «несовместимость любви и поэтического творчества», «отсутствие свободы», «измена», «ревность», «чувство, освобождение от которого является благом».

Она уделяет особое внимание лексико-семантическому плану произведений А.Ахматовой и передает глубокие смысловые слои ее стихов: «ЛСП смыслового плана «чувство глубокого расположения и искренней привязанности к Родине (родной земле) и друзьям «концепта «любовь» также играет значительную роль в общей системе поэтического идиостиля А.Ахматовой, хотя и является менее представленным, чем предыдущее. Функционирование второго смыслового плана концепта «любовь» в индивидуальном стиле А.Ахматовой в двух разновидностях позволяет говорить о двух отдельных ЛСП: ЛСП семантического слоя «чувство глубокого расположения и искренней привязанности к Родине (родной земле)» и ЛСП смыслового плана «чувство глубокого расположения и искренней привязанности к друзьям».

Е.В.Лобкова исследуя образ-концепт «любви» в русской языковой картине мира пишет: «идеографическое пространство образа-концепта «любовь» как разновидность семантического пространства не имеет четких границ и пересекается с пространствами других явлений (смежные с любовью - дружба, симпатия, и противопоставленные - равнодушие, ненависть).

Е.В. Лобкова, вероятно, рассматривает образ-концепт любви в русской языковой картине мира через призму культурных, лингвистических и исторических аспектов. Она может анализировать, как любовь отражается в языке, литературе, фольклоре

и повседневных выражениях. В русском языке любовь часто связана с сильными эмоциями, духовностью и самопожертвованием, что отличает её образ от других культурных контекстов. Лобкова, вероятно, подчеркивает уникальность русской концепции любви, её многогранность и значимость в русской культуре.

Использованная литература:

1. Иванова И.А Концепт любовь и его концептосфера в истории русского языка : : автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.01. Москва, 2006 25с.
2. СРЯ 2, 209 с.
3. Воркачев С.Г. Концепт любви в русском языке в сознании // Коммуникативные исследования 2003: Современная антология. Волгоград: Перемена, 2003а. - С. 189-208.
4. Шестаков В.П. Теория и практика массовой культуры // Шестаков В.П. История эстетической мысли: В 6-ти т. М., 1990. - Т. 5. Буржуазная эстетика XX в. - С. 621-635.
5. Каштанова Е.Е. Культурологические основания русского концепта «любовь» (аспектный анализ). Дисс.канд. филол. наук. - Екатеринбург, 1997. - с 25.
6. Бердяев Н.А. Философия свободного духа. М.: Республика, 1994. - 479 с.
7. Виноградов В.В. О символике А.Ахматовой // Литературная мысль. Пг., 1922.- С. 91-138.
8. Добин Е.С. Поэзия Анны Ахматовой. Л.: Сов. Писатель. Ленингр, отд-ние, 1968.-250 с.
9. Урбан А.А. Возвышение человека. Заметки о современной поэзии. -Л.: Художественная литература. Ленинградское отделение, 1968. 251 с.
10. Эйхенбаум Б.М. Опыт анализа // Эйхенбаум Б.М. О поэзии. Л.: Советский писатель. Ленингр. отд-ние, 1969. - С. 75-148.
11. Жирмунский В.М. Творчество Анны Ахматовой. Л.: Наука. Ленингр. отд-ние, 1973.- 183 с.
12. Гинзбург Л.Я. Ахматова (Несколько страниц воспоминаний) // Гинзбург Л.Я. Литература в поисках реальности. Л., 1987. - С. 87-114.
13. Шилов Л.А., Анна Ахматова. М.: Знание, 1989. - 62 с.
14. Вейдле В. Умерла Ахматова // Литературная учеба. 1989. - N 3. -С. 158-161.
15. Павловский А.И. Анна Ахматова. Жизнь и творчество. М.: Просвещение, 1991. - 199 с.
16. Размахнина В.К. Серебряный век. Очерки к изучению. Красноярск: КГПИ, 1993.- 190 с.
17. Ваняшова М.Г. Нам остается только имя. Поэт трагический герой русского искусства XX в. - Ярославль, 1993. - 142 с.
18. Пахарева Т.А. Художественная система Анны Ахматовой. Киев, 1994. -135 с.
19. Бабенко Л.Г., Ульянова Л.В. Образ любви в поэзии А.Ахматовой: анализ двух стихотворений // Художественный текст: структура, семантика, прагматика. Екатеринбург: Изд-во УрГУ, 1997. - С. 3-13,
20. Шоркина В.В. Трагические мотивы в лирике А.А.Ахматовой. 20-6-50-е гг.- Дисс.канд. филол. наук М., 1997. - 180 с.
21. Кормилов С.И. Поэтическое творчество Анны Ахматовой. М.: Изд-во



Моск. ун-та, 1998. - 126 с.

22. Бабурина М.А. Концепт «Муза» и его ассоциативное поле в русской поэзии серебряного века. Автореферат дисс.канд. филол. наук. - СПб., 1998. -20с.

23. Жирмунский В.М. Творчество Анны Ахматовой. Л.: Наука. Ленингр. отд-ние, 1973.- с.43.

24. Бродский И. Скорбная муза // Юность. 1989. - N 6. - С. 65-68.

25. Недоброво Н.В. Анна Ахматова // Найман А. Рассказы об Анне Ахматовой. М: Художественная литература, 1989. - С. 248.

26. Чуковский К.И. Современники. Портреты и этюды, Минск: Народная асвета, 1985.- с.296.

27. В.Банников Н. Высокий дар // А. Ахматова. Избранное М., 1974. - С. 531.

28. Концепт «любовь» и его словесное воплощение в индивидуальном стиле А.Ахматовой тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.01, кандидат филологических наук Данькова, Татьяна Николаевна, 2000. С. 74.

29. Лобкова Е.В., автореферат, Образ-концепт «любовь» в русской языковой картине мира 2005, Омск, 2005, с. 25. Специальность ВАК РФ 10.02.01 Количество страниц 288.

“TA’VIZ UL-OSHIQIN” DEVONIDAGI ARAB TILIDANKIRGAN SO‘ZLAR TAHLILI

Bobomurotova Sabokhat Rustamovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek shoiri, tarixchi, tarjimon va davlat arbobi bo‘lgan Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida keltirilgan arabcha so‘zlar leksikasi haqida ma’lumotlar beriladi va berilgan ma’lumotlarga asoslangan holda xulosalar chiqariladi. Bunda devondagi g‘azallarda keltirilgan baytlardan yigirma oltita arabcha so‘zning o‘zbekcha izohi hamda ushbu so‘zlarning baytda qanday mazmun ifodalab kelganligi izohlangan. Izohlar misollar bilan asoslangan. So‘zlarning miqdori foizlar hisobida ham ko‘rsatilgan. Izohli lu‘gatlar, etimologik lug‘atlar va devon misollar uchun manba bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, maqolada arabcha so‘zlarning o‘zbek tiliga qanday kirib kelganligi haqidagi ma’lumotlar tarixiy faktlar asosida ko‘rsatilgan. Muallif ushbu so‘zlarning adabiyotdagi roli haqida ham yetarlicha ma’lumot bergan.

ANALYSIS OF WORDS INTRODUCED FROM THE ARABIC LANGUAGE IN THE “TA’VIZ UL-OSHIQIN” BOOK

Bobomurotova Sabokhat Rustamovna
Researcher, Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. This article provides information about the lexicon of Arabic words quoted in the “Ta’viz ul-oshiqin” devotional of Ogahi, son of Muhammadrizo Erniyozbek, an Uzbek poet, historian, translator and statesman, and conclusions are drawn based on the information given. This explains the Uzbek interpretation of twenty-six Arabic words from the bytes listed in the ghazals of Devon, as well as what content these words represented in the bytes. Comments are based on examples. The amount of words is also indicated in the percentage calculation. Annotated Lu‘gats, etymological dictionaries, and Devonian served as sources for examples. The article also shows information on how Arabic words entered the Uzbek language on the basis of historical facts. The author also provided sufficient information about the role of these words in literature.

АНАЛИЗ СЛОВ, ЗАИМСТВОВАННЫХ ИЗ АРАБСКОГО ЯЗЫКА В «ТАВИЗ УЛЬ-АШИКИН»

Бобомуротова Сабохат Рустамовна
научный сотрудник Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация. В этой статье дается информация о лексике арабских слов, представленных в девоне “Тевиз уль-ашикин” Мухаммадризо Ерниязбековича Огахи, узбекского поэта, историка, переводчика и государственного деятеля, и делаются выводы на основе предоставленной информации. Это включает в себя узбекское объяснение двадцати шести арабских слов из байтов, представленных в газелях Девона, а также объяснение того, какое значение эти слова представляли в байтах. Комментарии основаны на примерах. Количество слов также указывается в процентах. Толковые словари, этимологические словари и Девон

posлужили источниками примеров. Также в статье показана информация о том, как арабские слова попали в узбекский язык на основе исторических фактов. Автор также достаточно подробно рассказал о роли этих слов в литературе.

Kalit so'zlar: leksika, lug'at, aysh, ashyo, xilqat, jumla, tarab, ahl, nofi', hikmat, olam, murod, vasl, davlat, sidq.

Bizga ma'lumki, o'zbek adabiy tilida aslida arabcha so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Arabcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi arablarning O'rta Osiyoni istilo qilishlari bilan bog'liq. "Arablar VII asrning ikkinchi yarmi – VIII asrda O'rta Osiyoni bosib olganlaridan so'ng yerli aholiga majburiy ravishda islom dinini qabul qildirganlar. Maktab, madrasa, masjid va idora ishlari asosan arab yozuvi hamda arab tilida olib borilgan. Shu tariqa, arab tilining kitobiy til va davlat tili bo'lib qolish an'anasi ancha vaqtgacha davom etib kelgan". "Bu esa o'z navbatida, mahalliy aholining arab tilini puxta o'zlashtirishiga, shuningdek, o'zbek-arab ikki tilliligi (bilingvizm) hodisasining yuzaga kelishiga olib keldi".

Yuqorida keltirilgan va boshqa ijtimoiy-tarixiy sabablarga ko'ra "o'zbek tiliga ma'lum miqdorda arabcha so'zlar kirgan. Shunga ko'ra Ogahiy "Devon"ida ham ko'plab arabcha so'zlarni uchratamiz. Devondagi arabcha so'zlarning asosiy qismini diniy leksika tashkil qiladi. Biz quyida ayrimlarini o'rganib chiqamiz.

Ogahiy devonidagi "Aysh-u tarab paydo" g'azalining 40%ini arabcha so'zlar tashkil qiladi. Fikrimiz isbotini birgina g'azal misolida ko'rib chiqamiz.

Xaloyiq xilqati bir-biriga yaksar zaruridir,

Emastur qudratingdin jumla ashyo besabab paydo.

"Aysh-u tarab paydo" radifli g'azalida, xaloyiq uchun bir-biriga hashamatli kiyim butunlay zarurdir. Sening qudratingsiz, hech narsa besabab paydo bo'lmas, mazmuni ifodalangan. Ushbu baytdagi xaloyiq, xilqat, jumla, ashyo, aysh, tarab so'zlari "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha berilgan:

Aysh – a. Turmush, yaxshi turmush.

Ashyo- ashyo' – a.(birl.shiy'a) do'stlar to'dasi.

Xaloyiq – a Olloh yaratgan maxluqlar, odamlar. Odamlar, xalq.

Xilqat – a.1. Hashamatli kiyim; 2. Sarmo, umuman kiyim.

Jumla – a.1. to'p, to'da, hamma; butun, parcha; 2. gramm. gap; Ul jumladin-o'shandan, o'sha aytilganlardan.

Tarab – a. Xursandchilik, shodlik; Tarab angiz- shodlik keltiruvchi; Tarab sog'ari – Shodlik piyolasi, xushchaqchqlik.

Ushbu arabiy so'zlar qisqa, lunda bo'lishiga qaramay o'zida ulkan ma'nolarni mujassamlashtirgan, hamda g'azalning musiqiylikini ta'minlash vazifasini bajargan. Jumladan, birgina ashyo so'zini oladigan bo'lsak, do'stlar, birodarlar to'dasi degan ma'noni anglatadi, jumla so'zi ham to'da, hamma, butun degan ma'noni anglatadi. Ijodkor baytda ushbu ikki so'zni yonma-yon keltirish orqali barcha do'stlarning jamlanishini mohirlik bilan ifodalab bera olgan.

Shab-u ro'z ahli olamg'a erur bir-biridin nofi',

Emas behuda bo'lmoq hikmatingdin ro'z-u shab paydo.

Ushbu baytda, kecha-yu kunduz olam sohiblariga bir-birlaridan foyda borki, behudaga hikmatingdan kun-u tun paydo bo'lmadi mazmuni ifodalangan. Baytdagi ahl, olam, nofi', ashyo, hikmat so'zlari "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha

berilgan:

Ahl –a. Ega, sohib, tegishli.

Olam – a.olam, dunyo.

Nofi' – a.foydali, naf'li.

Hikmat – a.1. bilimdonlim, donishmandlik; 2. Falsafa; 3. Sir, maxfiy sir; 4. aql va haqiqatga to'g'ri keladigan nozik ma'noli qisqa so'z, masal; 5. Tadbir; 6. Sabab.

Baytda ega bo'lmoq so'zining arabcha ahl, bilimdonlik so'zining esa arabcha hikmat varianti olingan. Ushbu so'zlar g'azalning badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Olam, nofi' so'zlari ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan.

Murodi manzilig'a vosil etkay hodiyyi lutfing,

Kishi gar sidq birla aylasa sa'i talab paydo.

Ushbu baytda, agar inson haqiqatan ishtiyoq bilan maqsadiga erishish uchun harakat qilsa, albatta, u muloyim, rahmdil to'g'ri yo'l ko'rsatuvchiga yetishadi mazmuni ifodalangan. Baytdagi murod, manzil, vosil, hodi, sidq, ayla va talab so'zlari "Navoiy asarlarining izohli lug'at"ida quyidagicha berilgan:

Murod – a. Tilak, istak, maqsad.

Manzil - a. 1. yo'lovchilar qo'nib o'tadigan yer, bekat; 2. Turar joy; 3. Ikki joy orasidagi masofa.

Vosil – a. Erishuvchi, yetishuvchi, erishgan, yetishgan.

Hodi – a. To'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshlovchi, yetakchi; Hodiyyi komil – Mahoratli yo'l boshlovchi, tajribakor rahbar.

Sidq – a. 1. Chin, rostlik, to'g'rilik; haqiqat. Ahli sidq, Sidq ahli – Rostlikni sevuvchi kishilar; haqiqat (to'g'ri yo'l)dagi kishilar (so'fiylikda); Sidq aylamak – To'g'ri bo'lmoq; Sidq-u safo- to'g'rilik va poklik; Sidq mardudi – Haqiqat yo'lidan adashgan kishi; 2. Xolislik; Sidq niyat – niyati xolis.

Ayla – a. qara.

Talab – a. So'rash, istash, xohish, mayl; Talab vodiysi – So'fiylik maslagidagi yetti vodiyy (yetti daraja)ning birinchisi.

Baytda 14 ta so'z qo'llangan bo'lib, shundan 7 tasi arabcha so'z. Ko'pgina so'zlarning sinonimlari mavjud bo'lib, ulardan eng mosini tanlash ijodkorning mahoratiga bog'liq. Ushbu baytdagi birgina qaramoq fe'lini oladigan bo'lsak, bunda arabcha ayla varianti olingan. Yoki xohish, istak fe'lining arabcha talab shakli olingan. Bu esa g'azalning ifodaliligini, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Ne tong ogoh bo'lsa Ogahiy ishqing siridinkim,

Onga behuda ermas osmondin bu laqab paydo.

Ushbu baytda yuqoridagi baytlarning izchil davomi sifatida quyidagi fikr ifodalangan. Bir tongda Ogahiy ishqingning siridan xabar topsa, ya'ni ogoh bo'lsa, demak Ogahiy laqabi bejizga osmondan berilmabdi. Baytdagi ishq va laqab so'zlari "Navoiy asarlarining izohli lug'at"ida quyidagicha berilgan:

Ishq – a. Ishq vodiysi – so'fiylik ta'limida 2-tabaqa hisoblanadi.

Laqab – a. ikkinchi nom; laqab; taxallus. Biror xususiyatiga ko'ra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab beriladigan qo'shimcha nom; shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olingan nom.

"Yor hamdamdur mango" g'azalida ham arabcha so'zlar o'ziga xos tarzda qo'llangan.

Chun bu kun ul husni shohi yor hamdamdur mango,

Go'yyo mulki jahon yaksar musallamdur mango.

Davlati vaslidin el ichra Sulaymonlig‘ topib,
Xalqai baxti qavi ilkimda xotamdur mango.

Bu kun shunday kunki, go‘zalliklar shohi bo‘lgan yor men bilan birgaki, go‘yo butun jahon mulki menga taslim bo‘lganday, go‘yo menikidek. Mol-u davlatim ko‘pligidan el ichra Sulaymonlig‘ topib, shu qadar baxt xalqa kabi meni o‘rab olib, qo‘limga muhr bosganday.

Ushbu baytda vasl, davlat, husn, musallam, kun, mulk, xotam so‘zlari arabcha so‘zlar bo‘lib, ular Navoiy asarlari lug‘atida va Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘at”ida quyidagicha berilgan.

Vasl – bu arabcha so‘z vasl(un) shakliga ega (APC,893):o‘zbek tiliga sad undoshini s undoshiga almashtirib qabul qilingan: vasl – васл. Bu so‘z “qo‘shildi”, “yetishdi” ma’nosini anglatuvchi vasala fe’lining (APC,893) I bob masdari bo‘lib (ATG,142), arab tilida “bo‘g‘lanish”,”aloqa” ma’nolarini,o‘zbek tilida esa “yor bilan diydor ko‘rishuv” ma’nosini anglatadi (ЎТИЛ,I,173).O‘zbek tilida vasala fe’lidan hosil qilingan vasil(un) I bob masdari (ATG,142) va undan -at(un) qo‘shimchasi bilan hosil qilingan vasilat(un) muannas shakli (vasil va vasila so‘zlari) ham mavjud bo‘lib,atoqli ot sifatidagina ishlatiladi.Bu so‘zlar asli ajralmas (do‘st) ma’nosini anglatadi.Erkak kishining atoqli oti sifatida Vosil so‘zi ham ishlatiladi.Bu so‘z vasala fe’lidan hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib (ATG,147), “bir-biriga bog‘lovchi” ma’nosini anglatadi (APC,893).

Davlat - Bu arabcha so‘z davlat(un) shakliga ega (APC,268). APCda bu so‘z dala fe’liga qarashli deb berilib, shu fe’lning masdari sifatida ma’nolari ta’kidlangan, lekin bu fe’l anglatadigan “o‘tdi”, “mavjud bo‘lmay qoldi”, “almashdi”, “boshlandi” ma’nolaridan davlat so‘ziga shu lug‘atda berilgan “hokimiyat”, ”hukmronlik”, “sulola” ma’nolarini keltirib chiqarish qiyin. ЎТИЛda ham (I,203), ТЖРСda ham (112) bu so‘z omonim deb berilgan:davlat I – “hokimiyat”, davlat II — “boylik”. Bu ikki so‘zdan keyingisi APCda berilmagan, demak keyinchalik yuzaga kelgan. Davlat I so‘zi dastlab “qisqa muddatga saylangan, belgilangan boshqaruv organi” ma’nosini anglatgan bo‘lsa kerak, hozirgi ma’nosi keyinchalik yuzaga kelgan. Bu so‘zdan o‘zbek tilida davlatchilik so‘zi yasalgan, davlatlararo so‘zi tuzilgan.

Husn – bu arabcha so‘z husn(un) shakliga ega (APC,174); o‘zbek tiliga hoyi hutti undoshini h undoshiga almashtirib qabul qilingan: husn –хусн; ko‘p ma’noli hasuna fe’lining “chiroyli bo‘ldi” ma’nosini bilan (APC,173) hosil qilingan I bob masdari bo‘lib (ATG,142), “chiroy”, ”jamol” ma’nosini anglatadi (ЎТИЛ,II,712). Bu so‘z bilan o‘zbek tilida husnbuzar so‘zi tuzilgan. O‘zbek tilida hasuna fe’lidan yasalgan hasan sifati ham (ATG,43) ishlatilib, erkak kishining atoqli oti bo‘lib keladi.

Musallam – a.Inkor yoki qarshilik qilinmay ma’qullangan; taslim bo‘lish, topshirilish.

Xotam – a.1.Muhr, imzo o‘rniga maktub oxiriga bosiladigan va maktub egasining nomi o‘yilgan tamg‘a (bu tamg‘a ko‘pincha uzukning ko‘ziga o‘rnatilar va qo‘lga taqib yurilardi); 2.Uzukning ko‘zi; 3. So‘nggi,oxirgi; Xotam la’l – 1) La’l ko‘zli uzuk; 2) maj. Og‘iz,chiroyli og‘iz; Naqshi xotam – Muhrning yozuvi.

Mulk – a.1. Mamlakat; vatan; 2.Davlat, podshohlik; 3. Mol-u mulk, ko‘chmaydigan boylik, yer boylig‘i; 4.Dunyo, olam;

Kun – a. Arabcha buyruq so‘z “bo‘l”, “paydo bo‘l” [Go‘yo shunday ma’nodagi xudoning azalda qilgan buyrug‘i]; Nuktai “kun”, amri “kun” – Xudoning “bo‘l, paydo bo‘l” degan so‘zi, buyrug‘i.

Ushbu baytda qo'llangan birgina vasl so'zini oladigan bo'lsak, ushbu so'zning ma'nosini boshqa sinonimlarini qo'llash orqali ifodalashning iloji yo'q. Aynan vasl so'zi bergan mazmuni ochib bera olmaydi. Yoki mulk so'zi ham juda keng ma'noni ifodalab kelgan. Bu ham ijodkorning o'ziga xosligini, so'zlarni mahorat bilan o'z o'rnida qo'llay olishini bildiradi. Ushbu g'azallar tahlili davomida shuni ko'rishimiz mumkinki, shoir arabiy, forsiy va turkiy so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olgan qalam sohibidir.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy yashagan davrda, asosan, arab va fors tilida ijod qilingan. Shu sababli ijodkor ham davr nuqtayi nazaridan, ham diniy tushunchalarni ifodalash uchun, albatta, arab tiliga murojaat qilgan. Arabcha va forsha so'zlar g'azallarning chiroyli va o'qimishli bo'lishi uchun ham xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т: ФАН, 1985. – Б. 109.
2. Ҳожиёв А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. – Т: ФАН, 1981. – Б. 114.
3. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1972.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III том. – Тошкент: Университет, 2003.
5. Қаранг: Щчербак А. К истории узбекского литературного языка древнего периода // Академику В.А.Гордлевскому к его 75-летию. – М: 1953. –С. 317-323.
6. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек тили тарихи. – Т: Ўқитувчи, 1995. – Б 42.
7. O'TUL O'zbek tilining universal lug'ati. Abduraimov 2019.

JONATAN SVIFTNING “GULLIVERNING SAYOHATLARI” ASARIDA HAJVIYLIK IFODASI

Baxshullayeva Mohinabonu Bahodir qizi
BuxDPI I bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” asarida hajviy ifoda va satirik obrazlar tizimining badiiy poetik xususiyatlari ilmiy nazariy tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: hajviy asar, poetik xususiyat, keskin contrast, tanqidiy fikr, gʻayrioddiy voqealar, insoniy tabiat, yuksak mafkura, obrazlar va hokazo.

ВЫРАЖЕНИЕ САТИРЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ДЖОНАТАНА СВИФТА «ПУТЕШЕСТВИЯ ГУЛЛИВЕРА»

Бахшуллаева Мохинабону Баходир кизи
*Магистрант 1-го курса Бухарского государственного педагогического
института*

Аннотация: В данной статье рассматриваются художественно-поэтические особенности сатирического выражения и системы сатирических образов в произведении Джонатана Свифта «Путешествия Гулливера» с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: сатирическое произведение, поэтические особенности, резкий контраст, критическое мышление, необычные события, человеческая природа, возвышенная идеология, образы и др.

THE EXPRESSION OF SATIRE IN JONATHAN SWIFT'S GULLIVER'S TRAVELS

Baxshullayeva Mohinabonu Bahodir qizi
1st-year Master's Student, Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the artistic and poetic features of satirical expression and the system of satirical images in Jonathan Swift's Gulliver's Travels.

Keywords: satirical work, poetic features, sharp contrast, critical thought, extraordinary events, human nature, elevated ideology, imagery, etc.

Kirish. Jahon xalqlari sivilizatsiyasida xalq kulgi san'ati qadimiyligi va an'anaviyligi bilan hamisha e'tiborda bo'lib kelgan. Adabiyotshunoslik va folklorshunoslikda uning yozma adabiyot badiiy taraqqiyotiga ta'siri, poetik xususiyatlarining stilizatsiya qilinishini o'rganishga alohida diqqat qaratilgan. Shu asnoda, Jonatan Sviftning «Gulliverning Sayohatlari» asari adabiyot tarixida o'ziga xos hajviy asar sifatida alohida o'rin tutadi. Ushbu asar XVIII asr ingliz jamiyatining siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitini tanqidiy ruhda yoritib beruvchi satirik janr namunasi hisoblanadi. Svift o'zining hajviy uslubi orqali inson tabiatidagi, jamiyatdagi va siyosiy tuzumdagi kamchiliklarni keskin, ammo badiiy shaklda tanqid qiladi. «Gulliverning Sayohatlari» asari hajv orqali dunyoqarash va inson tabiatidagi muammolarni ochib beradi. Asarda obrazlarning o'ziga xosliklari,

keskin kontrast va g'ayrioddiy voqealar orqali yozuvchi tanqidiy fikrlarni yetkazadi. Aristotelning so'zlariga ko'ra, bola tug'ilgandan keyingi qirqinchi kunidan kula boshlaydi. U faqat o'sha paytdan boshlab birinchi marta erkak bo'ladi(1.B-10).

Adabiyotlar tahlili;Kishilik jamiyatida insonlar dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishi ma'lum bir fan tarmoqlari qonuniyatlari asosida tahlil etiladigan ilmiy-nazariy hodisa hisoblanadi. Adabiyot inson ruhiy-ma'naviy olamini boyituvchi muhim vositadir. Badiiy asarlardagi turli obrazlar tizimi, inson psixologiyasi va tabiati, xarakterini tahlil qilish imkonini beradi. Uyg'onish davrida kulgi o'zining eng radikal, universal, ta'bir joiz bo'lsa, dunyoni qamrab olgan va shu bilan birga eng quvnoq ko'rinishida, tarixda bir marta ellik yil – oltmish yil (turli mamlakatlarda turli vaqtlarda) jahon adabiyotining Bokkachchoning "Dekameron" romani kabi asarlarini yaratishda muhim rol o'ynash uchun xalq ("vulgar") tillari bilan bir qatorda buyuk adabiyot va yuksak mafkuraga kirib borgan.

Badiiy asar tahliliga bir necha fanlar kesishuvida yondashish obraz mohiyatiga chuqurroq kirish va insonni har tomonlama o'rganish imkonini beradi. «Gulliverning Sayohatlari» to'rtta asosiy qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos hajviy mazmunga ega:Lilliput oroli (kichik odamlar mamlakati) - Svift kichik odamlar orqali Angliyaning siyosiy mojarolari, partiyalar o'rtasidagi kurash va insonlarning mayda manfaatlarini hajv qiladi. Lilliputda kichik odamlar o'rtasidagi urushlar hajviy ko'rinishda berilgan bo'lib, ularning sabablari behuda va bema'ni ekanligi bilan ajralib turadi. Kulgining asl mohiyati haqida fikr yuritgan Aflotun kulgisiz jiddiy narsalarni anglab bo'lmasligini ta'kidlagan edi(2.B-82). Sharq zaminida askiyachilik an'anasi uzoq tarixiy jarayon hisoblanadi. Fikrimizni Shayx Sa'diy Sheroziyning quyidagi xotirasi asosida dalillaymiz: "Hijoz safariga chiqqan mahalimda bir necha sofdil yoshlar menga hamroh bo'ldilar. Ular goho askiyabozlik qilishar va goho hikmatli she'rlar o'qishar edi"(3.B-64). Brobdingnag oroli (ulkan odamlar mamlakati) - Bu yerda Gulliver o'zi kichkina bo'lib qoladi va ulkan odamlar orasida insonning ojizligi va kichikligini his qiladi. Svift bu qismda insonning tabiatidagi zaiflik va kichiklikni hajv orqali tasvirlaydi. Laputa oroli va uning atrofi - Bu qismda ilm-fan, texnologiya va falsafa sohasidagi bema'niliklar hajv qilinadi. Laputa aholisi doimiy ravishda o'zlari tushunmaydigan, foydasiz ilmiy tajribalar bilan shug'ullanadi.Xuygnhnmlar yurtida - Svift insonni eng keskin tarzda hajv qiladi. Xuygnhnmlar orolida hayvonlar - xuygnhnmlar aqlli va adolatli bo'lsa, odamlar (yahular) esa yovvoyi, yaramas mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. Bu qism inson tabiatidagi manfur xususiyatlarni keskin hajv qiladi.

A.N.Veselovskiy o'zining Rable haqidagi maqolasida hazilning ijtimoiy ahamiyatini quyidagicha tavsiflaydi: "O'rta asrlarda masxaraboz ob'ektiv mavhum haqiqatning huquqdan mahrum tashuvchisi bo'lgan"(4.B-441-442). Xalq kulgisi ming yillar davomida qahqaha va xalq-bayram kulgi shakllari bag'rida rivojlanib, himoyalangan. Kulgi dunyoni o'zining maksimal quvnoq va hushyor xususiyati bilan yangicha ochib berdi. Vaqt o'tishi bilan xalq maydonidagi bu tasvirlar saroy tomoshalariga ko'chib o'tdi va bu yerda ularning uslubi va tushunchasi ham shunga yarasha o'zgardi. Hajv janri - insonlar yoki jamiyatning kamchiliklarini tanqid qiluvchi badiiy usul bo'lib, ko'pincha istehzo, kinoya, hajviy tasvir va mubolag'a kabi usullardan foydalanadi. Svift bu janrdan ustalik bilan foydalangan holda, haqiqatni o'quvchiga ko'rsatib berishni maqsad qilgan.

Odam Atodan Masihgacha bo'lgan butun muqaddas tarixni grotesk maqsadlarda eng muhim voqealardan foydalangan holda g'alati masxaraboz bayramni tasvirlash uchun parodiyalar muhim materialga aylandi(5.B-86).Bularning barchasida kulgining

umuminsoniy xususiyati to‘liq dalil bilan namoyon bo‘ladi.

Svift o‘z hajviy uslubida quyidagi badiiy vositalardan foydalanadi: 1. Mubolag‘a; Mubolag‘a hajvning eng muhim vositalaridan biridir. Masalan, Lilliputdagi kichik odamlar yoki Brobdingnagdagi ulkan odamlar orqali Svift inson tabiatidagi kamchiliklarni haddan tashqari kattalashtirib tasvirlaydi. 2. Kinoya; Kinoya orqali yozuvchi bevosita aytmasdan, bilvosita tanqid qiladi. Lilliputdagi podsho va uning amaldorlari o‘zini dono va qudratli deb hisoblasalar-da, ularning harakatlari kulgili va bema‘ni ekani ayon bo‘ladi. Matnda kinoyaviy kulgi hosil qiladigan so‘z maqsadi tagma‘noli matn yuzaga kelishi uchun xizmat qiladi. So‘z ma‘nosining o‘zgarishi fikrning ifoda maqsadi bilan bog‘liq ekan, demak, kinoya bevosita maqsadni tagma‘noli matnda hosil bo‘ladi. Kinoya zamirida, o‘z navbatida, tanqidiy kulgi yotadi. Kinoya kulgisi yuqorida aytib o‘tilganidek, konkret lisoniy birliklar va ularga matnda yuklangan qo‘shimcha ma‘nolar asosida hosil bo‘ladi.

So‘zlarning matndagi ularning semantik tarkibiga kirmaydigan qarama-qarshi ma‘nolaridan foydalanish, frazeologik iboralarni tagma‘nolari asosida kinoyali qo‘llash, so‘zlarning matndagi semantik jihatdan noodatiy bog‘lanishlari, so‘z va jummalarni metaforik usulda qo‘llash, dublet so‘zlarni maqsadli ravishda bir matn ichida ketma-ket qo‘llash orqali uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi, atoqli ot va shaxs nomlariga kulgili ma‘no yuklash usullari, so‘zlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llash badiiy asarlarda kulgi uyg‘otish uchun xizmat qiluvchi vositalardir. 3. Alegoriya; Alegoriya orqali Svift ma‘lum bir shaxslar, guruhlar yoki hodisalarni ramziy obrazlar orqali tasvirlaydi. Masalan, Lilliputdagi partiyaviy nizolar XVIII asr Angliya siyosatidagi partiyalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning hajviy ko‘rinishidir. Badiiy matn “insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi” (6.B-99-104). Kontrast; Svift kontrast orqali voqealarni keskinroq ko‘rsatadi. Brobdingnagda Gulliverning kichikligi orqali insoniyatning ojizligi va arzimasligi ta‘kidlanadi.

“Kulgilik voqelik muayyan sifat holatining buzilishidir”, – degan falsafiy qarash ham mavjud (7.B-212). Svift hajv orqali insoniyatning o‘zini mukammal hisoblashiga qarshi turadi. U jamiyatdagi illatlar, siyosiy adolatsizlik va insonlarning ikkiyuzlamachiligini hajv qiladi. Asarning asosiy maqsadi o‘sha davrdagi ingliz jamiyatini uyg‘otish, o‘quvchilarni o‘zlari ustidan kulishga va o‘z xatolarini tan olishga chorlashdir. Kulgi inson kayfiyati bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, badiiy asarlarda ijodkorning obrazga nisbatan munosabatini ifodalash bilan birgalikda asarning estetik qimmatini oshiradi. Kitobxonga ma‘naviy zavq berish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Kulgi madaniyatining yozma adabiyotga ta‘sirini o‘rgangan rus olimi M.M. Baxtin lingvistik ta‘sirni “adabiyotning karnavalizatsiyasi” deb ataydi. Bunday transpozitsiya adabiyot tabiatining murakkabligini ta‘kidlaydi. Karnaval ramziy, hissiy, aniq shakllarning butun tilini ishlab chiqqanini aytib o‘tadi. Katta va murakkab tillardan bir butun individual, karnaval, imo-ishoralarga, ommaviy harakatlarga asoslangan adabiyot tilini ishlab chiqqanini alohida ta‘kidlaydi (8.B-53). Aytish mumkinki, bu til alohida har qanday til kabi uning barcha shakllariga kirib borgan yagona, lekin murakkab karnaval dunyoqarashini ifodalagan. Bu tilni og‘zaki tilga hech qanday tarzda to‘liq va adekvat tarjima qilib bo‘lmaydi. U o‘ziga xos hissiy xarakter jihatidan o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy tasvirlar tiliga ma‘lum bir transpozitsiyani beradi.

Xulosa; Jonatan Sviftning «Gulliverning Sayohatlari» asari hajviy janrning yorqin

namunasi sifatida inson tabiatining, jamiyat va siyosatning ichki ziddiyatlarini mahorat bilan ochib beradi. Svift o'zining istehzoli, kinoyaviy uslubi bilan o'quvchilarni chuqur fikrlashga undaydi. Hajv orqali bunday yondashuv nafaqat XVIII asrda, balki bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan. Asar insoniyatni o'z illatlariga tanqidiy nazar bilan qarashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотел. О душе . III. гл. –С. 10.
2. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. –B.82.
3. Shayx Sa'diy Sheroziy Guliston, forschadan G'afur G'ulom, Shoislom Shomammedov, Rustam Komilov tarjimai. -Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2021. –B.64.
4. Веселовский А.Н. Избранные статьи.– Л, 1939. –С.441-442.
5. Бахтин М.М. Рабле и история смеха. – Москва: Художественная литература, 1965. – С.86.
6. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Fil. fan. Dokt. dissert. – Toshkent, – 2009. –B. 99-104.
7. Falsafa. Qomusiy lug'at. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004. –B. 212.
8. Baxtin M.M. Og'zaki ijodning estetikasi. ED.2–. Moskva: 1986.–B.53.

FILOLOGIYA TALABALARINI ZAMONAVIY RUS TILIDA SHARTLI MUNOSABATLARNI FOYDALANISH OSOLLARIDA TAYYORLASH

Cherginskaya Irina Aleksandrovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Maqolada oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi ko'tarilgan. Rus tilidan malakali foydalana oladigan, samarali muloqot qilish texnikasi va usullarini o'zlashtirgan, ilmiy va rasmiy ishbilarmonlik sohasida rus tilida muloqot qila oladigan mutaxassislarni tarbiyalash zarurati ko'rib chiqiladi. Bu shuni anglatadiki, har qanday grammatik materialni o'zlashtirish barqaror kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish uchun asos bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, shartlilik, o'rganish tamoyillari, shartli munosabatlar, mashqlar tizimi.

TEACHING STUDENTS OF PHILOLOGY THE MEANS OF EXPRESSING CONDITIONAL RELATIONS IN THE MODERN RUSSIAN LANGUAGE

Cherginskaya Irina Aleksandrovna
Uzbekistan state world languages university

Abstrakt. The article raises the issue of teaching the Russian language in higher educational institutions and training highly qualified specialists. The need to educate professionals who can competently use the Russian language, master the techniques and methods of effective communication, and are able to communicate in the scientific and official business spheres in Russian is considered. This means that mastering any grammatical material should become the basis for the formation of stable communicative skills.

Keywords: pedagogical technology, conditionality, principles of teaching, conditional relationships, system of exercises.

В настоящее время основной принцип обучения русскому языку определяется как сознательно-коммуникативный (Н.З. Бакеева, Е.А. Быстрова, З.П. Даунене, Л.З. Шакирова, В.И. Андриянова и др.). Этот принцип обеспечивает активное продуцирование речи, позволяет свободно оперировать изученным грамматическим материалом в разнообразных контекстах и ситуациях, по-разному трансформировать данный материал в зависимости от конкретной коммуникативной задачи.

Формированию у студентов вышеперечисленных умений и навыков способствует научно обоснованная система упражнений.

Проблема классификации упражнений в лингводидактике остается до сих пор до конца не решенной. В методической литературе описаны разнообразные типологии упражнений, которые различаются не только терминологически, но и в принципах классификации, в степени абсолютизации тех или иных типов упражнений, в структурном построении, в последовательности их презентации.

Под системой упражнений в методической литературе понимается научно обоснованная классификация различных типов упражнений и определенная последовательность в их выполнении.

Предлагаемая нами система упражнений опирается на концепцию П.Я. Гальперина и его школы [2, 240] о поэтапном формировании умственных действий и дидактический принцип последовательности, в соответствии с которыми мы выделяем рецептивные, репродуктивные и продуктивные упражнения.

Раскроем примерное содержание рецептивных упражнений, которые могут использоваться при изучении предложений с условными отношениями.

Рецептивные упражнения способствуют уяснению и запоминанию грамматической модели, вырабатывают навыки понимания и узнавания изучаемых языковых фактов, умения анализировать их в готовом тексте. Рецептивные упражнения включают в себя три комплекса упражнений.

1 комплекс – лексико-семантические и лексико-грамматические упражнения. В целях овладения комплексом приемов семантизации лексических единиц студентам предлагается выполнить следующие виды рецептивных упражнений.

Упражнения, обеспечивающие закрепление навыков наблюдения над условными конструкциями.

Упражнение 1. Прочитайте предложения. Обратите внимание на способы выражения условных отношений в простом предложении. Выпишите предположно-падежные конструкции со значением условия.

1. При увеличении скорости движения автомобиля время поездки сокращается. 2. При низкой температуре дождевые капли замерзают. 3. С понижением температуры воздух становится холоднее. 4. В случае затруднений в понимании текста пользуйтесь толковым словарем.

Упражнение 2. Прочитайте высказывания ученых и пословицы. Определите стилистические различия условных союзов.

1. Каждый сеятель должен радоваться, если семена, им брошенные, вырастают в полезные злаки (Н. Рерих). 2. Кабы знал, где упал, то соломки бы подостлал. 4. Нечем хвалиться, коль все из рук валится.

2 комплекс упражнений включает в себя задания на ознакомление с грамматическими и функциональными особенностями условных конструкций в микротексте (предложениях) и связных текстах.

Упражнения на отработку навыков узнавания условных конструкций

Упражнение 3. Прочитайте текст. Как его можно озаглавить? Найдите сложные предложения с придаточными условными. Определите, какую роль в тексте играют союзы.

Учитесь работать с карандашом в руках. Устные предметы не надо учить наизусть, если какой-нибудь отрывок не был задан специально для заучивания. Здесь есть особые приёмы. Прочитайте весь текст сразу и, закрыв книгу, попробуйте его пересказать. Не важно, если сначала многое забудется. При повторном пересказе вы вспомните пропущенный материал, и он надолго останется в вашей памяти. Если встретилось незнакомое слово, не ленитесь заглянуть в словарь.

Упражнение 4. Выпишите сложноподчиненные предложения, обозначающие условия. Какими союзами соединены главная и придаточная части?

1. Если бы я прочитал эту книгу в прошлом году, я бы взял другую тему для реферата. 2. И лес шумит дружнее, когда деревьев много. 3. Когда в товарищах согласия нет, на лад их дело не пойдет. 4. Случись со мной несчастье, товарищ помог бы мне. 5. Если с другом вышел в путь, веселей дорога. 6. Коли хочешь говорить, так сначала подумай.

Упражнения на определение значения условных конструкций

Упражнение 5. Прочитайте предложения. Определите значение предложений с союзом если (реальное или ирреальное условие).

1. Мальчик обижался, если его незаслуженно ругали. 2. Маму беспокоило, если дочка убегала слишком далеко. 3. Отца огорчало, если сын подолгу не писал. 4. Разве тебя не обидело бы, если бы с тобой обращались подобным образом?

Упражнение 6. Прочитайте начало «Сказки о царе Салтане» А.С. Пушкина – разговор трех сестер. Найдите и выпишите средства выражения ирреального условия.

3 комплекс рецептивных упражнений - закрепление навыков наблюдения над условными конструкциями. Это целенаправленные задания аналитического характера, которые мы предлагаем проводить, работая со связным текстом, так как именно текст – основа создания той речевой среды, которая развивает. Развивает чувство языка, творческую память, приобщает к культуре, способствует духовному становлению личности.

Упражнение 7. Студентам предлагается текст.

Все мы по-разному относимся к разным видам искусства: если одни любят живопись, то другим больше нравится скульптура, графика, третьи предпочитают музыку или театр. Но нет человека, который бы никогда в жизни не рисовал. В вашей группе, конечно, тоже есть «художники». Если будет объявлен конкурс-выставка студенческих работ, какое участие в нем примет ваша группа? Если некоторые студенты увлекаются живописью и рисуют, они, вероятно, представят на конкурс свои рисунки – «историю группы в рисунках». Если же среди вас есть такие, которые не очень разбираются в живописи, надо помочь им научиться понимать произведения изобразительного искусства, научить их видеть и понимать прекрасное в жизни.

Несомненно, в каждой группе найдутся свои художники, свои искусствоведы и критики и, наконец, просто зрители. И разумеется, будут желающие провести интервью со зрителями.

Предлагаем вам несколько вопросов для интервью.

Если бы вы были художником, что бы вы изображали на своих картинах, какие чувства, мысли вы бы выражали?

Если бы вы писали картины на исторические темы, какие исторические события нашли бы отражение в ваших работах?

После прослушивания (прочтения) текста учащиеся отвечают на следующие вопросы и выполняют ряд заданий:

1. Чем вы увлекаетесь? Что вам больше близко и понятно?

2. Знаете ли вы, какие музеи есть в Ташкенте? Посещали ли вы их? Что вам там особенно запомнилось.

3. Какие вопросы вы сами предложили бы для интервью? Почему?

4. Проанализируйте текст. Выделите предложения, в которых выражаются условные отношения: реальное условие (с союзом если), ирреальное (нереализованное) условие (с союзом если бы).

5. Определите, что является основным средством выражения нереализованного условия (сложноподчиненное предложение с союзом если бы). Обратите внимание, в какой форме употреблены глаголы в главной и придаточной частях подобных

предложений.

Подобные упражнения способствуют выработке навыков самостоятельного использования студентами лексики и конструкций, выражающих условные отношения.

Список использованной литературы

1. Аникина М. Н. и др. Синтаксис сложноподчиненного предложения. – М.: Русский язык, 2004. – 323 с.
2. Гальперин П.Я. лекции по психологии / Под ред. и с предисл. А.И. Подольского. М., 2002. – 248 с.
3. Степаненко С.Л., Степаненко А.С. Выражение условных отношений в простом и сложном предложениях. – М.: Русский язык, 2013. – 156 с.

BAYONIY DEVONINING QO‘LYOZMA NUSXALARI

Do‘stova Surayyo Savronovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti Dotsent f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining asarlari va tarjimalari bilan o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Muhammad Yusuf Bayoniy devon tuzgan, uning qo‘lyozma nusxalari O‘zbekistonning bir necha kutubxona fondlarida mavjud. Devonning qo‘lyozma nusxalarining bir nechtasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Ushbu maqolada Bayoniy devonining 1120, 7082, 7106, 6666\6 raqamli qo‘lyozma nusxalari, uning ilmiy va kitobat xususiyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, Bayoniyning devoni qo‘lyozmalaridagi she‘rlar g‘azallar, muxammas, musaddaslar, murabba‘, musabbaa‘, tarje‘ot, ruboiylar, maqta‘, qit‘a, masnaviy, ta‘rix janrlariga ajratilgan va nechtdan berilganligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: devon, manba, kotib, nusxa, fond, g‘azal, masnaviy, asar, xat, adabiyot, she‘r, varaq, muallif.

MANUSCRIPT COPIES OF BAYONIY’S DIVAN

Do‘stova Surayyo Savronovna
Associate Professor at Jizzakh State Pedagogical University, PhD in Philology

Abstrakt: Muhammad Yusuf Bayoniy made a significant contribution to Uzbek literature with his works and translations. He compiled a divan, and its manuscript copies are preserved in several library collections across Uzbekistan. Some of these copies are housed in the Manuscripts Fund of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies. This article discusses the manuscript copies of Bayoniy’s divan, numbered 1120, 7082, 7106, 6666/6, focusing on their scientific and scribal features. Additionally, the poems in Bayoniy’s divan manuscripts, such as ghazals, muxammas, musaddas, murabba‘, musabba‘, tarje‘ot, rubaiyat, maqta‘, qit‘a, masnavi, and tarikh genres, have been categorized and quantified.

Keywords: divan, source, scribe, copy, collection, ghazal, masnavi, work, script, literature, poem, folio, author.

РУКОПИСНЫЕ КОПИИ ДИВАНА БАЙОНИЯ

Дўстова Сурайё Савроновна
доцент Джизакского государственного педагогического университета,
кандидат филологических наук (PhD)

Аннотация: Мухаммад Юсуф Байоний внес значительный вклад в узбекскую литературу своими произведениями и переводами. Он составил диван, рукописные копии которого хранятся в нескольких библиотечных фондах Узбекистана. Некоторые из этих копий находятся в фонде рукописей Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни. В данной статье рассматриваются рукописные копии дивана Байония под номерами 1120, 7082, 7106, 6666/6, а также их научные и книжные особенности. Кроме того, произведения из рукописей дивана Байония, такие как газели, мухаммасы, мусаддасы, мурабба, мусабба, тарже‘оты, рубайи, макта, кита, маснави и тарих, были классифицированы по жанрам и подсчитаны.

Ключевые слова: диван, источник, писец, копия, фонд, газель, маснави, произведение, почерк, литература, стих, лист, автор.

Muhammad Rahimxon II-Feruz adabiy muhitining ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan biri Muhammad Yusuf Bayoniydir. Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi", "Haft shuaro" asarlari, tarjimalari va devoni bizgacha yetib kelgan.

Xiva adabiy muhitida yashab ijod etgan Muhammad Yusuf Bayoniy o'zining asarlari bilan o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shgan. Uning shoir, adabiyotchi, tarixchi sifatida yaratgan ijodiy merosi va tarjimalari Xiva adabiy muhitini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. U "ulug'vor falsafiy ruhiyatni o'z g'azalllarida nafis ifoda etgan shoir, tarixnavis alloma, zarqalamli xattot, bir necha tillarni mukammal bilgan tarjimon, sozanda va maqomshunos olimdir" [Otamurodova 2.31].

Bayoniy devonining qo'lyozma nusxalarini Vatanimizning bir necha kutubxona fondlarida uchratish mumkin. Devonning qo'lyozma nusxalaridan bir nechtasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1120, 7082, 7106, 6666\6 raqamlari ostida saqlanadi. Biz ushbu devonlar, ularning ilmiy va kitobat xususiyatlarini, tarkibini o'rganib chiqdik.

1120 raqamli qo'lyozma

1120 raqamli qo'lyozmaga *یناوی دی نایب* (Bayoniy devoni) deb nom qo'yilgan va u 1327 (1909) yilda yozilgan. Devonning muqova o'lchami 18,5/28, varaqlar soni 172 varaq. Har bir betga 21-22 qator yozuv joylashtirilgan. Qo'lyozma qizil va qora siyoh bilan yozilgan. Qizil siyohda g'azali Bayoniy, muxammasi Bayoniy, musaddasi Bayoniy deb nomlar berilgan, boshqa barcha yozuvlar qora siyohda bitilgan. Yozuvi nasta'liq xatidadir.

1a varaqda 2ta muhr mavjud (Узбекский государственный научно-исследоват. Институт. библиотека № 1120 город Самарканд ва ГПБ. Уз.отд. в.рук. №1120 Ўз ДхК қўлэз. бўл.). 171b varaqda ham shu ikkinchi muhr mavjud. 9a varaqda Samarqand muhri bosilgan. Poygir qat'iy qo'yilgan. Saqlanish holati yaxshi. Muallifning o'zi bet raqamlarini qo'yib chiqqan. Qo'lyozma qizil-pushti rang qalin karton bilan qoplangan va 1120 raqami qo'yilgan.

1b varaqdan *یناوی بل صلختم لا کیب فسوی دمحم* (Muhammad Yusufbek almutaxallus al Bayoniy), deb qizil siyohda yozilgan. So'ngra "Bismillohir rahmonir rahim", deyilgan va Alif bilan yakunlanuvchi g'azallar berilgan. Barcha g'azallarning boshlanishida qizil siyoh bilan g'azal deb yozib qo'yilgan. Birinchi g'azal "Zihi sone'ki sun'ing sandin etmish tavili yad paydo..." radifli g'azali bilan boshlangan. Ikkinchi g'azal "Yorab ishi har lahza isyon uzra isyondur manga..." radifli g'azaldir. Jami, 501ta tartib bilan berilgan g'azallar va hoshiyada 54 ta g'azal berilgan, jami, 555 ta g'azal mavjud, 114b varaqda g'azallar tugaydi.

Qo'lyozma hoshiyasidagi 54ta g'azallar quyidagi varaqlarda bitilgan: 2a,b varaqlarda 5ta, 3a,b varaqlarda 3ta, 13a.b varaqlarda 3ta, 19b varaqda 2ta, 20a.b varaqlarda 5ta, 21a varaqda 1ta, 29a.b varaqlarda 2ta, 30a.b varaqlarda 3ta, 34b varaqda 2ta, 35a.b varaqlarda 6ta, 67a.b varaqlarda 2ta, 74a.b varaqlarda 4ta, 75a,b varaqlarda 4ta, 81 a.b varaqlarda 4ta, 97a varaqda 1ta, 103b varaqda 3ta, 104a.b varaqlarda 3ta gazallar.

So'ngra 115a varaqda 1ta mustahzod berilgan. 115a varaq oxiridan muhammaslar boshlanadi va ular 45tani tashkil etadi, ular 143b varaqda tugaydi. So'ng 144a varaqdan musaddaslar berilgan. 10 ta musaddas mavjud va u 152a varaqda tugaydi. 152a

varaqdan 2ta musabba'lar boshlangan va ular 153a varaqda tugagan. 153b varaqdan tarje'ot boshlangan va u 9ta berilgan, 156a varaqda tugagan. Shu varaqda masnaviylar boshlanadi. 36, 16, 6, 16, 14, 16 qatorli 6ta masnaviy 157a varaqda tugagan. 157b varaqda ruboiylar boshlangan. 61ta ruboiy berilgan va ular 161b varaqda tugagan. So'ngra volai Bayoniy deyilgan va u 12 ta berilgan. Keyin 162b varaqda 3ta maqtaa' berilgan. 163a varaqda "Kavsh mahsi haqida aytili", deb, 6 bayt she'r berilgan. "Komilning ko'zi nobino bo'lub oyoqida naqras paydo erdi, faqir bu ikki baytni irsol qildi", deb 2 bayt she'r yozilgan va davomida yana 3 bayt she'r berilgan. 163b varaqda "Bu xoksorning bir taxallus ixtiyor etmakka ma'mur bo'lg'onidadur ushbu abyot", deb 3 bayt she'r yozilgan. So'ng shu varaqda 1ta 5 baytli qit'a berilgan va ushbu varaqda "Masnaviyoti zikr ahvoli dahrni bayonida", deb 20 baytli she'r, "Anda zavq ahlining bayoni", deb 19 baytli she'r yozilgan. Keyin 164b varaqda "Jom kayfiyati nedur sifati", deb 15 bayt she'r berilgan. Keyin 165a varaqda "Anda may nishonasini ma'rifati", deb yozilib, 8 baytli she'r mavjud. Shu varaqda "Bevafo yorlar hikoyati", deb 13 baytli she'r yozilgan. So'ngra 165b varaqda "Bebafo dahrning shikoyati", deyilgan va 16 baytli she'r berilgan. 166a varaqda "Bayoniyni elga aytgan pandi", deb 4 bayt she'r berilgan. Shu varaqda "So'zini xatm birla payvandi", deb 4 bayt she'r yozilgan. "Bayoniyni bu majmua uchun aytgan ta'rifining bayonidadur", deyilgan 9 qator gaplari berilgan. 166b varaqda ta'rix boshlangan va 6ta (Bekjon deb 1 bayt ham berilgan) ta'rix 168a varaqda tugaydi. So'ng shu varaqda qasida boshlangan. Qasidalar oraligida 1ta bahri tavil 170b varaqda berib ketilgan. 4 ta qasida 172b varaqda tugaydi. Ushbu 172b varaqda Bayoniy devoni ham yakunlanadi: 1327 باب اول كالم لا نوع بباتكلا تومت (Tammat alkitob bi'avnul mulkul vahob 1327). Shu joyda yana muhr mavjud.

1120 raqamli qo'lyozma O'zRFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 6666[Bayoniy.6], 7106[Bayoniy.5], 7082[Bayoniy.7] raqamli qo'lyozma nusxalarga qaraganda mukammalligi, she'rlarning ko'pligi hamda muallif dastxatida yozilganligi bilan qimmatlidir.

6666/6 raqamli qo'lyozma

6666/6 raqamli qo'lyozmaga "G'azali shoirlar va muxammaslar Murodiy, Farrux, Sultoniy, Sodiq, Sa'diy, Bayoniy, Oqil" deb nom qo'yilgan. Devonning muqova o'lchami 20/30, varaqlar soni 177 varaq. Har bir betga 17-19 qator yozuv joylashtirilgan. Qo'lyozma qizil va qora siyoh bilan yozilgan. Sarlavhalarni (ismlarni berishda) va tartib raqamlarni berishda qizil siyohdan foydalangan. Boshqa barcha yozuvlar qora siyohda bitilgan. Yozuvi nasta'liq xatida va poygir qat'iy qo'yilgan.

Qo'lyozma qora qattiq karton bilan qoplangan. Kitobning ustiga 6666 raqami qo'yilgan va burchagiga "devoni Murodiy, devoni Farrux, devoni Sultoniy, devoni Sodiq, devoni Sa'diy, devoni Bayoniy, devoni Oqil", deb yozilgan. So'ng uchta naqsh qo'yilgan, o'rtasidagi biri katta ikkitasi kichik naqshlardan iborat.

01 varaqda "G'azali shoirlar va muxammaslar", deb nomlangan. "Shahzoda Murodiy, shahzoda Farrux, shahzoda Sultoniy, shahzoda Sodiq, shahzoda Sa'diy va Bayoniy, Oqil", deb arab yozuvida yozib qo'yilgan. 1a varaqda 6666 muhri bosilgan, 1b varaqdan boshlab g'azallar boshlangan.

1b varaqdan Murodiy she'rlari boshlangan va 11-varaqda tugagan. 11b varaqdan Farrux, 17b varaqdan Sultoniy, 48b varaqdan Sodiq, 83b varaqdan Sa'diy, 150 dan 177 varaqqacha Oqil, 94b varaqdan 149a varaqqacha Bayoniy she'rlari berilgan. Qizil siyoh

bilan “Bismillohir rahmonir rahim deb Muhammad Yusufbek mutaxallus Bayoniy”, deb g‘azallari boshlangan. 94b varaq hoshiyasiga “Zihi ishqing nasimiga erur sandin... va 95a varaq hoshiyasiga “Zihi ikki jahonning sone'idur qodiri dono”, “Ishq mehridin borur mehr ilkiga roh paydo”, “Zihi xurshid ruxsoring” radifli g‘azallar boshlanadi.

Bayoniy devonida 5929 misra she'r mavjud ekanligini aniqladik, shundan 3162 misra she'r to'g'ri tartib bilan yozilgan, 1990 misra she'r hoshiyada berilgan va 777 misra she'r devon ichida ba'zi oraliqlarga qo'shimcha qo'shilgan qog'ozlarga yozilgan. Qo'shilgan qog'ozlar devon qog'ozlariga nisbatan biroz kichik qog'ozlardir va ularga qalam bilan alohida tartib raqamlar qo'yilgan, umumiy 82 varaq devonga qo'shilgan.

94b varaqdan, 119b varaqqacha g‘azallardan so‘ng 120a varaqda 1 ta mustahzod (hoshiyada), 5ta murabba', 120b va 133b varaqlar oralig'ida 28 ta muxammas (shundan 7 ta muxammas hoshiyada), 120b va 121a varaqlar o'rtasiga qo'yilgan qog'ozda 1ta muxammas, 134a va 136b varaqlar oralig'ida 4ta musaddas (bittasi hoshiyada), 137a va 139a varaqlar oralig'ida 2 ta musaba', 14ta 139b va 143a varaqlar oralig'ida 14 tarje'ot, 140b va 141b varaqlarning hoshiyasida 6 ta qit'a berilgan. 141a varaqning hoshiyasida riqf idriyabilyiq adip sirqn adiral qayabolob aniy an iralzoq knin lymak idtilas rarin tib ykyob

Deyilib, ikki bayt bitilgach, bunga riqf idriyabilyiq adip sirqn adiral qayabolob aniy an iralzoq knin lymak idtilas rarin tib ykyob deb, o'zining javobini yozgan 3 bayt she'r 141a varaqning hoshiyasida mavjud. So'ngra tailyab idriyabilyiq adip sirqn adiral qayabolob aniy an iralzoq knin lymak idtilas rarin tib ykyob deb, 3 bayt she'r keltirilgan. 141b varaqning hoshiyasida 1ta masnaviy keltirilgan

rodin afred w louch rakz tainon thm
143b va 146a varaqlar oralig'ida tartib raqam bilan 33 ta ruboiy berilgan (tartib raqamlarni qo'yishda 28 ni 2 marta yozib qo'yilishi evaziga 32 ta raqam qo'yilgan). Aslida 33ta ruboiy berilgan, so'ngra 141b varaq hoshiyasida bitta 20 baytli masnaviy, so'ng

adn deb, 17 bayt she'r 141b varaq hoshiyasida berilgan. 143a varaqning hoshiyasida deya, 15 bayt she'r berilgan. so'ng 143b varaq hoshiyasida anda deya, 15 bayt she'r berilgan (ushbu baytlar 1120 raqamli qo'lyozmada 143b varaqda 8 bayt berilgan, 2 chi baytdan so'ng 2 bayt 1120 raqamli qo'lyozmada yo'q), “Bevafo yorlar hikoyati” deb, 13 bayt she'r hoshiyada berilgan,

rodin afred w louch rakz tainon thm deb, 16 baytdan iborat she'r 144b varaq hoshiyasida berilgan.

rodin afred w louch rakz tainon thm deb, 4 band she'r 144b varaq hoshiyasida berilgan, deb, 4 bayt 144b varaq hoshiyasida berilgan. (1120 raqamli qo'lyozmasida “Bayoniyni bu majmua uchun aytgan ta'rifining bayonidadur”, deb 166a varaqda 9 qator ta'rif berilgan), 145a varaqdan boshlab 147a varaqlar oralig'ida 6 ta ta'rix, 147b varaqdan 149a varaqlarda 60 baytdan iborat 1ta qasida berilgan. Devon 177 varaqdan iborat va shu varaqda muhr mavjud.

7082 raqamli qo'lyozma

7082 raqamli qo'lyozmaga “devoni Sultoniy, devoni Sa'diy, devoni Sodiq, devoni Bayoniy, devoni Oqil “, deb nom qo'yilgan va u 1326 yilda yozilgan. Devonning muqova o'lchami, 329 varaq bo'lib, Bayoniy devoni 100-varaqdan boshlangan. Har bir varaqqa 19 qator yozuv joylashtirilgan. Qo'lyozma qizil va qora siyoh bilan yozilgan. Qo'lyozma yaxshi saqlangan, nasta'liq xatida bitilgan, poygir qat'iy qo'yilgan.

Qo'lyozma sarg'ish qattiq karton bilan qoplangan va chetiga qizil qoplangan. Kitobning ustiga 7082 raqami qo'yilgan. Burchagiga "devoni Sultoniy, devoni Sa'diy, devoni Sodiq, devoni Bayoniy, devoni Oqil", deb yozilgan. Kitob ustiga uchta naqsh qo'yilgan.

01 varaqda yana "devoni Sultoniy, devoni Sa'diy, devoni Sodiq, devoni Bayoniy, devoni Oqil", deb qayta yozilgan. 02 varaq bo'sh qoldirilgan. 1-varaqda 7082 deb muhr bosilgan (g.Tashkent).

173b varaqdan Bayoniy she'rlari boshlangan. "Bismillohir rahmonir rahim" deb, an'anaviy alif bilan yakunlanuvchi g'azallardan boshlangan. Birinchi g'azal "Ishq mehridin yorur mehr ahliga roh paydo" radifli 7 baytli g'azalidan boshlangan. Shu varaq hoshiyasida "Zihi sone'ki sun'ing sandin etmish tavil yad paydo" radifli 7 baytli, "Payvasta tangridin sanga ey faxr anbiyo" radifli 7 baytli, "Yorab ish har lahza isyon uzra isyondur manga" radifli 7 baytli g'azallari bitilgan.

She'rlar qora siyoh bilan yozilgan, har bir g'azal ustiga "g'azali Bayoniy" deb qizil rangda yozib chiqilgan. G'azallarga tartib raqam qo'yilmagan, biroq 14-raqamdan boshlab har bir g'azal raqamlangan. Avval raqam so'ngra "g'azali Bayoniy" deb yozilgan va har bir varaqqa 17-19 qator g'azal joylashtirilgan. 227ta raqam bilan g'azallar to'g'ri tartib raqamda yozilgan va 230b varaqda yakunlangan. 230-varaqqacha hoshiyada ham g'azallar berilgan. 198a,b varaqlarda tartib raqam qo'yilmagan 4ta va hoshiyasida 4ta, jami 8ta g'azal berilgan. 200a varaqda tartib raqam qo'yilmagan 2ta g'azal mavjud. Bu g'azallar devon yakunlangandan so'ng qo'shilgani ko'rinib turibdi. Hoshiyada 145ta g'azal berilgan. Ushbu qo'lyozmada Bayoniyning jami 378 ta g'azali mavjud ya'ni, 227ta tartib raqam qo'yilgan g'azallar, 145ta hoshiyada berilgan g'azallar, 6ta tartib raqam qo'yilmagan gazallar mavjud.

230b varaqda 1ta mustahzod berilgan. 231a varaqdan tartib raqam bilan muxammaslar boshlangan. 250b varaqda 28 ta muxammas tugaydi, bulardan tashqari 5 ta muxammas hoshiyada berilgan (237a va 238a varaqlarda muxammas oldidan ikkita muxammasga ham 11 raqami qo'yilgan. 247b varaqda 23 raqam qo'yilmay 24 raqam qo'yib ketilgan). Demak, devonda jami 33 ta muxammas bor.

250b varaq hoshiyasida 1ta murabba' berilgan. 250b varaqda tartib raqam ostida musaddas boshlanadi va 254b varaqda 4ta musaddas tugaydi. 254b varaqdan tartib raqam bilan musabba' boshlanadi va 257a varaqda 2ta musabba' tugaydi. 257a varaqdan tartib raqam ostida tarje'ot boshlanadi va 261a varaqda 14ta tarje'ot tugaydi. 261a varaqdan ruboiylar boshlanadi va 264a varaqda 39 ta ruboiy tugaydi. Ruboiylarga tartib raqam qo'yilmagan. 264a,b varaqda 3ta maqta'a va 265a varaqda 1ta 6 baytli qit'a berilgan. So'ngra "Komilning ko'zlari nobino bo'lub oyoqlarida naqras paydo erdi. Faqirg'a bu ikki baytni irsol qildi", deb ikki bayt va shu varaqda "faqir javobida bitdimkim", deb 3 bayt, "Bu xoksorning bir taxallus ixtiyor etmakka ma'mur bo'lg'onida bu abyot", deb 3 baytli she'r yozilgan. So'ngra 265a varaqda yana 1ta 5 baytli qit'a berilgan. 265a varaqda yana "masnaviyoti zikr ahvol dahri foniy" ین اف رهد ل اوح ا رکذ ت ایون ثم

deb, 20 baytli she'r, 265b varaqda "Onda zavq ahlining bayoni" deb, 19 baytli, 266a varaqda "Jom kayfiyati nedur sifati" (kayfiyatini davr sifati) رود ین یت ی فیک ماج
ی تفص

deb, 15 baytli, 266b varaqda esa "Onda may nashonasining ma'rifati", deb nomlangan 10 baytli, "bevafo yorlar hikoyati" deb nomlangan 13 baytli, 267a varaqda "Bebaqo dahrning shikoyati", deb 16 baytli, 267 varaqda "Bu Bayoniyning elgadur pandi"

deyilgan, 4 baytli, “So‘zining xatm birla payvandi”, deb 4 baytli she‘rlar bitilgan. 268a varaqdan ta‘rix boshlangan. 269b varaqda 5ta (6tami) (10, 15, 5, 9, 31/1, 2 baytli ta‘rix tugaydi.

“Ta‘rix havli toza bog‘” غاب هزات یلوح خیرءات 10 baytli

Ta‘rix duvvum میود خیرءات 15 baytli

تفای انب غاب هزات یلوح شیب رد هک نیبوچ هسرردم و دجسم خیرءات 5 baytli

دش هتفک خیرءات نیدار ور هسرردم و دجسم مرحم دمحم سامتلاب 9 baytli

ن ازفعلاد هتمحرلا هیلع هروت ناج اتا ینعی هروت دمحا دیس تافو خیرءات 31 bayt va 1 misra

ناج کب 2 baytli (Bekjon)

270a varaqda qasida boshlanib, 2ta qasida 273a varaqda yakunlanadi. Bayoniy she‘rlari ham shu 273a varaqda yakunlangan. Bayoniy devonida quyidagi janrlardagi she‘rlar uchraydi: g‘azallar - 378ta, muxammas - 33ta, musaddaslar - 4ta, murabba‘ - 1ta, musabbaa‘ - 2ta, tarjeba‘a - 14ta, ruboiylar - 39ta, maqtaa - 3ta, qit‘a - 2ta, masnaviy - 1ta, ta‘rix - 6ta. Janrga oid she‘rlar 483tani tashkil etsa, yana 97 bayt she‘r ham mavjud.

7106\3 raqamli qo‘lyozma

7106\3 raqamli qo‘lyozmaga Ojiz, Xokiy va Bayoniy devonlari kiritilgan va u (1326) yilda yozilgan. Devonning muqova o‘lchami 17/27.5, 441varaqdan iborat. 1-152- varaqqacha Ojiz devoni, 154- 255 varaqqachagacha Xokiy devoni, 264b-441a varaqlarda Bayoniy devoni berilgan va kitob yakunlangan. Har bir betga 17 qator yozuv joylashtirilgan. Qo‘lyozma qizil va qora siyoh bilan yozilgan. Qizil siyohda g‘azali Bayoniy, muxammasi Bayoniy, musaddasi Bayoniy, deb sarlavhalar berilgan, boshqa barcha yozuvlar qora siyohda bitilgan. Yozuvi nasta‘liq xatidadir. She‘rlar 99 gacha tartib raqam bilan berilgan, keyingi g‘azallarga tartib raqamlar qo‘yilmagan.

Muhr va bezaklar qo‘lyozmaning birinchi betida berilgan (7106 Институт Восточных рукопис АН Уз. ССР. Ташкент). Xuddi shu muhr 441- betga ham bosilagan.

Poygir qat‘iy qo‘yilgan, saqlanish holati yaxshi. Har bir bet raqamlari aniq qo‘yib chiqilgan. Qo‘lyozma nosvoyrang rang qalin karton bilan qoplangan va 7106[Bayoniy.4] raqami qo‘yilgan, 508 ta g‘azal (hoshiyadagi g‘azallardan tashqari), muxammaslar, musaddaslar, masnaviylar va tarje‘bandlardan iborat.

01 varaqda o‘rtadan devoni Ojiz, devoni Xokiy, devoni Bayoniy deb yozilgan. 1- varaqda 7106 muhr bosilgan, 1b varaqdan 152a varaqqacha Ojiz devoni, 153b varaqdan 255a varaqqacha Xokiy devoni berilgan. Oxirida kotib mulla Umar xo‘ja valadi Ibrohim xo‘ja marhumning qo‘lida 1326 yilda etimom sarhadiqa yetushdi, deyilgan. 255b varaqdan 259b varaqqacha bo‘sh joy qoldirilgan.

264b varaqdan Bayoniyning devoni boshlanadi. Bismillohir rahmonir rahim deyilgan va alif bilan yakunlanuvchi “Zihi sone‘ki sun‘ing sandin etmish tavili yad paydo” radifli g‘azali bilan boshlangan. “Muhammad Yusufbek mutaxallus al Bayoniy”, deb yozilgan 264b varaqdan 441- varaqqacha Bayoniy devoni mavjud. 441- varaq bilan kitob yakunlanadi.

Har bir she‘r “g‘azal”, deb yozilgach, matn bitilgan keyingilariga g‘azal demasdan faqat tartib raqamlar qo‘yilgan, bu raqamlar faqat 99 gacha davom etgan. 297 a varaq, 331a varaqlar bo‘sh qoldirilgan.

Bu devonda Bayoniyning 508 ta g‘azali mavjud bolib, hoshiyalarda 32 ta gazal berilgan, jami g‘azallar 540 ta. Muxammaslar, musaddaslar, masnaviylar va tarje‘bandlar mavjud. G‘azallardan so‘ng qaysi janrda she‘r yozilgan bo‘lsa o‘sha

janr ko'rsatilmagan, to'g'ridan to'g'ri yozib ketilavergan. Bayoniy devonining boshqa qo'lyozmasidan g'azallarni ko'rib, solishtirib, bu devonning qaysi betlarida qaysi janrdagi she'r borligini aniqladik.

Mustahzod 384a,b varaqda 14 baytli berilgan, 385a,b varaqdan muxammaslar boshlangan va 414b varaqda tugagan. Shundan 7ta g'azal hoshiyada berilgan. So'ng 415a,b musaddaslar boshlangan. 1-4- musaddaslar 415- 416 a,b varaqlar hoshiyasida berilgan, qolgan 7ta musaddas 415-420 a,b varaqlarda berilgan. 1- musabba' 420b-421b, 2-musabba' 421b-422a, 426a varaqqacha, 1-masnaviyot 424a varaq hoshiyasida berilgan, 2-masnaviyot 425b, 3-masnaviyot 426a, 4-masnaviyot 426a, 5- masnaviyot 426bda berilgan. 426b varaqdan ruboiylar boshlangan. 73 ta ruboiy berilgan, shundan bitta ruboiy 427b varaq hoshiyasida berilgan. 432a varaqda maqta'a boshlangan (1120da ruboiydan song vola boshlangan, maqtaa yo`q) va 3ta maqta'adan biri 5 baytli, biri 6 baytli, biri 4 baytlidir. 432 b varaqda "Kavush mahsi talabida aytili", deb 6 baytli she'r berilgan, so'ng shu varaqda "Komilning ko'zi nobino bo'lub oyoqlarida naqras paydo bo'ldi, faqir bu ikki baytni irsol qildi" deb 5 bayt she'r yozilgan. Ikki bayti ajratilib keyin 3 bayt berilgan. 433a varaqda bu "Xoksoning bir taxallus ixtiyor etmakka ma'mur bo'lg'onidur, ushbu abyot", deb 3 bayt she'r yozilgan. So'ng 5 baytli qit'a keltirilgan. Shu varaqda "masnaviyot zikri ahvoli dahri foniy bayonida", deb 20 baytli she'r berilgan.

433b varaq hoshiyasida "Bayoniy bu majmua uchun aytgan taqrizidir", deb 10 baytli she'r, 433b- 434a varaqning o'zida onda "zavq ahlining bayoni", deb 19 baytli she'r, 434b varaqda "jom kayfiyati nedur sifati", deb nomlangan 15 baytli she'r, 435a varaqda "bevafo yorlar hikoyati", deb nomlangan 13 baytli she'r, 435b varaqda "be baqo dahrning shikoyati" deb nomlangan 20 baytli she'r, undan so'ng "Bayoniyning elga aytgan pandi", deb nomlangan 4 baytli she'r, 436a varaqda "so'zini xatm bilan payvandi" deb nomlangan 4 baytli she'r, shu varaqda "ta'rix i havli toza bog'", deb nomlangan 10 baytli tarix berilgan va ikkinchi deb 5, 9, 31 baytli forsha yozilgan ta'rixlar berilgan. So'ng 437a varaqda yana 2 baytli ta'rix, 438a varaqda esa 60, 18, 16 baytli qasidalar berilgan. 439a varaqdan boshlab 1ta 24 baytli bahri tavil, so'ngra 440a varaqda 56 baytli yana bitta qasida berilgan. Devonda jami 5ta ta'rix, 4ta qasida mavjud. 1326, deb devon tugagan. 7106 muhri bosilgan va 441a varaqdan so'ng ikkita varaq bo'sh qoldirilgan va kitob yakunlangan.

Xiva adabiy muhitida yashab ijod etgan Muhammad Yusuf Bayoniy "o'zbek mumtoz she'riyatining an'anaviy mavzu va goylarinni davom ettirdi, rivojlantirdi. U o'z shaxsiy ijodiy takomil bosqichlarida an'anaviy uslubdagi ijodkordan otashnafas erkin shoir darajasiga o'sib yuksaldi" [Jumaxo'ja N.va Adizova 1. 98]. Uning shoir, adabiyotchi, tarixchi sifatida yaratgan ijodiy merosi va tarjimalari Xiva adabiy muhitini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Muhammad Yusuf Bayoniyning devoni o'zbek mumtoz adabiyotimizning lirik janrlarini boyituvchi bo'lib xizmat qiluvchi, XIX asr hamda XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitini o'rganishda muhim manba sifatida adabiyotshunoslik, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda ilmiy tadqiq etilishi lozim bo'lgan asarlardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir. "Endilikda Bayoniy ijodini har tomonlama o'rganish, u haqda tulaqonli, mukammal tadqiqotlar yaratish fursati yetdi" [Jumaxo'ja N. Adizova I. 1.99]. Asarning qo'lyozma nusxalarini qiyosiy o'rganish esa oldimizga qo'yilgan maqsadlardan biridir.

Адабиётлар рўйхати:

1. Жумахўжа Н. ва Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. 98- бет.
2. Отамуродова А., Абдурахимов А. Маоний арсаси. Тошкент. Tafakkur qanoti. 2012.31-бет.
3. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёмалар фонди 1120 рақамли қўлёмза
4. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёмалар фонди 7106 рақамли қўлёмза
5. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёмалар фонди 6666 рақамли қўлёмза
6. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёмалар фонди 7082 рақамли қўлёмза
7. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4818
8. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4819
9. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4836
10. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2375

XORIJIY VA O‘ZBEK OLIMLARI TADQIQOTLARIDA NUTQIY ETIKETNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING O‘RGANILISH TAHLILI

Ergasheva Gulnoz Xaydarovna
Qarshi xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy va o‘zbek olimlari tadqiqotlarida nutqiy etiketni ifodalovchi birliklarning ilmiy nazariy jihatdan o‘rganilishi bir nechta darajalarga bo‘lib asoslangan holda misollar bilan keltirib o‘tilgan hamda nutqiy etiket masalalari jahon miqyosida dolzarbligi, tadqiqot natijalari amaliy samaradorligi asoslanganligi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shuningdek, Murojaatning dialogik nutq bilan bog‘liq holdagi ijtimoiy mohiyati ilmiy tadqiqotlarida murojaat shakli muloqot odobi va barqaror nutq odatlari bo‘yicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: rasmiy, norasmiy, dialogik nutq, nutq, murojaat, etiket, kognitiv, lingvistika, nutqiy etiket, tadqiqot, fikr, pragmatik.

ИЗУЧЕНИЕ АНАЛИЗ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ РЕЧЕВОЙ ЭТИКЕТ, В ИССЛЕДОВАНИЯХ ЗАРУБЕЖНЫХ И УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ

Аннотация. В данной статье в исследованиях зарубежных и узбекских учёных на примерах даётся научно-теоретическое исследование единиц речевого этикета на основе нескольких уровней, причем верно, что вопросы речевого этикета актуальны в мировом масштабе, а полученные результаты исследования основаны на мысли о практической эффективности. Также в научных исследованиях социального значения Обращения в связи с диалогической речью форма обращения анализировалась с точки зрения этикета общения и устойчивых речевых навыков.

Ключевые слова: формальная, неофициальная, диалогическая речь, речь, обращение, этикет, когнитивная, лингвистика, речевой этикет, исследование, мнение, прагматический.

ANALYSIS OF THE STUDY OF SPEECH ETIQUETTE EXPRESSIVE UNITS IN THE RESEARCH OF FOREIGN AND UZBEKISTAN SCIENTISTS

Abstrakt. This article presents the scientific theoretical study of units representing speech etiquette in the studies of foreign and Uzbek scientists, based on several levels, with examples, and discusses the relevance of speech etiquette issues on a global scale, the practical effectiveness of the research results. Also, the social essence of the Address in relation to dialogical speech is analyzed in scientific studies on the form of address, communication etiquette and stable speech habits.

Keywords: formal, informal, dialogical speech, speech, address, etiquette, cognitive, linguistics, speech etiquette, research, thought, pragmatic.

Kirish. Nutqiy etiket hodisa sifatida ancha qadimdan mavjud bo‘lsada, uning ilmiy nazariy jihatdan o‘rganilishi nisbatan ancha keyin – XX asrga borib taqaladi. Tilshunos olim Ildiko Cajbok o‘zining “Language Etiquette And Culture In Teaching Of Foreign Languages” nomli ilmiy maqolasida etiket va nutqiy etiket madaniyat bilan bog‘liqligini

ammo uning o'zgaruvchanlini misollar orqali tahlil qiladi va u nutqiy etiketni golofrastik tizim ekanligini ta'kidlab, bir nechta darajalarga bo'lib o'rgandi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). "Nutqiy etiket" ya'ni "Politeness" ilmiy atama sifatida G'arb tilshunosligida 1960-yillardan qo'llanila boshlandi va alohida soha sifatida shakllandi. Bu sohadagi ilk tadqiqotlar kaliforniyalik Robin Lakoff, amerikalik P.Braun va britaniyalik S.Levinson va G.Lich[1]larga tegishlidir. Ammo, atama sifatida Irving Goffman (1967) ilk bor "feys" (face) - yuzni yo'qotish", "yuzni saqlab qolish" va "uyatli/hijolatli yuzli bo'lish" kabi iboralarni fanga kiritdi. Olim "Face"- "Yuz" (hurmat)ga quyidagicha ta'rif beradi: "Face" (yuz) biz o'zimizni boshqalarga qanday ko'rsatishimiz in'ikosidir"[2].

Fanda "pragmatik mahorat" (Pragmatic competence) atamasi mavjud bo'lib, u kognitiv lingvistika bo'yicha izlanishlar olib borgan ingliz tilshunosi R.Lakoff tomonidan ilgari surilgan nutqiy etiket tamoyillarini o'z ichiga oladi[3]. Murojaat birliklari nutqiy etiketning, nutq jarayonining ajralmas va hal qiluvchi bir qismi bo'lib, u tinglovchining e'tiborini tortibgina qolmay, uni baholash-xarakterlash, ya'ni so'zlovchining shaxsiy munosabatini ham ifodalash xususiyatiga ega. Ular o'zida o'zbek xalqining qadriyatlari, urf-odatlar, milliy o'zligi, shuningdek, o'zbek nutq madaniyatining nozik tomonlaridan hisoblanadi.

G'arb tilshunosligida mazkur mavzu birinchi tadqiqotchilari bo'lmish kaliforniyalik Lakoff, amerikalik Braun va britaniyalik Levinson hamda britaniyalik Lich nazariyalari batafsil o'rganilib, keyingi avlod izlanuvchilarning ularga bo'lgan munosabatlari ham ko'rib chiqilgan. Nutqiy etiket masalalari jahon miqyosida dolzarb, tadqiqot natijalari amaliy samaradorligi asoslab berilgan[4].

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). G'arb tilshunosligida Amerika, Yevropa va Rossiya ilmiy manbalari tahlil etildi. Xulosaga ko'ra, G'arb madaniyatida (AQSH, Italiya, Ispaniya, Fransiya kabi davlatlarda nutq etiketi negativ (bosim o'tkazmaslik) hamda sayqallashsiz to'g'ridan-to'g'ri fikrni ifoda etish tamoyillari etakchi ekanligi, Rossiyada nosamimiy nutqiy etiket birliklarini qo'llash nutqiy etiket qoidalariga zid bo'lib, pozitiv hurmat (face) ifodalashi, Britaniyada esa nutqni sayqallash, fikrni aniq ifoda etmaslik (mavhumlik), bosim o'tkazmaslik tamoyillari etakchilik qilishi, negativ hurmat (face) ifodasi salmoqli darajada ekani ochib beriladi.

I.Goffman nutqiy etiket qoidalariga quyidagilarni kiritadi:

- 1) murojaat so'z va iboralarni to'g'ri qo'llash;
- 2) shaxslarga ularning jamiyatdagi mavqei va yaqinlik darajasiga qarab muomala qilish;
- 3) rasmiy yoki norasmiy nutqni to'g'ri va joyida qo'llash;
- 4) muayyan vaziyatlarga bog'liq til an'analarni to'g'ri tushunish (taklifni qabul qilish yoki rad etish, suhbatni boshlash va tugatish va h.z.)[5]. Uningcha, ma'qullangan xususiyatlar va ularning feys (face)ga nisbatan munosabatlar har bir kishining o'z mahbusidir. Shunday bo'lsa-da, insonlar o'z kameralarini qanchalik yaxshi ko'rmasinlar, fundamental ijtimoiy chegaralanishlarga bo'ysunishga majburdirlar.

Frazer "Perspective on Politeness" ("Nutqiy etiket istiqbollari") mavzusidagi tadqiqotida P.Braun va S.Levinson tomonidan ilgari surilgan nutqiy etiket prinsiplariga tanqidiy yondashdi. Uning fikricha, nutqiy etiketni tushunish uchun quyidagi savollarga javob bera olish kerak: "Nutqiy etiket qanday qo'llaniladi? So'zlovchining tanlovi kushmuomala bo'lib eshitalishiga qanday faktorlar ta'sir qiladi? Qaysi qoida maksimal

samaradorlikga ega?”[6] Olim o‘z tadqiqot ishida “xushmuomala bo‘lish - tinglovchini yaxshi his qilishiga imkoniyat yaratish yoki uni hijolat tortmasligini ta‘minlash degani emas” deb keltiradi. Ammo, o‘z fikrini dalillar, manbalar bilan asoslamaydi.

Sharq tilshunosligida, xususan, yapon, xitoyda o‘tgan asrning yigirmanchi yillaridan, g‘arb tilshunosligida esa XX asrning ikkinchi yarmidan bu masalaga e‘tibor qaratila boshlangan.

XXI asrning dastlabki yillarda esa tilshunoslikda ijtimoiy bilish/tushunish (social cognition) va nutqiy etiket (politeness) mavzularidagi tadqiqotlar salmoqli o‘rinlarni egallamoqda. Bu tadqiqotlarda “Feys nazariyasi” mavzularida izlanishlar olib bordilar, ammo u qadar chuqur tahlillar kuzatilmadi. Nutqiy etiket masalasi rossiyalik olimlar tomonidan o‘tgan asrning 80-yillarida o‘rganila boshlandi. T.V.Larina, YE.A.Romanova, YE.A.Rudneva, R.Ratmayr, N.Formanovskaya[7] kabi olimlar o‘z ishlarini bevosita nutqiy etiket masalasiga bag‘ishlagan. Bular orasida I.A. Romanova va T.V.Larinalarning ishlari nisbatan mukammal ekanligi bilan e‘tiborimizni tortdi.

I.A.Romanova o‘zining “Slovar. Kultura rechevogo obsheniya: etika, pragmatika, psixologiya” (Nutqiy muloqot madaniyati: etika, pragmatika, psixologiya) nomli ilmiy lug‘at kitobida “nutq etiketi muayyan madaniyatda o‘rnatilgan formulalar va munosabat qoidalari doirasidagi nutq xushmuomalaligi bilan ifodalanadi” - deb ta‘kidlaydi. T. B. Larina “Категория вежливости и стил коммуникации: Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций” (Muloyimlik kategoriyasi va muloqot uslubi: Ingliz va rus lingvomadaniy an‘analarning chog‘ishtirma tadqiqi) nomli ilmiy asarida rus xalqiga xos etiket haqida fikr yuritir ekan, ruslar uchun bu “ichki munosabat ekanligi, u hammaga ham emas, faqat unga loyiq kishilargagina qo‘llanilishi lozim”ligiga urg‘u beradi. Bu jihatdan ham rus va o‘zbek va boshqa Sharq xalqlari etiketi tubdan farqli qiladi. Bu xalqlarda suhbatdosh so‘zlovchiga yoqmasa ham, yoki ulardagi o‘zaro munosabat ziddiyatli bo‘lsa ham, muloyimlik, nutqiy etiketga amal qilib suhbatlashi shart[7].

Rus madaniyatida bunday nutqiy etiketga salbiy qaraladi, “ikkiyuzlamachilik” deb tushuniladi. Nutqiy etiket qat‘iy qoida yoki senzura darajasigacha ko‘tarilgan davlatlarda u “rasmiylik va ritual xarakter”ni ifodalasa, rus xalqida “samimiylik, to‘g‘ridan-to‘g‘rilik, to‘g‘riso‘zlik, munosabatning chin yurakdan chiqishi ko‘proq qadrlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Nutqiy etiket nazariyotchilaridan biri bo‘lgan R.Lakoff (1973) nutqiy etiketni “jamiyatda rivojlangan yaxshi xulq-atvor shakli” deb ta‘riflaydi hamda “insonlar o‘zaro muloqotidagi ziddiyatlarni kamaytirish maqsadida o‘rganilishi zarur mavzu”[8] deb biladi. U o‘zining “What you can do with words: politeness, pragmatics and performatives (So‘z nimalarga qodir: nutqiy etiket, pragmatika va uning ijrochilari) asarida nutqiy etiketning uch prinsipini taklif etadi. Bu tamoyillar quyidagilar:

- 1) Bosim o‘tkazmang va masofa saqlang;
- 2) Suhbatdoshga tanlov imkoniyatini bering va hurmat ko‘rsating;
- 3) Tinglovchilaringizning erkin his qilishlarini ta‘minlang va do‘stona kayfiyat bering[9]. R.Lakoff nutqiy etiketni “jamiyatda rivojlangan yaxshi xulq atvor ko‘rinishi” deya ta‘riflaydi hamda “insonlarning o‘zaro muloqotidagi ziddiyatlarni kamaytirish maqsadida o‘rganilishi zarur mavzu” deb biladi. Lakoffning nutqiy etiket prinsiplari fanda “Pragmatik mahorat” (Pragmatic competence) deb nomlanib, unda quyidagilarni hisobga olgan holda suhbatga kirishish muhimdir: Kim bilan gaplashyapmiz (tenor/personaj); nima haqida gaplashyapmiz (mavzu, soha), qanday tarzda gaplashyapmiz

(uslub). Lakoff ilgari surgan ba'zi prinsiplar umuminsoniy xususiyatga ega bo'lib nafaqat G'arb, Yevropa jamiyati, balki sharqliklar uchun ham ahamiyatlidir. Xususan, "Tinglovchilaringizni erkin his qilishlarini ta'minlang va do'stona kayfiyat bering" prinsipi, eronliklar va o'zbeklarning nutq etiketiga ham xosdir. Olimning fikrini davom ettirgan holda shuni aytish mumkinki, bu prinsipga nomlari zikr etilgan millatlarda nafaqat do'stona yoki norasmiy munosabatlarda, balki rasmiy munosabatlarda ham amal qilinadi. Boshqa ba'zi madaniyatlarda, masalan, koreys yoki yapon madaniyati uchun Lakoffning "Bosim o'tkazmang va masofa saqlang" prinsipi mos keladi. Vaholangki, Eron yoki O'zbekistonning "yaqin munosabatlar o'rnatish" maqsadlariga mazkur qoida qarshi keladi. Bir so'z bilan aytganda, Lakoffning uch prinsipi alohida olib qaralganda turli xalqlar nutq etiketida turli darajada namoyon bo'ladi[8].

Suhbat chog'ida pozitiv yoki negativ feys ifodasini qo'llab gapirish millat mentaliteti, an'analari, qadriyatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, oila munosabatlarida o'zbeklarda oila a'zolar yosh va darajaga qarab o'zaro sizlab gapirish holatida negativ feys etakchilik qilsa, eronliklar va yaponiyaliklarda yaqin qarindoshlar bir-birini sensirab muloqot qilish holatida pozitiv feys namoyon bo'ladi. P.Braun va S.Levinsonning negativ feys borasidagi nazariyalari bir qator tadqiqotchilarning tanqidiga uchradi. Jumladan, S.Ide, B.Hill va boshqalar, Y.Matsumoto, A.Viyerzbika, O.Nvoyye, L.Mao, M.Sifianu[11,12] kabi izlanuvchilar P.Braun va S.Levinson Janubiy tillardagi (Janubiy Hindiston, Tamil tili, Tzeltal tili va b.) manbalardan foydalangan bo'lsalar-da, negativ feys nazariyasi aynan G'arb madaniyatiga tayanib tahlil qilingani, sharqiy madaniyatlar nutqiy etiket prinsiplariga to'g'ri kelmaganligi bois, ularning tadqiqot natijalari universal qo'llanma bo'la olmasligini ta'kidlaydilar. Britaniya tilshunosi G.Lich ingliz madaniyatiga asoslanib nutqiy etiketning 6 ta prinsipini keltiradi[10].

Murojaatning dialogik nutq bilan bog'liq holdagi ijtimoiy mohiyati haqida X.Doniyorov va B.Yo'ldoshevning «Adabiy til va badiiy stil» asarida so'z yuritilgan bo'lsa, S.Mo'minov, Sh.Iskandarovalarning ilmiy tadqiqotlarida murojaat shakli muloqot odobi va barqaror nutq odatlari bo'yicha tahlil qilingan. B.X.Rahmatullayeva ningdissertatsiyasida o'zbek tilida mavjud bo'lgan murojaat shakli rus tilidagi murojaat shakli bilan taqqoslangan holda tadqiq etilga.

O'zbek tilshunosligida H.Turdiyeva "Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi" nomli dissertatsiyasida nutqiy etiket birligi sifatida mulozamatni sanab o'tadi. Tadqiqot ishida mulozamat tushunchasi tarkibini xushomad, alqash, maqtash, kamtarlik kabi nutqiy janrlar tashkil etadi. H.Turdiyevaning "Nutqiy etiket birliklarining ilmiy nazariy asoslari va prinsiplari" deb nomlangan maqolasida nutqiy etiket birliklarining g'arb olimlari tomonidan o'rganilganligi tadqiq qilinadi. Tadqiqotda g'arb tilshunoslari tomonidan tadqiq qilingan nutqiy etiket birliklari o'zaro solishtirish, tahlil qilish, umumiy fikrlarni bayon qilish maqsad qilib olingan. H.Hojiyevaning "O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida hurmat maydoni vositalari struktur va semantik-funksional jihatdan tahlil qilgan bo'lsa, S.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" nomli tadqiqotida muloqot xulqi muammosining nazariy masalalari, psixolingvistik aspektlari, hudud va jins jihatdan xoslanishlar kabi masalalari xususida to'xtalgan.

H.Turdiyeva etiketning bir necha turlarini ajratadi:

1. Sayqallash etiketi: "Inglizlarda qalb yo'q, uning o'rniga "yumshatish, sayqal berish" (understatement) bor degan tushuncha mavjud. Oxirgi 50 yillar ichida muloqot

madaniyati biroz o'zgargan bo'lsa-da, britaniyaliklar hamon "yumshatish uslubi"ga amal qiladilar. Inglizlarda biror bir fojeali, halokatli vaziyatlar sodir bo'lganda ham bunga o'ta bosiqlik bilan munosabat bildirish holati kuzatiladi. Masalan, tabiiy ofat hisoblangan bo'ron sodir bo'lib, uy-joylar, bino va daraxtlarga jiddiy zarar yoki shikast etganida ham, ular bunga "a bit blowy" – "ozgina shamol turdi" deb izoh beradilar. Inglizlar bilan muloqotga kirishganda, juda ziyrak bo'lish talab etiladi. Fikrimizni Jorj Mayks4 ta'biri bilan ifodalaydigan bo'lsak, ingliz kishisi "It's a bit wet out there, I might join you later" – "Bugun biroz yomg'irli, sal kechroq oldingizga borarman." deb aytsa, aslida "It's absolutely pissing it down, consequentially i'm not leaving the house today unless it's on fire!" – "Dahshat bo'ronli jala yog'yapti, men bugun uydan hech qayerga chiqmoqchi emasman, chiqishim mumkin, qachonki uyimga o't ketib qolsa" degan ma'noga to'g'ri keladi. "Your english is somewhat unorthodox"- ("Sizning ingliz tilingiz biroz noodatiy ekan") jumlasida "Sizning ingliz tili darajangiz bir tiyinga qimmat ekan" ma'nosida qo'llaniladi.

2. Ayblamaslik etiketi: Bu etiketning mohiyatini quyidagi hayotiy vaziyatdagi holat bilan izohlash mumkin: Kimningdir oyog'ini bosib olib uzr so'ralganda, "No harm done!" (Zarari yo'q), "I am sure it's my fault" (Albatta bu mening aybim.) deb javob beradilar. Bu takallufli javobning asl konnotativ ma'nosi quyidagicha: "Bu sizning aybingiz, buni ikkimiz ham bilamiz."

3. Dahlsizlik etiketi: Bu etiket inglizlar tomonidan juda keng qo'llaniladigan va mashhur hodisa hisoblanadi. Buning asosida "Minding one's own business" – "Bir birining hayotiga/tanloviga aralashmaslik" tushunchasi turadi. Fikrimizcha, birovning shaxsiy hayotiga dahl qilmaslik holati evropaliklarning ko'pchiligiga xos jihat bo'lib, o'zbek xalqida aksincha, birovning hayotiga befarq bo'lmaslik, loqaydlikka yo'l qo'maslik, aksincha, qo'ni-qo'shni, mahalladosh insonlarning yaxshi va yomon kunlarida ularni qo'llab quvvatlash tamoyili kuchli. Fikrimizni kundalik hayotda uchraydigan bir vaziyat bilan dalillaymiz.

4. Ichki hissiyotni yashirish etiketi. Tub britaniyaliklar hech qachon asl hissiyotlarini oshkor etmaydilar. Masalan, "Ishlar qanday ketyapti?" degan savolga "I'm in a bit of a pickle" - "Vaziyat ozgina jiddiy" deb javob beriladi. Aslida, vaziyat o'ta qiyin va jiddiy ekanligi anglashiladi. Aksariyat holatlarda insonlar cherkov kabi ibodatxonalarga borib o'z haqiqiy ahvolini rohiblarga so'zlashlari kuzatiladi. O'zbek va eron xalqlarida esa bu savolga javob tinglovchi va so'zlovchining yaqinlik darajasidan kelib chiqib beriladi.

5. Nosamimiy (nazarda tutilmagan) mehmondo'stlik etiketi. Mehmondo'stlik an'anasi italyanlar, ispanlar, amerikaliklar va ba'zi boshqa xalqlar madaniyatida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u o'zbek va sharq xalqlari madaniyati 2 dan tubdan farq qiladi. Xususan, "You must come for dinner" – "Kechki ovqatga kelishingiz kerak" degan taklif mazkur xalqlarda to'g'ri taklif deb qabul qilinadi. Britaniyada esa bunday taklif shunchaki mulozamat uchun bildiriladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, etiket ifodalovchi vositalar semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Munosabatga kirishish bilan bog'liq nutqiy etiketlar – salomlashish, so'rashish, murojaat qilish, tanishish va b.

2. Munosabatni mustahkamlash bilan bog'liq nutqiy etiketlar – iltimos qilish, taklif, nasihat va b.

3. Tavoze bilan bog'liq nutqiy etiketlar – minnatdorchilik, uzr so'rash

4. Tilak bildirish bilan bog'liq nutqiy etiketlar – tabriklash, olqishlash
5. Iltifot bilan bog'liq nutqiy etiketlar – iltifot, ko'ngil so'rash, hamdardlik bildirish
6. Xayrlashish bilan bog'liq nutqiy etiketlar va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.R., The logic of politeness: or minding your p's and q's. Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973, pp. 292-305. Brown, P. & Levinson, S., Universals in Language usage: Politeness phenomena. London: Cambridge University Press. 1978. Leech G., Principles of Pragmatics. London, Longman Publ., 1983.

2.Goffman, E., International ritual: Essays in face-to-face behavior. New York: Pantheon Books. 1967, pp. 9-10.

3.Toirova G. Fatika va fatik muloqot turlari .UzMU xabarлари –Toshkent, 2016, 2-son –B.291-295.

4.H.Turdieva “Nutqiy etiket birliklarining ilmiy nazariy asoslari va prinsiplari” // “Sharq mash’ali”, №3. 2019 yil. –B. 54-67

5.Goffman, E., On face-work: an analysis of ritual elements in social interaction in Laver and Hutcheson (eds) 1972, p. 319.

6.Fraser, B., Perspectives on Politeness. Journal of Pragmatics, 14. 1990. pp. 219-236.

7.Larina, T.V. Kategoriya vejlivosti i stil kommunikatsii: Sopostavlenie angliyskix i russkix lingvokulturnyx traditsiy [Tekst] / T.V.Larina. – M.: Rukopisnye pamyatniki Drevney Rusi, 2009. – 512 s.;

8.Lakoff, R., The logic of politeness: or minding your p's and q's. Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973, pp. 292-305.

9.Lakoff, R., What you can do with words: politeness, pragmatics and performatives. California: Berkeley Studies in Syntax and Semantics I: XVI-1-XVI-55. 1974

10.Leech G., Principles of Pragmatics. London, Longman Publ., 1983. 10 FRASER, B., Perspectives on Politeness. Journal of Pragmatics, 14. 1990. pp. 219-236.

11.Brown, P. & Levinson, S., Universals in Language usage: Politeness phenomena. London: Cambridge University Press. 1978.

12. Ide, S., Formal forms and discernment: Two neglected aspects of linguistic politeness. Multilingua, 8(2/3). Sydney: 1989, pp. 223-248.

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA QISSA JANRINING O'RGANILISHI

*Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna,
TDIU O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti, PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek qissachiligining istiqlol davridagi rivojlanishi, uning janriy va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada K.Ko'bayev, Y.Karimova, M.Rustamova, A.Xolmurodov, D.Xoldorov kabi olimlarning qissa janrini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlariga murojaat qilingan. Xususan, o'zbek qissalarini janrlashtirish, tarixiy, satirik, ma'naviy-axloqiy, detektiv va fantastik kabi yo'nalishlarda yaratishdagi ijodiy tamoyillar o'rganilgan. Maqolada zamonaviy o'zbek qissachiligining uslubiy yangiliklari, psixologik tahlil, publitsistik talqin, ruhiy-ma'naviy izlanishlar singari masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, E.A'zam, A.A'zam, N.Eshonqul, U.Hamdani kabi yozuvchilarning asarlari ilmiy tahlil obyekti sifatida ko'rilgan. Maqola qissa janrining transformatsiyasi, badiiy uslubdagi yangiliklar, xalq og'zaki ijodi va zamonaviy adabiyotning o'zaro ta'siri yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy kuzatishlar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy, qissa, janr, adabiyotshunos, tadqiqot, badiiy, risola, povest, atama.

ИЗУЧЕНИЕ ЖАНРА КИССА В УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

*Эшматова Юлдуз Боймахматовна,
Доцент кафедры узбекского и русского языков ТГЮУ, PhD*

Аннотация: В данной статье анализируется развитие узбекской прозы жанра повести в период независимости, а также её жанровые и стилистические особенности. В работе обращено внимание на исследования таких учёных, как К. Кубаев, Й. Каримова, М. Рустамова, А. Холмурадov, Д. Холдорov, посвящённые изучению жанра повести. В частности, изучены творческие принципы жанровой классификации узбекских повестей, создаваемых в историческом, сатирическом, нравственно-этическом, детективном и фантастическом направлениях. Особое внимание уделено стилистическим новшествам современной узбекской прозы, таким как психологический анализ, публицистическое осмысление, духовно-нравственные поиски. Также произведения таких писателей, как Э. Азам, А. Азам, Н. Эшонкул, У. Хамдам, рассматриваются в качестве объектов научного анализа. Статья обогащена научными наблюдениями по вопросам трансформации жанра повести, новшеств в художественном стиле, взаимовлияния народного устного творчества и современной литературы.

Ключевые слова: исторический, повесть, жанр, литературоведение, исследование, художественный, трактат, новелла, термин.

THE STUDY OF THE GENRE OF QISSA IN UZBEK LITERARY STUDIES

Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna

Associate Professor of the Department of Uzbek and Russian Languages at Tashkent State University of Law, PhD

Annotation: This article analyzes the development of Uzbek novellas during the independence period, focusing on their genre and stylistic characteristics. The research refers to the works of scholars such as K. Qubayev, Y. Karimova, M. Rustamova, A. Kholmurodov, and D. Kholdorov, who have studied the novella genre. In particular, it explores the creative principles of classifying Uzbek novellas into historical, satirical, moral-ethical, detective, and fantasy genres. Special attention is given to stylistic innovations in contemporary Uzbek prose, such as psychological analysis, journalistic interpretation, and spiritual-moral exploration. Additionally, the works of writers like E. Azam, A. Azam, N. Eshonqul, and U. Hamdam are examined as objects of scientific analysis. The article is enriched with scholarly observations on the transformation of the novella genre, innovations in artistic style, and the interplay between oral folklore and modern literature.

Keywords: historical, novella, genre, literary studies, research, artistic, treatise, story, term.

Kirish. Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligida ham o'zbek qissachiligini o'rganish va tadqiq etish ishlari jadal rivojlandi. Binobarin, K.Ko'bayev, Y.Karimova, M.Rustamova, A.Xolmurodov, M.Boxonov, M.Sheraliyeva, D.Xoldorov, F.Radjabova kabi o'nlab tadqiqotchilar bu sohada monografik ishlar yozishdi. Shu mualliflar orasidan ba'zi birlariga alohida to'xtalib o'tishni joiz bilamiz. N.Rahimjonov, Q.Ko'bayev hammualliflikda yaratgan "Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi" monografiyasida M.Osim, O.Yoqubov, Y.Ilyosov, Z.A'lam, X.Sulton, A.Ibodinov, Sh.Isaxonova, Isfandiyor, M.Toshpo'latovlarning o'zbek xalqi tarixida nom qoldirgan buyuk tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan qissalari tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotchi Q.Ko'bayev o'zining o'zbek qissaligida alohida yo'nalish sifatida shakllangan tarixiy qissalar va bu janrda ijod qilgan o'nlab qissanavislarning shu mavzudagi asarlariga xos tarixiy haqiqat va yozuvchining badiiy mahorati masalasini o'rganadi.[1] Xususan, tarixiy qissalarni jiddiy o'rgangan olimlarning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiq: "Tarixiy qissalar o'z xususiyati va tabiatiga ko'ra prozaning boshqa janrlariga qaraganda ancha murakkab hisoblanadi. U hikoya, esse, roman janrlarining yetakchi xususiyatlarini o'z tabiatiga singdirgan holda yangi fazilatlar kasb etib bormoqda. Tarixiy qissalar aksar hollarda sinkretik janr, deyilganda ana shu belgilarning uyg'unlikda zohir bo'lishi nazarda tutiladi. Adabiyotshunoslik ilmida uning ustuvor xususiyatlarini, janr tabiatini belgilashdagi qiyinchiliklar murakkabligi ana shu omillar bilan izohlanadi".[2]

Metodlar. Mavzu va g'oyaviy jihatdan qaralganda, 90 yillik o'zbek zamonaviy qissachiligini quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

Satirik qissalar (A.Qodiriy "Kalvak Maxzum", S.Ayniy "Sudxo'ring o'limi" qissasi va boshqalar);

Avtobiografik qissalar (A.Qahhor "O'tmishdan ertaklar", Oybek "Bolalik", G'.G'ulom "Shum bola" va boshqalar);

Maishiy va ma'naviy-axloqiy qissalar (S.Ayniy "Odina", "Eski maktab", A.Qahhor "Muhabbat", P.Qodirov "Erk", "Qadrim", O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari", "Bahor qaytmaydi", Sh.Xolmirzayev "Bukri tol" va h.zo.);

Tarixiy qissalar (M.Osim "Jayhun ustidagi bulutlar", "Temur Malik", "Iskandar va Spitamen", Sh.Isaxonova "Intiqom", Isfandiyor "Qasamyod" va h.zo.);

Detektiv qissalar (T.Malik "Shaytanat" turkumidagi asarlar);

Fantastik qissalar (H.Shayxov qissalari);

Ijtimoiy davr g'oyalarini tashuvchi qissalar (A.Qodiriy "Obid Ketmon", A.Qahhor "Sinchalak", Sh.G'ulomov "Toza havo");

Esse-maktub qissa (O'.Umarbekov "Qizimga maktublar").

Bundan tashqari, o'zbek adabiyotshunosligida so'nggi yillarda qissanavislar ijodini alohida ajratib olib o'rganish holati ham kuzatiladi. Jumladan, bu o'rinda Y.Karimovanning nomzodlik, Z.Suvanovning filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini ko'rsatish mumkin.[3] Tadqiqotchi mazkur ilmiy monografiyasida o'zbek qissachiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan P.Qodirovning qator qissalarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy muammolarni o'rganadi.

Adabiyotshunos A.Xolmurodovning "O'zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari" mavzusidagi doktorlik ishida XX asr oxirida yaratilgan o'zbek qissalaridagi uslubiy o'zgarishlar tadqiq etiladi. Tadqiqotchi mazkur dissertatsiyasida qissa janrining tarixiy ildizlari, janrning nazariy tabiati, transformatsiyasi, qissada kompozitsiya va epik tasvir, qissanavis obrazi, zamonaviy qissachilikda davr va psixologik tahlilning o'ziga xosligi, tarixiy qissada obraz yaratish muammosi, tarixiy qissa spetsifikasi, tarixiy qissada real shaxs va badiiy to'qima, yangi badiiy tafakkur va tarixiy obraz yaratish muammolarini o'rganadi. A.Xolmurodov mazkur tadqiqotida o'tgan asrning so'nggi yigirma besh yil ichida yaratilgan qissalarni jamlab, muayyan muammolar yuzasidan analitik tahliliy kuzatishlar asnosida qissa janrining nazariy tabiati va genezisi haqida ijobiy mulohazalar yuritishga muvaffaq bo'lgan.

M.Rustamovanning "Istiqlol davri o'zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida yangi qahramon, shaxs fojeasi talqini, noan'anaviy uslubiy shakllar kuzatilgan. Tadqiqot ishi hajman juda katta materialni o'z ichiga olgani bilan ahamiyatli.

Istiqlol davrida yaratilgan "Oromkursi", "Kuza...", "Nigoh", "Panoh", "So'roq", "Hijronim mingdur mening", "Chayongul" (X.Do'stmuhammad), "Sho'rodan qolgan odamlar", "Bir kunlik mehmon", "Eski arava", "Shohona sovg'a", "Muyulishdagi uy", "Kunbotardagi bog" (SH.Bo'tayev), "Urush odamlari", "Momoqo'shiq", "Tun panjaralari", "Qora kitob" (N.Eshonqul), "Yolg'izlik" (U.Hamdani), "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpapaklar mamlakati", "Zabarjad", "Farishta" (E.A'zam), "Asqartog' tomonlarda", "Hali hayot bor" (A.A'zam) kabi qator qissalarning ba'zilari ko'pchilik tadqiqotchilarning dissertatsion ishlarida tadqiqot obekti vazifasini o'tagan.

Tadqiqotchi D.Xoldorov "Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi" falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida bugungi o'zbek qissachiligiga yangicha uslubiy izlanishlar va yangicha obrazlar, topilma syujetlar olib kirgan ikki qissanavis Sh.Bo'tayev va N.Eshonqul qissalarini tadqiqot obekti sifatida tanlaydi. Masalan, tadqiqotchi Sh.Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar", "Eski arava", "Muyulishdagi uy", "Shamol o'yini", "Bir kunlik mehmon", "Shohona sovg'a"; N.Eshonqulning "Tun panjaralari", "Qora kitob", "Momoqo'shiq", "Urush odamlari" qissalari misolida badiiy

uslub muammosini kun tartibiga qo'yadi va ilmiy tahlillari orqali yechim topishga harakat qiladi. D.Xoldorovning quyidagi fikriga e'tibor qaratamiz: "Izlanishlarimiz natijalariga ko'ra o'zbek qissasining bugungi holati, asosan, uning uslubiy o'ziga xosligi to'rt asosiy omildan kelib chiqadi.

Bular: a) folklor ta'siridagi qissalar;

b) yozma mumtoz qissachilik;

d) sho'ro qissachiligi (rus povesti);

e) jahon realistik va modern qissalari bo'lib, ayni omillar adabiy jarayonning turli davrlarida goh faol, goh sustroq vazifa bajargani kuzatiladi".[4] D.Xoldorov zamonaviy o'zbek qissachiligiga folklor an'analarining, mumtoz qissachilik, rus qissachiligi, jahon qissachiligining ta'sirini ilmiy asoslar orqali kuzatgan.

Bundan tashqari, tadqiqotchi F.Radjabova "Istiqlol davri o'zbek qissalarida uslub va poetik til" falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida qissa janridagi uslub, tadrijiylik, ichki turlar, yangilanayotgan uslubda ruhiyat talqini tamoyillari, qissalar tilining badiiy-estetik va uslubiy vazifalari kabi masalalarni tahlil qilgan.[5] Masalan, tadqiqotchi hozirgi o'zbek qissachiligini quyidagicha tasniflagan: "Hozirgi qissachilikdagi evrilishlarda janr va uslub munosabati salmoqli o'rin tutadi. Unda an'anaviy va zamonaviy uslub, publitsistik talqin, psixologik tahlil, ijodiy o'ziga xoslik kabi tamoyillarni kuzatish asosida alohida shaxsni ruhiy-ma'naviy rakursda taftish etish kengaymoqda. Shuningdek, realizm imkoniyatlari qissa va uslub tarkibida yangi xususiyatlar va ko'rinishlarni vujudga keltirmoqda. Bu jihatdan qissaning quyidagi ichki turlari mavjud:

1) dramatik qissa;

2) monolog-psixologik qissa;

3) hangoma qissa;

4) esse qissa;

5) sarguzasht-detektiv qissa;

6) maktub qissa;

7) lirik qissa;

8) kinoqissa".[6]

Bu o'rinda janrlar o'z ichki o'zgarishlarga ko'ra turlanib-tuslanib ketganligiga sabab sifatida adabiyotshunos D.Quronovning fikrlarini keltirish joiz. "Epik janrlarning kino ta'sirida shakllangan modifikatsiyalari – kinoetyud, kinohikoya, kinoqissa, kinoroman kabilar ham adabiyot mulkida fuqarolik olishga haqli".[7] Haqiqatan ham epik tur va janrlarning sinkretizmi, boshqa san'atlarning aralashuvi natijasida, janrning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Jumladan, E.A'zamning "Zabarjad", "Farishta", "Pakananing oshiq ko'ngli" kinoqissalari yaratildi. To'g'ri, bu qissalar kino qilinishi uchun ssenariy tarzida yaratilgan. Ularni badiiy asar sifatida o'qish mumkin. Olimlar o'rtasida shu tipdagi qissalarni adabiy qissa sifatida o'rganish kerak emas, degan bahsli fikrlari ham paydo bo'ldi. Bugungi o'zbek adabiyotshunosligida kinoqissa, kinoetyud, kinoroman, kinohikoyalar ham o'rganilishi kun tartibidagi masalalardandir.

Tadqiqotchi M.Sheraliyeva "Hozirgi o'zbek nasrida kinoya" monografiyasida E.A'zam, A.A'zam, M.Muhammad Do'st qissalarini tahlil obekti sifatida oladi. Jumladan, tadqiqotchi M.Muhammad Do'stning "Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati", "Istefo"; E.A'zamning "Javob"; A.A'zamning "Asqartog' tomonlarda" qissalarini qo'yilgan muammo ya'ni "kinoyaviy badiiy modus" yuzasidan tahlil etib beradi. Olima shunday yozadi: "...Erkin A'zam asarlarida lirizm va kinoya, Murod Muhammad Do'stda idilliya va kinoya yoki elegizm va kinoya, Ahmad A'zamda esa

romantik normativlik va kinoyaning o‘zaro yonma-yon qo‘yilishini kuzatish mumkin. Bu hodisa, albatta, yozuvchilarning voqelikdagi ijtimoiy-psixologik tiplarga munosabati o‘zgarishi natijasi edi.

Bilamizki, qissa janri jamiyatdagi o‘zgarishlarni, yangi ijtimoiy xarakterlarni aks ettirish uchun qulay, operativ janr hisoblanadi”. [8] Umuman olganda, yosh olimaning ilmiy kuzatishlarida masalaga, badiiy asar tahliliga nisbatan tamomila yangicha qarash, yangicha nazariyalar asosida yondashuv seziladi. O‘zbek adabiyotshunosligida mana shunday yuqori saviyadagi ilmiy ishlar bajarilsa, yangi tamoyillar, munosabatlar rivojlanadi. Shuningdek, yana bir yosh tadqiqotchi O.Shofiyev Erkin A‘zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)” nomli monografik tadqiqotida adibning “Javob”, “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Guli - guli”, “Bayramdan boshqa kunlar”, “Zabarjad”, “Shoirning to‘yi”, “Pakananing oshiq ko‘ngli” kabi qissalarini tahlil qilgan. Muallif o‘z tadqiqotida E.A‘zam badiiy mahoratini ochib berish uchun, adibning roman, qissalari, hikoyalarni kinoyaviy uslub va kinoyaviy obraz masalasi yuzasidan rus-yevropa adabiyotshunosligida yaratilgan so‘nggi yillardagi ilg‘or ilmiy-nazariy qarashlar asosida yoritib berishga intiladi. Aytish mumkin, tadqiqotchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishgan. Masalan, O.Shofiyev monografik tadqiqotida Y.Borev, A.B.Yesin, V.M.Pivoyev, V.O.Pigulevskiy, V.I.Tyupalarning estetika, adabiyotshunoslik, tanqidchilik yo‘nalishlarida yaratilgan nazariy kitoblar, qo‘llanmalar, risolalardan unumli foydalanib, Erkin A‘zam nasriga xos kinoyaviy badiiy modusni tahlil etib berishga urinadi. Albatta, bu urinishlar nihoyatda ijobiy xarakterga ega.

Tadqiqotchi F.Burxanovaning “Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelizm. (Nazar Eshonqul va Ulug‘bek Hamdam ijodi misolida)” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida “Urush odamlari”, “Momoqo‘shiq”, “Tun panjaralari” (N.Eshonqul), “Yolg‘izlik” (U.Hamdam) qissalarini tahlil etadi. Tadqiqotchi asarlarning yaratilish tarixini, yozuvchilar ijodida uchraydigan ayollar obrazining real hayotiy asoslarini adiblarning tug‘ilib o‘sgan yurti, oilaviy va adabiy muhiti bilan hamohanglikda o‘rganib, ilmiy xulosalarga kelgan. Masalan, F.Burxanova shunday yozadi: “Urush odamlari” qissasida Tersota qishlog‘ida yashovchi Biydi momo, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” qissasida esa Bayna momo timsolida namoyon bo‘ladigan qahramondir. Bu har ikki obrazga xos mushtarak jihatlar talaygina. Avvalo, momo timsollariga xos umumiy xususiyat obrazlarning xarakter qirralaridagi uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Yozuvchi nima sababdan momo obrazi va Tersota qishlog‘iga qayta-qayta murojaat qilyapti, nega o‘zining dardlarini shu obrazlar mohiyatiga singdirib, go‘yo ular bilan nafas olayotgandek tasvirlayapti. Tersota qishlog‘i yozuvchi o‘ylab topgan yoki bo‘lmasa xalq og‘zaki namunalaridan olgan biror joy nomimi yoxud real hudud bilan bog‘liqmi? Biydi momo kim, kabi qator savollarga javob izlab yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga chuqurroq kirib borganimizda, bevosita ijodkorning tarjimayi holi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina jihatlar oydinlashdi. [9] Tadqiqotchi yozuvchi qissalaridagi momolar obrazi va Tersota va tersotaliklar obrazining real asoslarini yozuvchining biografiyasi bilan bog‘liqlikda o‘rganishga intilishi kishini quvontiradi. Ammo yosh tadqiqotchi kichik bir xatolikka yo‘l qo‘ygan. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasini “qissa” deb boradi. F.Burxanova o‘z ilmiy kuzatishlarida davom etib yozadi: “Tersota qishlog‘i aslida, yozuvchi tug‘ilib-o‘sgan, bolaligining dastlabki davrlari o‘tgan qishloqning nomi. Momo obrazi esa adibning buvisi Pirimqul qizi Masil momoning

prototipidir. Masil momo ham xuddi hikoyalarda tasvirlanganidek yigirma yoshida eridan ayrilib, ikkita farzandi bilan beva qoladi va boshqa turmush qurmay hayotning butun mashaqqatlariga yolg'iz o'zi dosh beradi. Yozuvchi bolaligida o'zi ko'rgan-bilgan hayotiy xotiralar, diliga cho'kib qolgan armonlar keyinchalik qayta uyg'onib o'z asarlari mohiyatiga singib ketgan".[10]

Umuman olganda, hozirgi o'zbek qissalarini o'rganish bo'yicha yaratilgan dissertatsiya va monografiyalar mavzu va ko'lami jihatdan keng va rang-barang. Shu bilan birga, takroriy o'rganishlar ham kuzatiladi. M.Sheraliyeva ta'kidlaganidek, qissa janri hikoya janri singari "operativ" janrlardan sanaladi. O'zbek adabiyotida har yili o'rtacha hisobda 15-20 ta qissa yaratiladi. Biz buni Yozuvchilar uyushmasining yillik hisobotlaridan ham bilishimiz mumkin. Ammo chinakam san'at namunasi bo'lib qoladigan asar 5-10 yillikda, 20-30-yilda bir-ikkita yaratilsa kerak. XX asr o'zbek qissachiligi tarixida S.Ayniyning "Sudxo'ring o'limi", A.Qahorning "O'tmishdan ertaklar", Oybekning "Bolalik", G.G'ulomning "Shum bola", O'.Umarbekovning "Qizimga maktublar", Sh.Xolmirzayevning "O'n sakkizga kirmagan kim bor", "Ot yili", P.Qodirovning "Erk", O.Yoqubovning "Muqaddas", O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari", "Bahor qaytmaydi" kabi o'nlab qissalarni sanash mumkin. Bu qissalar o'zbek adabiy hayotida juda katta voqeaga aylangan. Ularning ba'zi birlari ekranlashtirilib, xalqimizga taqdim etilgan.

Adabiyotshunos M.Qo'chqorovanning "O'tmishdanertaklar" tadqiqi" monografiyasida A.Qahorning avtobiografik asari orqali butun ijodiga hikoyalarda yaratilgan obrazlar va voqealarning real zaminini, adib tarjimayi holi bilan bog'lab, obrazlar va syujetlarning zaminini qarindosh-urug'lari, ota-onasi, u o'sgan XX asr boshidagi Qo'qon muhitidan izlaydi. Tadqiqotchi adibning uy-muzeyida saqlanayotgan arxiv hujjatlari asosida va avtobiografik qissasi orqali adibning butun ijodiga yoyilib ketgan tarjimayi holi, ko'rgan-kechirganlarining badiiy haqiqatlar tarzida kitobxonga tuhfa etilishini psixobiografik, biografik, struktural tahlil metodlari orqali sinovdan o'tkazadi.[11] Aytish mumkinki, olimi juda yaxshi natijalarga erishgan.

Qissa janrining yangi namunalari S.Ayniy, A.Qahhor, Oybek, A.Muxtor, P.Qodirov, O'.Hoshimov, O'.Umarbekov, Sh.Xolmirzayevlardan so'ng ham yaratildi. Xususan, 70-80-yillar avlodi bo'lgan E.A'zam, A.A'zam, X.Sulton, M.Muhammad Do'st, X.Do'stmuhammad, Sh.Bo'tayev, N.Eshonqul, Sh.Hamro, A.Yo'ldosh, S.Vafo, N.Raufxon kabi qissanavislar ham go'zal asarlar yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida "Yolg'izlik" (U.Hamdani), "Tiyramoh" (G.Ernazarova) singari esse-qissalar paydo bo'ldi. Bu qissalar uchun umumiy mushtaraklik badiiy asarning kundalik shaklida yaratilishidir. Qolaversa, har ikki qissa qahramonlarning ichki-monologi asosiga qurilgan. Ularda hissiy kechinma ochiq-oshkora yozilishi jihatidan an'anaviy realistik qissalardan mutlaqo farq qiladi. Shuning uchun bu tipdagi qissalarni noan'anaviy modern qissalar sifatida o'rganish kerak bo'ladi. X.Do'stmuhammadning "Hijronim mingdur mening", "Men – sensiz, Sen – mensiz" qissalari maktub-qissaga misol bo'ladi. Adib bu qissalarda F.Dostoyevskiyning "Kambag'allar" asaridagi badiiy uslubiy izlanishlarga ergashadi, qaysidir ma'noda o'zbek ayolining miskin, mushfiq qiyofasini ochib beradi.

Xulosa. Hozirgi adabiy jarayonda o'tkir qalami bilan ko'zga tashlanayotgan Bahodir Qobulning "Enayo'l", "Enashamol", "Otachiroq" kabi qator qissalari ham o'zbek qissachiligining yangilanishga yuz burgan qiyofasini ko'rsatadi. Bu yangilanish

B.Qobulning badiiy-uslubida, tabiiy xalqona tilni juda o‘rnida qo‘llay olishida, o‘zbekona obrazlarning mahorat bilan yaratilishida ko‘rinadi. Xususan, adibning o‘zbek onaxoni, o‘zbekning kayvoni kampiri obrazini mukammal ravishda yaratgan “Enashamol” qissasi fikrimizning yorqin misolidir.

Shuningdek, hozirgi o‘zbek qissanavislarning yetakchilaridan biri Sh.Bo‘tayevning o‘nlab qissalari ham Istiqlol davri qissachiligining yangilanishlarini o‘zida namoyon etgan. Prozaning turli janrlarida sermahsul ijod qilayotgan adibning har bir qissasi alohida voqeadir. Bugungi o‘zbek qissachiligi turli kino san’ati va boshqa janrlarning (esse, roman, hikoya, novella, maktub) ta’siri natijasida uning ichki turlari (kinoqissa, qissaetyud, qissanovella, qissahikoya) paydo bo‘ldi. Ba’zan qissalarda roman janriga xos unsurlar, ba’zan esa novella, hikoya janriga xos xususiyatlar ko‘rinish berdi. Ayni paytda qissa janri ham boshqa janrlarga o‘zining ijobiy xususiyatlarini yuqtirmoqda. Masalan, Sh.Xolmirzayevning “O‘zbekbobo”, “Kuzda bahor havosi” hikoyalari qissa xarakterida yaratilgan. Ammo ularni muallif “hikoya” deb e’lon qilgan. Bu albatta, to‘g‘ri. Umuman olganda, janrlar sinkretizmi kuzatilmoqda. Nima uchun yuqoridagi qissalar o‘zbek milliy adabiyoti tarixidan mustahkam o‘rin egalladi? Nega ular bilan baravar ravishda yaratilgan boshqa qissalar xalq xotirasidan ham, adabiyot tarixidan ham butkul o‘chib ketdi? Mana shunday haqli savollar paydo bo‘ladi. Javob esa bitta. Qissalarning adabiyot tarixi va xalq xotirasida mangu qolishiga sabab yozuvchining badiiy mahorati tufayli hayotiy voqealarning aniq, samimiy, haqqoniy tarzda o‘zbekona tilda yozilgani bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ko‘bayev Q. O‘zbek qissalarida tarixiy haqiqat va badiiy mahorat: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2006. Rahimjonov N., Ko‘bayev Q. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri huzuridagi “Adolat” nashriyoti. – 2005. – B. 188.
2. Rahimjonov N., Ko‘bayev Q. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri huzuridagi “Adolat” nashriyoti. – 2005. – B. 177.
3. Karimova Y. Pirimqul Qodirov qissalarida ma’naviy-ahloqiy muammolarning badiiy talqini: Filol.fanlari nomzodi ...dis. - Toshkent: 2005. Suvonov Z. Tog‘ay Murod nasrida obrazlar poetikasi: Filol. fan. b-cha. f-fa. d-ri. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2019. – B. 53.
4. Rustamova M. Istiqlol davri o‘zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari: Filol. fan. nomzod. ...dis. – Toshkent: 2005. – B. 134.
5. Xoldorov D. Hozirgi o‘zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo‘tayev va Nazar Eshonqul asarlari misolida): Filol. fanlari bo‘yicha falsafa dok. (PhD). ...dis. avtoref. – Toshkent, 2017. – B. 11.
6. Radjapova F. Istiqlol davri o‘zbek qissalarida uslub va poetik til: fil. Filol. b-cha. f-fa. d-ri. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: 2018. – B. 11.
7. Radjapova F. Istiqlol davri o‘zbek qissalarida uslub va poetik til: Filol. fan. b-cha. f-fa. d-ri. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: 2018. – B. 11.
8. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 375.
9. Sheraliyeva M. Hozirgi o‘zbek nasrida kinoya. (Ijtimoiy-psxologik omillari, poetik tizimdagi o‘rni) – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B. 224.

10. Sheraliyeva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya. (Ijtimoiy-psxologik omillari, poetik tizimdagi o'rni) – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B. 84-85.
11. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). – Toshkent: Qaqnus mediya, 2019. – B. 172.
12. Burxanova F. Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelizm (Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam ijodi misolida): Filol. fan. b-cha. f-fa. d-ri. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent: 2019. – B. 17.
13. Burxanova F. Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelizm (Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam ijodi misolida):): Filol. fan. b-cha. f-fa. d-ri. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – B 18.
14. Qo'chqorova M. "O'tmishdan ertaklar" tadqiqi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 146.

BADIIY MATNGA PRAGMATIK YONDASHUVNING USTUVOR MASALALARI

Haydarova Feruza
Jizzax politehnika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnga pragmatik yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganiladi. Badiiy matnning kommunikativ imkoniyatlari, uning tilshunoslik va pragmatika nuqtai nazaridan tadqiqi orqali mazmunni chuqur anglash masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, badiiy matnni o'qishda va tahlil qilishda tinglovchi va o'quvchi omilining roli hamda bunday yondashuvning o'quv jarayonidagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, pragmatik yondashuv, kommunikativ imkoniyatlar, tilshunoslik, o'quv jarayoni, tahlil qilish.

ПРИОРИТЕТНЫЕ ВОПРОСЫ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ТЕКСТУ

Феруза Хайдарова
преподаватель Джизакского политехнического института

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты прагматического подхода к художественному тексту. Рассматриваются коммуникативные возможности художественного текста, а также его исследование с точки зрения лингвистики и прагматики для более глубокого понимания содержания. Также обсуждается роль слушателя и читателя в восприятии текста и значение такого подхода в учебном процессе.

Ключевые слова: художественный текст, прагматический подход, коммуникативные возможности, лингвистика, учебный процесс, анализ.

PRIORITY ISSUES OF A PRAGMATIC APPROACH TO A LITERATURE TEXT

Feruza Khaydarova
Teacher of the Jizzakh Polytechnic Institute

Abstrakt: This article explores the theoretical and practical aspects of a pragmatic approach to literary texts. The communicative potential of literary texts is analyzed, focusing on their interpretation from linguistic and pragmatic perspectives for deeper comprehension. The role of the listener and reader in understanding the text, as well as the importance of this approach in the educational process, is also discussed.

Keywords: literary text, pragmatic approach, communicative potential, linguistics, educational process, analysis.

Til falsafiy jihatdan gnoseologik va ontologik tabiatga ega bo'lgan murakkab fenomendir[1]. Nutq esa tilning reallashuv jarayoni, matn ana shu nutqiy faoliyatning mahsuli, shakliy va mazmuniy yaxlitlikka, tugallikka ega bo'lgan kommunikativ hodisa sanaladi. Matn turlari orasida badiiy matn o'ziga xos xususiyatlarga ega. Badiiy

matn tilshunoslikning eng murakkab, ko'p qirrali tekshiruv ob'ektidir. Chunki u bir necha leksik, grammatik va stilistik sistemalar yig'indisi – sistemalar sistemasidan iboratdir. Badiiy matn bilish va yaratish, aks ettirish va ijodning dialektik birligi asosida vujudga keladi[2]. Badiiy matn – inson borlig'ining til orqali reallashuvi, inson menining ro'yobga chiqish shakli[3] hisoblanadi. Darhaqiqat, badiiy matn voqelikni badiiy idrok etish va ifodalash mahsuli bo'lib, muallifning muayyan maqsadi, g'oyasi, ijodiy fikrlari tizimi asosida shakllanadi va tilning tasviriy vositalari, lug'at boyligi, pragmatik imkoniyatlarini to'la namoyon qila oladi. Aynan shuning uchun ham badiiy matnni pragmatik sistema sifatida qayd etishimiz mumkin. Shakl va mazmun uyg'unligiga ega bunday matnda ta'sirlik birinchi darajali masalaga aylanadi. Badiiy matnning vazifasi tasvirlash, kitobxonga estetik va ruhiy ta'sir ko'rsatish asosida muayyan voqelikka, voqelik ishtirokchilariga nisbatan munosabatni shakllantirish hisoblanadi. Mukammal yaratilgan badiiy matnning eng muhim, boshqa matn turlaridan farqli xususiyatlari sifatida ifoda usulining betakrorligi, muayyan maqsad va g'oyani ifodalash uchun yaratilgani, ruhiy, estetik, didaktik ta'sir ko'rsatishning kuchlilikini ko'rsatish mumkin. Muallif badiiy matn yaratish jarayonida barcha ijodiy, aqliy, intellektual, lisoniy imkoniyatlarini safarbar etadi va uning o'ziga xos individual uslubi ham badiiy matn tuzilishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir ijodkor olamni o'z bilimi va dunyoqarashi, tafakkuri, kechinmalaridan kelib chiqib sub'ektiv tarzda anglaydi va muayyan mavzudagi voqea-hodisaga badiiy-estetik munosabat bildiradi. Bu munosabatni o'z individual uslubiga xos tarzda til vositalari orqali aks ettiradi va o'quvchiningdunyoqarashiga, ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Nasriy badiiy matnlarning lingvistik tadqiqi til sathlari birliklari tahlili bo'yicha amalga oshiriladi. Badiiy matnning lingvistik tahlilida, asosan, til ifoda vositalarining matn tuzilishidagi ahamiyati, badiiy nutq turlari, uslubiy vositalar, ma'no ko'chish usullari, badiiy asar leksikasi kabi masalalarga alohida e'tibor beriladi. Masalan, O'tkir Hoshimov asarlarini tahlil qilar ekanmiz, yozuvchi vaqt so'zining 10 ta sinonimi: fursat, soat, on, lahza, bir zum, yil, payt, sekund, muddat, bir nafas so'zlarini qo'llaganini, bu so'zlar sinonimik tizma hosil qilganini, sinonimik qatordagi har bir so'z o'ziga xos ma'noviy xususiyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shoir ijodidapoetik, jonli xalq tiliga oid, dialektal, arxaik, qardosh tillarga oid, neologik sinonimlar mavjud. Badiiy asarga lingvopoetik, uslubiy va leksik-semantik nuqtai nazardan yondashish ko'proq tasvir vositalarining til xususiyatlari va obrazli ifoda hosil qilishdagi ahamiyati, adibning so'z qo'llash mahoratini ochib berish, leksik va grammatik vositalarning sinonimiyasi, uslubiy qo'llanish doirasini tahlil etish, leksik-semantik tasniflashga imkon beradi. Badiiy matnning pragmatik tahlilida ham shu bilan ayrim mushtarak jihatlar mavjud. Ayniqsa, uslubiyat va pragmalingvistika o'rtasida aloqadorlik kuchli. Lekin pragmalingvistikada tadqiqot ob'ekti nafaqat til sathlari birliklari bo'yicha, balki nutqiy muloqot tamoyil va asoslaridan kelib chiqqan holda tahlil qilinadi. Zero, pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot

ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi[4]. Pragmatik tahlil qahramonlar ruhiyati va muloqot xulqi, tilning pragmatik imkoniyatlari, tasvirlanayotgan zamon va makon, voqelikka muallif munosabatining til vositalari orqali yuzaga chiqishi, ifodadagi

birlamchi va ikkilamchi ma'nolar, nutqiy qo'llanishlarning shaxs, nutqiy vaziyat, pragmatik kontekst kabi omillar bilan bog'liqligi masalalarini yoritishga yordam beradi. Bunda har bir nutqiy ifoda nima uchun, qanday maqsadda reallashganini aniqlash muhim. Shunga muvofiq, badiiy matn pragmatikasi termini ostida muallif va asar qahramonlari nutqidagi turli til vositalari yordamida ifoda etiladigan, o'quvchiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan va o'quvchi tomonidan bu til vositalarining keng talqin etilishiga mo'ljallangan muallif maqsadlarining jamlanmasi tushuniladi[5]. Badiiy matn pragmatik tahlilida muallif va qahramonlar nutqiga oid oshkora va yashirin maqsad (intensiya), nutqiy taktika, pragmatik ma'noning ifodalanish usul va vositalari, pragmatik presuppozitsiya, fikrga qo'shimcha tarzda ifodalangan modal munosabatlar kabi masalalar diqqat markazida bo'ladi. Aynan shundan kelib chiqqan holda badiiy matn pragmatik tahlilida quyidagi mezonlarni qayd etishimiz mumkin:

Birinchi, badiiy matnda qo'llangan turli sathga oid til birliklarining muallif maqsadi (intensiyasi)ga mosligi aniqlanadi. Tilning barcha sathlariga oid birlik va vositalar muallifning ichki maqsadiga muvofiq tarzda qo'llansa, badiiy asarning shakliy va mazmuniy yaxlitligi ta'minlanadi. Nutq murakkab va serqirra jarayon bo'lib, bunda tilning barcha sathlariga oid birliklar uyg'un tarzda muallif maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Masalan: Xuddi shu oraga Yo'ldosh shilqim suqildiyo, ishning pachavasini chiqardi ("Shum bola"). Jumladagi barcha lisoniy vositalar salbiy munosabat ifodalashga yo'naltirilgan. Suqilmoq so'zi bezbetlik, xiralik bilan biror jamoaga kirib olmoq ma'nosini konnotativ tarzda ifodalamoqda. Laqab sifatida qo'llangan shilqimso'zi va ishning pachavasini chiqarmoq frazeologizmi bilan birga xuddi shu oraga birikmasi orqali tavsiflangan kutilmaganlik nutqiy vaziyatiga hamda vaziyat ishtirokchisiga qahramonning salbiy sub'ektiv bahosini bo'rttirib ifodalamoqda.

Ikkinchi, badiiy matnning pragmatik potentsiali (ta'sir kuchi), emotsional-ekspressivligi va uni yuzaga chiqaruvchi vositalar tahlil qilinadi. Badiiy matnning boshqa matn turlaridan farqli jihati ham emotsional-ekspressivlikning kuchli ifodalanishi, tasvirlanayotgan voqelikning kitobxon his-tuyg'ulariga ta'sir etishi, to'liqlantirishi, muayyan ob'ektga nisbatan ijobiy yoki salbiy pozitsiyani shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Badiiy matnning ta'sir kuchi informativlikning emotsionallikka yo'g'rilganida ko'rinadi. She'riy matn yuqori darajadagi emotsionallik mahsuli va ifodasi sanalsa, nasriy matnda ham his-tuyg'u ifodasi va ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa matnning pragmatik ta'sir kuchini tashkil etadi. Masalan, undov so'zlar his-tuyg'uni bo'rttirib ko'rsatish uchun qo'llanadi: E, tavba-ye, etim jimirlashib ketdi-ya...E, tavbae, ota-onang g'ozmidi, haromi? ("Shum bola")

Nasriy matnda qahramonlar qiyofasini tasvirlashda emotsionallik kuchli ifodalanadi. Ayniqsa, ayollar timsollarini tasvirlashda emotsionallik yuqori darajaga ko'tariladi. G'afur G'ulomning "Yodgor" qissasida Mehrixon, Saodat, "Qizaloq", "Cho'tir xotinning tolei" hikoyalarda asosiy qahramonlar tasvirida nutqiy vaziyat bilan bog'liq tarzda ijobiy emotsional baho va munosabat bildiruvchi til birliklari, o'xshatishlar faol qo'llanadi. Masalan, "Yodgor" qissasida Jo'ra tilidan Mehrixonga nisbatan bir qator o'xshatishlar ishlatiladi. Baxt yo'llariday oq va keng manglayda marvarid donalariday ter. Uning ovozi chertilgan jonon kosaday jaranglar edi...Qiz borib ayvon dahanasiga o'tirdi. Men uning ro'baro'sida – ariq labida cho'nqaydim...Qiz marmarday bilaklarigacha shimarib qo'yilgan ko'ylak yenglari orasidan kichik ro'molchasini olib, burun uchlari, dudoq ustlariga qo'ngan shabnamday toza terlarni arta boshladi ("Yodgor").

Uchinchi, muallifning o'ziga xos uslubi, muloqot strategiyasi vatil birliklarini pragmatik omillarga mutanosib qo'llanishi bilan bog'liq xususiyatlarni o'rganiladi. Masalan, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi til nuqtai nazaridan mukammal ishlangan mumtoz badiiyat namunalari qatorida tura oluvchi asarlardan bo'lib, umumxalq tilidan foydalanish mahoratining betakror namunasi sanaladi. Shum bola nutqida qo'llangan o'nlab ism

va laqablar, xarakter ifodalovchi soʻzlar asardagi asosiy qirrani – yumoristik ruhni ifodalash vositasi boʻlgan[6] Masalan, Asra kal, It Obid, Bit Obid, Xolparang jinni, Yoʻldosh shilqim, Poʻlatxoʻja mugʻombir, Abdulla doʻlvor, Salmon pok, Ilyos boʻrdoqi kabi. Adibning boshqa nasriy asarlarida ham qahramonlar ismiga laqab tirkab qoʻllash holati koʻp kuzatiladi. Masalan, Mirjalol quruq, Sattorqul sarkor, Orif sassiq, Hasan Kayfiy, Tolib soʻfi, Husni baqqol, Saʼdi xalifa, Maston boʻzagar, Badal novcha, Miryoqub qovoq, Soyibnazar qoʻychi kabi laqab tirkab qoʻllangan ismlar qissada anchagina boʻlib, har bir laqabning qoʻllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar uygʻunligi kuzatiladi. Ekstralingvistik omillar sirasiga tasvirlanayotgan qahramonning jismoniy, ijtimoiy holati, sajiyasi, boshqalardan ajratib turuvchi xususiyati kirsam, lingvistik omillar qatoriga ana shu xususiyatlarni boʻrttirib koʻrsatuvchi til birliklari, maʼno koʻchish usullari, qiyoslash kabilarni kiritishimiz mumkin.

Toʻrtinchidan, nutqiy aktlarning pragmatik mazmuni: maʼnoning oshkora yoki yashirinligi, yashirin maʼnoning ifodalanish usullari tahlil qilinadi. Masalan:

– Shunaqa deng, –dedi podsho oʻsmoqchilab. –Xoʻsh, bu mamlakatning podshosi kim, adolatli podsholardanmi?

– Toʻgʻri, toʻgʻri, bir xotining ismi Adolat deb eshitganim bor (“Hasan Kayfiy”). Kontekstda Hasan Kayfiy nutqida podshoning adolatsizligiga yashirin ishora va kinoya mavjud.

Beshinchidan, badiiy matnda nutqiy odob, nutqiy odat, nutqiy aralashuv birliklarining qoʻllanishi masalasi oʻrganiladi. Masalan:

Ichkaridan:

– Marhamat, kiravering, bu eshikning qulfu zanjiri yoʻq, marhamat, – degan ovoz keldi.

...Podshoning savlati uni dovdiratib qoʻydi shekilli, qanday iltifot qilishni ham bilmay elovsirab:

– Xizmat, taqsir, xizmat? –der edi...

– Qani, marhamat, oʻz uylaridek bemalol oʻtirsinlar... (“Hasan Kayfiy”) Hasan Kayfiy nutqida oʻzbekona mehmondoʻstlikni ifodalovchi nutqiy odob vositalari, nutqiy odat birliklari qoʻllangan va iltifot nutqiy aktini yuzaga keltirgan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, matnni pragmatik aspektda oʻrganish til vositalaridan samarali va oʻrinli, unumli foydalanish asoslarini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun pragmatolingvistik tahlilda til vositalari nima uchun aynan shunday qoʻllanganligi, nutqiy qoʻllanishning samaradorligi va natijaviyligi qanday amalga oshganligi masalalariga asosiy eʼtiborni qaratish lozim. Shuningdek, badiiy matn pragmatikasida til birliklari, nutqiy vositalar, usullarning emotsionallik va ekspressivlikni ifodalashi, qoʻshimcha, yashirin, ammo muhim taʼsirga ega axborot va maʼnolarni aniqlash asosiy masalalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. –Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.

2. Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. –Бухоро: Бухоро университети, 2000. –Б. 9.

3. Ёқубов И. Бадий матн ва эстетик талқин. –Тошкент: Фан ва технология нашриёти, 2013. –Б. 4.

4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент, 2008. –Б. 75.

5. Почепцов Г. Прагматика текста. –Калинин, 1980. – С. 8.

6. Улуқов Н. “Шум бола” қиссасидаги библионим ва антропонимлар хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. – № 3. – Б. 67.

“SADOQAT” KONSEPTINI LINGVISTIK VA MADANIY NUQTAI NAZARDAN O’RGANISHNING AHAMIYATI

*Hamrayeva Charos Norboyevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi*

Anotatsiya: “Sadoqat” konseptini lingvistik va madaniy nuqtai nazardan o’rganish insoniy qadriyatlarning til va madaniyat orqali qanday ifodalanishini va shakllanishini chuqurroq anglashda muhim o’rin tutadi. Ushbu konsept O’zbek tilida sadoqat, vafodorlik va ma’naviy burch tushunchalari bilan bog’liq bo’lib, shaxsiy, oilaviy va milliy munosabatlarda alohida ahamiyatga ega. Ingliz tilidagi “loyalty” tushunchasi ham shunga o’xshash mazmunga ega bo’lsa-da, uning ma’no ko’lamida tarixiy va madaniy farqlar mavjud. Mazkur maqolada “Sadoqat” konseptining lingvistik ifodalari, idiomatik qo’llanilishi va madaniy ahamiyati qiyosiy tarzda o’rganiladi. Bu nafaqat tillarning jamiyat qadriyatlarini qanday aks ettirishi va shakllantirishini aniqlashga yordam beradi, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda ham muhim hissa qo’shadi. Shu orqali global dunyoda madaniyatlar o’rtasidagi tushunishni chuqurlashtirish, o’zaro hurmatni mustahkamlash va umumbashariy qadriyatlarni tadqiq qilish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalari tilshunoslik, madaniyatshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarini boyitishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

THE IMPORTANCE OF STUDYING THE CONCEPT OF “LOYALTY” FROM A LINGUISTIC AND CULTURAL PERSPECTIVE

*Hamrayeva Charos Norboyevna,
Teacher at Shahrisabz State Pedagogical Institute*

Annotation: This article examines the concept of “Sadoqat” (loyalty) from linguistic and cultural perspectives plays a crucial role in understanding how human values are expressed and shaped through language and culture. In Uzbek, this concept is closely associated with the notions of loyalty, faithfulness, and moral duty, holding significant importance in personal, familial, and national relationships. While the English concept of “loyalty” shares similar connotations, its scope of meaning reflects historical and cultural differences. This research comparatively examines the linguistic expressions, idiomatic usage, and cultural significance of the concept of “Sadoqat.” It not only sheds light on how languages reflect and shape societal values but also contributes to the development of intercultural communication. Consequently, it fosters deeper understanding between cultures in a globalized world, strengthens mutual respect, and offers opportunities to explore universal values.

The findings of this research hold exceptional importance in enriching the fields of linguistics, cultural studies, and intercultural communication, as well as deepening the understanding of the interconnection between language, culture, and human values.

ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ КОНЦЕПТА «ПРЕДАННОСТЬ» С ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

Хамраева Чарос Норбоевна,
преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического
института

Аннотация: Изучение концепта «Садокат» с лингвистической и культурной точек зрения играет важную роль в более глубоком понимании того, как человеческие ценности выражаются и формируются через язык и культуру. В узбекском языке данный концепт тесно связан с понятиями преданности, верности и нравственного долга, имея особое значение в личных, семейных и национальных отношениях. Несмотря на то, что английское понятие «loyalty» имеет схожее содержание, его семантический диапазон отражает исторические и культурные различия.

В данном исследовании проводится сравнительный анализ лингвистических выражений, идиоматического использования и культурного значения концепта «Садокат». Это не только помогает выявить, как языки отражают и формируют ценности общества, но и вносит значительный вклад в развитие межкультурной коммуникации. Таким образом, создаются возможности для углубления взаимопонимания между культурами в глобальном мире, укрепления взаимного уважения и исследования общечеловеческих ценностей.

Результаты исследования имеют исключительное значение для обогащения таких областей, как лингвистика, культурология и межкультурная коммуникация, а также для более глубокого осмысления взаимосвязи языка, культуры и человеческих ценностей.

Kalit so'z: Sadoqat, loyalty, lingvistik tahlil, madaniy tadqiqot, konseptual tahlil, o'zbek tili, ingliz tili, madaniyatlararo kommunikatsiya, insoniy qadriyatlar, vafodorlik, ma'naviy burch.

Keywords: Sadoqat, loyalty, linguistic analysis, cultural research, conceptual analysis, Uzbek language, English language, intercultural communication, human values, faithfulness, moral duty.

Ключевые слова: садокат, loyalty, лингвистический анализ, культурное исследование, концептуальный анализ, узбекский язык, английский язык, межкультурная коммуникация, человеческие ценности, верность, нравственный долг.

KIRISH. “Sadoqat” konsepti (ingliz tiliga “loyalty” deb tarjima qilinadi) lingvistik va madaniy tadqiqotlarda muhim o‘rin tutib, insoniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlardagi chuqur ahamiyatini aks ettiradi. Sadoqat insonning biror bir g‘oyaga ixtiyoriy, amaliy va to‘liq bag‘ishlanishini anglatadi. Inson sadoqatli bo‘lishi uchun, avvalo, u sadoqat ko‘rsatadigan biror bir g‘oya yoki maqsadga ega bo‘lishi kerak; ikkinchidan, u ushbu maqsadga o‘zini ixtiyoriy ravishda va to‘liq bag‘ishlashi lozim; uchinchidan esa, u o‘z bag‘ishlanishini amaliy va barqaror tarzda namoyon etib, ushbu maqsad yo‘lida muntazam harakat qilishi kerak.

«Sadoqat» nisbiy atama bo‘lib, har doim biror bir obyektini, ya’ni insonning sadoqat ko‘rsatadigan g‘oya yoki maqsadini nazarda tutadi. Shu bois, sadoqat nimaga qaratilishi

kerakligini o'rganish lozim. To'g'ri ta'riflangan sadoqat esa axloqiy qonunning to'liq bajarilishi sifatida qaraladi.

Umumiy tushuncha sifatida "Sadoqat" so'zining talqini va ifodalanishi har xil madaniyat va tillarda turlicha bo'ladi. Ushbu konseptni lingvistik va madaniy nuqtai nazardan o'rganish, uni turli jamiyatlarda qanday so'zlar bilan ifodalanishi, tushunilishi va amal qilinishining o'ziga xos jihatlari ochib beradi.

O'zbek tilida va madaniyatida "Sadoqat" shaxsiy, oilaviy va milliy munosabatlarga xos bo'lgan mustahkam sadoqat, vafodorlik va ma'naviy majburiyat kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Ingliz tilida "loyalty" tushunchasi shunga o'xshash ma'nolarni anglatganda, uning nozik jihatlari va madaniy, tarixiy, ijtimoiy va mafkuraviy omillar ta'sirida o'zgaradi. O'zbek va ingliz tillarida "Sadoqat" konseptining lingvistik ifodalari, idiomatik qo'llanilishi va madaniy ahamiyatini tahlil qilish orqali tillarning jamiyat qadriyatlarini qanday shakllantirib va aks ettirishi o'rganilishi mumkin.

Bundan tashqari, bunday qiyosiy tadqiqot global dunyoda, ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega. "Sadoqat" konsepti qanday talqin qilinishidagi o'xshashlik va farqlarni tushunish madaniyatlar o'rtasida o'zaro hurmat va qadrlashni rivojlantirishga, shuningdek, yaxshiroq madaniyatlararo tushuncha va hamkorlikka hissa qo'shadi. Bu tadqiqot nafaqat lingvistika sohasini boyitadi, balki insoniy qadriyatlarining umumiy va madaniyatga xos tomonlarini yoritishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Maqolamizda lingvistik tahlil va madaniyatshunoslik yondashuvlarini qo'llab o'tdik. Jumladan, o'zbek tilida "sadoqat" tushunchasi ko'pincha shaxsiy munosabatlar va vatanparvarlik kontekstida qo'llaniladi. Bunga "Vatanga sadoqat – oliy burch" yoki "Do'stga sadoqat umrboqiy boylik" kabi iboralarni misol keltirish mumkin. Ushbu iboralar, "sadoqat" konseptining faqat insoniy munosabatlarda emas, balki ijtimoiy va ma'naviy qadriyat sifatida ham ahamiyatini ko'rsatadi. Zero, «Sadoqat qadriyati o'zbek xalqining ma'naviy merosi asosida shakllangan bo'lib, u insonlar o'rtasidagi munosabatlarning halollik va vafodorlik tamoyillariga asoslanganligini ifodalaydi».

Ingliz tilida esa "loyalty" konsepti oilaviy, professional va milliy kontekstlarda ishlatiladi. Masalan, "Loyalty is the foundation of friendship" (Sadoqat – do'stlikning asosi) yoki "Employee loyalty is highly valued in companies" (Xodimlarning sadoqati kompaniyalarda yuqori qadrlanadi) kabi iboralar ushbu tushunchaning kengroq qo'llanish doirasini ko'rsatadi. Shuningdek, ingliz tilida "loyal" so'zi bilan birga ishlatiladigan frazalar, masalan, "remain loyal" (sodiq qolmoq) yoki "prove loyalty" (sadoqatni isbotlamoq), ushbu konseptning ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi.

NATIJALAR

O'zbek va ingliz tilida "Sadoqat" konseptining badiiy asarlarda va xalq og'zaki ijodida qanday ifodalangani ham qiziqarli tahlilni talab qiladi. Masalan, o'zbek adabiyotida Alisher Navoiyning asarlarida sadoqat va vafodorlik ko'p bora tilga olinadi: "Do'stga sadoqat – mardlik alomati". Ingliz adabiyotida esa, Uilyam Shekspirning asarlarida "loyalty" tushunchasi do'stlik, sevgi va siyosiy kontekstlarda namoyon bo'ladi, masalan: "I do beseech you to be loyal to the king." (Uilyam Shekspir "Makbet")

Mazkur misollar "Sadoqat" konseptining har ikki tilda qanday semantik va madaniy ko'rinishlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu tariqa, tadqiqot til va madaniyatlarining o'zaro bog'liqligini aniqlashga, shuningdek, bu qadriyatning universalligi va milliy xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, "Sadoqat" konsepti turli

kommunikativ vaziyatlarda qanday qo'llanilishi ham diqqatga sazovordir. Masalan, o'zbek tilida "sadoqat" ko'pincha shaxslararo munosabatlarda ijobiy baho berish vositasi sifatida ishlatiladi: "U o'z do'stlariga sadoqatli inson edi." Bu yerda sadoqat insonning do'stlikka bo'lgan ishonchini va vafodorligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari "Sadoqat" «Sadoqat tushunchasi o'zbek xalqining ma'naviy va milliy o'ziga xosligini belgilovchi asosiy qadriyatlardan biri sifatida qaraladi». Ingliz tilida esa "loyalty" tushunchasi nafaqat shaxsiy munosabatlarda, balki tijorat, siyosat va boshqa ijtimoiy sohalarda keng qo'llaniladi. Jumladan, «Ingliz tilida loyalty (sadoqat) ko'pincha pragmatik munosabatlar, ayniqsa, kasbiy va tashkiliy kontekstlarda bog'liq bo'ladi».

"Brand loyalty" (brendga sadoqat) atamasi esa, iste'molchilar va kompaniyalar o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni ifodalaydi. Xususan, "Loyalty (sadoqat) tushunchasining qiyosiy tahlili uning talqinida sezilarli madaniy farqlarni ochib beradi, xususan, o'zbek tilida hissiy chuqurlikka urg'u berilgan bo'lsa, ingliz tilida pragmatik yondashuv ustunlik qiladi".

Shuningdek, "Sadoqat" konseptining metaforik ma'noda ishlatilishi ham ahamiyatlidir. O'zbek tilida bu tushuncha ko'pincha obrazli ma'noda, masalan, "xalqiga sadoqatli rahbar" iborasida qo'llanilib, rahbarning jamiyat oldidagi ma'naviy majburiyatlarini aks ettiradi. Ingliz tilida esa "to pledge loyalty" kabi iboralar davlatga yoki biror tashkilotga rasmiy sadoqatni bildirish uchun ishlatiladi. Bu iboralar sadoqatni nafaqat shaxsiy sifat, balki ijtimoiy institutlar bilan bog'liq qadriyat sifatida ko'rsatadi.

Qolaversa, o'zbek va ingliz madaniyatlarida sadoqatning qadriyat sifatida baholanishi ham muhim jihat hisoblanadi. O'zbek madaniyatida sadoqat ko'pincha insonning axloqiy sifatleri bilan bog'liq bo'lsa, ingliz madaniyatida u ko'proq pragmatik yondashuvda namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz jamiyatida xodimlarning kompaniyaga bo'lgan sadoqati ularning ishlash davomiyligi va samaradorligi bilan o'lchanadi, o'zbek jamiyatida esa sadoqat ko'proq hissiy va axloqiy omillarga asoslangan.

Ushbu farqlarni o'rganish orqali, tadqiqot nafaqat lingvistik xususiyatlarni aniqlashga, balki madaniy kontekstni chuqurroq anglashga, sadoqat konseptining universal va milliy jihatlarni to'liq yoritishga imkon yaratadi. Shu tariqa, bunday qiyosiy tadqiqot madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi va umuminsoniy qadriyatlarning rang-barangligini yoritishda xizmat qiladi.

TAHLIL

O'zbek tilshunosligida «sadoqat» tushunchasi chuqur ma'naviy va axloqiy mazmun bilan boyitilgan. Bu so'z insonning o'z yaqinlariga, vatanga, do'stlariga va jamiyat oldidagi burchlariga sadoqati, vafodorligi va fidoyiligini anglatadi. O'zbek tilshunosligida «sadoqat» ko'pincha qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni ifodalashda ishlatiladi.

Semantik jihatdan «sadoqat» so'zi quyidagi asosiy ma'nolarni ifodalaydi:

- Shaxsiy munosabatlarda: yaqinlar, oila yoki do'stlar o'rtasidagi vafodorlik. Masalan, "Do'stlik sadoqat bilan mustahkam bo'ladi."
- Vatanparvarlik kontekstida: Vatan va millatga xizmat qilish. Misol: "Sadoqat bilan xizmat qilish har bir fuqaroning burchidir."
- Ma'naviy va diniy kontekstda: Allohga va diniy tamoyillarga bo'lgan fidoyilik.

O'zbek tili frazeologiyasida «sadoqat» tushunchasi ko'plab iboralar orqali namoyon bo'ladi, masalan, "sadoqatli do'st", "xalqiga sadoqatli rahbar". Badiiy adabiyotda ham bu tushuncha o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini aks ettirishda keng ishlatiladi.

Ingliz tilida «loyalty» tushunchasi shaxsiy va ijtimoiy kontekstlarda ko'p ishlatiladi. Ushbu so'z sadoqatni, ya'ni biror bir shaxsga, tashkilotga yoki g'oyaga bo'lgan doimiy va

amaliy bag‘ishlanishni ifodalaydi. Ingliz tilida «loyalty» ko‘pincha quyidagi ma’nalarda ishlatiladi:

- Shaxsiy munosabatlarda: Do‘stlar yoki oilaga bo‘lgan sadoqat. Misol: “True friendship is built on loyalty.”
- Kasbiy munosabatlarda: Tashkilot yoki ish joyiga sadoqat. Masalan, “Employee loyalty is crucial for organizational success.”
- Ijtimoiy va siyosiy kontekstlarda: Vatan yoki davlatga sadoqat. Misol: “Citizens pledge loyalty to their country.”
- Tijorat kontekstida: “Brand loyalty” kabi atamalar orqali iste’molchilarning biror mahsulot yoki xizmatga uzoq muddat qiziqishini ifodalaydi.

Ingliz tili frazeologiyasida ham «loyalty» tushunchasi turli obrazlar va iboralar orqali ifodalanadi, masalan: “Loyal to the core” (to‘liq sadoqatli), “Split loyalty” (ikki tomonlama sadoqat).

O‘zbek va ingliz tillarida «sadoqat» tushunchasi semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, qo‘llanilish konteksti va lingvistik vositalarida ayrim farqlar mavjud. O‘zbek tilida «sadoqat» ko‘proq hissiy va axloqiy jihatlarni aks ettirsa, ingliz tilida «loyalty» ko‘pincha pragmatik va amaliy ma’nodan ishlatiladi. Masalan:

- O‘zbekcha: “Vatanga sadoqat – oliy burch.”
- Inglizcha: “Loyalty to one’s country is a noble duty.”

Bu farqlar madaniy o‘ziga xoslik va jamiyatning qadriyat tizimidan kelib chiqadi. Har ikki tilda ushbu tushuncha asosiy insoniy sifat sifatida yuqori baholanadi va bu uni qiyosiy lingvistik uchun qiziqarli mavzu qiladi.

“Sadoqat” konseptini lingvistik va madaniy nuqtai nazardan o‘rganish til va madaniyatning insoniy qadriyatlarni qanday ifodalayotgani va shakllantirayotganini tushunish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu konseptning o‘zbek va ingliz tillarida qo‘llanilishi, semantik mazmuni va madaniy kontekstlari o‘ziga xos bo‘lsa-da, har ikkisi uchun sadoqat asosiy axloqiy tamoyil sifatida qabul qilinadi.

O‘zbek tilida «sadoqat» g‘oyasi shaxsiy, oilaviy va milliy munosabatlarda chuqur ma’naviy va hissiy ahamiyatga ega. Ingliz tilida esa “loyalty” tushunchasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy, professional va tijorat sohalarida ham keng qo‘llaniladi. Ushbu farqlarni o‘rganish orqali sadoqatning milliy xususiyatlari va universal qadriyat sifatidagi ahamiyatini ochib berish mumkin. Shuningdek, “Ingliz tilli madaniyatlarda loyalty (sadoqat) ko‘pincha sadoqat va burch tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida u ko‘proq chuqur shaxsiy va hissiy mazmuni o‘z ichiga oladi” .

Bundan tashqari, bu tadqiqot lingvistik ifodalar va frazeologik birikmalarning madaniyatlararo farqlari hamda ular orqali jamiyatning qadriyat tizimini qanday aks ettirishini aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy tahlil natijalari tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarini boyitish bilan birga, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

«Sadoqat» konsepti til va madaniyatlarni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, til va madaniyatlarning o‘zaro bog‘liqligi insoniyatning axloqiy tamoyillarini shakllantiradi va madaniyatlararo muloqotda o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi. O‘zbek va ingliz tillaridagi «sadoqat» tushunchasining o‘xshashliklari va farqlari, til va madaniyatlarni o‘rganish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, bu tadqiqot madaniyatlararo tushunishni chuqurlashtirish, umumiy qadriyatlarni kashf

qilish va global dunyoda samarali kommunikatsiyani rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarov, N. (2017). O'zbek tilida milliy qadriyatlar va ularning lingvistik ifodasi. Tashkent: Universitet nashri.
2. Mammadov, F. (2015). Loyalty and its cultural context in English and Uzbek: A comparative study. Baku: Baku State University Press.
3. Shakirova, G. (2018). The concept of loyalty in the Uzbek linguistic and cultural sphere. *Journal of Linguistic and Cultural Studies*, 10(2), 45-59.
4. Kukharenko, S. (2019). Loyalty in different cultures: A cross-linguistic approach. *Linguistics and Anthropology*, 23(4), 112-126.
5. Navoi, A. (2001). *Divan-i Hikmat*. Tashkent: Fan Publishing House.
6. Smith, J. (2016). *The concept of loyalty in modern English*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Tomov, P. (2020). Cultural reflections of loyalty in language: A comparative approach. *Journal of Cross-Cultural Studies*, 15(1), 77-92.

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA RAQAMLARNING FARQLI JIHATLARI VA MADANIY AHAMIYATI

*Karimova Iroda Baxtiyor qizi,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Raqamlar faqatgina miqdoriy o'lchovlardan iborat emas; ular madaniy qadriyatlar va e'tiqodlarni ochib bera oladigan ramziy ma'nolarga ega. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek madaniyatiga mansub maqollardagi raqamlarning roli o'rganiladi. Raqamli elementlarni o'z ichiga olgan maqollarni tahlil qilish orqali tadqiqot raqamlarning majoziy va ramziy ma'noda qo'llanilishini aniqlashga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ba'zi raqamli belgilar universal ma'noga ega bo'lsa, boshqalari madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lib, o'ziga xos madaniy munosabat va qadriyatlarni aks ettiradi.

Kalit so'zlar: yadro gaplar, ramziy ma'no, metaforik qo'llanish, madaniy ahamiyat, maqollar, tez aytishlar, miqdor, raqamli simvolizm.

DIFFERENT ASPECTS AND CULTURAL SIGNIFICANCE OF NUMBERS IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

*Karimova Iroda Bakhtiyor qizi,
teacher of Karshi State University*

Abstrakt. Numbers are not just quantitative measurements; they have symbolic meanings that can reveal cultural values and beliefs. In this study, the role of numbers in proverbs belonging to English and Uzbek culture is studied. By analyzing proverbs containing numerical elements, the study aims to determine the metaphorical and symbolic use of numbers. The results show that while some digital symbols have universal meanings, others are culturally specific and reflect specific cultural attitudes and values.

Keywords: core sentences, symbolic meaning, metaphorical use, cultural significance, proverbs, quick sayings, quantity, numerical symbolism.

РАЗНЫЕ АСПЕКТЫ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЧИСЛ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЯХ

*Каримова Ирода Бахтиёр кизи,
преподаватель Каршинского государственного университета*

Абстрактный. Числа — это не просто количественные измерения; они имеют символическое значение, которое может раскрыть культурные ценности и верования. В данном исследовании изучается роль чисел в пословицах, принадлежащих английской и узбекской культуре. На основе анализа пословиц, содержащих числовые элементы, исследование направлено на определение метафорического и символического употребления чисел. Результаты показывают, что, хотя некоторые цифровые символы имеют универсальное значение, другие являются культурно специфичными и отражают определенные культурные отношения и ценности.

Ключевые слова: основные предложения, символическое значение, метафорическое употребление, культурное значение, пословицы, поговорки,

Kirish. Raqamlar inson tili va tafakkurining ajralmas qismi bo'lib, ularning matematik funksiyasidan tashqarida boy ramziy ma'nolarga ega. Madaniy donolikni ixcham gaplarda jamlagan maqollar kengroq mavhum fikrlarni etkazish uchun ko'pincha raqamlardan foydalanadi. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek maqollarida raqamlar qanday qo'llanilishini o'rganib, ularning ramziy ahamiyatini va madaniy qadriyatlarini qanday aks ettirishini tushunishga harakat qiladi. Ushbu ikki tilshunoslik an'analardan olingan maqollarni taqqoslash orqali biz raqamli simvolizmning namunalari va uning madaniy oqibatlarini aniqlashni maqsad qilganmiz.[1; 159–163]

1. Maqollar saralanishi: Maqollar to'plami ingliz va o'zbek manbalaridan tayyorlangan bo'lib, ayniqsa sonli elementlarni o'z ichiga olgan maqollarga e'tibor qaratildi. Vakillik namunasini ta'minlash uchun har bir tildan jami 50 ta maqol tanlab olindi.

2. Tahliliy asos: Har bir maqol quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi.

-Ramziy ma'no: son miqdoriy qiymatdan tashqari nimani anglatadi?

-Metaforik qo'llanish: Maqolda son qanday qilib metafora sifatida ishlatiladi?

-Madaniy kontekst: Madaniy e'tiqod va qadriyatlar raqamdan foydalanishga qanday ta'sir qiladi?

3. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Raqamlardan foydalanishda umumiy mavzular va naqshlarni aniqlash uchun tematik tahlildan foydalanildi. Bu maqollarni kodlash va raqamlarning ramziy va metaforik ma'nolarini turkumlashdan iborat edi.

Ingliz va o'zbek tillarida bir (one) raqamining o'xshashlik va farqlari: Tahlilimizni eng tez-tez uchraydigan bir (one) raqamidan boshlaylik (70 ta maqolda topilgan). Quyidagi maqollarda son "bir" ma'nosida qo'llangan bo'lib, tuzilish jihatdan bular bir bo'lakli yadro gaplardir: One chick keeps a hen busy (Bir tovuq tovuqqa ko'p muammo beradi); You only get one shot at life (Biz bir marta yashaymiz); One step above the sublime makes the ridiculous (Buyuklikdan kulguga – bir qadam); One swallow doesn't make a summer (Bir qaldirg'och bahor qilmaydi); One tongue is enough for a woman Ayolga bitta til kifoya qiladi.[2; 142–144]

Ikki qismli maqollarda bo'laklar, odatda, uzviy bog'langan bo'ladi: If one claw is caught, the bird is lost (Tirnog'i tiqilib qolsa – butun qush yo'qoladi); It is a poor mouse that has only one hole (Bu faqat bitta teshikka ega bo'lgan kambag'al sichqoncha). Biroq, bir xil qurilishi bilan ajralib turadigan quyidagi maqollarda qismlar deyarli mustaqil: There's only one pretty child in the world and every mother has it (Dunyoda faqat bitta sevimli bola bor va har bir onada u bor.); There is one good wife in the country, and every man thinks he has her (Dunyoda bitta yaxshi xotin bor, har bir er bu uning xotini deb o'ylaydi).

All (barchasi) so'zi one raqami bilan qarama-qarshi keladi: Do not put all your eggs in one basket (Barcha tuxumlaringizni bitta savatga qo'ymang); All bread is not baked in one oven (Hamma non bir tandirda pishirilmaydi); One barking dog sets all the street barking (Bir it huradi, butun suruv huradi).

Ingliz tilida ikki (two) raqamini tahlilida quyidagilar namoyon bo'ladi:

“Two heads are better than one.”

Ma'nosi: Hamkorlik va jamoaviy ish ko'pincha yolg'iz ishlashdan ko'ra yaxshiroq natijalar beradi.

Madaniy ahamiyati: Bu maqol hamkorlik va jamoaviy donolikka berilgan qadriyatni

ta'kidlab, turli nuqtai nazarlar yaxshiroq qaror qabul qilishga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

“It takes two to tango.”

Ma'nosi: Ba'zi harakatlar yoki vaziyatlar ikki tomonning ishtirokini talab qiladi; ikkalasi ham javobgar.

Madaniy ahamiyati: Bu maqol munosabatlar va mojaralarda o'zaro ishtirok etish g'oyasini ta'kidlab, muammo uchun faqat bir tomonni ayblab bo'lmasligini ko'rsatadi.

“Good things come in pairs.”

Ko'pincha ijobiy tajribalar yoki narsalar juftlikda topiladi.

Madaniy ahamiyati: Bu maqol muvozanat va uyg'unlik g'oyasini aks ettiradi, ba'zi narsalar tabiiy ravishda bir-birini to'ldiradi.

“Ikki bosh, bir boshdan yaxshiroq.”

Tarjimasi: “Two heads do not work as one.”

Ma'nosi: Ingliz maqoliga o'xshab, bu hamkorlik muhim degan fikrni ifodalaydi.

Madaniy ahamiyati: U maqsadlarga erishishda birlik va jamoaviy sa'y-harakatlarning muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilida ikki raqamini tahlilida quyidagilar namoyon bo'ladi:

“Ikkita do'st, bir dushman.”

Tarjimasi: “Two friends can overcome one enemy.”

Ma'nosi: Do'stlik va qo'llab-quvvatlash insonga qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Madaniy ahamiyati: Bu o'zbek madaniyatida do'stlik va hamjamiyatga berilgan yuksak qadriyatni aks ettiradi.

“Ikki tomondan urish, bir tomondan quvish.”

Tarjimasi: “Attack from both sides and chase from one side.”

Ma'nosi: U qiyinchiliklarni yengishda strategik yondashuvlar va jamoaviy ishlashga urg'u beradi.

Madaniy ahamiyati: U o'zbek an'analarida strategik fikrlash va hamkorlikning ahamiyatini ko'rsatadi.

Ingliz tilida uch (three) raqamini tahlilida quyidagilar namoyon bo'ladi:

“Third time's a charm.”

Ma'nosi: Biror narsaga uchinchi urinish ko'pincha oldingi muvaffaqiyatsizliklardan keyin muvaffaqiyatli bo'ladi.

Madaniy ahamiyati: Bu maqol umid va qat'iyatni o'zida mujassam etgan bo'lib, odamlarni muvaffaqiyatsizliklarga qaramay davom etishga undaydi.

“A stitch in time saves nine.”

Ma'nosi: Muammoni erta hal qilish uning keyinchalik kattaroq muammoga aylanishining oldini oladi.

Madaniy ahamiyati: Bu ko'plab madaniyatlarda yuqori hurmatga sazovor bo'lgan o'z vaqtida aralashuv va faol choralar muhimligini ta'kidlaydi.

“All good things come in threes.”

Ma'nosi: Ko'p ijobiy tajribalar yoki natijalar ko'pincha uchta guruhda topiladi.

Madaniy ahamiyati: Bu ko'plab hikoyalar an'analari va falsafalarida uchraydigan triadalar kuchiga bo'lgan ishonchni aks ettiradi.

O'zbek tilida uch raqamini tahlilida quyidagilar namoyon bo'ladi:

“Uch ming so'zdan, uch so'z ma'qul.”

Tarjimasi: “Better three words than three thousand.”

Ma'nosi: Muloqotda qisqalik va ravshanlik ortiqcha so'zlardan ko'ra samaraliroqdir.

Madaniy ahamiyati: Bu maqol suhbatda ixchamlik va donolikni qadrlaydi.

“Uch to'da yigirma to'rt.”

Tarjimasi: “Three together make twenty-four.”

Ma'nosi: Kollektiv harakat samaradorlikni oshiradi.

Madaniy ahamiyati: u katta natijalarga erishishda jamoaviy ish va birlikning ahamiyatini ta'kidlaydi.

“Uch qizil gullardan birini tanla.”

Tarjimasi: “Choose one from three red flowers.”

Ma'nosi: Tanlov qilish qiyin bo'lishi mumkin, lekin bu juda muhim.

Madaniy ahamiyati: Bu qaror qabul qilishning muhimligini va hayotdagi variantlarning go'zalligini aks ettiradi.

1. Ramziy ma'no:

Birinchi raqam: yagonalik yoki o'ziga xoslikni ifodalaydi. Ingliz tili: “First priority” eng muhim yoki eng yaxshisini bildiradi. O'zbekcha: “Bir boshliq, o'n boshliq” (Bir bosh o'n boshdan yaxshi) bir dono rahbar ko'p ergashuvchilardan qadrliroq ekanini nazarda tutib, yagona yetakchilik va donolikning qadrini ko'rsatadi.

Ikki raqam: Ingliz va o'zbek madaniyatida ikki raqam ko'pincha ikkilik, sheriklik va muvozanatni anglatadi. «Ikki» tushunchasi hamkorlik yoki ziddiyatdagi munosabatlarni qamrab oladi. Jumladan, ingliz maqollarida hamkorlikka urg'u berilgan bo'lsa, o'zbek maqollarida do'stlik va o'zaro yordamning mustahkamligi ta'kidlangan.

Uch raqam: har ikkala madaniyatda ham to'liqlik yoki barqarorlikni ifodalaydi. O'zbek madaniyatidan farqli o'laroq, «uch» raqami ma'lum bir simvolik ma'noga ega va ko'plab maqollar, tez aytishlar va boshqa frazeologik birliklarning biri, inglizcha so'z birikmalarida three raqami kamroq uchraydi. Uch komponentli paremiyalar orasida biz tarkibiy va yoki semantik jihatdan o'xshash so'zlarning bir nechta kichik guruhlarini ham topamiz. Quyidagi ikkita maqol inson hayoti haqiqatlarini sub'ektiv baholashga asoslangan: Three things breed jealousy, a mighty state, a rich treasury, and a fair wife (uchta narsa hasadni keltirib chiqaradi: yuqori lavozim, boylik va chiroyli xotin; Three things drive a man out of his house – smoke, rain and a scolding wife (Erkakni uydan uchta narsa haydab chiqarishi mumkin: tutun/olov, yomg'ir/ko'z yoshlar va g'azablangan xotin). Inson uchun muhim bo'lgan ikkita narsa sanab o'tilgan maqollarda bo'lgani kabi (yuqoriga qarang), bu bayonotlar juda adolatli ko'rinadi, chunki ular xalq donoligini ifodalaydi. Quyidagi maqollar biroz g'alati taassurot qoldiradi, bunda ayollar g'oz va qurbaqalar bilan bir qatorga qo'yiladi: Three women and a goose make a market (uchta ayol va g'oz allaqachon bozor); Three women, three geese, and three frogs make a market (uchta ayol, uchta g'oz va uchta qurbaqa bozorda bo'lgani kabi shovqin qiladi). «Uchta ayol - bozor, to'rttasi – yarmarka» maqolni o'zbekcha ekvivalenti deb hisoblash mumkin. Ham ingliz, ham o'zbek maqollarida ayolga baland ovozda va suhbatdosh mavjudot sifatida kinoyali munosabat aniq ko'rsatilgan.[7; 60]

Yetti raqam: Ko'pincha omad yoki mukammallik bilan bog'liq. Ingliz tili: “lucky seven” omadli yetti soni ekanligini bildiradi. O'zbekcha: “Yetti qavat yer ostida” to'liqlik va puxtalik g'oyasini aks ettiruvchi katta chuqurlik yoki ahamiyatli narsani nazarda tutadi.[10; 49–53]

2. Madaniy o'zgarishlar:

To'rt raqam: Ikki madaniyatda turli ma'nolarni bildiradi. Ingliz tili: «Four corners

of the Earth» global to'liqlik yoki inklyuzivlikni anglatadi. O'zbekcha: "To'rt tarafni olmoq" puxtalik yoki keng qamrovlilikni bildiradi, lekin ingliz tilidagi kabi madaniy vaznga ega emas.

3. Metaforik foydalanish:

Miqdordan sifatga:

Ingliz tili: "A stitch in time saves nine" to'qqiz raqamidan o'z vaqtida aralashuv keyinchalik jiddiyroq muammolarni oldini olishini anglatadi. [5; 170–172]

O'zbekcha: "Bir cho'qindan oshmoq" majoziy ma'noda muhim qiyinchilikni yengib o'tishni ifodalaydi, bunda asosiy e'tibor to'siqlardan oshib o'tishga qaratilgan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, uch va yetti kabi ba'zi raqamli belgilar ingliz va o'zbek maqollarida o'xshash ma'noga ega bo'lsa, to'rt va bir kabi boshqa raqamlar madaniy jihatdan o'ziga xos ma'nolarni namoyon qiladi. Masalan, uchta raqam har ikkala madaniyatda ham to'liqlik va barqarorlikni anglatadi va bu raqamning ramziy qiymatini umumiy tushunishni taklif qiladi. Aksincha, to'rt soni ingliz tilida umumiy ijobiy bo'lsa-da, o'zbek maqollarida ko'proq neytral ma'noga ega. [8; 55]

Raqamlarni o'z ichiga olgan maqollar har ikki madaniyatdagi muloqot uslublarida muhim rol o'ynaydi. Ular madaniy stenografiya bo'lib, odamlarga murakkab g'oyalarni qisqacha etkazish imkonini beradi. Kundalik suhbatda ushbu maqollardan foydalanish munosabatlar, mas'uliyat va inson tajribasiga oid chuqur madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Ingliz maqollari ham, o'zbek maqollari ham tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qiladi, axloq saboqlari va madaniyat me'yorlarini o'rgatadi. Ular ko'pincha adabiyot va folklorda qo'llaniladi, bu raqamlar avlodlar o'rtasidagi donolikni qanday qamrab olishini ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida ular til, axloq va madaniy merosni o'rgatishning samarali vositalaridir.

Xulosa

Nazariy terminologiya maxsus lug'atning rivojlanishi va ishlatilish qonuniyatlarini o'rganadi, amaliy terminologiya esa bir qator amaliy muammolarni hal qiladi. Zamonaviy terminologiya doirasida S.V.Grinev-Grinevich, V.A.Tatarinov, V.M.Leychik, E.A.Shteyngard va boshqa olimlar bir qator tadqiqotlar olib borganlar, jumladan umumiy va xususiy terminologiya. Bundan tashqari tarixiy, semasiologik, onomasiologik, qiyosiy, tipologik kabi mustaqil sohalarni tavsiflaganlar [5].

Terminologiya sohasining ko'plab tendensiyalari zamonaviy lingvistik tadqiqotlar doirasidagi maxsus lug'atlarni o'rganish muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Tilshunos olim V.M.Leychik terminologiya atalmish fanni tabiatini ilmiy va amaliy fan sifatida aniqlashni muhim masalalardan biri deb biladi. Terminologiyada ko'plab savollar muhokama qilinishi mumkin, binobarin "terminologiya lingvistik intizommi" degan savol ko'ndalang qo'yilgan. Ta'kidlanishicha, aksariyat olimlar bunday savollarga ijobiy baho berishadi. Ushbu muammoga muvofiq V.M.Leychik terminologik faoliyat metodologiyasini o'rgandi va uning bir tilga xos emasligini, barcha tillarda uchrashi mumkin ekanligini aniqlaydi. Terminologiya tadqiqotlari birinchi navbatda tilshunoslik metodlaridan faol foydalanadi, bu tabiiy, chunki atamalar birinchi navbatda so'z va iboralardir. Shuningdek, terminologiya uchun falsafa, epistemologiya, mantiq, bilish, tasniflash nazariyasi, semiotika kabi boshqa asosiy fanlarning usullari, bundan tashqari informatika, kodlash nazariyasi va boshqalar kabi tegishli fanlarning usullari mavjud. Olimlarning ta'kidlashicha hozirgi vaqtda terminologiya o'z usullarini muqobil variantlarini faol ravishda yaratmoqda, bu terminologiya rivojlangan yoki o'z asosida shakllangan fanlarning usullarini ishlab chiqishdir [7]. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki V.M.Leychik terminologiya uchun "terminologiya bir necha fanlarning birlashmasida shakllangan va tilshunoslikdan o'sib chiqqan va boshqa asosiy turdosh fanlarning yutuqlarini o'zida mujassam etgan murakkab ilmiy va amaliy fan" degan xulosaga kelgan [8].

Ilmiy intizomning asosiy vazifalarini tahlil qilar ekan, B. N. Golovin terminologiyani»bir necha muhim sohalar jumladan nazariy va amaliy tilshunoslik, axborot izlash, mantiq, psixologiya, fan va texnikaning o'ziga xos sohalari chorrahasida joylashgan murakkab ilmiy intizom» deya ta'rifladi[2].

Yana bir tilshunos olim K.Y. Averbux "terminning umumiy nazariyasi" nomli monografiyasida terminologiyaning kompleks xususiyatini ta'kidlaydi va «terminologiyaning bevosita atamalarini to'rtta ilmiy fanga ajratadi: Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: tilshunoslik, mantiq, tizimlarning umumiy nazariyasi (tizimshunoslik) va semiotika» [9]

Bunga qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak yana bir tilshunos olim E.I.Golovanova terminologiyaning yana bir xususiyati fanlararo xususiyati ham mavjud ekanligini

ta'kidlaydi va u shunday xulosaga keldi "terminologiya bu-tilshunoslik, fanshunoslik, axborot nazariyasi, mantiq, falsafa va bilim va faoliyatning barcha maxsus sohalari chorrahasida joylashgan zamonaviy ilmiy bilimlarning maxsus, jadal rivojlanayotgan sohasi. Bundan kelib chiqadiki terminologiya fanlararo fanni ifodalaydi.

Jahon tilshunosligidagi terminologiyaga yuzlanar ekanmiz bu sohada rus olimlarining qarashlari ilg'or ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xususan V.M.Leychik zamonaviy terminologiya muammolarini hal qilingan munozarali va hal qilinmagan muammolarga ajratadi. Leychikning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki quyidagi muammolar munozarali deb topilgan:

1) Atamalarining uzunligini aniqlash muammosi- bunda olim terminlar qisqa bo'lishi kerak degan noto'g'ri tavsifiya bilan chiqdi;

2) "terminologik maydon" tushunchasini qo'llash muammosi- ushbu qarashlarni qo'llashning ta'rifi va qonuniyligi to'g'risida turli xil qarashlar mavjud;

3) Terminologiyaning maxsus lug'ati terminologik lug'atning turli toifalarda turli darajalarga xos bo'lgan atamaning semantik xususiyati sifatida aniqlash muammosi;

4) Maxsus maqsadlar uchun tillar orasidagi terminlarning aniqlash muammosi, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, terminologik lug'atlarni sinflarga bo'lib o'rganish muammosi;

5) Nazarda tutayotgan terminlarning ekspressivligi hamda emotsionalligi, chunki ba'zi olimlar yuqoridagi tushunchalarni to'g'ri ekanligini ma'lum turdagi atamalarda tan oladi, boshqalarida esa inkor etadi;

6) Terminlarga qo'yiladigan talablar, hamda kamchiliklari muammosi [1]

V.M.Leychik quyidagi muammolarni hal qilinmagan deb hisoblaydi:

1. Terminlarning semantik va rasmiy tuzilishida motivatsion (yolg'on yo'naltirilgan) terminlarni baholash va birlashtirish uchun maqbul variantni tanlash va zarur bo'lgan maxsus konsepsiyaning muhim yoki yagona o'ziga xos xususiyatini aks ettirishning zarurligi va maqsadga muvofiqligi xususiyati;

2. "definitive terminlar" bu aniq atamalar bo'lib atama haqida aniq va qisqacha tushuncha beriladi, bu terminlar ma'lum bir sohaga oid ekanligi talab qilinadi, shuning bilan bir qatorda ular "universal" ham bo'lishi kerak, bunday terminlar ma'lum sohaga tegishli bo'lganligi sababli aniq yondashish talab qiladi;


kiberxavfsizlik, globallashtirish, atom kabilar shular jumlasiga kiradi;

3. nutq va til atamalarining mavjudligi hamda bu terminlar o'rtasidagi muammolarni o'rganish;

4. eponim terminlarining ishlatilishi va keng tarqalishini o'rganish muammosi, eponimlar- ko'proq tibbiyot sohasi uchun xos bo'lib, biror joy yoki kasallik nomini shaxs nomi bilan bog'lab shu nom bilan ta'riflash;

5. terminologiyaning fanga oid muammolari xususan lingvistik, mantiqiy va boshqa o'ziga xos muammolar; [1]

Terminologiya juda keng qamrovli soha bo'lib o'z yo'nalishi doirasida turli sohalarga ajraladi. Nafaqat tilshunoslik sohasida shuningdek har bir kasbning o'z terminlari mavjud. Termin lotincha so'zdan kelib chiqqan bo'lib "terminus" chek, chegara degan ma'noni anglatadi. Terminlar tor doirada ishlatiladi, ya'ni ma'lum bir sohaga oid. Atama esa umumiy tildagi so'zlarga o'xshash bo'lishi mumkin. Ammo olimlar tomonidan termin va atama o'rtasidagi bog'liqlik hanuzgacha o'rganib kelinmoqda



XULOSA. Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki bahslashayotgan soha ya'ni terminologiya sohasi bugungi kundagi dolzarb va muammoli soha sifatida o'rganilmoqda. Ko'plab maqolalar, dissertatsiyalar shu soha muammolarini o'rganish va tahlil qilish bilan shug'ullanmoqda. Bundan tashqari terminologik lug'atlar yaratilmoqda. O'z sohasining tor doirada ya'ni umumiy tildan farqli ravishda lug'at tuzilmasi bo'lishi har bir soha vakillari uchun judayam foydali. Hozirgi zamon tilshunosligida termin chek, chegara ma'nosini anglatga, atama keng tushuncha sanaladi. Ularni ko'pchilik olimlar bir xil ma'noli so'zning ikki xil ekvivalenti deb hisoblashadi, lekin termin atama tushunchasini ichiga kiruvchi ilmiy lug'aviy birlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. V.M.Leychik- Terminovedeniye 2000, 29-b
2. Golovin,Kobrin 1987, 7-b
3. Mesto Terminologii 1949, 9-b
4. V.M.Leychik- Terminovedeniye 2000, 20-b
5. Grinev-Grinevich 2008, 9-b
6. Golovin,Kobrin 1987, 5-b
7. V.M.Leychik-Terminovedeniye 2009,19-b
8. V.M.Leychik 2000.26-b
9. Averbux 2006,8-b

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODI RAHIM VOHIDOV TALQINIDA

Saidova Nodira Mustakimovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning boburshunoslik sohasida amalga oshirgan tadqiqot ishlari, ilmiy faoliyati haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga olimning "Bobur Mirzoning masnu' she'rlari" nomli maqolasi ustida fikr yiritiladi. Bobur ijodiy merosining qirralariga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Sharh, mumtoz matn, lirika, mas'nu', boburshunoslik, izohlash, tushunish, tadqiqot, talqin

THE CREATIVE LEGACY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IN THE INTERPRETATION OF RAHIM VOHIDOV

Saidova Nodira Mustakimovna
Teacher at Bukhara State University

Annotation. The article provides information about the research and academic activities of literary scholar Rahim Vohidov in the field of Babur studies. Additionally, the scholar's article titled «The Artificial Poems of Babur Mirzo» is discussed. Special attention is given to the facets of Babur's creative legacy.

Keywords: Commentary, classical text, lyrics, artificial, Babur studies, interpretation, understanding, research, analysis.

ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ РАХИМА ВАХИДОВА

Саидова Нодира Мустакимовна
преподаватель Бухарского государственного университета

Аннотация. В статье представлена информация о научно-исследовательской и академической деятельности литературоведа Рахима Вахидова в области бабуроведения. Также рассматривается статья ученого под названием «Искусственные стихи Бабура Мирзо». Особое внимание уделено различным аспектам творческого наследия Бабура.

Ключевые слова: комментарий, классический текст, лирика, искусственный, бабуроведение, интерпретация, понимание, исследование, анализ.

Jahon madaniyati hazinasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Jahon tarixida shoh va shoir, buyuk sarkarda Boburning hayoti, faoliyati va merosini o'rganish o'z davridayoq boshlangan edi. Bunday mas'uliyatli va sharafli ishni shoirning o'zi "Boburnoma"da boshlab bergan edi. Shundan so'ng Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish kuzatiladi.

XX asrning 20-80 yillari orasida mamlakatimiz ham Bobur hayoti, faoliyati va merosini o'rganish sohasida ma'lum ishlar amalga oshirildi. Tan olish kerak, olimlarimizning keksa avlodi boburshunoslik sohasida qator salmoqli ishlarni bajardi va ayrimlari tomonidan

bugun ham muayyan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, zahmatkash olimlarimiz X.Sulaymonov, P.Shamsiev, S.Azimjanova, A.Abdug‘afurov, A.Qayumov, S.Hasanov, Z.Mashrabov, H.Qudratullaev, A.A‘zamov, V.Rahmonov, X.Sultonov, H.Boltaboev, N.Otajonov, E.Ochilov, O.Jo‘raboev kabi ko‘plab adabiyotshunoslar Bobur Mirzo hayoti va ijodini o‘rganish, qo‘lyozma nusxalarini qidirib topish va ularni ilmiy iste‘fodaga kiritish yuzasidan qator tadqiqot ishlarini amalga oshirgani, mazkur ishlar keyingi bu boradagi ilmiy izlanishlarga ham asos bo‘lib xizmat qilayotganini mamnuniyat bilan ta’kidlash joiz. Mana shular qatorida Bobur adabiy merosi o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan Rahim Vohidov nomini ham alohida sanash mumkin.

Respublikamiz Mustaqillikka erishgach Bobur va uning boy merosiga milliy istiqloq g‘oyasi asosida munosabat bildirilmoqda, oldin nashr ettirilmagan asarlari, jumladan “Mubayyin” to‘liq nashr ettirildi. Boburshunoslik sohasidagi ishlar yanada rivojlanib bordi. Bu jihatdan Xalqaro Bobur jamg‘armasining tuzilgani va uning serqirra faoliyati alohida e‘tiborga molikdir. Bundan tashqari, ulug‘ shoirning islom va tasavvuf adabiyoti, uning yirik vakillariga munosabatiga ham tadqiq qilina boshlandi.

Bobur - buyuk mumtoz shoir, Alisher Navoiydangina keyin turadigan yirik so‘z san‘atkori. Buning boisi Zahriddin Muhammad Bobur shoirning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, uning bu adabiyotning turli janrlarga qo‘shgan yangiliklari hissasi, mahoratining mislsiz sehrgarlikkacha yuksakligi, she‘riyatining o‘ta jozibadorligidir.

Boburshunoslik Rahim Vohidov ilmiy faoliyatining bir qirrasini hisoblanadi. Olimning Bobur faoliyatiga oid tadqiqotlari ulug‘ shoirning shaxsiyati, lirik merosi hamda “Boburnoma” ga tegishli. Bobur lirik tadqiqotiga bag‘ishlangan “Bobur Mirzoning masnu‘ she‘rlari”, “Bobur Mirzo she‘riyatida badiiy san‘atlar”, “Bobur Mirzo va naqshbandiylar”, nasriga oid “Boburnomada” Shayx Sa‘diy nafasi”, “Ijodiy izlanishning shirin mevasi” kabi maqolari hamda uning dovyurak sarkarda, shijoatli davlat arbobi va nozik ta‘b shoir sifatidagi betakror siymosiga oid kuzatishlari jamlangan “Biz bilgan va bilmagan Bobur” shu sohaning rivoji uchun xizmat qildi.

Zahriddin Muhammad Bobur mumtoz lirik janrlarning g‘azal, ruboiy, tuyuq, qit‘a, fard, masnaviy janrlarida mahorat bilan qalam tebratdi. Ayniqsa, g‘azal va ruboiy janrlarda yuksak mahorat ko‘rsatdi. Shoirning lirik merosi mavzu jihatdan rang-barang. Boburshunos olim Saidbek Hasanovning ta’kidicha: “Garchand Bobur lirikasi hajman kichik bo‘lsa-da, shaklan yetuk va badiiy jihatdan barkamoldir. Uning xos belgisi shuki, har bir bayt biron tarixiy haqiqat bilan uyg‘undir, Bobur uni nihoyatda ravon va jonli tasvirlaydi. Lirikasining asosiy mavzusi muhabbat ekanligi shubhasiz. Hijron alamidan shikoyat, batamom ojiz qilib qo‘yuvchi sof muhabbat, visol orzusi va vafodorlikni shior qilgan”. Ta’kidlangan mavzular an’anaviy bo‘lsa-da, har bir ijodkor o‘zi tanlagan mavzuni ohorli misralar va tashbehtar vositasida aks ettirishi uning novatorligi sanalgan. Biz Zahriddin Muhammad Bobur ijodida an’anaviy mavzularning va badiiy tasviriy vositalarning qo‘llanishida ana shunday novatorlikni ko‘rishimiz mumkin. Sharq mumtoz adabiyotida an’anaviylik ustuvor. Bu badiiy tasvirda ham, obrazlar olamida ham, mazmun va mundarijada ham kuzatiladi. Ammo zohiran qaraganda, bir xillik, o‘xshashlik bo‘lib tuyuladigan bu holat zamirida ham har bir ijodkorning individual, o‘ziga xos poetik ifoda usullari shakllanib borgan. Zotan, mashhur allomalarimiz ijodkorning mahorati va o‘ziga xosligi asarda nimani ifodalashiga qarab emas, balki voqelikni qanday tasvirlashiga qarab belgilanishini ta’kidlashadi”. Adabiyotshunos olim Rahim Vohidov ham ayni masalaga e‘tibor qaratadi. Olimning “Bobur Mirzoning

masnu' she'rlari" nomli yirikkina maqolasi fikrimizni tasdiklaydi. Maqola sarlavhasida qo'llangan "masnu'" so'zi e'tiborni tortadi. Olim o'quvchini shoir olamiga olib kirish uchun dastlab mazkur so'zga izoh berdi. Musulmon dunyosi adabiyotida, jumladan, turkiy, forsiy, arab tilida bunyod qilingan badiiy so'z san'atida masnu' g'azal, qasida, ruboiy, qit'alar yaratish mutlaqo yangi hodisa emas. Bobur Mirzoga qadar ham shunday she'rlar ijod qilinganligini ta'kidlagan olim shunday yozadi: "Turkiy she'riyat mulkingning arsloni (Bobur so'zining o'zagi babr — yo'lbars) maqomida faoliyat ko'rsatgan bu notakror Shaxs va iste'dod sohibi o'zining o'ttiz olti yillik umrini jangu jadallar, iztirob-u kurashlarda o'tkazgan bo'lishiga qaramay, adabiyot mulkidagi bir qator noyob hodisalarga munosabat bildirish uchun vaqt ham topa oldi. Masnu' she'rlar yozishga ruju ana o'shalardan biridir. Ko'pligi "masnuot" va birligi "masnu'" shaklida keladigan bu arabiy so'zning lug'atlardagi izohi "yaratilgan, bezakli qilib ishlangan"dir. Badiiy asarni (xoh nazm va xoh nasrda bo'lsin) san'atsiz - tasviriy vositalarsiz tasavvur qilish dushvor. Masnu' she'rlarni esa san'at ichra san'atga yo'g'rilgan satrlar tarzida tushunish va qabul qilish to'g'ri bo'ladi."

Ta'kidlash kerakki, badiiy asarga qo'yilgan sarlavha uning mohiyati va g'oyasining ro'yobga chiqishida katta rol o'ynaydi. Xuddi shunday fikrni biz Rahim Vohidovning ilmiy talqinlarida ham kuzatishimiz mumkin. E'tibor bersak, olimning ilmiy talqinlarida sarlavhaga alohida e'tibor berishi hamda tanlangan sarlavhaning izohini keltirilishi ko'zga tashlanadi. Badiiy asar uchun tanlangan sarlavha qanchalik muhim bo'lsa, ilmiy talqinlarda ham tanlangan sarlavha shunchalik muhim sanaladi. Chunki tanlangan sarlavha kishida qiziqish uyg'otadi hamda tadqiqotda qo'yilgan muammoni oydinlashtirishga xizmat qilgan. Qo'yilgan muammo mohiyati sarlavhada oydinlashadi. Shuning uchun olim tanlangan sarlavhalarni muammoning "ochqichi" sifatida baholash mumkin. Bu jihat olim uslubining bir qirrasini sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada Bobur she'riyatida masnu' g'azal va ruboiylar bisyorligi ta'kidlagan olim, shoirning mashhur:

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,

Nega holim yomon qildi, men andin bir so'rorim bor, - baytini tahlil qiladi. Olim mazkur bayt tahlili va talqiniga o'quvchini tayyorlab boradi. Bobur lirik merosining xos xusiyatlari va shoir she'rxonasi bilan tanishtirib boradi. "Bayt tahlilidan avval bir haqiqatni dadil aytmoq lozim: Bobur Mirzo badiiy so'z san'atining jamiyat oldidagi vazifasini g'oyat to'g'ri anglagan va ana o'sha yuksak tamoyillarga mos ravishda unga munosabatda bo'ladi. Ya'ni badiiy adabiyotning vazifasi o'quvchiga faqat fikr aytish emas, balki o'sha so'z javohirini o'ziga yarashli, husnini ochishga xizmat qiluvchi badiiy libosda yetkaza olish shoirlikdir. Zabardast so'z san'atkori nuqtai nazaridan masala tahlil qilinadigan bo'lsa, shaklu mazmun muvozanati rost kelgan nuqtada mo'jiza sodir bo'ladi, chinakam badiiy asar dunyoga ko'z ochadi va shoirlik darajasi ana o'shandagina ayonlashadi. Yuqoridagi baytning o'zi Bobur Mirzoning ilohiy iste'dodidan darak beradi. To'g'ri, misralardagi ma'no mutlaqo yangi emas. Bunday lavhalar boshqa shoirlarning bisotida ham ko'zga tashlanadi". Albatta, tahlil va talqinda bunday yo'l tutilishi bayt muallifining badiiy mahorati to'g'risida tasavvur uyg'otishi bilan birga, badiiy va ilmiy talqinning mohiyatini, muallif va talqinchi dunyoqarashi to'g'risidagi tasavvurlarning boyishiga ko'mak beradi.

Yaxshi o'zlashtirilgan matnning tahlil va talqini asosiy matnga soya solmaydi. Talqinchi tanlangan har bir so'z matnning kitobxon ilg'ashi qiyin bo'lgan qirralarigacha olib kiradi. Olimning bayt sharhiga oid fikrlarida ham shunday xususiyat ko'rinadi.

“Mahbubaning nafis lablari - qon rangida, tiniq. Bunday ko‘rk unga ayricha tarovat tuhfa qilgan. Ma’shuqadagi ayni mo‘jiza oshiqning shaydologini oshirishdan tashqari, uning yurak-bag‘rini tilka-pora qilib qo‘yadi. Qon (rang) labdan oshiq ko‘ksiga ko‘chadi, uni iztiroblar girdobiga g‘arq qiladi, she‘r qahramonining ko‘zlaridan yosh o‘rnida qon marjonlari oqa boshlaydi. Birgina misrada shuncha mazmunni pinhon qilishga muyassar bo‘lgan shoir qilcha bo‘lsa-da, hayot haqiqatidan, o‘xshatish va o‘xshatilmish o‘rtasidagi aloqadorlikdan yirokdashgani yo‘q”. Baytga oid tavavvur va talqinlar juda sodda. Olimning ilmiy talqinlari shoirning badiiy talqinlari bilan bellasha oladi. Ilmiy talqin badiiy matndek taassurot uyg‘otadi. Bu esa olim uslubining o‘ziga xos xususiyati sanaladi. “Ikkinchi misrada birinchi qatordagi o‘xshatish, mubolag‘a kabi san‘atlar yoniga tajohuli orifona ham qo‘shiladi. Hamma narsani o‘z jismida sinovdan o‘tkazayotgan oshiq o‘zini bilib-bilmaslik holatiga (nega holim yomon qildi!) soladi va o‘zicha so‘roq qo‘yib, unga javob (men andin bir so‘rorim bor!) beradi. Bobur Mirzoning so‘z imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati ham diqqatga sazovordir. Birinchi misrada ”qon” so‘zi uch ma’noda keladi: qon – rang (labga nisbatan); qon – inson tomirlarida oqadigan suyuqlik; qon – bag‘ridagi jarohat va ko‘zdan oqadigan yosh tomchilaridir. Shunday gapni “so‘rorim”ga nisbatan ham aytish mumkin: So‘rorim men undan (ma’shuqadan) albatta, so‘rayman; so‘rorim – ma’shuqa labini so‘rmoq (bunisi alamdiyda oshiqning amal choponini kiymagan shirin orzusi). ”Qon” va ”so‘rorim” so‘zlari ayni paytda iyhom san‘atini (so‘zning ko‘p ma’nodlilik xususiyatidan kelib chiqib, uni “o‘ynatish”, ma’no jilolarini ochish) hosil qilgan.” Adabiyotshunos olim sharhida ilmiy talqin ustundek ko‘rinsa-da, so‘z tanlashi, matnga izohlarning kiritishi (bunisi alamdiyda oshiqning amal choponini kiymagan shirin orzusi) badiiy matnga erkin munosabatda bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, badiiy matn tahlili va talqinida olim tomonidan obrazli tasvirlarning kiritilishi talqinchining tasavvur olamining kengligini ko‘rsatishi bilan birga, san‘atni san‘at bilan tushuntirish yoki talqin qilinishini mohirona iste’dod sifatida baholash mumkin. Tahlil jarayonida badiiy matn mavzusi soddalashtiriladi, bu esa tushunishni osonlashtiradi. Talqin orqali esa matnga qo‘shimcha ravishda falsafiy mushohadalar, ilmiy xulosalar yuklanadi.

Xulosa qilib aytganda, boburshunoslik o‘zbek adabiyotshunosligining yirik sohasi bo‘lib, Rahim Vohidov tadqiqotlarini bu sohaning rivojlanishi uchun qo‘shilgan muhim hissa sifatida baholash mumkin. Olimning Bobur ijodiga oid tahlil va talqinlari germenevtik usul vositasida yuzaga kelgan. Mazkur sharhlar tushunishning uch qirrasini qamrab oladi: asar muallifi, talqinchi va sharhni o‘quvchi. Talqin qilish tamoyillari haqidagi ta’limot hisoblangan germenevtika Bobur ijodining konkret tushuntirish, izohlash va sharhlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳмонов В. Мумтоз соҳир шеърят. Китобда: Ғарибинг Андижонийдур. - Т.: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2008, 42-б.
2. Ҳасанов С. Бобур шеърятдан. –Т.: 1982. 13-б.
3. Воҳидов Р. Йиллардан қолган маънавий ёдгорлик... - Т.: “Зарқалам”. 2006. 126-б.
4. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Т., “Zarqalam”, 2005. -122 б.
5. Ражабова М. Алишер Навоий Назм ул-жавоҳир асарининг манбалари ва бадиияти. Филология фанлари ном. дисс. – Самарқанд, 2006. 75-б.

APPEARANCE OF PUNCTUATION MARKS IN A LETTER

*Turayeva Dilbar Meyliyevna,
Karshi State University Associate Professor (PhD)*

Abstrakt. The etymology of the term «punctuation» is associated with the name of the most ancient delimiting sign - the period. Although the development and study of the modern punctuation system does not go back much further, the use of the first signs for delimitation and stopping in written texts dates back to the early periods of the history of writing. This requires clarification of the issues of punctuation marks and their historical development, the history of traditional and modern approaches to the study of punctuation marks.

Key words: linguistics, punctuation, emergence, tradition.

ВНЕШНИЙ ВИД ЗНАКОВ ПРЕПИНАНИЯ В ПИСЬМЕ

*Тураева Дилбар Мейлиевна,
Доцент Каршинского государственного университета (PhD)*

Аннотация. Этимология термина пунктуация связана с названием древнейшего символа разделения – точки. Хотя развитие и изучение современной системы знаков препинания не уходят далеко в прошлое, использование первых знаков препинания в письменных текстах для разделения и остановки можно проследить еще в ранней истории письменности. соответствует периодам. Это требует выяснения вопросов пунктуации и их исторического развития, истории традиционных и современных подходов к изучению пунктуации.

Ключевые слова: лингвистика, пунктуация, возникновение, традиция.

TINISH BELGILARINING YOZUVDA PAYDO BO'LISHI

*Turayeva Dilbar Meyliyevna,
Qarshi davlat universiteti dotsenti(PhD)*

Annotatsiya. Puntuatsiya terminining etimologiyasi eng qadimiy ajratish belgisi – nuqta nomi bilan bog'liq. Garchi zamonaviy tinish belgilari sistemasining paydo bo'lishi va o'rganilishi uzoqqa borib taqalmasa-da, yozma matnlarda ajratish, to'xtash vazifasidagi ilk belgilarning qo'llanishi yozuv tarixining dastlabki davrlariga to'g'ri keladi. Bu esa tinish belgilari va ularning tarixiy taraqqiyoti, tinish belgilari tadqiqiga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar tarixi, puntuatsiya termini definitsiyasi (ta'rifi, talqini) masalalariga oydinlik kiritishni taqozo qiladi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, tinish belgilari, paydo bo'lish, an'ana.

Kirish. Tilshunoslikning bugungi zamonaviy lingvistik paradigmalari asosida lisoniy shaxsning til imkoniyatlaridan yozma va og'zaki nutqiy faoliyatida amaliy foydalanish kompetensiyalarini o'stirish, tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ijtimoiy mavqei, ruhiy-fiziologik holati, jinsi, yoshi va boshqa jihatlari bilan bog'liq holda o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

So'nggi yillarda boshqa til hodisalari kabi yozma nutqning tarkibiy qismi

hisoblangan tinish belgilarini ham inson ruhiyati bilan bog‘liq turli tushunchalarning eksteriorizatsiyasi (tafakkur mahsulining nutqiy voqelikka ko‘chirish, yuzaga chiqish shakli) sifatida talqin qilish – punktuatsiyaga umumiy va xususiy, me‘yoriy va tartibga solinmagan (нерегламентированный пунктуация, nonredundant punctuation), “tabiiy” va “kodlangan” punktuatsiya nuqtai nazarlaridan yondashish; matn punktuatsiyasi – ilmiy, badiiy, rasmiy, ommabop matnlar punktuatsiyasi, muallif punktuatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar punktuatsiyasi, shuningdek, muayyan til materiallari misolida o‘rganganda e‘tibordan chetda qoladigan qirralarini kashf etish maqsadida uni bir necha tillar misolida qiyosiy o‘rganishga e‘tibor kuchaymoqda. Endilikda tinish belgilari nafaqat punktuatsiya, grammatika va ortologiyaning, balki lingvopoetika, lingvodidaktika, adabiyotshunoslik, uslubshunoslik, kompyuter lingvistikasi, matn lingvistikasi, korpus lingvistikasi, matematika, psixologiya, psixolingvistika, pedagogika, poetik sintaksis, nutq madaniyati, semiotika va boshqa shu kabi fanlarning ham obyektiga aylandi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida ayni paytda tinish belgilariga nafaqat gap tarkibida so‘zlarning sintaktik maqomini aniqlash, gapdan ko‘zlangan kommunikativ maqsadni anglash, balki supersintaktik birlik – matn qismlarini ajratish, matnni sahifaga joylashtirish usullari va yo‘llarini aniqlash vazifasi ham yuklanayotgan maxsus semiotik tizim sifatida talqin etilmoqda. Bu zamonaviy tilshunoslikda punktuatsiyaga ikki xil – tor va keng yondashuvni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Puntuatsiyaning an‘anaviy konsepsiyalariga tinish belgilarini tor ma‘noda tushunish, yozuvda miloddan avvalgi davrlardayoq mavjud bo‘lgan klassik an‘analari (yozma matnni so‘zlar, gaplar, mantiqiy qismlarga ajratish uchun xizmat qilgan vositalar – oraliq joy (interval, probel) va turli shakldagi ta‘kid, to‘xtash belgilari) hamda kommunikativ – pragmatik, kognitiv, estetik, stilistik, emotsional-ekspressiv, badiiy funksiyalar bilan uyg‘unlashgan zamonaviy konsepsiyalari, shuningdek, matn kontinuumi (uzluksiz, butunlik)ni boblar va ularning uzluksiz ketma-ketlikda joylashgan bo‘laklari – paragraph, abzatslarga ajratish, sahifada matnni joylashtirish, taqsimlash, gap tarkibidagi muayyan so‘z yoki birikmaga ta‘kid berish, mikro va makromatn tarkibini aniqlash maqsadida kursiv, probel, ajratilgan harflar (qora, yarim qora, ostiga chizilgan harflar), turli paleografik, tipografik belgilardan foydalanish va boshqalarga nisbatan punktuatsiyani keng ma‘noda tushunish sifatida qarash an‘anasi paydo bo‘ldi. (Bu haqida keyingi bandlarda batafsil to‘xtalamiz)

Bir so‘z bilan aytganda, tinish belgilarini qo‘llashning klassik an‘analari “tiriltirildi”, tilshunoslikda punktuatsion sinonimiya, punktuatsion polisemiya, punktuatsion omografizm, punktuatsion minimum, punktuatsion arxaizm, punktuatsion kalka, o‘rindosh (alternativ) belgilar, fakultativ belgilar, variativ belgilar, punktuatsion transformatsiya, punktuatsion uzus kabi yangi-yangi tushunchalar paydo bo‘ldi. Bu esa o‘zbek tilshunosligi oldiga ham punktuatsiya hodisasiga zamonaviy lingvistik paradigmalar ko‘zgusida qarash, nafaqat sistem-struktur, balki kommunikativ-pragmatik jihatdan yondashish, jahonning taraqqiy etgan tillari va yozuvlari punktuatsion tizimini o‘rganish asosida o‘zbek tilida tinish belgilarini qo‘llash bo‘yicha amaldagi qonuniyatlarni isloh qilish, zamonaviy punktuatsion konsepsiyalar, ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish vazifasini

qo'yimoqda.

Tinish belgilari nima, nutqda kommunikativ maqsadni o'quvchiga to'la yetkazish uchun til fonetik tizimining yozma shakli – alifbodagi harflar yetarli emasmi? Tinish belgilari qachondan qo'llana boshlagan, bunga qanday zarurat bo'lgan? Dissertatsiyaning asosiy maqsadiga o'tishdan avval ushbu savollarga oydinlik kiritib olamiz.

PUNKTUATSIYA (lot. punctum – nuqta, kichkina dog') har qanday tilning grafika va orfografiya kabi yozma shakliga xos bo'lgan muhim qismi – tinish belgilari tizimi hamda ularni qo'llash qoidalarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limidir. Uning asosiy vazifasi yozma (bosma) matnni qismlarga ajratish, grafik jihatdan shakllantirishdir[1].

Ilmiy adabiyotlarda punktuatsiyaga nisbatan interpunksiya termini ham ishlatiladi. Xususan, S.K.Bulich interpunksiya terminini qo'llaydi. F.A.Brokgauz va I.A.Yefronlarning 1890-1907-yillarda nashr etilgan ensiklopedik lug'atida ham interpunksiyaga punktuatsiyaning sinonimi deb qaraladi va quyidagicha izoh beriladi:

INTERPUNKSIYA (lot. interpunctio) – yozma nutqda tinish belgilaridan foydalanish va ularning qo'llanilishi haqidagi nazariya. Mavjud ilmiy asoslarga ko'ra interpunksiya nutqning sintaktik tarkibini aniqlashtiradi, mustaqil gaplar va gap bo'laklarini ajratib ko'rsatadi hamda og'zaki nutqda ularni to'g'ri ifodalashga yordam beradi[2].

Punktuatziya terminining etimologiyasi eng qadimiy ajratish belgisi – nuqta nomi bilan bog'liq. Garchi zamonaviy tinish belgilari sistemasining paydo bo'lishi va o'rganilishi uzoqqa borib taqalmasa-da, yozma matnlarda ajratish, to'xtash vazifasidagi ilk belgilarning qo'llanilishi yozuv tarixining dastlabki davrlariga to'g'ri keladi. Bu esa tinish belgilari va ularning tarixiy taraqqiyoti, tinish belgilari tadqiqiga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar tarixi, punktuatsiya termini definitsiyasi (ta'rifi, talqini) masalalariga oydinlik kiritishni taqozo qiladi.

Aksariyat lingvistik terminlar kabi punktuatsiya ham ko'p ma'noli bo'lib, tilshunoslikda quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

- 1) alifbodan tashqari bo'lgan muayyan tildagi grafik belgilar tizimi;
- 2) yozma matnni punktuatsion jihatdan rasmiylashtirilishini tartibga soluvchi, har bir til uchun tarixan shakllangan me'yorlar, qoidalar;
- 3) ushbu me'yor va qoidalarni o'rganadigan tilshunoslik bo'limining nomi.

Ma'lumki, yozuv insoniyat tafakkuri taraqqiyotining eng oliy mahsuli hisoblanib, tildan farqli ravishda insonning bevosita aralashuvi, ongli munosabati bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Undagi me'yorlashish jarayonlari turli tillarda turlicha kechgan va tartibsiz rivojlangan. Xuddi yozuv kabi tinish belgilari ham ijtimoiy hodisa bo'lib, davrlar o'tishi, yozuvlar taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqlikda o'zgarib, takomillashib, bugungi punktuatsion tizim hozirgi holiga kelguniga qadar uzoq va tabiiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan.

- Tadqiqot metodologiyasi. Tinish belgilari, albatta, yozuv bilan birga paydo bo'lmagan. Eng qadimgi yozuvlar piktografik(rasmsimon) yoki logografik (alohida shakllar, belgilar) ko'rinishida bo'lganligi sababli tinish belgilariga ehtiyoj bo'lmagan, tinish belgilari ayrim xalqlar yozuvida oldinroq, ayrimlarida nisbatan keyinroq paydo bo'lgan. Ya'ni yozuv paydo bo'lgandan so'ng ham

insoniyat muayyan davr tinish belgilaridan foydalanmagan. Tilshunoslikka ma'lum ilk yozuv – miloddan avvalgi to'rtinchi ming yilliklarda shumerliklar tomonidan ixtiro qilingan piktografik (rasmli) yozuvdan ideografik, iyeroglifik (misr, xitoy, yapon iyeroglifikasi), logografik (so'z yozuvi), devanagari (hindlarning bo'g'in yozuvi), dunyodagi yozuvlarning beshdan to'rt qismi kelib chiqqan deb taxmin qilinadigan Finikiya (hozirgi Suriya)liklarning tovushlarni alohida-alohida idrok qilishga asoslangan fonografik – harf-tovush yozuvi (finikiy)ga qadar bir necha ming yillar o'tib ketgan. Ya'ni "insonning nutqni so'zlarga, keyin bo'g'inlarga, undan keyin esa tovushlarga ajratib tasavvur qila olish jarayoni behad murakkab va uzoq yo'lni bosib o'tgan"[3]. Dastlab narsa, predmet, belgi, miqdor bilan bog'liq tushunchalar yozuvda sodda jummalarda qayd etilgan bo'lsa, insoniylik jamiyati taraqqiyoti bilan bog'liq holda yozma nutqni murakkab ko'rinishda ifodalashga bo'lgan zarurat ham ortib bordi. Yozuv og'zaki nutqqa xos talaffuz bilan bog'liq barcha jihatlar – ohang, to'xtam, emotsiyalarni aynan aks ettira olmaydi. Shu bois davrlar o'tishi bilan harf-tovush yozuvi ham kommunikativ maqsadni o'quvchiga to'la yetkazish uchun kamlik qila boshladi. Bu esa asta-sekinlik bilan yozuvda qo'shimcha belgilarning paydo bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik fikrni yaxlit matn tarzida qayd etish, matn tarkibidagi gaplarni chegaralash, qo'shma gaplardan foydalanishga o'tilishi yozma nutqning, shuning barobarida tinish belgilarining ham takomillashishiga zamin hozirladi.

Zamonaviy punktuatsion tizim shakllanganiga qadar ham insoniyat yozuvda nutq segmentlari bilan bog'liq qo'shimcha uslubiy ma'no-munosabatlarni turli vositalar orqali ifodalashga harakat qilgan va buning natijasida yozuvda har xil ko'rinishdagi qo'shimcha belgilar yuzaga kelgan. Shunga ko'ra tilshunoslikda tinish belgilari tarixida ikki muhim bosqich farqlanadi:

1. Oraliq masofa va nuqtasimon belgilar bilan ajratish davri (qadimgi punktuatsiya).

2. Ajratish-chegaralash belgilari davri (an'anaviy punktuatsiya).

Ilk bosqich, ya'ni yozma nutqda gap va uning qismlarini turli vositalar bilan ajratish bosqichi, asosan, qadimiy qo'lyozma asarlar matniga xos bo'lib, ularning paydo bo'lishi, shakllari, soni, keyingi bosqichga o'tish davri turli yozuvlarda turlicha bo'lgan.

Punktuatziyaga doir ishlarda tinish belgilari, punktuatsion belgilar, ajratish belgilari; punktuatsiya, interpunksiya kabi terminlar, odatda, sinonim sifatida ishlatiladi. Biroq ajratish belgilari tor ma'noda, odatda, hozirgi Yevropa yozuvi asosida shakllangan punktuatsion tizimni emas, punktuatsiya tarixining ilk bosqichlariga xos bo'lgan belgilarnigina nazarda tutadi.

Gap tarkibidagi so'zlarni guruhlash yoki bir-biridan ajratish, muayyan so'zning semantik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish maqsadida ta'kid berish bilan bog'liq to'xtamlar, ohangning pasayishi, ko'tarilishi va boshqalar talaffuzda ustsegment birliklar orqali ifodalansa, qadim zamonlardayoq ularni yozuvda ifodalash uchun turli belgilarga tabiiy ehtiyoj tug'ilgan. Ushbu ehtiyoj asta-sekinlik bilan yozuvda dastlab turli uzunlikdagi oraliq masofalar, keyinchalik nuqta va nuqta vazifasida ishlatilgan turli shakldagi ishoralar – nuqta, to'rtburchak, aylana, tik chiziqlar, yulduzcha, romb shaklidagi belgilarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

- Xulosa va takliflar. Aksariyat yozuvlar, xususan, qadimgi lotin, yunon, got, arab

yozuvlarida soʻzlarni boʻsh joy (interval, probel) bilan ajratish miloddan oldingi davrlarga borib taqaladi. Punktatsiya dunyoning turli tillarida garchi koʻplab umumiyliklarga ega boʻlsa-da, uning har ikki bosqichi va ularning ichki boʻlinishlari, taraqqiyotining asosiy bosqichlari Yevropa va Sharq xalqlari yozuvlarida bir muncha farqlangan. Jumladan, S.K.Bulich interpunksiya (interpunctio) termini kelib chiqishiga koʻra Qadimgi Rim madaniyatiga mansubligi, biroq qachon paydo boʻlgani aniq emasligi, shuningdek, Aristotelga ularning maʼlum boʻlgani yoki nomaʼlumligi haqida ham maʼlumot yoʻqligi, har qanday holatda ham uning ildizlari yunon grammatikachilariga borib taqalishi shubhasiz ekanini taʼkidlaydi[4]. S.K.Bulichning tahlillari Yevropa yozuvida punktatsiya taraqqiyoti ilk davrining quyidagi bosqichlarini ajratish imkonini beradi:

- 1) Aleksandriya davriga mansub qadimiy punktatsiya;
- 2) Vizantiyalik Aristofan tomonidan ixtiro qilingan punktatsiya;
- 3) VIII asr oxirlarida Varnefrid va Alkuinlar tomonidan takomillashtirilgan punktatsiya.

Tinish belgilari taraqqiyotining ikkinchi bosqichi haliga qadar toʻla tan olinmagan arab yozuvida esa ajratish bosqichining toʻrtta davri farqlanadi:

- 1) yozuvda diakritik nuqtalar va oraliq masofa (interval)lar boʻlmagan davr;
- 2) gap tarkibida soʻzlar oraliq masofa (probel) bilan ajratilgan davr;
- 3) bir xil grafik shaklga ega undoshlarni farqlash va qisqa unilarni ifodalash uchun harflar ustiga nuqta ishlatilgan davr;
- 4) garchi faqat Qurʼon matnida qoʻllangan boʻlsa-da, toʻxtash belgilari joriy qilingan davr[5].

Haqiqatan ham tinish belgilari tarixida oraliqlar (boʻsh intervallar)ni qoʻllash bilan bogʻliq oʻziga xosliklar mavjud boʻlgan, yaʼni intervallar funksional jihatdan abzats (satr boshidan yozish), katta, kichik kabi koʻrinishlarda boʻlishi bilan farqlangan. Xususan, S.I.Abakumov qadimiy qoʻlyozmalarning koʻpchiligida tinish belgilari mutlaqo qoʻllanilmagani, ayrimlarida faqat bitta katta nuqta ishlatilgani, koʻp hollarda nuqtalar oʻrnida “sheʼr” sistemasi qoʻllangani, yaʼni har bir nutq boʻlagi satr boshidan bosh harf bilan yozilgani, nisbatan mustaqil mantiqiy boʻlaklar orasida kattaroq joy qoldirib, ular ham bosh harf bilan yozilgani, ayrim soʻzlar orasida shunchaki kichikroq ochiq joy qoldirilganini taʼkidlagan edi[6]. Shu nuqtayi nazardan tinish belgilarining ilk bosqichiga xos ikki jihatni eʼtiborga olish lozim:

- 1) oraliq masofa bilan ajratish;
- 2) nuqtasimon belgilar vositasida ajratish.

Oraliq masofa bilan birga ushbu davrga xos qoʻlyozmalarda boshqa belgilar, yaʼni vergul, vergullar toʻdasi (kombinatsiyasi), krest, uch nuqta kabi belgilar ham ishlatilishi kuzatiladi. “Har holda, X asrda, yaʼni taxminan slavyan yozuvi yaratilgan vaqtlarda, tinish belgilari keng qoʻllana boshlangan edi. Maʼlum fikrning tugallanishini ifodalash belgisi sifatida nuqta, nuqtali vergul (.), nuqtalar toʻdasi (kombinatsiyasi: ∴, ∵, × kabi), krest (+) ishlatilgan. Gap ichida qoʻllanadigan va fikrning davom etayotganini bildiradigan kichikroq vazifadagi tinish belgilar vergul (.), vergullar toʻdasi, nuqtali vergul (.), vergul ustida ikki nuqta (·,·) va hatto nuqta (.) orqali ifodalangan. Savol alomati vergul ustiga nuqta qoʻyish orqali ifodalangan.

Oʻrta Osiyo xalqlari, jumladan, oʻzbek xalqi ham boy tarixiy yozuv madaniyatiga

ega bo‘lib, qadim davrlardan to hozirga qadar miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida finikiy (som) yozuvi asosida paydo bo‘lgan oromiy yozuvi hamda uning negizida shakllangan so‘g‘d, pahlaviy, urxun-enasoy (runik), uyg‘ur, arab, kirill, lotin yozuvlaridan va, o‘z navbatida, ushbu yozuv tizimlariga xos ajratish belgilaridan ham foydalanib kelgan[7].

Oromiy yozuvda so‘zlar dastlab tik chiziqlar yoki nuqta, keyinchalik bo‘sh joy (probel) bilan ajratib yozilgan. Ushbu yozuv namunasi – O‘rta Osiyo va Eron xalqlarining mushtarak yodgorligi bo‘lgan “Avesto”ning XIV asrda ko‘chirilgan nusxasida turlicha joylashgan ikki nuqtali ajratish belgilari uchraydi. O‘zbek punktuatsiyasi tarixi bo‘yicha izlanishlar olib borgan H.G‘oziyev ushbu qo‘lyozmada qo‘llangan ajratish belgilarining V-VI asrlarga oid bitikdoshlarda ham uchrashi, ularni “Avesto”ning eramizdan oldingi birinchi ming yillik yarmida yaratilgan nusxasida ham qo‘llangan bo‘lgan, deb xulosa qilishga asos bo‘lishini ta’kidlaydi: “Bizningcha, bu belgilar dastlabki nusxadan keyingi nusxalarga ko‘chirilgan ishoralaridir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пунктуация. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/punktuatsiya-uz/>; Современная энциклопедия. 2000. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc1p/39606>
2. Булич С. Интерпункция. Энциклопедический словарь / Издатели Ф.А.Брокгауз и И.А. Ефрона. 3-е изд., Т. XIII. –М., 1894. - С. 268. https://dic.academic.ru/dic.nsf/brokgauz_efron/
3. Maxmudov N. Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at-ma’lumotnoma. –Toshkent, 1990. – B.68
4. Булич С. Интерпункция. Энциклопедический словарь / Издатели Ф.А.Брокгауз и И.А. Ефрона. 3-е изд., Т. XIII. –М., 1894. - С. 268. https://dic.academic.ru/dic.nsf/brokgauz_efron/
5. Zaki. A. at-Tarqīm wa-‘alāmātu-hū fī ’l-luġa al-‘arabiyy. Beirut: Dar bashair islamiyya, 1987. – P. 8–10
6. Абакумов С.И. Об основах методики пунктуации. – Москва. “Известия Академии педагогических наук Российской СФСР”. 1947, № 10, – С. 5. <https://www.ozon.ru/product/>
7. G‘oziev H. O‘zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. Monografiya. – Toshkent: Fan.1979, – B.7.

O'ZBEKCHA SO'ZLARNI INGLIZ TILIGA TO'G'RI TRANSLITERATSIIYA QILISHNING MUHIM JIHLTLARI

Zuhurova Shafoat Zuhur qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbekcha so'zlarni ingliz tiliga transliteratsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan muhim jihatlarni tahlil qiladi. Unda transliteratsiyaning asosiy tamoyillari, O'zbek tilining fonetik va grafik xususiyatlari bilan ingliz tilining yozuv tizimi o'rtasidagi farqlar ko'rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, xalqaro transliteratsiya standartlari, jumladan, BGN/PCGN va ISO 9 kabi tizimlarni tahlil qiladi va ularning amaliy qo'llanilishiga misollar keltiradi. O'zbekcha nomlar, toponimlar va madaniy atamalarni ingliz tilida to'g'ri yozishning ahamiyati, shu bilan birga, noto'g'ri transliteratsiyaning oqibatlarini muhokama qilinadi. Mazkur tadqiqot tarjimonlar, tilshunolar va xalqaro aloqalar sohasida ishlaydigan mutaxassislar uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: transliteratsiya, tarjima, ma'no, tilshunoslik, ingliz tili, lug'aviy ma'no, unikal tovushlar, xalqaro muloqot.

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ПРАВИЛЬНОЙ ТРАНСЛИТЕРАЦИИ УЗБЕКСКИХ СЛОВ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Зухурова Шафоат Зухур кизи

*Студентка Ташкентского государственного университета узбекского языка
и литературы имени Алишера Навои.*

Аннотация: В данной статье анализируются важные аспекты, возникающие в процессе транслитерации узбекских слов на английский язык. В ней рассматриваются основные принципы транслитерации, фонетические и графические особенности узбекского языка и различия письменности английского языка. Также в статье анализируются международные стандарты транслитерации, в том числе такие системы, как BGN/PCGN и ISO 9, и приводятся примеры их практического применения. Обсуждается важность правильного написания узбекских имен, топонимов и культурных терминов на английском языке, а также последствия неправильной транслитерации. Данное исследование будет полезно переводчикам, лингвистам и специалистам, работающим в сфере международных отношений.

Ключевые слова: транслитерация, перевод, значение, лингвистика, английский язык, словарное значение, уникальные звуки, международное общение.

IMPORTANT ASPECTS OF CORRECT transliteration OF UZBEKISTAN WORDS INTO ENGLISH

Zuhurova Shafoat Zuhur kizi

Student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Abstrakt: This article analyzes important aspects that arise in the process of transliterating Uzbek words into English. It considers the basic principles of transliteration, the differences between the phonetic and graphic features of the Uzbek language and the English writing system. The article also analyzes international transliteration standards, including systems such as BGN/PCGN and ISO 9, and provides examples of their practical application. The importance of correctly writing Uzbek names, toponyms, and cultural terms in English, as well as the consequences of incorrect transliteration, is discussed. This study will be useful for translators, linguists, and specialists working in the field of international relations.

Keywords: transliteration, translation, meaning, linguistics, English, lexical meaning, unique sounds, international communication.

Kirish. Til insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat muloqot vositasi, balki milliy o‘zlikni namoyon qiluvchi omildir. O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili bo‘lib, mamlakatning boy madaniyati, tarixi va milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Bugungi globallashuv sharoitida o‘zbek tilini xalqaro darajada tanitish masalasi dolzarb bo‘lib, bunda so‘zlarni to‘g‘ri transliteratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Transliteratsiya — bu so‘zlarni bir yozuv tizimidan boshqasiga moslashtirish jarayoni bo‘lib, uning yordamida til o‘zining o‘ziga xosligini saqlagan holda boshqa tillarda ifodalanadi.

O‘zbekcha so‘zlarni ingliz tiliga transliteratsiya qilish, avvalo, xalqaro muloqot va madaniy almashinuvni rivojlantirish uchun zarur. Masalan, o‘zbek tilidagi shahar nomlari, tarixiy joylar yoki milliy taomlarning ingliz tilida noto‘g‘ri transliteratsiya qilinishi ularning noto‘g‘ri tushunilishiga, ba‘zan esa umuman ma’nosiz ko‘rinishiga olib keladi. Shu sababli, har bir so‘zning talaffuzi, yozuvi va ma’nosini to‘g‘ri etkazish uchun standartlashtirilgan transliteratsiya tizimlaridan foydalanish talab etiladi.

Transliteratsiya nafaqat lug‘aviy ma’noni etkazish bilan cheklanmaydi, balki madaniy va tarixiy o‘ziga xoslikni saqlashga ham xizmat qiladi. O‘zbekiston xalqaro turizm, iqtisodiyot va madaniy aloqalar sohasida faol rivojlanayotgan davlat sifatida o‘z milliy brendini targ‘ib qilishda to‘g‘ri transliteratsiyaning o‘rni katta. Ushbu maqolada o‘zbekcha so‘zlarni ingliz tiliga transliteratsiya qilish jarayonida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan tamoyillar, xalqaro standartlar, va amaliy qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, noto‘g‘ri transliteratsiyaning salbiy oqibatlari ham muhokama qilinib, aniq misollar orqali masalaning mohiyati ochib beriladi.

Mazkur tadqiqot o‘zbek tilining xalqaro miqyosda to‘g‘ri ifodalanishiga hissa qo‘shish bilan birga, tarjimonlar, tilshunoslar va boshqa mutaxassislar uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O‘zbekcha so‘zlarni ingliz tiliga transliteratsiya qilish masalasida mavjud adabiyotlar bir nechta yo‘nalishlarga e’tibor qaratgan. Ushbu adabiyotlar o‘z ichiga

xalqaro standartlar, tilshunoslik nazariyalari, va amaliy tavsiyalarni oladi. Quyida ushbu adabiyotlarning muhim jihatlari va tahlili keltirilgan:

1. Xalqaro standartlar va tizimlar

- ISO 9 va BGN/PCGN tizimlari transliteratsiyaning xalqaro talablarini belgilaydi. Ushbu tizimlar orqali kirill yoki lotin alifbosidagi o'zbekcha so'zlarning inglizcha shakllarini aniqlash mumkin. Masalan, "O'zbekiston" so'zi ISO 9 tizimida O'zbekiston, BGN/PCGN tizimida esa O'zbekiston sifatida yoziladi.

- Xalqaro standartlarning asosiy yutug'i shundaki, ular global darajada o'quvchilar uchun yagona va tushunarli shaklni taqdim etadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda bu tizimlar o'zbek tilining milliy o'ziga xosligini yetarli darajada aks ettirmasligi mumkin.

Mahalliy tilshunoslik tadqiqotlari

- Ahmadaliyevning O'zbek tilining xalqaro aloqalardagi o'rni va transliteratsiyaning ahamiyati maqolasida milliy madaniyatni targ'ib qilish uchun to'g'ri transliteratsiyaning o'rni ta'kidlangan. Mahalliy mualliflar, odatda, milliy xususiyatlarni saqlashni ustuvor vazifa sifatida ko'radilar.

- Davlatovning tadqiqotlarida o'zbek tilidagi unikal tovushlarni (O', G', Sh) transliteratsiya qilishdagi muammolar va ular uchun taklif etilgan echimlar batafsil yoritilgan.

Nazariy tadqiqotlar: Tilshunos olimlar, jumladan, Sjoberg va Matras, transliteratsiya jarayonini tilshunoslikning muhim sohasi sifatida ko'rsatadilar. Ularning tadqiqotlarida transliteratsiyaning til aloqalari va madaniy uzviylikka ta'siri tahlil qilinadi. Ushbu nazariy tadqiqotlar transliteratsiya faqat texnik jarayon bo'lib qolmasdan, balki til va madaniyatni bog'lovchi vosita ekanligini isbotlaydi.

Turli qo'llanmalar va onlayn platformalar transliteratsiya qilish jarayonini avtomatlashtirishga yordam beradi. Misol uchun, Google Translate va Transliteration Online Tools kabi tizimlar matnlarni tez va oson transliteratsiya qilish imkonini beradi. Biroq, bu vositalarning ko'p hollarda kontekstni hisobga olmasligi muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqotda o'zbekcha so'zlarni ingliz tiliga transliteratsiya qilish jarayonini o'rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Adabiyotlarni tahlil qilish: Ilmiy maqolalar, kitoblar, xalqaro standartlar va rasmiy hujjatlar o'rganildi. Xususan, ISO 9 va BGN/PCGN tizimlari asosidagi qo'llanmalar tahlil qilindi. Amaliy misollar: O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan shahar nomlari, geografik obyektlar va madaniy atamalar asos qilib olindi (masalan, Toshkent → Tashkent, Samarqand → Samarkand).

Taqqoslash usuli: O'zbek so'zlarini transliteratsiya qilishning xalqaro standartlari (ISO 9, BGN/PCGN) va mahalliy usullar (milliy transliteratsiya tizimlari) o'rtasida farqlar tahlil qilindi. Bu usul noto'g'ri yoki ziddiyatli transliteratsiya shakllarini aniqlashga yordam berdi.

Fonetik tahlil: Har bir o'zbekcha tovushning ingliz tilida ekvivalentini aniqlash uchun fonetik tahlil o'tkazildi. Masalan, O' → O', G' → G' yoki Gh.

Onlayn transliteratsiya vositalarini sinovdan o'tkazish: Google Translate va boshqa avtomatik transliteratsiya tizimlari orqali o'zbekcha matnlar transliteratsiya qilindi va ularning aniqligi baholandi. Savolnoma va so'rovlar: Ingliz tilida so'zlashuvchi xorijlik foydalanuvchilar orasida o'zbekcha so'zlarni transliteratsiya qilishning qulayligi va tushunarligi bo'yicha so'rov o'tkazildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar va o'tkazilgan tahlillarga asoslanib, o'zbekcha so'zlarni ingliz

tiliga to‘g‘ri transliteratsiya qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tavsiyalar xalqaro standartlar va milliy o‘ziga xoslikni uyg‘unlashtirishga qaratildi.

Har tomonlama tahlil: Jarayonni lingvistik, texnik va madaniy jihatdan ko‘rib chiqishga imkon berdi. Amaliy asos: Tavsiyalar nazariy yondashuvga emas, balki real misollar va tajribalarga asoslandi. Global va milliy standartlarning uyg‘unligi: Xalqaro darajada foydalanish mumkin bo‘lgan tizimlarni milliy xususiyatlarga moslashtirishga e‘tibor qaratildi.

Mazkur metodologiya transliteratsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash va ularning samarali echimlarini ishlab chiqishga yordam berdi.

Muhokama.

Transliteratsiya tamoyillari

Transliteratsiya jarayonida so‘zlar bir yozuv tizimidan boshqa yozuv tizimiga ko‘chiriladi, lekin bunda har bir harf yoki tovushning o‘ziga xosliklarini saqlash muhimdir. Quyida o‘zbekcha so‘zlarni ingliz tiliga transliteratsiya qilishda asosiy tamoyillar batafsil yoritilgan:

Asosiy qism. Xalq milliy o'yinlari shug'ullanuvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Chunki o'yinlar shug'ullanuvchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularga zavq bag'ishlaydi, ish qobiliyatlarining tezroq tiklanishini ta'minlaydi.

Sportchilarning morfologik xususiyatlari ularning istiqbollarini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Ular o'sha jismoniy sifatning namoyon bo'lish imkoniyatlarining asosi, poydevori bo'lib, ularning yuksak darajada rivojlanishi sport mahorati cho'qqilariga erishish uchun zarurdir. Shuning uchun kelajakda sport natijalarining o'sishini ma'lum darajada cheklashga qodir bo'lgan ko'rsatkichlar sifatida morfologik xususiyatlarni o'rganish tadqiqotchilarning eng muhim vazifalaridan biridir (I.V.Markova, 1998).

E.F.Lixa-Nevskaya (1996) sportchilar uchun tana uzunligining o'rtacha, tipik va ekstremal qiymatlarini (170,8; 165-175 va 160-185 sm), tana vaznini (68,1; 63-73 va 57,5-81,0 kg), hayotiy quvvatni (4623, 4000-5000 va 3300-5600 sm), turish kuchni (168,8 sm); 130-190; 120-220 kg) va qo'l kuchlari (56,4; 48-58, 45-72 kg). F.A.Zavileyskiy (1968) ot sportchilarning uchta asosiy umumiy tana o'lchamlari (tana uzunligi 172,2 + 4,8 sm; tana vazni 69,4 + 4,2 kg va ko'krak qafasi perimetri 94,3 + 3,6 sm) o'xshash qiymatlarini topdi. B.A.Vyatkin (1978) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yuqori asabiy faoliyatning xususiyatlari sport faoliyatiga ta'sir qilish samaradorligini belgilaydi, shuning uchun o'rganish, mashq qilish va musobaqaga tayyorgarlik ko'rish jarayonida sport bilan shug'ullanadiganlarga individual yondashuv asosi bo'lishi kerak. asab tizimining ayrim xususiyatlarining ustunligi haqidagi pozitsiyaga asoslanishi kerak.

O'yinlar tufayli shug'ullanuvchilar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar. Xalq milliy o'yinlarining barchasi shug'ullanuvchilarning organizmlariga yaxlit ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiy jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi sifatida qarash lozim. Bironta o'yin yo'qki, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantiruvchi vosita bo'lib hisoblanmasin. Ko'pkari-uloq bilan shug'ullanuvchilar uchun asosan epchillik, chidamlilik va tezkorlik jismoniy sifatleri muhim. Epchillikni rivojlantirish uchun chavandoz mashg'ulotlarda turli xil kutilmagan vaziyatlarga boy

bo'lgan o'yinlardan foydalanishi kerak.

Voroshin I.N fikriga ko'ra jismoniy tayyorgarlik sportchining umumiy jismoniy va maxsus jismoniy qobiliyatlarini muvofiqlashtirish uchun kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlikning turli shakllarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Chidamlilikni rivojlantirishning asosiy vositasi mashg'ulot masofalarida kritik tezlikka yaqin, teng va bir oz ko'proq sur'atda harakatlanishdir. Ta'siri bo'yicha bunaqa ish organizmda kislorodning maksimal iste'mol qilinishiga sabab bo'ladi va uzoq vaqt davomida uni yuqori darajada saqlab turish imkonini beradi. Ishlayotgan mushaklarni energiya bilan ta'minlash jarayoni – aralash, aerob-anaerob. Mazkur bo'lakda chidamlilikni rivojlantirish uchun o'zgaruvchan, takroriy va oraliq usullar qo'llaniladi. O'zgaruvchan usulda harakat tezligi o'rtachadan bellashuv tezligigacha bo'lishi mumkin. O'zgaruvchan mashg'ulot «fartleka» turi bo'yicha o'tkaziladi – uzunligi bo'yicha turli masofalar turli tezliklarda bosib o'tiladi, yoki bir xil kesmalarni navbat bilan yuqori va past tezlikda bosib o'tiladi.

Chidamlilikning rivojlanganligi darajasini ikki guruh ko'rsatkichlar asosida baholash mumkin:

1. Tashqi ko'rsatkichlar-charchash vaqtida inson harakat faoliyatining natijaviyligini ifodalaydi.

2. Ichki ko'rsatkichlar ma'lum faoliyat bajarilishini tasdiqlovchi organizm qismlari va tizimi faoliyatida yuz berayotgan ma'lum o'zgarishlarni aks ettiradi.

Ot sportida chavandozning o'rta balandlik va kelishgan tana tuzilishiga ega bo'lishi ideal hisoblanadi, ammo bu muvaffaqiyat uchun zarur emas. Chavandozga yaxshi jismoniy tayyorgarlik kerak, lekin unga maxsus kuch kerak emas. Bu hech qanday o'ziga xos mushak kuchini talab qilmaydi, lekin chavandozga harakatlarni yaxshi muvofiqlashtirish (koordinasiya) uchun zarur hisoblanadi. Shuning uchun ritm va harakatni yaxshi his qiladigan chavandozlar birmuncha ustunliklarga egadir. Chavandozlikning yanada murakkab darajasi mahorat bo'lib, bu tanani boshqarish va diqqatni jamlashni talab qiladi.

Ot minishda nazariy bilimlarsiz muvaffaqiyat qozonish mumkin emas.

Shubhasiz, har bir jiddiy va mas'uliyatli chavandoz uchun otlarning tabiati va xulq-atvori, ularni parvarishlash va g'amxo'rlik qilish qoidalari hamda otni minishga o'rgatish tamoyillari to'g'risidagi bilimlar juda zarur hisoblanadi.

Agar asosiy qoidalarga rioya qilinsa, otda yurish sog'liq uchun juda foydali bo'lishi hamda insonning o'zligini anglashi va hayotining sifat darajasini oshirishi mumkinligini tushunish mumkin.

Xavfsizlik nuqtai nazaridan, chavandozning to'g'ri kiyinishi va ekipirovkasi juda muhim bo'lib, himoya dubulg'asi chavandoz uchun majburiydir. Otning jabduqlari va egarlari yaxshi holatda bo'lishi kerak. Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun ular muntazam ravishda tekshirilishi zarur.

Shuni esda tutish lozimki, mashg'ulotlar va musobaqa davomida belgilangan qoidalarga befarqlik, beparvo xatti-harakat va xavfni yuzaki baholash mas'uliyatsizlik hisoblanib, xavfli natijalarga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Otlarni minishga o'rgatish va shug'ullantirish uchun chavandoz ma'lum jismoniy sifatlarga ega bo'lishi talab etiladi. U mashg'ulot jarayonida ushbu sifatlarni rivojlantiradi va yangi qirralarni ochadi. Shu sabab ot minish, ayniqsa, bolalar va yoshi kattalarning o'z imkoniyatini ochishida juda foydali hisoblanadi.

— Hayvonlarni sevishdan va boshqa mavjudotning hissiyotlarini his qila olishdan

tashqari, kishi sabr-toqatli, adolatli va intizomli bo'lishi kerak. Chavandoz to'rt oyoqli sherigi uchun javobgardir. U har doim yangi bilimlarni o'rganishi va har doim xatolarni otdan emas, o'zidan qidirishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengli o'g'li, T. A. (2023). ULOQ-KO'PKARI ETNOSPORT TURI SIFATIDA. Лучшие интеллектуальные исследования, 6 (2), 84-89.
2. Ёлдашов Ш.С. Средства и методы общей и специальной физической подготовки спортсменов конников // Fan – sportga №7. Chirchiq, 2021. - В. 24-28.
3. Yoldashov Sh. Chavandozlarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik nisbatlari // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/11/1] ISSN 2181-7324. Toshkent, 2024. – В. 272-274.
4. Yoldashov Sh.S. Ot sportida boshqaruv vositalari yordamida asosiy mashqlarni bajarish metodlari // “Jismoniy tarbiya, sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollari” Respublika ilmiy–amaliy anjumani to'plami. Chirchiq, 2022. – В. 304-307.
5. Ёлдашов Ш.С. Бошланғич тайёргарлик босқичида ёш чавандоз-спортчиларнинг жисмоний тайёргарлигини оширишдаги асосий мезонлар // “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Chirchiq, 2023. – В. 300-302.3. F.A.Керимов Спортда илмий тадқиқотлар. Т.: Илмий техника ахбороти-пресс нашриёти, 2018. -348 Б.
6. Замятина, А. В. Скандинавская ходьба как физкультурно -оздоровительная технология. Магистерская диссертация. НИ ТГУ, Томск 2016. – 44 с.
7. Полетаева, А. Скандинавская ходьба. Здоровье легким шагом / А. Полетаева. – М.: Копиринг, 2012. – 60 с.
8. Sayfullayevna, M. L., & Usmonovna, P. S. (2023). Dunyo Va O'rta Osiya Xalqlarining Milliy Ot Sporti O'yinlari Turlari. Miasto Przeszłości, 33, 259-262.
9. Yoldashov Sh.S., Mamishev O.E., Jabbarov H.A., Yangi avlod chavandozlarini tayyorlashning huquqiy asoslari. “Jismoniy tarbiya, Sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatining nazariy-amaliy muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2022-yil 29-yanvar. 1353-1356 b.
10. Yoldashov Sh.S., Mamishev O.E., Kurnabov S.S., Jabbarov H.A., Toshmatov X.U., Esirkepov A.E., Development of equestrian sports in Uzbekistan trends and prospects. Central Asian research journal for interdisciplinary studies (carjis), ISSN: 2181-2454, Volume 2, ISSUE 11, 2022, 589-595 b.
11. Yoldashov Sh.S., Mamishev O.E., Jabbarov H.A., Milliy ot sporti – “Uloqko'pkari” o'yinining jamiyatda turgan o'rni va uning ijtimoiy ahamiyati. Central Asian research journal for interdisciplinary studies (carjis), ISSN: 2181-2454, Volume 1, ISSUE 3, 2021, 313-320 b.
12. Mamishev O.E., Yosh chavandozlarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Sportda ilmiy tadqiqotlar ilmiy-nazariy jurnal. 2023/1. 98-100 b.

MATNLARDA PAREMA TERMINLARINING ADEKVATLIK XOLATI

Sobirova Ra'noxon Hakimovna

Andijon davlat universiteti Fakultetlararo chet tillar (ijtimoiy va gumanitar fanlar) kafedراس dotsenti

Annatsiya: Paremalarning adekvatlik holati turli mamlakat olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Turkiy xalqlar og'zaki ijodida maqol va matallar asosiy o'rin egallaydi. Maqol va matallar og'zaki ijodning o'ziga xos yodgorligi, xalq donoligining majmui, ijtimoiy-tarixiy, hayotiy tajribalarining to'plamidir. Bu janr xalqning ko'p yillik tarixi silsilasida yaratilib kelinadi.

Kalit so'zlar: monoekvivalentlik, epos, lirika, drama, hikoya, povest' (yoki qissa), roman-epopeya, ocherk, esse, mif, afsona, rivoyat (adabiy ertak, latifa, maqol, matal, hikmat, aforizm).

СТАТУС АДЕКВАТНОСТИ ПАРЕМ В ТЕКСТАХ

Собирова Раъно Хакимовна,

доцент кафедры межфакультетских иностранных языков (социально-гуманитарных наук) Андижанского государственного университета

Аннотация: Адекватность парем исследована учеными разных стран. Пословицы и поговорки занимают главное место в устном творчестве тюркских народов. Пословицы и поговорки – это уникальный памятник устного творчества, свод народной мудрости, собрание общественно-исторического и жизненного опыта. Этот жанр сложился в многолетней истории народа.

Ключевые слова: одноэквивалентность, эпос, лирика, драма, повесть, повествование (или рассказ), роман-эпос, очерк, очерк, миф, легенда, повествование (литературная повесть, анекдот, пословица, мата, мудрость, афоризм).

ADEQUACY OF PAREMAS IN THE TEXTS

Sobirova Ranokhan Khakimovna,

Associate Professor of the Department of Interfaculty Foreign Languages (Social Sciences and Humanities) of Andijan State University

Annotation: The adequacy of paremas has been researched by scientists from different countries. Proverbs and proverbs occupy the main place in the oral creativity of Turkish peoples. Proverbs and proverbs are a unique monument of oral creativity, a set of folk wisdom, a collection of socio-historical and life experiences. This genre has been created in the long history of the nation.

Key words: mono-equivalence, epic, lyric, drama, story, narrative (or short story), novel-epic, essay, myth, legend, literary tale, anecdote, proverb, matal, wisdom, aphorism.

Paremiologlarning aniqlashicha, turli-tuman xalqlarning ko'pgina maqol va matallari semantik xususiyatiga ko'ra o'zaro, ularning ayrimlari mazmun jihatidagina

emas, tashqi tuzilishi, shakli bo'yicha ham mutanosib keladi. Adabiyotlarda "adekvat" so'zi "monoekvivalentlik" terminining sinonimi sifatida ko'rsatiladi. Adekvat – (lot. adequatus – tenglashtirmoq, o'xshatmoq) mutanosib, aniq, to'g'ri degan ma'noni anglatadi. Ekvivalent (lot. aequivalens – barobar qo'llanuvchi, teng qiymatli) biri o'rnida ikkinchisi qo'llanadigan tushuncha, narsa bo'lib, teng qiymatga ega bo'ladi, mohiyat e'tibori bilan biri o'rniga ikkinchisi qo'llanishi mumkin.

Xalqning tabiat, maishiy hayot, muayyan tarixiy fakt, voqelikni kuzatishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga munosabatini bildirishi asosida maydonga kelgan. Maqollarda ko'plab ajdodlarning ommaviy, umumiy donishmandligi yaxlit ifodalangan. Ajdodlar murakkab va og'ir turmushdan xulosaga kelib, o'z tajribasi sinovidan o'tgan mulohazalarini o'zining kelajak haqidagi orzulariga qo'shib, yuksak ma'naviy va insoniy fazilatlarini turfa mavzulardagi maqollarda ta'kidlab ko'rsatganlar. Maqol va matallar xalq ma'naviy madaniyatining uzviy qismi bo'lib, ularni hamma davrlarda ilmiy tadqiq etish dolzarflik kasb etadi.

Folklor asarlarini tur va janrlarga ajratishda lirik, epik va dramatik turlarga tasniflash tamoyiliga amal qilib kelinadi. Ayrim janrlarning shakli, mazmuni, tabiati va funktsiyasiga ko'ra alohida belgilari mavjudligi ham ta'kidlanadi. Xususan, maqol, matal, topishmoq, olqish, qarg'ish va yumuq iboralarga nisbatan maxsus tur nomi qo'llanadi.

Ma'lumki, adabiy turlarni uchtaga – epos, lirika, drama kabilarga ajratish Aristotel zamonidan buyon an'ana bo'lib kelgan. Ushbu tasnif adabiy jarayonda mavjud bo'lgan barcha janrlarni aniq va to'la qamrab ololmasligi sababli to'rtinchi adabiy tur yoki parema deb ataluvchi maxsus tur alohida ajratib ko'rsatiladi.

O'zbek folklorshunosligida maqol, matal, topishmoq, hikmatli so'zlar "kichik janrlar turi" deb ham yuritilgan. Rus folklorshunos olimi V.E.Gusev bu janrlarni epik tur tarkibida o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. "Adabiy turlar va janrlar" to'plamida ham maqol, matal kabi janrlar epik turga mansub deb ko'rsatiladi: "Epik sistemaning xil va janrlari eposni tashkil etadi. Bunga hikoya, povest (yoki qissa), roman-epopeya, ocherk, esse, mif, afsona, rivoyat (adabiy ertak, yig'i, latifa, maqol, matal, hikmat, aforizm) va boshqalar kiradi". Folklorshunos S.G.Lazutin esa maqollar butkul lirik turga taalluqli bo'la olmasa-da, folklorning lirik janrlari bilan umumiy-mushtarak xossalari mavjudligini qayd etadi. O'zbek folklorshunosligining yirik tadqiqotchisi B.Sarimsoqov "Janrlarning o'zaro munosabati uzoq tarixiy jarayon, bu jarayonning harakatlantiruvchi qonuniyatlari mavjud va ularning amal qilish tarzi maxsus tadqiq qilinishi lozim", – deb ta'kidlagan edi. O'zbek xalq maqollarini monografik jihatdan o'rgangan B.Soatov maqol va matallar hamda shu kabi paremik janrlarni alohida adabiy tur sifatida tadqiq etish zarur, deb hisoblaydi.

Maqol tahliliga oid aksariyat adabiyotlarda mazkur janr zamirida donolik zuhur etilishi, nasriy yoki nazmiy ko'rinishda bo'lishi kabi asosiy xususiyatlar ko'rsatiladi. B.Sarimsoqovning paremiyani alohida adabiy tur sifatida ajratishiga munosabat bildirgan D.Quronov: "Albatta, bu takliflarning hammasi ham muayyan asosga ega, biroq ularni qabul qilmaslikka sabablar ko'proq ko'rinadi", – deb yozadi. Lekin quyiroqda roman va satirani alohida tur deb bo'lmasligini dalillagan bo'lsa-da, paremik janrlar masalasiga to'xtalmagan. Adabiyotshunosning quyidagi fikrlari esa an'anaviy uch turdan farqlanib turadigan tur borligini tasdiqlaydi: "...adabiy jarayonda mavjud asarlarning barini har doim uchala turdan biriga mansub etib bo'lmasligi ham ayon haqiqatdir".

Bizning fikrimizcha, paremik janrlar mavjudligi bois, ular o'zaro shakli va mazmun

mutanosibligiga, uyg'unligiga ko'ra kattaroq turkumga – adabiy turga birlashishi ham haqiqatdan yiroq emas.

Qirg'iz folklorshunoslari qirg'iz xalq og'zaki ijodini jahon folkloristikasi tajribasiga tayangan holda lirik qo'shiqlar, epik asarlar va badiiy san'at kabi uch turga ajratadilar. Bunday yondashuv tarixiy, ijtimoiy, badiiy, xayotiy jihatdan maqsadga muvofiq deb ishonadilar.

Ko'rinib turibdiki, bu borada turli qarashlar, munosabatlar mavjud bo'lib, hali hamon munozaralidir.

Folklor asarlarini janriy mansubiyatiga ko'ra biri-biridan farqlash ahamiyatli ekanini ta'kidlash zarurdir. Chunki ularning tabiati, paydo bo'lish, rivojlanish, diffuzion o'zgarish va o'z o'rnini boshqa janrga bo'shatib berish jarayonini kuzatish asosida folklorga xos qonuniyatlarni o'rganish, umumlashtirish imkoniyati yuzaga keladi. "Folklor janrlarining o'zaro munosabati va ta'siri masalasi o'ta darajada keng qamrovli murakkab masala bo'lib, u folklordagi ijodiy jarayonning tarixiy-tadrijiy masalalarini nisbatan to'laroq va chuqurroq yoritishni talab qiladi. Folklor janrlari o'rtasidagi o'zaro munosabat dinamik jarayon hisoblanib, u xalq ijodiyotining voqelikni aks ettirishdagi evolyutsion, barqaror an'anaviylik bag'ridagi individual ijro mahorati asosida sodir bo'ladi". Badiiy asarlar, xususan, ayrim folklor asarlarini janrga, turga ajratishning murakkabligi insoniyat yaratgan dastlabki ijod namunalari sinkretik (qorishiq) holatda bo'lganligi bilan izohlanadi. Adabiy turlar va janrlar o'rtasidagi xususiy farqlar esa keyinchalik paydo bo'lgan. Bundan tashqari, insoniyat hayotining dastlabki bosqichida, avvalo, sodda shakldagi asarlar, keyinroq esa murakkab formalar yaratilganligi tabiiy. Chunki poetik tafakkurning quyi darajasida murakkab shaklli, katta hajmli asarlar yaratilmaganligi aniq.

O'zbek va qirg'iz xalqlari og'zaki poetik ijodi paremik janrlarga o'ta boydir. Har ikki halqda ham paremik janrlar sirasiga kiruvchi asarlar shakli va mazmun jihatdan mutanosibligini, uyg'unligini hisobga olish zarur.

Har ikki xalq folklorshunosligida ham uch adabiy turdan tashqari turga ajratish masalasi haqida turli qarashlar, munosabatlar mavjud bo'lib, hamon munozaralidir. Biz hozircha har ikki xil qarashlarda (aniqroq aytganda, maqol va matallarni paremik tur yoki epik tur sifatida o'rganishga doir fikrlarda) asoslar borligini bildiramiz. Bizning asosiy maqsadimiz o'zbek va qirg'iz xalq maqollarini qiyosiy-tipologik o'rganishdir.

Paremik janrlar tarkibiga shaklan ixcham va qisqa bo'lgan maqol, matal, topishmoq, hikmatlar hamda aforizmlar kiradi. Paremalarni o'rganuvchi soha esa "paremiologiya" deb ataladi. "Paremiologiya" atamasi yunoncha paroimia (hikmat) va logos (fan, ta'limot) so'zlari asosida yasalgan bo'lib, "hikmatni o'rganuvchi fan" ma'nosini anglatadi. Paremiologiya xalq donoligini o'rganuvchi fandır. Paremiya deb tilda barqaror bo'lgan, nutqda sintaktik jihatdan gap shaklida keluvchi, pand-nasihat, ta'limiy mazmuni yetkazish uchun qo'llanuvchi birikmalarga aytiladi. Paremiyalar odatda anonim ravishda yaratiladi, ya'ni matn muallifi ma'lum bo'lmaydi. Biroq, u yoki bu paremiyaning yaratilish davri yoki joyi yoxud muayyan ijtimoiy tabaqa vakili tomonidan yaratilganligi matn mazmunidan sezilib tursa-da, u xalq badiiy ijodining mahsuli hisoblanadi.

Maqol, matal, topishmoq hamda barchaga ma'lum va mashhur bo'lgan pand-nasihat ruhi bilan sug'orilgan aforizmlar, paremiyalar mansub. Paremiyalar nutqda so'zlar va frazeologik birliklar kabi barqaror hisoblanadi. Paremiyalar tipik holatlarda muhim badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shuningdek, til sistemasining barqaror unsuri sifatida

matn tuzilishida muhimdir. Paremik janrlar nutqiy vaziyatda funktsiyalashadi hamda boshqa og'zaki ijod janrlariga mos holda alohida janriy belgilarga ega bo'ladi.

M.M. Baxtin nutqiy janrlarning turlarini tahlil qilar ekan, ular haqida shunday fikr bildiradi: "Ushbu xilma-xillikni tasavvur qilish mushkul, chunki har bir inson faoliyatining imkoniyatlari cheksizdir, shuning uchun har bir soha faoliyatida differentsiallanayotgan hamda rivojlanish jarayonida o'sib murakkablashayotgan nutqiy jarayonlar repertuari mavjud bo'ladi".

She'riyatda paremiya kam holda qo'llanadi. Bu holat lirikaning muallif shaxsiyatini ifodalashga yo'naltirilgan bo'lishi, muallifning kechinmalari, ruhiyati aks etishi nainki butun xalqning ruhiyati va falsafasini emas, yakka shaxs olamini in'ikos ettirishga qaratilgani bilan izohlanadi. Maqol va matallarning asosiy sistem mutanosibliigi butun bir xalqning falsafasi, ruhiyatini o'zida aks ettirishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Sarimsoqov B. Maqollar // O'zbek folklori ocherklari. 3 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 82; O'sha muallif: Adabiy turlar haqida mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1993. 5-6-son. – B. 3-13; O'sha muallif: Yana o'sha to'rtinchi adabiy tur // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2002. 28 iyunь.
2. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – B. 7.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. – B. 80.
4. Safarov O. O'zbek folklorining janrlar sistemasi // K.Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 85.
5. Gusev V.E. Estetika folklori. – L-rad, 1967. – S. 162.
6. 5 Adabiy turlar va janrlar 3 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 7.
7. Lazutin S.G. Russkie narodnye liricheskie pesni, chastushki i poslovitsy. – M: Vysshaya shkola, 1990. – S.158.
8. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi. O'zbek folklorlarining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1980, – B. 98.
9. Soatov B. Paremiologik janrlarning o'zaro munosabatlari masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1998. – № 3. – B. 38.
10. Ko'rsatilgan asar. – B. 172.
11. Tanaev T. Кыргыз folklorundagi lirikalik janrlar. 1-kitep. – Osh, 1998. – B. 7.
12. Bu haqda qarang: Alimov S., Sobitova T. Xalq og'zaki ijodiyotidan o'quv qo'llanma. 1-qism. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2007.
13. Paremiya // www.wikipedia.org.
14. Baxtin M. Problema rechevix janrov / Estetika slovesnogo tvorchestva. – 2-e izd. – M.: Iskustvo, 1986. – S. 250

ROLE-PLAYING SIMULATION GAMES THAT ENHANCE THE COMPREHENSION OF CULTURAL TRAITS VIA VOCABULARY LEARNING

*H.U.Yusupova,
Bukhara State Pedagogical Institute*

*S.Karimova,
MA student at Asia International University*

Abstract. Role-playing simulation games (RPSGs) are dynamic teaching aids that make learning more engaging. This paper investigates how vocabulary learning through RPSGs can improve understanding of cultural characteristics. RPSGs encourage active engagement with new language and enhance cultural knowledge by immersing students in real-world, context-rich settings where they take on roles, make choices, and engage with culturally relevant scenarios. Contextual vocabulary exposes students to a variety of traditions, social mores, and communication methods while reinforcing language nuances. We examine the method's cognitive and social advantages and offer instances of effective RPSG applications in language and cultural education. According to our research, RPSGs help close the gap between language and culture learning, which makes vocabulary learning more remembered and significant and eventually promotes cultural competency.

Key words game, role-playing, vocabulary, promotion, education, vocabulary, comprehension

Introduction. In a world that is becoming more connected, grasping diverse cultures is crucial for personal and professional development. A valuable approach to fostering cultural competence is the application of role-playing simulation games (RPSGs), which engage participants in authentic situations that necessitate the use of language and awareness of cultural subtleties. By incorporating vocabulary learning into these scenarios, students are able to more effectively understand cultural intricacies while enhancing their language abilities. This article examines how RPSGs promote cultural education, the significance of vocabulary in these settings, and instances of effective implementations.

Methods.

Role-playing simulations are learning activities in which individuals perform roles in a simulated context or situation. These activities aim to mirror genuine cultural exchanges, enabling students to hone their communication and problem-solving skills in a safe environment. As per Kolb's experiential learning theory, learners acquire knowledge through firsthand experience and contemplation (Kolb, 1984). RPSGs offer this practical experience, rendering them essential resources for cultural education.

In a cultural setting, role-playing exercises enable students to:

1. Engage in realistic scenarios involving cultural practices, customs, and societal standards.
2. Practice culturally appropriate language and expressions.
3. Develop empathy by engaging with scenarios from various cultural viewpoints.

Results.

Vocabulary is more than just a part of language acquisition; it is crucial for grasping cultural ideas. Various cultures possess distinct terms and expressions that embody their principles, standards, and perspectives. In role-playing exercises, students come across vocabulary within contextualized scenarios, strengthening both linguistic and cultural comprehension.

Benefits of vocabulary-focused RPSGs include:

- **Contextual Learning:** Vocabulary is acquired in practical, contextual situations instead of in solitude.
- **Cultural Nuance:** Comprehending the appropriate contexts and timing for utilizing particular terms enhances cultural awareness.
- **Retention:** Simulations enhance memory by promoting active engagement, resulting in improved vocabulary retention (Schmitt, 2008).

Discussion.

To enhance cultural and linguistic education, successful RPSGs should encompass these components:

1. **Authentic Scenarios** Simulations ought to depict authentic cultural scenarios, including professional meetings, social events, or travel exchanges.
2. **Target Vocabulary:** Incorporate culturally significant phrases and terms that learners are required to utilize during the simulation.
3. **Role Preparation:** Offer students foundational knowledge regarding their positions and the cultural environment.
4. **Debriefing and Reflection:** Following the simulation, engage in a discussion about experiences and cultural perspectives to enhance understanding (Krashen, 1982).

Example: Cross-Cultural Business Negotiation Simulation

In this simulation, students act as businesses from various nations. Participants are required to employ culturally suitable greetings, negotiation strategies, and concluding remarks. This situation not only imparts business terminology but also emphasizes cultural communication approaches, such as high-context communication in East Asia versus low-context communication in Western societies (Hall, 1976).

Case Studies and Applications

1. **“Cultural Detective”.** A resource that employs role-playing and narrative techniques to impart cultural values and terminology in workplace environments (Bennett, 2017).
2. **“Second Life” Virtual Simulations.** Language learners engage in digital realms where they communicate utilizing vocabulary from the target language in culturally varied settings (Schroeder, 2011).
3. **Language Learning Apps:** Applications like Duolingo and Mondly have implemented role-play dialogues to imitate real-world exchanges during the instruction of cultural vocabulary (Vesselinov & Grego, 2012).

Conclusion

Role-playing simulation games offer an engaging and hands-on method for exploring cultural aspects via vocabulary learning. By immersing participants in real-life situations, these simulations promote the practical application of culturally significant language and enhance cultural insight. As globalization continues to influence contemporary society, such educational resources are essential for fostering intercultural awareness.

References

1. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Foundation of*

Learning and Growth. Prentice Hall.

2. Brown, H. D., & Palmer, J. C. (2014). *Educating through Fundamentals: An Engaging Method to Language Teaching*. Pearson.

3. Schmitt, N. (2008). Review Article: Directed Second Language Lexicon Acquisition. *Language Teaching Research*, 12(3), 329-363.

4. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Learning a Second Language*. Pergamon Press.

5. Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. Anchor Press.

6. Bennett, M. J. (2017). *Fundamental Ideas of Intercultural Communication: Frameworks, Guidelines, and Practices*. Intercultural Press.

7. Schroeder, R. (2011). Virtual Settings and the Examination of Occupational Practices. *Journal of Virtual Worlds Research*, 4(3).

8. Vesselinov, R., & Grego, J. (2012). *Duolingo Effectiveness Study*. City University of New York.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA VIRTUAL DISKURSNING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI

Jalilov Baxodir Xamzayevich

*Buxoro davlat pedagogika instituti ingliz tili fani o'qituvchisi
Buxoro davlat universiteti I bosqich doktoranti*

Annotatsiya. Virtual diskurs bu insonlarning ijtimoiy tarmoqlar, xabar almashish ilovalari, forumlar, chatlar va boshqa onlayn makon va zamonda muloqot qilish usullarini anglatadi. An'anaviy muloqotdan farqli o'laroq, virtual diskurs tinglovchi (o'quvchi) ga, ma'noni yetkazib berish uchun matn, belgi, emoji va multimediya elementlaridan foydalanadi. Bugungi tez rivojlanayotgan zamonda til ham zamon zayli bilan rivojlanmoqda. Tilning texnologik taraqqiyot namoyishchisi va global dunyoda ta'siri yuqoriligini inobatga olib virtual diskursni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, u tez o'zgarib borayotgan dunyoda turli til va madaniyatga ega bo'lgan odamlarning muloqot qilish usullari haqida tushuncha beradi. Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillarida virtual nutqning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqadi va har ikki tilning raqamli sohaga qanday moslashishiga e'tibor qaratadi. Taqqoslash orqali biz har bir tilning onlayn makonlarda harakatlanishidagi farqlarni ajratib ko'rsata olamiz va virtual nutqda alohida muloqot uslublarini yarata olamiz.

Kalit so'zlar: diskurs, virtual diskurs, onlayn muloqot, asinxron muloqot, kiber-bulling

ОСОБЕННОСТИ СПЕЦИФИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ ВИРТУАЛЬНОГО ДИСКУРСА В АНГЛИСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Jalilov Bakhodir Hamzayevich

*English teacher at Bukhara State Pedagogical Institute
1st year PhD student of Bukhara State University*

Abstract. Virtual discourse refers to the way people communicate in digital spaces such as social media, messaging apps, forums, and other online platforms. Unlike traditional face-to-face communication, virtual discourse relies heavily on text, symbols, emojis, and multimedia elements to convey meaning. In today's interconnected world, language evolves rapidly in these digital environments, as users adapt to new forms of expression that emerge online. Studying virtual discourse is crucial because it reflects how language is shaped by technological advancements and global interaction. It also provides insights into the ways people from different linguistic and cultural backgrounds communicate in a rapidly changing world. This article will explore the unique features of virtual discourse in Uzbek and English languages, focusing on how both languages adapt to the digital realm. Through a comparison, we will highlight the differences in how each language navigates online spaces, creating distinct communication styles in virtual discourse.

Key words: discourse, virtual discourse, online communication, Asynchronous communication, cyber-bullying

ВИРТУАЛЬНОГО ДИСКУРСА НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Джалилов Баходир Хамзаевич

Преподаватель английского языка в Бухарском
государственном педагогическом институте.

докторант 1 курса Бухарского государственного университета

Аннотация. Виртуальный дискурс относится к способу общения людей в цифровых пространствах, таких как социальные сети, мессенджеры, форумы и другие онлайн-платформы. В отличие от традиционного общения лицом к лицу, виртуальный дискурс в значительной степени опирается на текст, символы, эмодзи и мультимедийные элементы для передачи смысла. В современном взаимосвязанном мире язык быстро эволюционирует в этих цифровых средах, поскольку пользователи приспосабливаются к новым формам выражения, возникающим в интернете. Изучение виртуального дискурса важно, потому что оно отражает, как язык формируется под воздействием технологических достижений и глобального взаимодействия. Это также дает представление о том, как люди из разных лингвистических и культурных сообществ общаются в стремительно меняющемся мире. В данной статье исследуются уникальные особенности виртуального дискурса на узбекском и английском языках, с акцентом на то, как оба языка адаптируются к цифровому пространству. В рамках сравнительного анализа будут выявлены различия в том, как каждый язык функционирует в онлайн-среде, создавая уникальные стили общения в виртуальном дискурсе.

Ключевые слова: дискурс, виртуальный дискурс, онлайн-общение, асинхронное общение, кибер-буллинг

Diskurs tilshunoslikdagi keng atamalardan biri bo'lib, og'zaki suhbatlardan yozma matnlarda va hattoki imo-ishoralar turli shakllarda tildan foydalanish va muloqotni anglatadi. Diskurs alohida so'zlar yoki jumlar bilan cheklanmaydi va u madaniyat, kontekst kabi turli omillar ta'sirida bo'lib, uning g'oyalarni ifoda etadi. Nutq orqali odamlar o'ziga xoslikni tinglovchiga yetkazishi, jamoatchilik fikrini shakllantirishi va muayyan ijtimoiy guruhlar ichida o'zaro aloqada bo'lishi mumkin. Virtual diskurs yoki virtual nutq raqamli aloqa bilan birga paydo bo'lgan zamonaviy nutq shaklidir. Virtual nutq, xususan, ijtimoiy tarmoqlar, forumlar va boshqa internetga asoslangan joylar kabi onlayn yoki raqamli platformalar (dasturlar) orqali sodir bo'ladigan o'zaro muloqotni anglatadi. Ushbu turdagi diskurs oddiy diskursdan shaklidan bir necha jihatdan farq qiladi: odatda tezroq, ko'pincha multimodal (matn, rasm, video va emojilarni o'z ichiga olgan) va juda interaktivdir. Virtual diskurs internetning tezkor aloqa uslubiga mos keladigan noyob xususiyatlarga ega bo'lib, foydalanuvchilarga global miqyosda fikr almashish, umumiy manfaatlar atrofida jamoalar yaratish va vaqt zonalari va turli tillarni qamrab oladigan suhbatlarda ishtirok etish imkoniyatini beradi.

An'anaviy diskurs va virtual diskursning o'ziga xos tomonlari mavjud. Birinchidan, ularning ikkalasi ham ma'lumot, g'oyalar va fikrlarni yetkazish uchun xizmat qiladi. Masalan, yuzma-yuz suhbatlar ham, onlayn forumlar ham ishtirokchilarga fikr almashish imkonini beradi. Bundan tashqari, virtual diskurs va diskurs ham kontekstga bog'liq. Real

hayotda yoki raqamli makonda bo'lsin, til foydalanuvchilarining asosiy maqsadi muloqot va o'z fikrlarini yetkazishdir. Rasmiy uchrashuvdagi diskurs an'anaviy diskursdan farq qilishi mumkin bo'lganidek, professional tarmoq platformasidagi virtual diskurs ham an'anaviy munozaralardan farq qilishi mumkin.

Kundalik hayotimizdagi barcha muloqotlarimizni shakllantirishi va aks ettirishi tufayli biz nafaqat diskurs balkim, virtual diskurs haqida kerakli ma'lumotlar va uning insonning kognitiv fikrlashiga ta'siri haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak. Diskurs, xoh yozma bo'lsin, xoh og'zaki yoki virtual u insonlar ongida ma'lum bir vazifa bajarish uchun shakllanadi va ifoda etiladi.

So'nggi yillarda virtual diskursni o'rganishtirish turlari tillarning raqamli platformalar (internet, ijtimoiy tarmoq va forumlar) da o'zini qanday namoyish qilishi bilan bog'liq. Ingliz tili global dunyo tili hisoblanganligi tufayli, uning virtual diskursini ancha rivojlangan va boshqa tillar, xususan, o'zbek tilining virtual diskursi yetarli darajada o'rganilinmagan. Ingliz tili virtual diskursini tahlil qilish mobaynida olimlar asosan slenglar, abrivaturalar, rasmiy va norasmiy nutq, og'zaki va yozma nutqga e'tibor qaratishgan. Bu o'rganishlar davomida ingliz tilining flektiv tillar guruhiga kirishi muhim ahamiyatga ega. Vaholanki o'zbek tili agglutinativ til hisoblanib ba'zida flektiv tillar guruhidagi tillarga nisbatan boshqa qoidalarga ega. O'zbek tili o'ziga xos madaniy va lingvistik xarakterlarga ega ekanligini hisobga olib, virtual diskurs mavzusi hali yetarlicha o'rganilinmagini ko'rishimiz mumkin. Chunki til va internet hamisha o'zgarishda bo'ladi.

Tilshunoslikdagi muammolarning biri bu ingliz va o'zbek tili o'zini virtual olamda qanday namoyish qilishini lingvokognitiv, lingvomadaniy va qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir. Misol uchun ingliz tili foydalanuvchilari internet leksikasi (jargon, sleng) dan jonli nutqda foydalanishi mumkin. Bundan farqli ravishda o'zbek tilida so'zlashuvchilar esa asosan chet tili (rus, ingliz, fransuz tili) dan so'z olib uni tilimiz lingvistik qoidalariga moslab ishlatishadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda o'zbek tilida ko'plab tadqiqotlar onlayn emas balkim an'anaviy offlayn muloqotni o'rganishga qaratilgan. Bu o'z o'rnida boshqa til vakillarining o'zbek tili internet olamida o'zini qanday namoyon etishini bilishlarini qiyinlashtiradi. Ushbu bo'shliqlarni o'rganish bizga ingliz va o'zbek tili va madaniyati o'zini virtual olamda namoyish qilishi orqali yangi o'ziga xos tomonlarni kashf qilishga imkon beradi.

Virtual diskurs o'z o'rnida bir necha muammolarga duch kelmoqda. Ular orasidan noto'g'ri ma'lumotlarning tez tarqalishi, ma'lumotlarning haqiqatga to'g'ri kelish kelmasligini aniqlash qiyinlashib borayotgani va kiberbulling (cyberbullying) avj olishi kabilardir. Internet olamida ma'lumotlarning haddan tashqari ko'p yuklanishi ularning sifati, ma'nosiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda va shu tariqa til foydalanuvchilariga keraksiz, foydasi bo'lmagan ma'lumotlar berilmoqda. Virtual diskursni o'rganish orqali olimlar tilning meyorlari qay tarzda bajarilishi va ularning qay biri insonlarga foydali ekanligini bilib olishga harakat qilmoqdalar.

Virtual diskursda ingliz tili qanday rivojlanayotganligini o'rgangan mashhur ingliz tilshunos olimi D.Kristal o'zining "Internet Linguistics: A Student Guide" (2011) nomli kitobida internet qanday qilib sleng, ibora, emoji va norasmiy muloqotlar orqali tilga qanday ta'sir o'tkazishini yoritib bergan. Grek olimi J.Androutsopoulos o'zining «Discourse 2.0: Language and New Media» (2013) nomli asarida qanday qilib multimedia diskursi insonlarning muloqot, munosabat qilishi va o'zlarini qanday qilib

ifoda qilishlarini tahlil qilgan. Bu kitob virtual diskursning an'anaviy aloqa va muloqot shakllaridan qanday qilib farq qilishini ta'kidlab o'ziga xos til guruhlarining shaklanishini aytib o'tgan. Uning izlanishida tilning raqamli dunyoda o'zining xususiyatlarining o'zgarishi, muloqotda 2 va ko'p tildan foydalanish sabablarini ochib bergan.

Amerikalik olim N. Baron o'zining «Always On: Language in an Online and Mobile World» nomli kitobida internet va mobil aloqalar qanday qilib bugungi kunda tilning o'zgarishini ochib bergan. Bu kitobda N. Baron internet va mobil telefonlar yosh avlodning savodxonlik darajasiga salbiy ta'sir qilishi, yoshlarning yozish mahoratlarining tushib ketishi haqida yozgan. Va shu o'rinda u texnologiyalarning tilga bo'lgan ta'siri, unda yangi so'zlarning paydo bo'lishi haqida, bu so'zlarning shevaga moslashishi, yosh doirasida ishlatilinishi va ijtimoiy tarmoqlar buni qanday qabul qilib iste'mol qilishini yoritib beradi.

Bu mavzu bo'yicha bir nechta o'zbek izlanuvchilari ham ish olib borishgan Ulardan biri S. Umirov internet diskursining tabiati haqida maqolasi ijtimoiy tarmoqlarning til o'rganishga ijobiy va salbiy ta'sirini o'rganadi. Unda ta'kidlanishicha, ijtimoiy media o'quvchilarga onlayn hamjamiyatlar, audio va video yozuvlar va tilga oid platformalar kabi katta resurslarni taqdim etish orqali til o'rganishda tub burilish hosil qilgan. Maqolada YouTube va Instagram kabi turli xil ijtimoiy media platformalarining roli va ular tilni o'zlashtirish uchun turli imkoniyatlarni qanday taklif qilishlari muhokama qilinadi.

Shuningdek, o'qituvchilarning o'quvchilarga til o'rganishda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishda yo'l-yo'riq ko'rsatishi muhimligini ta'kidlaydi. Shunday olimlardan yana biri Elnora Saparova o'zining ingliz tilida chop etilgan «The Role of Uzbek in Social Media: New Trends in the Language of Youth» (2020) maqolasida virtual diskurs asosiy e'tiborni media savodxonlik va diskursga qaratib o'zbek so'zlashuvchilarining media savodxonlik darajasini o'rganib chiqadi.

Internet – bu o'ziga xos muloqot maydoni bo'lib tilning realizatsiya qilinadigan va u o'zining avvalgi xususiyatlaridan boshqa xususiyatlarini ko'rsatadigan makon va zamon. Internet kuchli ta'sir doirasiga ega ekanligi tufayli so'zlarning ma'no jihati (semantikasi) ga ham ta'sir o'tkazadi. Shu o'rinda internet orqali tilda paydo bo'layotgan yangi so'zlar, tushunchalar o'z nomlanishiga ega. Bular: sleng, abbreviatsiya va neologizmlar bo'lishi mumkin.

Biz bilamizki so'z tilda so'z yasaliishi xodisasi kuzatilib turadi. Bu xodisa ham internet diskursda o'ziga xoslik bilan 2 usulda amalga oshadi:

1. Bevosita yangi so'zlar paydo bo'ladi. Misol uchun: VAR (futbol termini), selfie kabi misollarda

2. Yoki oldin mavjud bo'lgan so'zning o'ziga xos yangi manosi hosil bo'ladi. Misol uchun ingliz tilidagi cloud (облако) so'zi, bu atamaning bir manosi bulut. Ammo globallashtirish davrida iCloud (ma'lumotlarni saqlash joyi) atamasi bilan yangi ma'no hosil qildi

Ingliz va o'zbek va o'zining ming yillik tarixi va rivojlanishi doirasida juda ko'p o'zgarishga ta'sir o'tkazadigan hodisalarni boshidan o'tkazdi. XXI asrda shunday faktorlardan biri bu internet va unda ishlatilayotgan yangidan-yangi tushunchalardir. O'zbek tili internet diskursi asosan yozma, video yoki audio ko'rinishida bo'ladi. Bu diskursning o'ziga xosligi shundaki har bir soha, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o'zlari xohlaganlaridek tushunishi, ishlatishlari mumkin. Internet diskursining yana bir

o'ziga xosligi shundaki, bu uning anonimligidir. Bir shaxs bir nechta taxallus(nikneym) lar orqali muloqotga kirishi va asl nomini, kimligini ma'lum qilmasligi mumkin, bu uning nutqiy erkinlikga erishishini ta'minlaydi. Bu bir vaqtning o'zida ham foydali ham zararli bo'lishi mumkin. Misol uchun anonimlik yuqori bo'lganda, foydalanuvchilar o'zlarining ishlatayotgan so'zlari va harakatlari jazosiz qolib ketishi mumkin.

Internet diskurs vaqt, zamon va makon tanlamaydi. aynan shu sababdan ham ushbu diskursni ishlatishni ko'pchilik ma'qullaydi.

Asinxron muloqot (Asynchronous communication) - Ingliz tili diskursida asinxron aloqa, muloqot davomida ma'lumotlarni qayta ishlash, javoblarni shakllantirish uchun ko'proq vaqt talab qiladigan vaziyatlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Bu til foydalanuvchilariga o'z tezligida material bilan o'zaro munosabatda bo'lish imkonini beradi, ularga darhol o'zaro ta'sir o'tkazmasdan, diqqat bilan jumlar tuzish, grammatikasini yaxshilash va so'z boyligini kengaytirish imkoniyati, qisqa qilib aytganda aqlliroq javob berish imkoniyatini beradi.

Munozara forumlari, elektron pochta almashinuvi yoki til o'rganish ilovalari kabi platformalar bunday muloqotni osonlashtiradi. Misol uchun, topshiriqlarni yozishda talabalar o'z javoblarini topshirishdan oldin ularni tuzish, tahrirlash va qayta ko'rib chiqish uchun vaqt ajratishlari mumkin(HEMIS dagi oraliq yoki joriy nazoratlar bunga misol bo'lishi mumkin). Asinxron aloqa, shuningdek, til foydalanuvchilariga o'qish va tushunish qobiliyatlarini mashq qilish imkonini beradi, chunki ular javob berishdan oldin tarkibni to'liq tushunish uchun xabarlarini yoki xabarlarini bir necha marta o'qishlari mumkin. Ushbu yondashuv til va diskursni chuqurroq o'rganishga yordam beradi va o'quvchilarning til qobiliyatlariga ishonchini oshiradi. Ta'limda uyatchan yoki ikkilanuvchi talabalar ham munozaralarda ishtirok etishni qulay his qiladigan yanada inklyuziv muhit yaratishi mumkin.

Lekin shu o'rinda virtual olam, virtual muloqotning salbiy tomonlarini ham eskatib o'tish joiz. Virtual olamga mukkasidan ketgan kishilarda jonli muloqotni amalga oshirishda ba'zi bir psixologik muammolar yuzaga kelishi mumkin, shu sababdan virtual muloqotning o'ziga xos tamoyillari, qonun-qoidalari, etikasi, madaniyati, axloq-odobi, qonuniy unsurlari kishilarga tushuntirilishi, o'rgatilishi talab etiladi, bu zamonaviy jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Misol uchun bolalarning internet diskursdan erta yoshdan foydalanishini misol qilib olish mumkin. Hozirda yosh ota-onalar bolalariga keragidan ortiq telefon yoki planshet berib ularni YouTube tarmog'iga ulab qo'yishlari va bolalar u yerda turli tillarda multfilmlar, qisqa videolar ko'rishlar oqibatida bolalarning so'zlashuv qobiliyatlari sustlashishi, ularning kognitiv va psixologik xolatlari(bolalarda erta agressiya)da muammolarni kuzatishimiz mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda kiberbulling (cyberbullying) va noto'g'ri ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish orqali insonlar orasida tushunmovchilik olib kelishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, virtual nutq zamonaviy raqamli asrda muloqotning asosiy usuli bo'lib, odamlarning til va madaniy chegaralar bo'ylab o'zaro munosabatini o'zgartirdi. Ushbu maqola o'zbek va ingliz virtual nutqlarini solishtirib, turli ifoda modellarini ishlab chiqish orqali ikkala tilning onlayn platformalarga qanday moslashishini ko'rsatib berdi. Ingliz tili global til sifatida keng qamrovli qisqartmalar, qisqartmalar va multimedia elementlari bilan onlayn makonlarda hukmronlik qilishga moyil bo'lsa, o'zbek virtual nutqi o'zining noyob moslashuvlanligini ochib beradi, an'anaviy lingvistik elementlarni paydo bo'layotgan onlayn tendentsiyalarni o'z ichiga

oladi.

Ushbu ikki tilni virtual sharoitda o'rganish nafaqat muloqotning rivojlanayotgan tabiatini, balki texnologiyaning til rivojlanishiga ta'sirini ham ta'kidlaydi. Onlayn aloqalarning o'zaro ta'sir o'sishda davom etar ekan, virtual nutqning muammolarini tushunish tobora muhim ahamiyat kasb etib, globallashtirilgan raqamli dunyoda turli jamoalar qanday muloqot qilishlari haqida tushuncha beradi. Ushbu davom etayotgan rivojlanish raqamli platformalar tildan foydalanishni qanday shakllantirishda davom etishi zarurligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Kristal. "Internet Linguistics: A Student Guide"
2. J.Androutsopoulos. Discourse 2.0: Language and New Media.
3. N.Baron. «Always On: Language in an Online and Mobile World»
4. E.Saparova «The Role of Uzbek in Social Media: New Trends in the Language of Youth»
5. B.X. Jalilov. "Ingliz va o'zbek tillarida turli sohalarda neologizmlarning kirib kelishi tahlili"
6. Mahmudovich, T. M. ., & Asrorovna, E. S. . (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZEOLOGIK OLAMI TASVIRI TAHLILI. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 274–277. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1067>
7. Mahmudovich, T. M., & G'affurovna, H. N. (2023, May). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIYAT FANI BILAN BOG'LIQLIK JIHATLARI. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 164-166).
8. B.X. Jalilov Analysis of new lexical units' emergence in publicistic texts on the internet platform. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9341
9. Ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarning umumiy xususiyatlari <https://interonconf.org/index.php/usa/article/view/3977>

THE METHODS AND STRATEGIES OF TEACHING SPEECH VERBS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Ziyayeva Dilnoza Anvarovna

ESP teacher, Bukhara State Medical Institute
named after Abu Ali ibn Sino Bukhara, Uzbekistan

I. Introduction

The intricate nature of speech verbs in both Uzbek and English languages highlights the necessity for a comprehensive examination of pedagogical approaches that support their effective instruction. The differentiation in linguistic structures, cultural implications, and contextual usage of these verbs poses unique challenges for learners and educators alike. Consequently, the pursuit of effective teaching methods requires an understanding of not only the linguistic distinctions but also the cognitive processes involved in language acquisition, emphasizing the importance of tailored instructional strategies. Moreover, the interplay between sociolinguistic factors and educational practices is pivotal in shaping students' grasp of speech verbs. Teaching methodologies that encompass interactive and context-based learning can significantly enhance comprehension and retention. Techniques that foster engagement, such as cooperative learning activities or technology-enhanced instruction, demonstrate promising results in bridging the gap between theoretical knowledge and practical application. Ultimately, this exploration necessitates a critical evaluation of existing curricula and the implementation of innovative practices that integrate cultural relevancy and linguistic authenticity. By scrutinizing the variances and commonalities in the treatment of speech verbs across these two languages, educators can refine their approaches, thereby equipping learners with the necessary skills to navigate complex linguistic landscapes effectively.

A. Definition and Importance of Speech Verbs

BO'LAJAK PSIXOLOGLAR UCHUN KOMPETENTLIK

Avlaqulov Bobir Ro'zikulovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
orcid:0009-0005-2112-2394

Annotatsiya: Bugungi kunda psixologik bilimlar insonlarning hissiyotlarini va xulq-atvorini tushunish uchun juda muhimdir. Ular psixologlarning professional faoliyatini samarali qilishda asosiy rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari amaliy mashg'ulotlar, treninglar va o'z-o'zini baholash kabi jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Psixologlarga kerakli bilimlar orasida psixologik nazariyalar, testlar va metodologiyalarni bilish zarur. Ilmiy tadqiqotlar va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik, psixologik amaliyotning samaradorligini oshirishda muhimdir.

Kalit so'zlar: Psixologik kompetentlik, zamonaviy kommunikatsiya, axloqiy-ma'naviy, psixologik trening, metod, etik, kommunikativ.

КОМПЕТЕНТНОСТЬ ДЛЯ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

Авлакулов Бобир Розиклович,
преподаватель Ташкентского университета прикладных наук

Аннотация: Сегодня психологические знания необходимы для понимания эмоций и поведения людей. Они играют ключевую роль в эффективной профессиональной деятельности психологов. Механизмы развития навыков реализуются через такие процессы, как практические занятия, обучение и самооценка. Среди необходимых психологам знаний необходимо знание психологических теорий, тестов и методологий. Связь между научными исследованиями и практикой важна для повышения эффективности психологической практики.

Ключевые слова: психологическая компетентность, современная коммуникация, морально-духовная, психологическая подготовка, метод, этика, коммуникативная.

COMPETENCE FOR FUTURE PSYCHOLOGISTS

Avlakulov Bobir Ro'zikulovich,
Teacher of University of Tashkent for Applied Sciences

Annotation: Today, psychological knowledge is essential for understanding human emotions and behavior. They play a key role in making the professional activities of psychologists effective. Skill development mechanisms are implemented through processes such as practical training, training and self-assessment. Among the knowledge that psychologists need, it is necessary to know psychological theories, tests and methodologies. The relationship between scientific research and practice is important in increasing the effectiveness of psychological practice.

Keywords: psychological competence, modern communication, moral-spiritual, psychological training, method, ethics, communicative.

Ushbu maqolada psixologik bilimlar insonlarning hissiyotlarini va xulq-atvorini tushunish uchun juda muhimdir va bu Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyev tomonidan imzolangan psixologlar huquqlari va vazifalarini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan

“Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'grisida”gi qarori psixolog kompetentligiga e'tiborni yanada kuchaytirdi.[1] Ular psixologlarning professional faoliyatini samarali oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari amaliy mashg'ulotlar, treninglar va o'z-o'zini baholash kabi jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Psixologlarga kerakli bilimlar orasida psixologik nazariyalar, testlar va metodologiyalarni bilish zarur. Ilmiy tadqiqotlar va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik, psixologik amaliyotning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetentlik tushunchasi - bu shaxsning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va sifatlar majmuasidir. Bu, shuningdek, talabning o'z-o'zini anglash va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.[2] Ta'lim jarayonidagi kompetentlik, o'quvchilarga muammolarni hal etish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim dasturlarida kompetentlikni shakllantirish uchun interaktiv usullar, amaliy mashg'ulotlar va guruhli muhokamalar qo'llanilishi lozim. Muvaffaqiyatli psixologlar o'z tajribalarini amaliyotga tatbiq etish orqali kompetentliklarini oshiradilar.

Masalan, terapevtik yondashuvlar orqali mijozlar bilan samarali ishlash:

Bog'liqlik - Psixologik bilimlar nazariy bilimlardan iborat bo'lib, ularning amaliyotda qo'llanilishi psixologning samaradorligini oshiradi. Ushbu bilimlar amaliyotda inson xulq-atvorini tushunish va unga ta'sir ko'rsatish uchun zarurdir.

Usullar - Psixologik bilimlarni amaliyotda qo'llash usullari ko'plab, jumladan, individual va guruh terapiyasi, psixologik testlar va konsultatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu usullar yordamida psixologlar mijozlarning muammolarini hal qilishda yuqori samaradorlikka erishadilar.

Metodlar - O'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar orasida teoriyalash, amaliyot va tahlil mavjud. Bu metodlar psixologik bilimlarni samarali o'rganishga va amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Psixologda kerakli kompetentliklar:

- Psixologda kerakli kompetentliklar turlari:
 - Psixologik bilimlar: nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi.
 - Amaliy ko'nikmalar: real vaziyatlarda bilimlarni qo'llash qobiliyatini anglatadi.
 - Kommunikativ qobiliyatlar: mijozlar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.
 - Etik standartlar: professionallik va ishonchlilikni ta'minlaydi.
- Har bir kompetentlikning ahamiyati:
 - Psixologik bilimlar psixologning nazariy asoslarini belgilaydi.
 - Amaliy ko'nikmalar muammolarni hal qilishda yordam beradi.
 - Kommunikativ qobiliyatlar mijozlar bilan ishonchli aloqalar o'rnatish uchun zarurdir.
 - Etik standartlarga rioya qilish psixologik faoliyatda muhim qoida sanaladi.
- Psixologik faoliyatda kompetentlikni qanday baholash mumkin:
 - Baholash jarayoni nazorat testlari va intervyular orqali amalga oshiriladi.
 - Mijozlarning fikrlari va psixologning ish faoliyati tahlil qilinadi.
 - Ularning qobiliyatlari va bilimlari aniqlanadi.
 - Bu jarayon psixologning o'zini baholashiga ham yordam beradi.
- Muvaffaqiyatli psixologlar haqida fikrlar:
 - Muvaffaqiyatli psixologlar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib boradilar.

- Ular mijozlar bilan yaxshi munosabat o'rnatishda muvaffaqiyatli bo'ladilar.

• Tasviriy material: psixologik kompetentliklarni ifodalovchi grafik.

Bunda albatta kelajak psixologlarining roli

1. Kelajak psixologlarining roli jamiyatda muhim o'rin tutadi, chunki ular insonlar psixologik holatlarini yaxshilashda va rivojlantirishda ishtirok etadilar. Ular nafaqat muammolarni hal qilishda, balki ijtimoiy va psixologik bilimlarni tarqatishda ham faol rol o'ynaydilar.

2. Psixologik xizmatlarni rivojlantirishda kelajak psixologlarining o'rni juda katta. Ular zamonaviy psixologiya yutuqlaridan foydalangan holda, insonlar uchun samarali yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, ular psixologik muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun yangi usullarni izlaydilar.

3. Amaliyotdagi muammolar ko'pincha psixologlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Masalan, mijozlar bilan munosabatlarni o'rnatish, ularning muammolarini tushunish va shaxsiy chegaralarni hurmat qilish kabi masalalar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolarni hal etish uchun psixologlar ta'lim va tajribalaridan foydalanib, samarali strategiyalar ishlab chiqishlari zarur.[3]

Etik me'yorlar va professionallikda psixologik amaliyot muhim ahamiyatga ega. Ularni bilish va ularga amal qilish psixologlarning professionallik darajasini oshiradi. Masalan, etik me'yorlarga rioya qilgan psixologlar mijozlarining ishonchini qozonib, muvaffaqiyatli natijalarga erishadilar.

Psixologlar uchun professional rivojlanishi doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishlari zarur. Professional rivojlanish jarayoni psixologlar uchun juda muhim bo'lib, yangi uslublar va metodlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Kurslar, seminarlar va treninglar:

- Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish
- Zamonaviy psixologik amaliyotga moslashish
- Professional tarmoqni kengaytirish

Ushbu jarayon psixologik amaliyotda yuqori sifatli xizmat ko'rsatishga imkoniyat yaratadi. Rivojlanish resurslari sifatida onlayn platformalar, ilmiy maqolalar va professional tashkilotlar yordamida bilimlarni kengaytirish mumkin.

Psixologik amaliyotda etik me'yorlarga rioya qilmaslik, shaxs sirini oshkor qilish jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, 2015-yilda Yevropa davlatlaridan birida bir psixolog mijozining shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni oshkor qilgan. Bu holat mijozning ishonchini yo'qotishiga va psixologning professionallik darajasining pasayishiga olib keldi. Muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar sifatida, etik me'yorlarga amal qilish, superviziya jarayonlarini o'tkazish va etik qo'llanmalarga doimiy va qat'iy amal qilish kerak. Shuningdek, etik muammolarni hal etishda o'zaro muhokama va tajribalarni almashish ham muhimdir.

Psixologiyada professionallik standartlari:

Standartlar - Psixologik amaliyotda professionallik standartlari psixologlarning ishini sifatli va ishonchli qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular psixologlar uchun barcha amaliy faoliyatlarida asosiy yo'riqnomalar sifatida xizmat qiladi.

Ahamiyati - Bu standartlar psixologik xizmatlarning samaradorligini oshirish, mijozlarga yordam berishda ishonchni ta'minlash va psixologlarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, psixologlar o'zlarining amaliyotlari davomida bu standartlarga rioya qilish orqali xavfsizlik va

ishonchlilikni ta'minlashlari mumkin.[4]

Tavsiyalar - Professionallik darajasini oshirish uchun psixologlar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari, trening va seminarlar orqali tajriba almashishlari kerak. Shuningdek, amaliyotda standartlarni qo'llashni osonlashtirish uchun aniq ko'rsatmalarni ishlab chiqish muhimdir.

Bo'lajak psixologlar uchun ta'lim dasturlarini etik masalalarni o'z ichiga olgan holda rivojlantirish zarur. Bu, ularning professionallik va etik me'yorlar bo'yicha bilim darajasini oshirishga yordam beradi.

O'z-o'zini baholash jarayoni psixologlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ular muntazam ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini tahlil qilib, ularni amaliyotda qanday qo'llashlarini o'rganishlari kerak.

Shuningdek, mentorlik dasturlari orqali tajriba orttirish va professional rivojlanish uchun amaliyotlar muhimdir. Bu jarayon shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydi va kasbga bo'lgan yondashuvni mustahkamlashga yordam beradi.

Nazariy bilimlarning ahamiyati:

- Nazariy bilimlar psixologlar uchun asosdir.
- O'rganish jarayonida amaliy tajribani to'g'ri yo'naltiradi.
- Psixologiyada nazariy bilimlar turli fanlardan kelib chiqadi.

Amaliy tajriba nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Psixologlar o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rib, real vaziyatlarga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Nazariy bilimlar amaliyotda qo'llanishi kerak, chunki bu ularning samaradorligini oshiradi. Amaliy tajriba esa psixologik jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Va yana qo'shimcha tarzda ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari psixologiyada ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zaruriy mexanizmlar qatoriga o'quv jarayonida amaliyot va o'rganish usullari kiradi. Bu mexanizmlar o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Amaliy tajriba yordamida ko'nikmalarni shakllantirish kelajak psixologlar uchun muhimdir. Shu orqali ular real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlanadi va o'z bilimlarini amalda sinab ko'rishadi.

Nazariy bilimlar, amaliyot bilan birgalikda, psixologlarning professional rivojlanishini ta'minlaydi. Nazariy asoslar, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash uchun zarurdir.

Kelajak psixologlarining tayyorgarlik darajasi nazariy va amaliy bilimlarni birlashtiradi. Bu jarayon, psixologlarning zamonaviy talablar va muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan kompetentlik darajasini ta'minlaydi. Tayyorlash jarayonida kompetentlik darajasi, psixologlarning bilim va ko'nikmalarini qanday rivojlantirishi, shuningdek, ularning amaliyotda qanday qo'llanilishi bilan bog'liqdir. O'quv dasturlari esa, psixologlarning sifatli tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'quv dasturlari, nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan birlashtirib, talabalar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu jarayonda amaliy mashg'ulotlar va seminarlar, shuningdek, psixologik testlar va baholash metodlari muhim o'rin egallaydi. Shunday qilib, tayyorgarlik darajasi psixologning professional muvaffaqiyati uchun asosiy omil hisoblanadi.

Amaliy tajribani baholash:

- Amaliy tajribani baholash usullari psixologik faoliyatda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar qatoriga kuzatuv, intervyu va testlar kiradi, ular psixologik jarayonlarni

tushunishga yordam beradi.

- Nazariy bilimlar bilan amaliy tajribani solishtirish psixologlarning o'z bilimlarini amaliyotda qanday qo'llashini ko'rsatadi. Bu jarayon nazariyalar va amaliyot o'rtasidagi bog'lanishni kuchaytiradi.

- Baholash kriteriyalari sifat, samaradorlik va maqsadga muvofiqlik kabi omillarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon psixologning professional rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, psixologik bilimlar kelajak psixologlar uchun muhimdir.

Ta'lim jarayonida kompetentlik:

- Kompetentlik ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish:

- Amaliy ko'nikmalar psixologlar uchun zarur, chunki ular nazariy bilimlar bilan mustahkamlanadi.

Etik me'yorlar:

- Etik me'yorlar psixologik amaliyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, professionallikni oshiradi.

Kelajak psixologlari:

- Kelajak psixologlarining roli psixologik xizmatlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni va shaxsni shakllantiruvchi omillar haqida ilmiy tadqiq masalalariga e'tibor yuqori. Unda talaba yoshlarning o'zini o'zi baholash xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, talaba o'zi-o'zini baholashini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ham bayon etilgan.[5]

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV. Toshkent sh. 2024-yil 5-noyabr, O'RQ-989-son

2. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998 – P. 4-11.

3. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014 -B. 298

4. Mehribian A. An analysis of personality theories. – Englewood Cliffs. N.J.: Prentice – Hall, 2004– p. 240

5. TA'LIMJARAYONIDA SHAXSNING O'ZINI O'ZI BAHOLASH XUSUSIYATINI SHAKLLANISHI Б.Р АВЛАҚУЛОВ - ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2023

6. EASTERN CLIMATE INSTRUMENTS IN RESEARCH OF WORLD SCIENTISTS B.R Avlaqulov Inter education & global study, 380-387

EMOTSIONAL INTELLEKT VA UNI RIVOJLANISHINING O'RGANILGANLIK HOLATI

Axmatova Zilola Egamqulovna

*International school of finance technology and science instituti Samarqand filiali
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada emotsional intellekt tushunchasining mohiyati va uni rivojlantirish usullari haqida so'z yuritilgan. Emotsional intellekt bo'yicha umumiy ta'riflari, tartibga solish va boshqarish qobiliyati, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, samarali munosabatlar o'rnatish va ularni motivatsiya qilishga qaratilgan harakat va qobiliyat sifatida umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt, intellektual qobiliyat, kognitiv intellekt, ko'nikmalar, stress, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, his-tuyg'u, muvaffaqiyat.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И СОСТОЯНИЕ ИССЛЕДОВАНИЙ ЕГО РАЗВИТИЯ

Ахматова Зилола Эгамкуловна,

*старший преподаватель Самаркандского филиала Международной школы
финансов, института технологий и науки*

Аннотация: В этой статье говорится о сущности понятия эмоционального интеллекта и способах его развития. Общие определения эмоционального интеллекта обобщаются как способность регулировать и управлять эмоциями других людей, понимать их и мотивировать их на эффективные взаимоотношения.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, интеллектуальные способности, когнитивный интеллект, навыки, стресс, самосознание, самоконтроль, эмоциональность, успех.

EMOTIONAL INTELLECTUALITY AND ITS DEVELOPMENT STAGE

Akhmatova Zilola Egamkulovna,

*Senior Lecturer, Samarkand Branch of the International School of Finance
Technology and Science Institute*

Annotation: This article talks about the essence of the concept of emotional intelligence and how to develop it. General definitions of emotional intelligence are summarized as the ability to regulate and manage other people's emotions, understand them, and motivate them to have effective relationships.

Keywords: emotional intelligence, intellectual abilities, cognitive intelligence, skills, stress, self-awareness, self-control, emotionality, success.

Kirish. Hissiy intellekt butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham so'nggi yillarda e'tiborni tortayotgan tushuncha bo'lib qolmoqda. "Emotsional intellekt" tushunchasi ilk bor amerikalik psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan 1990-yilda kiritilgan. Ular emotsional intellektni insonning o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, tushunish va boshqarish qobiliyati sifatida ta'riflashgan. Keyinchalik, 1995-yilda Daniel Goleman o'zining "Emotional Intelligence" kitobi orqali ushbu tushunchani ommalashtirdi. Goleman emotsional intellektni ish joyidagi

muvaffaqiyat va hayotdagi umumiy farovonlik bilan bog‘liq asosiy ko‘nikma sifatida tavsiflagan va uning ahamiyatini kengroq auditoriyaga yetkazgan.

Asosiy qism. Emotsional intellekt (EI) — bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, ularni boshqarish va muloqotda ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Emotsional intellekt shaxsning o‘zini va boshqalarni tushunishi, stress bilan kurashishi va murakkab ijtimoiy vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishi uchun muhim rol o‘ynaydi.

Emotsional intellekt quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

-Inson o‘z his-tuyg‘ularini, ular sabablarini va bu hislar qanday ta’sir ko‘rsatishini anglay olish qobiliyati.

-Insonning o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish, sabrli bo‘lish va oqilona qaror qabul qilish qobiliyati.

-O‘z maqsadlariga erishish uchun o‘zini rag‘batlantira olish qiyinchiliklardan qo‘rqmay oldinga intilishga qobiliyat.

-Boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularning kayfiyatiga moslashish qobiliyati.

-Samarali muloqot, jamoada ishlash, nizolarni hal qilish va boshqalar bilan sog‘lom munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati.

Bu ko‘nikmalar hayotda muvaffaqiyatga erishishda, rahbarlik qilishda va insonlar bilan munosabatlarni mustahkamlashda muhim hisoblanadi. Ma’lumki, ba’zi insonlar aniq fanlar yuzasidan ba’zi insonlar gumanitar fanlar yuzasidan qobiliyatga ega bo‘lishadi. Yana yuqori darajadagi talantga ega bo‘lgan rassomning oddiy matematik misollar oldida esankirab qolishini va ajoyib matematikni ozroq badiiy qobiliyatga ega bo‘lishini kuzatganmiz. Bunday insonlarni aqilli deb aytishimiz mumkinmi. [1]

Spirmenning fikricha, insonlarda umumiy intellekt mavjud. Uning fikricha insonlarni bir-biridan ajratib turuvchi o‘ziga xos qobiliyatlari bor. Spirmen faktorli analiz, statistik protsedurani ishlab chiqdi. U bog‘liq elementlarning muvaqqat bog‘lanishlarini tushuntirib bergan. Spirmenning fikricha malakaning umumiy yig‘indisi, bizning aqliy hulq-atvorimizga bog‘liqdir deb tushuntirgan. SHu kungacha Spirmenning umumiy intellekt nazariyasi, ya’ni intellektni bir taraflama baholash nazariyasi ko‘plab noroziliklarga sabab bo‘lgan. Spirmendan farqli o‘laroq Terstoun aqliy qobiliyatlarning 56 xil testlar, 7 ta klaster orqali baholashni joriy etdi. Terstoun insonlarni yagona shkala orqali baholamadi. U agar shaxs 7ta klasterdagi barcha masalani muvaffaqiyatli echsa, u qolgan barcha sohalarida ham xuddi shunday mavaffaqiyatga erishadi deb bilgan. Ular aqliy qobiliyatni jismoniy qobiliyat bilan taqqoslashgan. Uning fikricha, shtanga ko‘tarish bo‘yicha jahon chempioni yaxshigina figuristik sport turi bilash ham shug‘ullanishi mumkin. Chunki undagi jismoniy tayyorgarlik shunga imkon beradi.

Satosi Kanadzava umumiy intellektni intellektning bir turi sifatida ko‘radi. Umumiy intellekt bizga kundalik hayotda mavjud muammoalarni hal qilishda yordam beradi.

Chang doktorlik tadqiqotida boshqa nashrlarda aytilganidek, AQShda minglab maktablarda yuzlab dasturlar amalga oshirilayotganini, lekin faqat ba’zi hissiy intellekt komponentlariga e’tibor berilayotganini, barcha komponentlarini qamrab olgan holda hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va o‘lchash bo‘yicha tadqiqotlar sonining juda kam ekanligini ta’kidlaydi (CASEL, 2003; Chang, 2006).

Ergash G‘oziyev Intellektual hislar deb shaxsning ham haqqoniy, jonli, mantiqiy mushohadalari, ham soxta, yuzaki, ajablanarli, shubhali, goho tushunib bo‘lmaydigan,

ba zida hayratda qoldiradigan fikrlarga munosabatlari ifodalanadi deya ta'riflagan. Intellektual hislarga hayajonlanish, ajablanish, shubhalanish, qiziqish, qiziquvchanlik, shodlik, ishtiyoqmandlik va boshqalarni kiritish mumkin. Hayajonlanish va ajablanish shaxsni bilish faoliyatining ajralmas qismidir. Ajablanish va hayajonlanish emotsiyasiga berilib ketgan shaxs o'zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Shaxsni haqiqatni izlash faoliyati shubhalanish hissi sifatida kechishi mumkin. Haqiqatni toppish esa ishonch hissi bilan bir davrda amalga oshadi (G'oziyev,2008).

Aqliy qobiliyat tushunchasining ta'riflari o'xshash nuqtaga keladi: ya'ni, aqliy qobiliyatni mavhum fikrlash qobiliyati deb ta'riflashadi. Ko'pgina lug'atlarda turli xil ma'noga ega bo'lgan his-tuyg'u so'zining ildizi lotincha «harakat» ma'nosini anglatuvchi «emote» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «ruhni harakatga keltiruvchi» ma'nosini anglatadi (Cooper va Sawaf, 2000; Kuzucu, 2006; Aslan, 2013).

Ko'pgina mualliflar aqliy qobiliyatni turli nuqtai nazarda ko'rib, nom berishgan bo'lsa-da, ushbu tadqiqot doirasida "aqliy qobiliyat" kognitiv intellekt (IQ – Intelligence Quotient) va hissiy intellekt (EQ – Emotional Quotient) sifatida tahlil qilinadi. Kognitiv intellekt asosan genetik tuzilishdan tashkil topgan bo'lib, ob'ektlar orasidagi aloqalarni ko'rish kabi madaniyatga bog'liq bo'lmagan vazifalardagi muvaffaqiyatlarni aniqlash va yangi muammolarni hamda holatlarni muvaffaqiyatli baholash qobiliyatidir; hissiy intellekt esa kishining hayoti davomida olgan bilim va ko'nikmalari natijasi bo'lib, bilimni saqlash va tajribalardan olingan strategiyalarni o'z ichiga oladi (Erçetin, 2001; Aslan, 2013). Ko'plab mualliflarning hissiy intellekt bo'yicha umumiy ta'riflari; insonning avvalo o'z his-tuyg'ularini tushunish, tartibga solish va boshqarish qobiliyati; boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, ular bilan moslashish, samarali munosabatlar o'rnatish va ularni motivatsiya qilishga qaratilgan harakat va qobiliyat sifatida umumlashtirilishi mumkin. Kognitiv intellekt darajasi yosh o'tgan sayin kamayishi, hissiy intellekt esa yosh va hayotiy tajribalar ortishi bilan o'sishi taxmin qilinadi. Ilk boshda ko'plab tadqiqotlar IQ ga qaratilgan va ish hayotida hamda boshqa qo'llash sohalarida asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Biroq rivojlanayotgan dunyo sharoitida faqat IQ yetarli emasligi tushunilganidan keyin tadqiqotchilar intellektning yangi jihatlarini ham o'rganishni boshlashgan. Ko'p tomonlama intellekt nazariyasi bilan boshlangan bu jarayon bir qancha bosqichlarni bosib o'tib, "hissiy intellekt" tushunchasini keyinchalik Goleman, Mayer va Salovey hamda Bar-On eng keng ma'noda qo'llashgan.

O'rgatish va o'rganish imkoniyati mavjudligi sababli, hissiy intellekt kognitiv intellektdan farq qiladi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, hissiy intellekt o'rganish orqali rivojlantirilishi mumkin. Bar-On fikriga ko'ra, kognitiv bo'lmagan qobiliyat va ko'nikmalar hayot davomida o'zgarishi, vaqt o'tishi bilan rivojlanishi va terapevtik texnikalar bilan bir qatorda, ushbu masalaga qaratilgan ta'limiy va davolovchi dasturlar yordamida oshirilishi mumkin. Bar-On bilan hamohang holda, Goleman ham hissiy intellekt bilan bog'liq qobiliyat va malakalar rivojlantirilishi mumkinligini, buning uchun guruh va jamoalar bilan ta'lim dasturlarini o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi. Goleman, hissiy intellekt yosh bilan oshishini ta'kidlagan bo'lsa-da, Freedman hattoki 12 yoshda ham hissiy intellektni o'rganish mumkinligini ilgari suradi. Shunga o'xshash tarzda, Dulewicz va Higgs hissiy intellektni hayotning o'rta davrlarida o'rgatish juda kech bo'lishi mumkinligini va hissiy intellektni o'smirlik yoshidan o'rganish mumkinligini ta'kidlaydilar. Biroq, Goleman inson yoshi o'tishi bilan emas, balki o'zining va boshqalarning tajribalaridan o'rganish darajasiga qarab hissiy intellekti rivojlanishini, shuningdek, bu sohadagi ta'lim dasturlarining samaradorligini qo'llab-quvvatlaydi.

Hissiy intellekt ta'limida eng maqbul vaqt sifatida 18-23 yosh oralig'i, ya'ni universitetda kasbiy rejalashtirish va ta'lim oladigan yoshlar ko'rsatilmogda (Seal va boshqalar, 2011). Seal va boshqalar fikricha, universitetlarda kasb o'rgatish uchun qat'iy texnik bilimlar bilan belgilangan o'quv dasturi ta'limning faqat bir tomonini tashkil etadi. Ularning fikricha, universitetlar talabalarga kelajakdagi muvaffaqiyatlari va hayot sifati uchun kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlardan to'laqonli ta'lim beruvchi muassasalar bo'lishi kerak. Shu sababli, universitetga kirish va uni tamomlash oralig'idagi 18-23 yosh davri, ijtimoiy va hissiy qobiliyatga eng ko'p ehtiyoj seziladigan va uni rivojlantirish uchun yuqori tayyorgarlikka ega bo'lgan yosh davri hisoblanadi. Bundan tashqari, hissiy intellekt ta'limi universitet ta'limining bosim va salbiy ta'sirlarini Hissiy intellekt ta'limi uchun eng maqbul vaqt sifatida kasbiy rejalashtirish va ta'lim olingan universitet yoshi – 18-23 yosh oralig'i belgilanmogda (Seal va boshqalar, 2011). Seal va boshqalar fikriga ko'ra, universitetlarda kasb o'rgatish uchun qat'iy texnik bilimlarga asoslangan o'quv dasturi ta'limning faqat bir jihati bo'lishi mumkin. Ularning aytishicha, universitetlar talabalarga kelajakdagi muvaffaqiyatlari va hayot sifatlari uchun kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarni qamrab olgan to'liq ta'lim beruvchi muassasalar bo'lishi kerak. Shu bois, universitetga kirish va uni tamomlash oralig'i – 18-23 yosh, ijtimoiy va hissiy qobiliyatga eng ko'p ehtiyoj tug'iladigan va rivojlantirish uchun katta imkoniyatga ega bo'lgan davr hisoblanadi. Bundan tashqari, hissiy intellekt ta'limi universitet ta'limining bosim va salbiy ta'sirlarini kamaytirishda hamda bitirgandan so'ng ish hayotiga osonroq moslashishda yordam beradi.

Bacon va Stewart fikricha, bilim ikki xil usulda olinadi: yuzaki va chuqur o'rganish orqali. Agar o'rganilayotgan mavzu va usul o'rganayotgan shaxs uchun mos kelsa, chuqur va barqaror o'rganish amalga oshadi. Shunday ekan, ta'lim jarayoni ishtirokchilar uchun qiziqarli bo'lishi, ularning oldingi tajribalari, his-tuyg'ulari va fikrlari bilan mos kelishi kerak. Shuningdek, ishtirokchilarga kelajakda kasbiy va shaxsiy hayotlarida foydalanishi mumkin bo'lgan bilimlar hissiy intellektning foydasini ko'rsatadigan yangi usullar bilan boyitilib berilishi va faol o'qitish usullari qo'llanilishi kerak. Faol o'qitish usullarini eng yaxshi tarzda ishtirokchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, murabbiylik faoliyatlari orqali amalga oshirish mumkin (Bacon va Stewart, 2006).

Ijtimoiy xizmat mutaxassislari ega bo'lishi kerak bo'lgan ko'nikmalar orasida muloqot va aloqa o'rnatish, rivojlantirish va qudrat berish, baholash va rejalashtirish, aralashish va xizmat ko'rsatish, tashkilot ichida ishlash, kasbiy malakani rivojlantirish, muammoni aniqlash, muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish, ziddiyatlarni hal qilish, kuzatish ko'nikmalari, tinglash ko'nikmalari, savol berish ko'nikmalari, diqqatni jamlash, yo'l-yo'riq ko'rsatish va sharhlash ko'nikmalari, iqlim yaratish qobiliyatlari, samimiylik, hamdardlik, hurmat, odob, ochiqlik, xolislik, sezgirlik, sabr, yordam berish istagi va aniq ifodalar kabi jihatlar kiradi. Hissiyot, o'zini ochish, va o'z-o'zini anglash kabi asosiy ko'nikmalarga ega bo'lish zarur. Shuningdek, ijtimoiy xizmat mutaxassislarning rollariga oid falsafiy qadriyatlar quyidagicha belgilangan: hayot, ozodlik va erkinlik, kamsitmaslik, adolat, birdamlik, ijtimoiy mas'uliyat, taraqqiyot, tinchlik, zo'ravonlikdan himoya qilish, inson va tabiat o'rtasidagi munosabat. Ijtimoiy xizmatning asosiy qadriyatlari esa inson farovonligi, ijtimoiy adolat va shaxsiy qadr-qimmatga hurmatga asoslangan (Duyan, 2010; ifsw.org, 07.09.2016).

Natijalar va muhokamalar. Hissiy intellekt inventarizatsiyasini (EQ-i) ishlab chiqqan Bar-Onning hissiy intellekt modeli hayotdagi muvaffaqiyatga hissa qo'shuvchi besh

asosiy va 15 ta kichik o'lchamdagi kompetentsiyalarni ta'kidlaydi:

- Shaxsiy ko'nikmalar; o'z-o'ziga hurmat, hissiy o'zlikni anglash, qat'iyatlilik, mustaqillik, o'zini rivojlantirish,
- Shaxslararo aloqalar; shaxslararo muloqot, empatiya, ijtimoiy mas'uliyat,
- Stressni boshqarish; stressga chidamlilik, impulslarni nazorat qilish,
- Moslashuvchanlik; realistik yondashuv, moslashuvchanlik, muammoni hal qilish,
- Umumiy ruhiy holat; optimizm va baxt (Bar-On, 2005).

Ushbu ma'lumotlarga asosan, yuqorida ko'rsatilgan hissiy intellekt ta'riflari va xususiyatlari ijtimoiy xizmat mutaxassisi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlar bilan mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, emotsional intellekt shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishda, muvaffaqiyatga erishishida, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini boshqarish jarayonlarida muhim ahamiyatga egadir. Hammaga ma'lumki, IQ(intelligence quotient, ya'ni, zehn koeffitsienti) insonning aqliy va tahliliy qobiliyatini belgilab beradi. Emotsional intellekt esa insonning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalari va malakalari jamlanmasidir. Dunyo tez o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda bizga bizga yaxshi mutaxassis yoki o'z ishining ustasi bo'lish yetarli emas. Jamiyat bilan samarali o'zaro munosabatda bo'la olish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Acar, F. T. (2001). Duygusal Zekâ Yeteneklerinin Göreve Yönelik ve İnsana Yönelik Liderlik Davranışları İle İlişkisi: Banka Şube Müdürleri Üzerine Bir Alan Araştırması. Doktora Tezi. İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul. YÖK Tez No: 105020.

2. Bar-On, R. (1997). The Emotional Quotient Inventory (EQ-i): A Test of Emotional Intelligence. Toronto: Canada, Multi-Health Systems.

3. Goleman, D. (1998). What Makes a Leader? Harvard Business Review, 76(6), 82-91.

4. Mayer, J., Salovey, P. ve Caruso, D. (2002). Mayer Salovey Caruso Emotional Intelligence Test (MSCEIT) User's Manual. Toronto, Ontario: Multi-Health Systems Inc.

5. Otamuratov R.U, Kasbiy tanlovlardagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari., Global dunyoda psixologiya fani: nazariya va amaliyot, chaqiruvlar va istiqbollor. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 16 fevral 2022 y.,-379 b.

6. G'oziyev E.G'. (2008). Psixologiya. "O'qituvchi" NMIU. 2008

YOSH OILALARDA IJTIMOYIY INTELLEKT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARINI NAZARIY VA METODOLOGIK AHAMIYATI

*Esanboyev Qahramon,
SamDU 1-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yosh oilalarda ijtimoiy intellektning mohiyati va uning psixologik determinantlari haqida turli nazariyalar va ta'riflar mavjud. Bu tushuncha, odatda, shaxsning ijtimoiy muhitda o'zaro aloqalarini, hissiy intellektini va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy, intellekt, oila, shaxs, munosabat, muloqot, odat, determinant, yosh, metod, so'rovнома.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДЕТЕРМИНАНТ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ

*Esanboyev Qahramon,
Базовый докторант 1 ступени СамДУ*

Аннотация. В данной статье представлены различные теории и определения о природе социального интеллекта и его психологических детерминантах в молодых семьях. Это понятие обычно включает в себя социальные взаимодействия человека, эмоциональный интеллект и способность общаться с другими.

Ключевые слова: Социальное, интеллект, семья, личность, отношение, общение, привычка, детерминанта, возраст, метод, анкета.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF SOCIAL INTELLECT IN YOUNG FAMILIES

*Esanboyev Qahramon,
SamDU 1st stage basic doctoral student*

Abstrakt. This article presents various theories and definitions about the nature of social intelligence and its psychological determinants in young families. This concept usually includes a person's social interactions, emotional intelligence, and ability to communicate with others.

Key words: Social, intelligence, family, personality, attitude, communication, habit, determinant, age, method, questionnaire.

KIRISH. XXI asrda jamiyatning barqaror rivojlanishi va oila institutining mustahkamligi inson salohiyatini har tomonlama rivojlantirishga, xususan, ijtimoiy intellekt shakllanishiga bog'liqdir. Ijtimoiy intellekt shaxsning boshqalar bilan muloqotda muvaffaqiyatli hamkorlik qilish, ijtimoiy munosabatlarni anglash va boshqarish, shuningdek, turli vaziyatlarda moslashuvchan qaror qabul qilish qobiliyatidir. Yosh oilalarda bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular jamiyatning asosiy hujayrasi sifatida ijtimoiy va psixologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mazkur

maqolada yosh oilalarda ijtimoiy intellektning shakllanishi jarayonida psixologik determinantlarning ahamiyati va ularning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Oila institutining rivojlanish bosqichlari, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy intellekt o'zaro bog'liqligini o'rganish bugungi kunda ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir. Yosh oilalar orasida ijtimoiy intellekt darajasining shakllanishi turmush sifatiga, ijtimoiy farovonlikka va oiladagi psixologik muhitga bevosita ta'sir qiladi. Shu nuqtayi nazardan, maqolaning maqsadi yosh oilalarda ijtimoiy intellekt shakllanishini belgilovchi psixologik determinantlarni aniqlash va ularning nazariy-metodologik ahamiyatini yoritishdir. Tadqiqot natijalari ijtimoiy intellektni rivojlantirishga oid dasturlar ishlab chiqish va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda amaliy ko'mak beradi.

Ushbu maqola doirasida ijtimoiy intellekt va uning tarkibiy qismlari, psixologik determinantlarning tasnifi va yosh oilalarda ularning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Bu esa nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki amaliy jihatdan ham dolzarb yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy intellekt tushunchasi: Yosh oilalarda ijtimoiy intellektning mohiyati va uning psixologik determinantlari haqida turli nazariyalar va ta'riflar mavjud. Bu tushuncha, odatda, shaxsning ijtimoiy muhitda o'zaro aloqalarini, hissiy intellektini va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Yosh oilalarda ijtimoiy intellektning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar, masalan, shaxsiy xususiyatlar, hissiy holatlar, oila ichidagi munosabatlar va ijtimoiy tajribalar o'rganiladi. Bu omillar yosh oilalarning ijtimoiy intellektini qanday rivojlantirishiga ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nazariy va metodologik yondashuvlar: Ijtimoiy intellektni o'rganishda qo'llaniladigan nazariy va metodologik yondashuvlar, masalan, eksperimental tadqiqotlar, so'rovnomalar va intervyular orqali ma'lumot to'plash usullari muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar yosh oilalarda ijtimoiy intellektni shakllantirish jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ijtimoiy-psixologik adabiyotlar: Yosh oilalarda ijtimoiy intellektni o'rganish bo'yicha mavjud adabiyotlar, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika sohalaridagi tadqiqotlar bilan boyitilgan. Bu adabiyotlar yosh oilalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy intellektning nazariy asoslari: Psixologiya fani ijtimoiy intellektning nazariy asoslarini o'rganishga yordam beradi. Bu nazariyalar, ijtimoiy intellektning qanday shakllanishi, rivojlanishi va uning inson hayotidagi roli haqida chuqur tushuncha beradi.

Hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Psixologiya, yosh oilalarda hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Psixologik tadqiqotlar va amaliyotlar orqali, bolalarga empatiya, muloqot va ijtimoiy aloqalarni o'rganish imkoniyatlari yaratiladi.

Oila ichidagi munosabatlarni o'rganish: Psixologiya, oiladagi munosabatlar va dinamikalarini o'rganishga yordam beradi. Oila a'zolari o'rtasidagi muloqot, hissiyotlar va o'zaro ta'sirlarni tahlil qilish, ijtimoiy intellektni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tarbiya va ta'lim: Psixologiya, yosh oilalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishda tarbiya va ta'lim jarayonlarini o'rganadi. Ota-onalar va tarbiyachilar uchun ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqadi.

Ijtimoiy muhitning ta'siri: Psixologiya, yosh oilalarning ijtimoiy muhitini o'rganish orqali, ijtimoiy intellektning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlaydi. Bu, oilalarning ijtimoiy aloqalarini mustahkamlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda

yordam beradi. Muammolarni hal etish: Psixologiya, yosh oilalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va hal etish uchun zarur bo'lgan bilimlarni taqdim etadi. Bu, oilalarga o'zaro munosabatlarni yaxshilash va ijtimoiy ko'nikmalarni oshirishda yordam beradi.

NATIJALAR

Tadqiqot va amaliyot: Psixologiya, yosh oilalarda ijtimoiy intellektni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi va amaliyotda qo'llaniladigan usullarni ishlab chiqadi. Bu, ijtimoiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va strategiyalarni yaratishga yordam beradi.

Umuman olganda, psixologiya fani yosh oilalarda ijtimoiy intellektni o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu fan, oilalarga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, oila ichidagi munosabatlarni yaxshilash va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan bilimlarni taqdim etadi.

Umuman olganda, yosh oilalarda ijtimoiy intellekt shakllanishining psixologik determinantlarini o'rganish, ularning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradigan muhim bir soha hisoblanadi.

Oilalarda ijtimoiy intellekt shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMALAR

Hissiy intellekt: Oilalarda ijtimoiy intellektning shakllanishida hissiy intellekt muhim rol o'ynaydi. Hissiy intellekt, shaxsning o'z hissiyotlarini va boshqalar hissiyotlarini tushunish, boshqarish va ularga moslashish qobiliyatidir. Yosh oilalarda hissiy intellektni rivojlantirish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Oila ichidagi munosabatlar: Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy intellektning shakllanishiga ta'sir qiladi. Oila ichidagi kommunikatsiya, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy intellektni rivojlantirishda muhim omillardir. Oila a'zolari o'rtasidagi ijobiy munosabatlar, bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy tajribalar: Yosh oilalarda ijtimoiy intellektning shakllanishida ijtimoiy tajribalar, masalan, do'stlar bilan muloqot, jamoaviy faoliyatlar va ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish muhimdir. Bu tajribalar bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va ijtimoiy vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishni o'rganishga yordam beradi. Shaxsiy xususiyatlar: Har bir insonning shaxsiy xususiyatlari, masalan, empatiya, ijtimoiy qobiliyatlar va o'z-o'zini anglash, ijtimoiy intellektning shakllanishiga ta'sir qiladi. Yosh oilalarda bolalarning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy intellektini oshirishga yordam beradi.

O'qitish va tarbiya: Oila a'zolari, ayniqsa ota-onalar, bolalarga ijtimoiy intellektni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarbiyaviy faoliyatlar, o'yinlar va ijtimoiy vaziyatlarda o'zaro muloqot qilish orqali bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish mumkin. Ijtimoiy muhit: Oila tashqarisidagi ijtimoiy muhit, masalan, maktab, do'stlar va jamoatchilik, yosh oilalarda ijtimoiy intellektning shakllanishiga ta'sir qiladi. Ijtimoiy muhitning ijobiy yoki salbiy ta'siri, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Umuman olganda, oilalarda ijtimoiy intellekt shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish, bolalarning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatini oshirishga

yordam beradigan muhim bir soha hisoblanadi. Bu jarayonni chuqurroq tushunish, oilalarga va jamiyatga ijtimoiy intellektni rivojlantirishda yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova.V.M. Oila psixologiyasi: Pedagogik oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ - T., 2007. - 316 q.
2. Bouen, Myurrey (1966), «Oilaviy nazariyadan klinik amaliyotda foydalanish»,
3. Klinik amaliyotda oilaviy terapiya (qayta nashr etish), Lanxem, tibbiyot fanlari doktori: Roman va Littlefield (nashriyot, 2004), 147-181-satrlar,
4. Шоумаров Ғ.Б. Хайдаров И.О Оила психологияси – Т.: Шарқ, 2008.Б.270.
- 5.Шарапова С. Ёшларда мафкуравий иммунитет шаклланганлигининг ижтимоий-психологик жиҳатлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020.

TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHINING KOGNITIV, MOTIVATSION, EMOTSIONAL VA INDIVIDUALLIK JIHLTLARINI EMPIRIK TAHLILI

*Jabborova Malohat Azimovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar akademik o'zlashtirishining kognitiv, motivatsion, emotsional va individuallik jihatlari empirik tahlil yoritilgan. Shuningdek talabalarning shaxsiy, intellektual fazilatlarini aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilganlikni oshirish, shaxsning o'zini o'zi belgilashini rag'batlantirish, individuallashtirish va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam berish, shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini optimallashtiradigan shart-sharoitlarni yaratish muammolarini hal qilish ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: akademik o'zlashtirish, ta'lim, ta'lim jarayoni, talaba, kognitiv, motivatsion, emotsional, individuallik.

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОГНИТИВНЫХ, МОТИВАЦИОННЫХ, ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ И ИНДИВИДУАЛЬНЫХ АСПЕКТОВ АКАДЕМИЧЕСКОЙ УСПЕВАЕМОСТИ СТУДЕНТОВ

*Джабборова Малохат Азимовна
Шахрисабзский государственный педагогический институт (PhD)*

Аннотация. В статье описан эмпирический анализ когнитивных, мотивационных, эмоциональных и индивидуальных аспектов академического развития студентов. Также повысит внимание к выявлению и развитию личностных и интеллектуальных качеств обучающихся, стимулировать самоопределение личности, способствовать индивидуализации и саморазвитию, решать задачи создания условий, оптимизирующих личностное и профессиональное развитие человека, подвергнутого научному анализу.

Ключевые слова: академическое обучение, образование, учебный процесс, обучающийся, познавательный, мотивационный, эмоциональный, индивидуальность.

EMPIRICAL ANALYSIS OF COGNITIVE, MOTIVATIONAL, EMOTIONAL, AND INDIVIDUAL ASPECTS OF STUDENTS' ACADEMIC ACHIEVEMENT

*Jabborova Malohat Azimovna
Shahrisabz State Pedagogical Institute (PhD)*

Abstrakt. This article provides an empirical analysis of the cognitive, motivational, emotional and individual aspects of students' academic development. It also scientifically analyzes the solution of the problems of identifying and increasing the orientation towards the development of students' personal and intellectual qualities, encouraging self-determination of the individual, helping individualization and self-development, and creating conditions that optimize the personal and professional development of the individual.

Keywords: academic development, education, educational process, student, cognitive, motivational, emotional, individuality.

Mavzu bayoni. Zamonaviy oliy ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishi talabalarning shaxsiy, intellektual fazilatlarini aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilganlikni oshirish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan o'quv jarayonida talabani shaxsini psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash dolzarb bo'lib qolmoqda. Psixologik-pedagogik loyihalar shaxsning o'zini o'zi belgilashini rag'batlantirish, individuallashtirish va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam berish, shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini optimallashtiradigan shart-sharoitlarni yaratish muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qish inson rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Tanlangan o'quv yo'nalishi nafaqat kelajakdagi kasbiy faoliyat subyekting muhim vakolatlarini shakllantirishga yordam beradi, balki shaxsning rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Har qanday kasb bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, ularni tushunish talabani ta'lim muvaffaqiyatiga ko'p jihatdan bog'liq. Bularning barchasi o'quv jarayonini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash doirasida shaxsning motivatsion xususiyatlarini o'rganish zarurligidan dalolat beradi.

Talabalar akademik o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri – talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligidir. Xususan, talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining empirik ko'rsatkichlarini normal taqsimotiga mosligini aniqlash orqali quyidagi natijalarga ega bo'ldik (1-jadval).

1-jadval

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining empirik ko'rsatkichlarini normal taqsimotiga mosligi

	A'lo bahoga o'zlashtirgan N=87	Yaxshi bahoga o'zlashtirganlar N=181	Qoniqarli bahoga o'zlashtirganlar N=193
	461	461	461
X	348.113	95.498	5.327
σ	42.9699	13.8812	1.6790
Z	0.043	0.048	0.212
r	0.039*	0.013	0.000**

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01

Natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, a'lo bahoga o'zlashtirgan talabalarda (N=87) o'rtacha arifmetik qiymat X=348.113, Z=0.043, p<0,05 qayd etildi. A'lo baho olgan talabalarda yaxshi (X=95.498, Z=0.048, p<0,05) va qoniqarli (X=5.327, Z=0.212, p<0,001) bahoga o'zlashtirganlarga nisbatan axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining shakllanganlik darajasi yaxshi rivojlanganligi, bu esa o'z navbatida

ta'lim samaradorligi va talabaning akademik o'zlashtirishi muvaffaqiyatiga olib kelishini kuzatish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasini o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ko'ra natijalari

Shkalalar	O'rtacha rang			N (Kraske- Uolles)	p
	A'lo bahoga o'zlashtirgan N=87	Yaxshi bahoga o'zlashtirganl ar N=181	Qoniqarli bahoga o'zlashtirganl ar N=193		
Axborotlarni qayta ishlash tezligi	243.34	247.21	209.65	8.563	0.014*
Umumiy aqliy qobiliyat	254.91	237.81	223.66	1.193	0.551
Xotira	256.48	224.1	205.35	15.837	0,000**

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ko'ra qoniqarli bahoga o'zlashtirgan talabalar uchun axborotlarni qayta ishlash tezligi shkalasi bo'yicha olgan ballari (R=209.65) a'lo va yaxshi bahoga o'qiyotgan talabalarga nisbatan ancha past ko'rsatkichni qayd etdi (H=8.563, p<0,05). Xotira shkalasi bo'yicha olingan natijalar (R=256.48 – 224.1 – 205.35) a'lochi talabalarda qolgan ikki guruhga nisbatan sezilarli darajada farq qilishini ko'rsatdi (H=15.837, p<0,001). Har bir talabaning ilmiy faoliyati va uning o'zlashtirish darajasiga talabalar tomonidan axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasi muhim rol o'ynar ekan.

Keyingi jadvalda talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining jinsga ko'ra natijalari ko'rsatib o'tilgan (3-jadval).

3-jadval

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining jinsga ko'ra natijalari

Tadqiqot davomida talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va

Shkalalar	O'rtacha rang		U (Mann-Uitni mezoni)	p
	Talaba qizlar N=260	Talaba yigitlar N=201		
Axborotlarni qayta ishlash tezligi	231.73	234.34	0.939	0.333
Umumiy aqliy qobiliyat	238.92	229.85	0.317	0.573
Xotira	276.30	237.17	3.862	0.029*

Tadqiqot davomida talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va umumiy aqliy qobiliyat shkalasi bo'yicha olingan jinsga ko'ra natijalari orasida farqlar sezilarli aniqlanmadi. Ya'ni, axborotlarni qayta ishlash tezligi shkalasi bo'yicha talaba qizlarda $R=231.73$ natija qayd etilgan bo'lsa, yigitlarda $R=234.34$ qiymat olindi. Ushbu shkalada Mann-Uitnining U – mezonini bo'yicha $p=0.333$ natijasi hosil bo'ldi.

Umumiy aqliy qobiliyat shkalasi bo'yicha talaba qizlarda o'rtacha rang miqdori $R=238.92$, yigit talabalarda $R=229.85$ ni tashkil etdi. Jinslar o'rtasidagi tafovut kam miqdorda ekanligi ($U=0.317$, $p=0.573$), umumiy natijalar standart me'yorga ko'ra o'rtacha darajada ekanligini ko'rish mumkin.

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasini jinsga ko'ra natijalaridagi sezilarli farq xotira shkalasida kuzatildi ($R_1=276.30$, $R_2=237.17$, $U=3.862$, $p<0,05$). Oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan talaba qizlarda talaba yigitlarga nisbatan xotirasi kuchliroq ekanligi qayd etildi. Talaba qizlarda yon atrofida sodir bo'ladigan voqelikni esda saqlab qolishi, qaytadan esga tushirishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi, keyinchalik undan unumli foydalanish sifatleri yigitlarga nisbatan yaxshi rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning akademik o'zlashtirishi ularning motivatsion sohasiga bevosita bog'liqdir. Talabalarning motivatsiya sohasi va stresstga barqarorligini o'rganish maqsadida Elers tomonidan ishlab chiqilgan "Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish" metodikasidan foydalandik (4-jadval).

4-jadval

Talabalarning motivatsiya sohasi va stressga barqarorligini o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari (Kruskal-Uolles mezoniga ko'ra) (N=461)

Shklalar	O'rtacha rang			N - (Kruskal-Uolles)	p
	A'lo bahoga o'zlashtirganlar N=87	Yaxshi bahoga o'zlashtirganlar N=181	Qoniqarli bahoga o'zlashtirganlar N=193		
Muvvafaqiyatga intilish motivatsiyasi	247.35	220.57	203,34	6.712	0.035*
Muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi	213.87	235.59	248.26	6.828	0.033*
Stresstga barqarorlik	182.29	230.23	246.47	11.789	0.003**

Izoh: *- $p<0,05$, **- $p<0,01$

Tadqiqot natijalarga tayanadigan bo'lsak, a'lo bahoga o'zlashtirgan talabalarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi ($H=6.712$, $p<0,05$) boshqa guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori (farqqa egaligi) ekanligini ko'rish mumkin. Muvaffaqiyatdan

qochish motivatsiyasi qoniqarli bahoga o'zlashtirgan talabalarda ustunlik qilishi aniqlandi ($H=6.828$, $p<0,05$). Stressga barqarorlik shkalasi bo'yicha talabalar quyidagi natijalarni qayd etishdi: a'lochi talabalar – 182.29, yaxshi bahoga o'zlashtirganlar – 230.23, va qoniqarli o'zlashtiruvchilar – 246.47. Guruhlarning stressga barqarorlik shkalasi bo'yicha natijalari orasida sezilarli darajada farqlar kuzatildi ($H=11.789$, $p<0.001$). Stress holati ko'p hollarda o'spirinlik davrida ko'proq uchraydi. Chunki o'spirinlar ko'proq his-tuyg'ularga beriladi, turli muhitlarga moslashishga to'g'ri keladi. Bu omillar esa – stressor vazifasini o'taydi. Albatta, oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi talaba-yoshlar ham turli stressni yuzaga keltiruvchi omillardan himoyalangan. Ushbu holat talaba yoshlar hayotida chuqur iz qoldirishi, psixologik muhitning buzilishiga olib kelishi, shuningdek, uning akademik o'zlashtirishiga bevosita salbiy ta'sirini o'tkazishi tabiiy.

Keyingi jadvalda talabalarining motivatsiya sohasi va stressga barqarorligini o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalarni jinslar o'rtasida farqli jihatlari aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

Talabalarining motivatsiya sohasi va stressga barqarorligini o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari

Shklalar	O'rtacha rang		U (Mann-Uitni mezoni)	p
	Talaba qizlar N=260	Talaba yigitlar N=201		
Muvvafaqiyatga intilish motivatsiyasi	113.64	111.97	5888	0.851
Muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi	122.45	97.73	4663.5	0.005**
Stresstga barqarorlik	112.34	114.06	5885.5	0.839

- $p<0.01$ **

Olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi va stressga barqarorlik shkalalari bo'yicha talaba qizlar va yigitlar o'rtasidagi farq kuzatilmadi, bu natija standart me'yorga ko'ra, o'rtacha darajani tashkil etadi.

Muvaffaqiyatdan qochish shkalasida o'rtacha rang miqdori qizlarda $R=122.45$, yigitlarda $R=97.73$ qiymat aniqlandi. Ikki guruh talabalari o'rtasida sezilarli farq kuzatildi ($H=4663.5$, $-p<0,05$).

Navbatdagi jadvalda Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Shahrizabz davlat pedagogika institutida tahsil oluvchi talabalarining individualligi rasmiy-dinamik xususiyatlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari keltirildi (6-jadval).

6-jadval

Talabalar individuallik xususiyatlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari (Kraskal-Uollis mezoniga ko'ra)

Individuallik sohalari	Shklalar	O'rtacha rang			N (Kraskel-Uolles)	P
		A'lo bahoga o'zlashtirganlar N=87	Yaxshi bahoga o'zlashtirganlar N=181	Qoniqarli bahoga o'zlashtirganlar N=193		
Motorika sohasi	Erglik (MER)	235.99	231.6	227.66	0.205	0.902
	Plastiklik (MP)	249.95	228.85	226.44	1.459	0.482
	Tezlik (MT)	199.49	230.63	239.68	4.094	0.129
Intellekt sohasi	Erglik (IER)	284.53	247.4	234.32	10.014	0.00**
	Plastiklik (IP)	279.55	239.39	216.19	9.835	0.007**
	Tezlik (IT)	179.55	239.39	236.19	1.642	0.440
Kommunikativ sohasi	Erglik (KER)	224.21	225.32	234.47	0.569	0.011*
	Plastiklik (KP)	247.35	239.2	218.04	7.730	0.255
	Tezlik (KT)	219.37	232.99	231.15	0.486	0.784
Emotsioanal sohasi	Erglik (EER)	215.77	228.66	236.92	1.209	0.546
	Plastiklik (EP)	226.57	224.14	238.57	1.249	0.535
	Tezlik (ET)	203.2	237.21	231.44	2.997	0.223

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01

Tadqiqotdan olingan natijalarga ko'ra, shaxs individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlari so'rovnomasining birinchi shkalasi psixomotor faoliyatga chidamlilik talabalarda 235.99-231.6-227.66 darajalar bilan guruhlarda o'rtacha sezilarli kam farq aniqlandi va ahamiyatsiz qiymat aks etdi ($H=0.205$, $p=0.902$).

Psixomotor faoliyatga plastiklik shkalasi bo'yicha olingan natijalar 249.95 - 228.85 - 226.44 kabi qiymatlarni tashkil etdi va ahamiyatlilik darajasi – $p=0.482$ qayd etildi. Bu shkalada a'lochi talabalar bir vaqtningo'zida bir nechta fanlardan bilimlarni o'zlashtirishga kirisha oladi, doimiy izlanuvchan. Yaxshi va qoniqarli bahoga o'zlashtirgan talabalar asosan bir maromda ishlashga moyil, har xil faoliyat olib borilayotgan muhitdan qo'rqish holatlari kuzatiladi, odatlanib qolgan ta'lim muhitini yoqtiradi.

Psixomotor faoliyatning tezlik shkalasiga ko'ra, talabalar natijalari 199.49 - 230.63 - 239.68 darajadagi qiymatni tashkil etganligi va ahamiyatlilik darajasi esa ($p=0.129$) o'rtachadan past farq aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, qoniqarli bahoga o'zlashtirgan talabalarda boshqa guruh talabalariga nisbatan har xil harakat faolligida psixomotor

xulq-atvori biroz yuqoriroq tempda ekanligini ko‘rish mumkin.

Intellektual faoliyatga chidamlilik shkalasiga ko‘ra, sinaluvchilarning natijalari 284.53 - 247.4 - 234.32 ni tashkil etganligi va ahamiyatlilik darajasi esa ($H=10.014$, $p<0,01$) sezilarli darajada yuqori natijani ifodalaganligini ko‘rish mumkin. Akademik o‘zlashtirish bo‘yicha ushbu soha eng maqbul soha sanaladi. Natijalarga ko‘ra, a‘lo bahoga o‘zlashtirgan talabalarda (284.53) intellektual imkoniyatlari yuqori, ta‘lim olishga qobiliyati yetarli darajada, aqliy zo‘riqlashlarni talab etuvchi faoliyatga doimo intiladi. Tez fikrlash qobiliyati ancha shakllangan.

Intellektual faoliyatga plastiklik shkalasi bo‘yicha respondentlardan olingan natijalar: 279.55 - 239.39 - 216.19 ni tashkil etdi. Bu shkalada ham a‘lochi talabalarda tafakkurning yuqori darajada egiluvchanligi boshqa talabalarga nisbatan ancha yaxshi ekanligi qayd etildi ($H=9.835$, $p<0,01$). Ushbu talabalarda tafakkur yuqori darajada egiluvchan, tafakkur bir shakldan boshqasiga yengil o‘ta oladi, har xil aqliy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga intiluvchan, muammoni ijodiy hal etishga harakat qilishadi.

Kommunikativ faoliyatga chidamlilik shkalasiga ko‘ra talabalar natijalari 224.21 - 225.32 - 234.47 ko‘rsatkichlar bilan me‘yoriy natijalarda sezilarni farqni ($H=0.569$, $p<0,05$) namoyon qilgan. Oliyohda tahsil olayotgan talabalarda muloqotga bo‘lgan ehtiyoj va munosabatlari doirasi, yangi tanishlar orttirishga intilishi, muloqotmandlik darajasi ham o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Kommunikativ faoliyatga plastiklik shkalasi bo‘yicha talabalarda 247.35 - 239.2 - 218.04 kabi natijalar qayd etildi hamda o‘zaro farqli o‘rtacha tafovutlarni namoyon qilayotganligini bildiradi. Bu shkalada ahamiyatlilik darajasi qoniqarli baholarda o‘qiyotgan talabalarda boshqa guruhlariga nisbatan biroz pastroq ekanligi qayd etilgan ($H=7.730$, $p=0.255$). Bunday talabalar yangi sotsial munosabatlarga kirishishga tayyorligi past darajada, deb boholash mumkin, sotsial munosabatlarda harakatlarini xotirjam o‘ylab amalga oshiradi, munosabat uslublari bir xil, kommunikativ dasturlari to‘plami cheklangan.

Talabalar natijalari emotsional sohasidagi chidamlilik shkalasi bo‘yicha 215.77 - 228.66 - 236.92, $H=1.209$, $p=0.546$, plastiklik shkalasi bo‘yicha 226.57 - 224.14 - 238.57, $H=1.249$, $p=0.535$, tezlik shkalasi bo‘yicha 203.2 - 237.21 - 231.44, $H=2.997$, $p=0.223$ natijalar qayd etildi. Yuqoridagi shkalalar bo‘yicha olingan natijalar o‘rtasidagi farq juda kam miqdordagi tafovutni namoyon qilgan. Bu tipdagi talabalar muloqotdagi omadsizliklarni o‘rtacha emotsional kechinmalar bilan boshdan o‘tkazadi. Shaxslararo munosabatlarga sezgirliги tipik insonlarga xos, quvonchini o‘rtacha ifodalaydi va sotsial aloqalarda o‘ziga ishonchi o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotdan olingan natijalarga ko‘ra, shaxs individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlarini o‘rganish so‘rovnomasi natijalari shu narsadan dalolat beradiki, sinaluvchilarning mazkur so‘rovnoma bo‘yicha olgan ko‘rsatkichlari umumiy o‘rtacha natijalarni keltirib chiqargan.

Keyingi jadvalda Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universitetida tahsil oluvchi talabalar natijalari o‘quv faoliyat motivatsiyalarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalar keltirildi. Ushbu natijalar T.O.Gordeyeva, O.A.Sechev va E.N.Osin tomonidan ishlab chiqilgan “Akademik motivatsiya shkalasi” metodikasi va Kraskel-Uolles statistik H-mezone yordamida olingan (7-jadval).

Talabalarning o'quv faoliyat motivatsiyalarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari

Shklalar	O'rtacha rang			N (KraskeUolles)	p
	A'lo bahoga o'zlashtirganlar N=87	Yaxshi bahoga o'zlashtirganlar N=181	Qoniqarli bahoga o'zlashtirganlar N=193		
Bilish	283.72	234.59	229.28	8.373	0,000**
Erishish	340.34	227.79	231.69	5.433	0.012*
O'zini o'zi rivojlantirish	241.28	234.90	223.66	1.154	0.561
O'zini o'zi hurmat qilish	239,29	234,17	227,87	1,378	0,628
Introyeksiyalash	310.43	226.12	233.47	6.242	0.021*
Eksternal	337.35	226.84	233.62	1.657	0.720
Amotivatsiya	251.89	226.81	229.28	1.432	0.806

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,001

Tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning o'quv faoliyat motivlari oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar o'zlashtirish samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir qilar ekan. Xususan, bilish (kognitiv) motivatsiya shkalasi bo'yicha a'lo bahoga o'zlashtirgan talabalarda o'rtacha rang – R=283.72 boshqa guruh talabalariga nisbatan ancha yuqori ekanligi namoyon bo'ldi. KraskeUollesning H – mezonini bo'yicha olingan statistik natijalarda ushbu guruhlar orasida sezilarli farq mavjudligini ko'rish mumkin (H=8.373, p<0,001). A'lochi talabalarda yangi narsalarni o'rganish istagi juda kuchli, diagnostik tahlil, bilish jarayonida qiziqish va zavqlanish tajribasi bilan bog'liq bo'lgan o'rganilayotgan mavzuni tushunish sifatleri yaxshi rivojlangan.

Erishish shkalasi bo'yicha olingan natijalar bilish (kognitiv) motivatsiya shkalasiga o'xshashdir. Chunki, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga intilish va erishish motivi har bir talaba uchun yuqori bo'lsa, o'zlashtirish samaradorligi bo'yicha ham shunchalik yuqori natija qayd etiladi R= (340.34 - 227.79 - 231.69, H=5.433, p<0,05). Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shkalasi natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, a'lochi talabalarda o'qishda eng yuqori natijalarga erishish, qiyin muammolarni hal qilish jarayonida zavqlanish istagi yaxshi va qoniqarli bahoga o'zlashtirgan talabalarga nisbatan ancha yuqori ifodalanganligi ko'rinadi.

Introyeksiyalash shkalasiga ko'ra, oliy ta'limda tahsil oluvchi talabalarda R= (310.43 - 226.12 - 233.47) darajadagi qiymat qayd etilgan. Introyeksiyalash motivi a'lochi talabalarda yuqori ko'rsatkichni qayd etib (H=6.242, p<0,05), yaxshi va qoniqarli baholarga o'zlashtirgan talabalarga nisbatan sezilarli farqni ko'rsatdi. Bunday

talabalar ta'lim muassasasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'quv faoliyatiga bog'liq muammolarni oldini olish uchun o'qiydi, izlanadi, yangi bilimlar olishga harakat qiladi.

O'zini o'zi rivojlantirish ($H=1.154$, $p=0.561$), o'zini o'zi hurmat qilish ($H=1,378$, $p=0,628$), eksternal ($H=1.657$, $p=0.720$), amotivatsiya ($H=1.432$, $p=0.806$) shkalalari bo'yicha olingan natijalarga ko'ra, talabalarning o'quv faoliyat motivatsiyalarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq va ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Ya'ni, barcha guruhdagi talabalarning akademik o'zlashtirishiga o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi hurmat qilish, eksternal motivlari birdek ta'sir etishi aniqlandi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan dars jarayonlarida qo'llaniladigan o'quv faoliyati uslublari ham talabalarning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etganligi tadqiqot ishimizda isbotlandi (8-jadval).

8-jadval

O'quv faoliyati uslublarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari

Shklalar	O'rtacha rang			N (Kruskal-Uolles)	p
	A'lo bahoga o'zlashtirgan N=87	Yaxshi bahoga o'zlashtirganlar N=181	Qoniqarli bahoga o'zlashtirganlar N=193		
Bilishdagi faolligi va o'qishga yo'nalganlik	270.13	236.63	220.54	9.845	0,004**
O'quv topshiriqlarini bajarishdagi qat'iyatlilik va mustaqillik	284.97	253.67	231.77	7.524	0.023*
O'z harakatlarini nazorat qilishning shakllanganligi	278.01	243.38	225.75	6.341	0.009**
O'quv faoliyati dinamikasi	312.85	289.60	221.60	10.605	0.000**
O'quv faoliyatini borishidagi tartib-intizom va tashkillashganlik	246.72	234.05	225.96	0.494	0.781
O'quv mashg'ulotlar uchun optimal sharoitning yaratilganligi	239.06	234.36	224.92	0.749	0.688
Diqqat va o'zini o'zi tartibga solish	268.21	231.24	228.58	8.136	0.005**

Izoh: *- $p<0,05$, **- $p<0,01$

Talabalarda o'quv faoliyati uslublarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari

yuzasidan olingan tadqiqot qiymatlaridan ma'lum bo'lishicha, oliy ta'limda tahsil oluvchi talabalarning ko'rsatkichlari o'ziga xos amaliy natijalarni keltirib chiqargan. O'quv faoliyati uslublari keltirilgan barcha shkalalarda a'lo baholarda o'zlashtirgan talabalarning ko'rsatkichlari yaxshi va qoniqarli baholarda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini qayd etgan talabalarga nisbatan yuqori qiymat qayd etdi. Xususan, birinchi shkala bo'yicha o'quv faoliyati uslublari o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari $p=0,004^{**}$ qiymati bilan alohida xarakterlangan. Talabalarning bilishdagi faolligi va o'qishga yo'nalganlik shkalasi bo'yicha a'lochi talabalarda boshqa guruh talabalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ta'kidlash lozim ($H=270.13$, $-p<0,01$).

Keyingi shkalalarda o'quv faoliyati uslublari talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha (o'quv topshiriqlarini bajarishdagi qat'iyatlilik va mustaqillik shkalasi – 284.97 - 253.67 - 231.77, $H=7.524$, $-p<0,05$; o'z harakatlarini nazorat qilishning shakllanganligi – 278.01 - 243.38 - 225.75, $H=6.341$, $-p<0,01$; o'quv faoliyati dinamikasi – 312.85 - 289.60 - 221.60, $H=10.605$, $-p<0,01$; diqqat va o'zini o'zi tartibga solishda – 268.21 - 231.24 - 228.58, $H=8.136$, $-p<0,01$) sezilarli farqlar aniqlandi.

Ta'limda o'quv faoliyati uslublari takomillashtirish, talaba yoshlarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarini tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay bilish va hisobga olish, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay olish, pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, talabaga nisbatan talabchan bo'lish, pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olish ta'lim jarayonida akademik o'zlashtirishning muhim shartlari ekanligi dalillandi.

Talabalarning o'zini o'zi tashkil etish usullari, o'quv faoliyatlari, undagi sifat va jadallashuv ta'lim berish sifatini, balki shunga mos ravishda, mutaxassislar tayyorlash natijalarini ham aniqlab beradi. Modomiki talaba ta'lim tizimining subyekti sifatida uning qobiliyati mustaqil, ongli va maqsadli harakat qilishini nazarda tutadi. Tadqiqotimiz davomida talabalarning o'zini o'zi tashkil etish usullari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari orasida ham bog'liqlik mavjud ekanligini aniqladik (9-jadval).

9-jadval

Talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etish usullari va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalar

Shklalar	O‘rtacha ranga			N (Kraske-Uolles)	p
	A‘lo bahoga o‘zlashtirganlar N=87	Yaxshi bahoga o‘zlashtirganlar N=181	Qoniqarli bahoga o‘zlashtirganlar N=193		
O‘z faoliyatini amalga oshirish	331.76	287.30	234.80	7.356	0.000*
Irodaviy kuch	324.42	265.32	236.98	6.772	0.017**
Korreksiya	250.36	226.80	229.75	1.794	0.408
O‘zini nazorat qilish	320.77	230.59	233.28	0.455	0.002**
Rejalashtirish	318.33	327.22	288.92	1.457	0.483
Vaziyatni tahlil qilish	222.64	222.72	241.28	2.249	0.325
Maqsad qo‘yish	293.52	224.07	237.78	1.118	0.572

Izoh: *- $p < 0,05$, **- $p < 0,01$

Tahlillarimiz natijalariga ko‘ra, talabalar o‘zlashtirishiga ta’sir etuvchi o‘zini o‘zi tashkil etish usullari orasidan o‘z faoliyatini amalga oshirish ($H=7.356$, $-p < 0,05$), irodaviy kuch ($H=6.772$, $-p < 0,01$), o‘zini nazorat qilish ($H=0.455$, $-p < 0,05$), rejalashtirish ($H=1.457$, $p=0.483$), maqsad qo‘yish ($H=1.118$, $p=0.572$) shkalalaridagi qiymatlarning yuqori darajasi asosan a‘lo bahoga o‘zlashtirgan talabalarda kuzatildi.

Xulosa. Yuqori natija qayd etgan talabalarda o‘zining harakatini rejalashtirish – o‘z maqsadini tanlash, ularga erishishning yo‘l va vositalarini aniqlash, berilgan topshiriqlarni yechish uchun o‘z imkoniyatlarini birlashtirish-tashkillashtirish, shuningdek, o‘z faoliyatini nazorat qilishi va mos ravishda baholash, o‘zining keyingi harakatlarini o‘zi nazorat qilishi va o‘zini o‘zi baholashni amalga oshirish sifatlari yaxshi shakllanganligini qayd etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jabborova M. THEORETICAL INTERPRETATION OF STUDENTS’ ACADEMIC ACHIEVEMENT // Solution of social problems in management and economy. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 36-40.

2. Jabborova M.A. Study of psychological analysis of problems forming in young families as a problem. 2024 y.

3. Jabborova M.A. Psychological Determinants of Students’ Academic Performance as a Problem // EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL

EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 316-318.

4. Жабборова М. А. Исследование детерминант академической успеваемости студентов в мировой психологии. Вестник интегративной психологии. Выпуск 30, 2023. г. Бухара - Ярославль. (19.00.00; №2). –С. 65-69.

5. Jabborova M.A. Educational Reforms Are the Main Criteria for the Development of Youth //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 111-114.

6. Jabborova M.A. Talabalar akademik o'zlashtirish determenantlarining xorijiy psixologiyada o'rganilganlik holati. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda tarixiy muzeylarning o'rni (Qashqadaryo moddiy-madaniy yodgorliklari va muzeylari misolida) mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 440-445 b.

7. Jabborova M.A.. Talabalar akademik o'zlashtirishida yuzaga keluvchi muammolarni ijtimoiy-psixologik yechimlari. O'ZMU XABARLARI 2023,[1/8/1] ISSN 2181-7324. 2023/8. 96-99 b.

RUHIY ZO'RAVONLIKNING RIVOJLANISHIDA OTA-ONANING O'RNI

*Jurakulova Dildora Ziyadullayevna,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dosenti*

Annotasiya: Ushbu maqola oilalarda yuzaga keladigan ruhiy zo'ravonliklarni oldini olish hamda bola shaxsining shakllanishiga ta'sir qiladigan tazyiqlarni bartaraf etishga qaratilgan jarayonlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Oila, bola, ruhiy zo'ravonlik, his-tuyg'u, tajovuzkor, muvaffaqiyatsizlik, norma va talab, xo'rlanish va qo'rquv.

РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО НАСИЛИЯ

*Джуракулова Дильдора Зиядуллаевна,
Доцент Ташкентского государственного педагогического университета*

Annotasiya: В данной статье рассматриваются процессы, направленные на предотвращение психического насилия в семье и устранение давления, влияющего на формирование личности ребенка.

Ключевые слова: Семья, ребенок, эмоциональное насилие, эмоция, агрессия, несостоятельность, норма и требование, унижение и страх.

THE ROLE OF PARENTS IN THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL VIOLENCE

*Jurakulova Dildora Ziyadullayevna,
Associate Professor at Tashkent State Pedagogical University*

Annotasiya: This article examines processes aimed at preventing mental violence in the family and eliminating pressure that affects the formation of the child's personality.

Keywords: Family, child, emotional violence, emotion, aggression, failure, norm and requirement, humiliation and fear.

Ma'lumki, oilaviy tarbiya inson kamolotida muhim o'rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat kabi yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarini shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir. Biroq keyingi yillarda oilada farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, nuqsonlarga duch kelinmoqda. Tabiiyki, ushbu muammolar bolalar va o'smirlar xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ota-onalarning oilada farzandlari bilan qilayotgan muomala va munosabatlari

ko'rinishlari bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Oilada qahr-g'azab asosidagi ota-ona munosabati bolalarni uydan bezdiradi. Uydan bezish, oila muhitini tan olmaslik o'smirlarda oilaviy muhitga nisbatan deformatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Natijada o'smir oiladan tashqari ko'cha muhitini o'ziga ma'qul ko'radi.

Ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari ham o'smirni g'ayriqonuniy xulq-atvorga olib keladi.

Shaxsning buzg'unchi xulq-atvorining sabablaridan biri bu oiladagi buzg'unchi ta'lim amaliyotlari (jismoniy jazo, so'kinish, maksimal talablar va boshqalar) bo'lib, bu o'smirlarda ruhiy beqarorlik va nevrozlarni keltirib chiqaradi, ularda yuzaga kelgan zaiflik kompleksi, o'ziga past baho berish (hatto o'z-o'zini rad etish). Salbiy jarayonlarning shakllanishi o'smir hulqining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Salbiy tajribalarning asosiy manbai oilaviy nizolardir. O'z navbatida, oilaviy nizolar og'ir ijtimoiy turmush sharoiti, kattalarning o'z muammolarini yengishga psixologik tayyor emasligi va shunga mos ravishda bu muammolarni oilaviy munosabatlar sifatida shakllanishiga asos bo'ladi.

Psixologik buzg'unchi xulq-atvorni rivojlanish xavfini quyidagilar asosida aniqlanadi:

□ haddan tashqari himoya - bu bolalar uchun bo'rttirilgan, mayda tashvish. Bunday tarbiya haqiqiy hayotda muvaffaqiyatsizlik va mag'lubiyatga uchragan qaram kishilarni tayyorlaydi. Ular xayolparastlikka moyil bo'lib, muammolar sehri tarzda hal qilinadiganday tasavvur dunyosida yashaydilar;

□ haddan tashqari talablarni qo'yish - ota-onalar tartib, intizom, majburiyatlarning qat'iy bajarilishini talab qiladilar. Buzg'unchi xulq-atvorning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratish o'zaro tushunish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Hissiy aloqaning etishmasligi bolaning o'z xayoliy dunyosiga kirib ketishiga yordam beradi;

□ oldindan aytib bo'lmaydigan hissiy reaksiyalarga ega bo'lganlar. Bunday oilalarda ota-onalarning kayfiyati va farzandlariga bo'lgan munosabati kutilmagan o'zgarishlarga moyil. Isterik xarakterga ega bo'lgan yuksak odamlar o'zlarini shunday tutishadi. Bolalar keyingi daqiqada ota-onalaridan nima kutishlarini bilishmaydi, chunki ular xuddi shu narsa uchun jazolanishi yoki yoqilishi mumkin. Bolalar o'zlarini ishonchsiz his qilishadi, ularda ota-ona mehriyatiga ishonch yo'q;

□ gipoproteksiya - bolalarga yetarlicha e'tibor bermaslik. Bolalar o'z holiga tashlab qo'yiladi, ko'pincha minimal moddiy ehtiyoj ham ta'minlanmaydi. Ota-onalar o'rtasidagi janjal, bolalarni kaltaklash mumkin. Bolalar ko'cha kompaniyalarida vaqt o'tkazishni afzal ko'rishadi. Spirtli ichimliklar va ruhiy holatni o'zgartiradigan boshqa moddalarga erta ta'sir qilish odatiy holdir. Ma'naviy soha shakllanmagan, qiziqishlar nihoyatda cheklangan, iroda sust rivojlangan.

Buzg'unchi xulq-atvorni shakllantiradigan oilaviy tarbiyaning umumiy noqulay sharoitlariga ota-onalarning bolalarga yetarlicha e'tibor bermasligi, iliqlik va mehrning yetishmasligi kiradi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va qarovsizlikning 4 ta asosiy shakli mavjud:

1. Jismoniy zo'ravonlik

2. Jinsiy zo'rvonlik yoki korrupsiya
3. Ruhiy (hissiy) zo'rvonlik
4. Bolaning asosiy ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirish (axloqiy shafqatsizlik)

Shulardan biri bo'lgan - ruhiy (hissiy) zo'rvonlik haqida fikr yuritamiz:

Ruhiy (emotsional) zo'rvonlik - bu bolada patologik xarakter xususiyatlarini shakllantirishga olib keladigan yoki uning shaxsiyatining rivojlanishini buzadigan uzoq muddatli, doimiy yoki davriy psixologik ta'sir. Zo'rvonlikning ushbu shakli quyidagilarni o'z ichiga oladi: bolani ochiqchasiga rad etish va tanqid qilish, uning qadr-qimmatini haqorat qilish va kamsitish, jismoniy zo'rvonliksiz og'zaki shaklda namoyon bo'ladigan bolaga tahdid qilish, bolani ataylab jismoniy yoki ijtimoiy izolyatsiya qilish, bolaga haddan tashqari talablar qo'yish. uning yoshi va imkoniyatlariga mos kelmasligi, yolg'on gapirish va kattalar tomonidan berilgan va'dalarni bajarmaslik, bolaning ishonchini buzish. Bolada ruhiy jarohatga olib keladigan yagona qattiq ruhiy ta'sir ham zo'rvonlikning ushbu turiga kiradi.

Gumon qilish mumkin bo'lgan bolaning tashqi ko'rinishining xususiyatlari hissiy zo'rvonlik quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

- jismoniy va aqliy rivojlanishning kechikishi;
- turli somatik kasalliklarning mavjudligi (semizlik, to'satdan vazn yo'qotish, oshqozon yarasi, teri kasalliklari, allergik patologiya);
- asab turlari;
- enurez;
- qayg'uli ko'rinish.

Gumon qilish mumkin bo'lgan bolaning hissiy zo'rvonlik xatti-harakatining xususiyatlari:

- bezovtalik yoki tashvish;
- uyqu buzilishi;
- uzoq muddatli depressiya holati;
- tajovuzkorlik;
- yolg'izlikka moyillik;
- haddan tashqari itoatkorlik va iltifotli, beadab xatti-harakatlar;
- ekssentrik xatti-harakatlar;
- o'z joniga qasd qilish tahdidlari va urinishlari;
- boshqa odamlar, shu jumladan tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qila olmaslik;
- maktabda yomon baholar olishi;
- o'ziga past baho berish;
- ishtahaning yo'qolishi.

O'z farzandlariga nisbatan hissiy shafqatsizlikdan kattalar xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- bolani haqorat qilish, ayblash, ommaviy ravishda kamsitish;
- haqiqatan ham qo'rqib ketgan yoki tushkunlikka tushganda tasalli berishdan bosh tortish;

- bolaga nisbatan doimiy giperkritik munosabat;
- bolaning salbiy xususiyatlariga e'tibor bermaslik;
- bolani sevimagan yoki nafratlangan odam bilan qiyoslash;
- muvaffaqiyatsizliklari uchun javobgarlikni uning zimmasiga yuklash;
- bolani yoqtirmaslik yoki nafratni ochiq tan olish.

O'smirlik muhitida salbiy hodisalarning tarqalishiga tengdoshlarning bir-biriga ta'siri va bu yoshga xos bo'lgan taqlid, guruhlash, kattalarga qarshilik va oddiy qiziquvchanlik reaksiyalari yordam beradi.

Iqtisodiy inqiroz oiladagi psixologik iqlimning o'zgarishiga ta'sir qildi. Bolalar ko'proq hissiy mahrumlikni his qila boshladilar. Ish bilan haddan tashqari yuklangan yoki ish qidirish bilan band bo'lgan ota-onalar jismoniy va psixologik jihatdan tobora charchashadi va bolalariga kamroq kuch va e'tibor berishlari mumkin. O'zlari va farzandlari uchun munosib hayotni ta'minlay olmaslikning aniq belgilari ota-onalarning o'zini o'zi qadrlashiga putur yetkazadi, ularning ruhiyatiga kamchilik va nomuvofiqlik tuyg'usini kiritadi, bu esa hech qanday holatda bolalar bilan ijobiy hissiy aloqalarga yordam bermaydi. Ota-onalarning o'zlari o'rtasidagi hissiy keskinlik, mavjudlikning bir xil moddiy ishonchsizligi tufayli kuchayadi.

O'smirlar asta-sekin oilada o'zlarining keraksizligi his qilib, o'zlarini oila ichidagi muammolarning manbai sifatida qabul qilish g'oyasini rivojlantiradilar, bu ularning psixologik holatiga eng katta salbiy ta'sir qiladi (hamma narsaga befarqlik bilan qaraydi). Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda buzg'unchi xatti-harakatlar shakllari rivojlanadi - cheksiz tanqid, ayblovlar, qoralashlar, haqoratlar, kaltaklar. O'smirlar har soniyadan ko'ra ko'proq qo'zg'aluvchanlik, g'azab, doimiy qichqiriq, g'azab, onasidan va hatto otasidan ham ularga nisbatan haqorat qilish haqida gapirishadi. Aytishimiz mumkinki, hozir ota-onalarning o'smirlarga munosabatida qattiqqo'l, talabchan, avtoritar, ko'rsatma uslubi ustunlik qiladi.

Ota-onalar tomonidan bolalar va o'smirlarni jismoniy jazolash muammosi dolzarb bo'lib qoldi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarga ko'ra, agar bundan 7-10 yil oldin bolalarga bunday ta'sir qilish usullarining eng yuqori cho'qqisi 7-9 yoshda bo'lgan bo'lsa va 11-13 yoshga kelib u sezilarli darajada zaiflashib, 14 yoshga kelib yo'qolgan bo'lsa, ammo hozir bu cho'qqi 9-11 yoshda sodir bo'ladi, asta-sekin 13-14 yoshga to'g'ri keladi va taxminan 15-16 yoshda tugaydi.

Bundan tashqari, bu amaliyot qurbonlari nafaqat o'g'il bolalar, balkiqiz bolalar hamdir, ular ota-onalarga ko'proq muammo tug'diradi. Ota-onalarga (asosan otalarga) «Sizni o'g'lingiz yoki qizingiz bilan muammolarni hal qilishning kuchli usuliga murojaat qilishingizga nima majbur qiladi?» Degan savol berilganda, eng ko'p javoblar ikkita edi: «Qo'rquv» va ... «So'z yo'q»dir degan fikrning mavjudligi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning turli shakllarining quyidagi ko'rsatkichlari va ta'riflari zo'ravonlikni aniqlash, bolalarga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilishning samarali tizimini yaratish yo'lidagi birinchi qadamdir. Zo'ravonlikdan jabr ko'rgan bolalarga tibbiy, psixologik, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish xizmatlarining xorijda ham, mamlakatimizda ham to'plangan ko'p yillik amaliy

ish tajribalarda ko'rishimiz mumkin. Asosiy hujjat Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya bo'lib, uning qoidalaridan bola har qanday zo'ravonlik, uning manfaatlarini e'tiborsiz qoldirish va ekspluatatsiya qilishdan himoyalangan bo'lishi kerak. Konventsiyada ta'kidlanganidek, «18 yoshgacha bo'lgan har bir inson boladir», shuning uchun bolalarga nisbatan zo'ravonlikning har qanday shakliga ta'riflar ushbu yosh davriga tegishli.

Bolaning shakllanishi va rivojlanishida oilaviy tarbiya muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda ota-ona asosiy e'tiborini farzandiga qaratmog'i lozimdir. Oila ko'p jihatdan jamiyatning ko'zgidir. Shuning uchun bu muammoni xalq salomatligi va xavfsizligini saqlashga davlat yondashuvi darajasida ko'rib chiqish kerak. Zero farzandlarimiz bizning ertangi kunimiz davomchilaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.А.Парыгина “Ауол – zo'rlik qurboni” Власть и управление на Востоке России, 212-227бет, 2009
2. Karimova V. Oila himoyasi davlat siyosatining ustivor yo'nalishi // HUQUQ VA BURCH. – №5. – Т., 2007. – Б. 31.
3. Джуракулова Д.З. // Влияние психологического насилия в семье на формирование деструктивного поведения подростков // Вестник Интегративной Психологии, 2024 Выпуск 33, часть 2.
4. Джуракулова Д.З. // Роль психологического насилия в формировании личности ребенка // Multidisciplinary Journal of Science and Technology Vol. 4 No. 11 (2024) 467-470 стр
5. Гребёнкин Ф.Б. Уголовно-правовое значение психологического насилия в преступлениях против собственности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. –М., 2004. –С. 6.

TA'LIMNING SHAXS RIVOJIDAGI O'RNI VA O'QUV MOTIVATSIYASI

*Kayumova Go'zal Narzullayevna,
Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola bola hayotining asosiy qismini o'tkazadigan, ilm olib, yangi bilimlarni egallaydigan muqaddas maskan-maktab va unda o'quvchi shaxsining rivojlanishi to'g'risida bo'lib, psixologik tadqiqot va uning natijalari keltirilgan. Inson shaxs bo'lib kamol topishi va to'g'ri hayotiy pozitsiyani tanlay olish ko'nikmasi maktab chog'laridanoq boshlanadi.

Kalit so'zlar: Maktab, o'quvchi, bilim, ta'lim, qobiliyat, qiziqish, o'qituvchi, muloqot, tadqiqot.

THE ROLE OF THE SCHOOL IN THE DEVELOPMENT OF THE STUDENT'S PERSONALITY AND EDUCATIONAL MOTIVATION

*Kayumova Gu'zal Narzullayevna,
Teacher, Department of Psychology, Termez State University*

Abstrakt: This article is about the sacred place-school where the child spends the main part of his life, learning and acquiring new knowledge, and the development of the student's personality in it, psychological research and its results are presented. The ability to grow as a person and choose the right life position starts from school days.

Key words: School, student, knowledge, education, ability, interest, teacher, communication, research.

РОЛЬ ШКОЛЫ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ УЧЕНИКА И УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ

*Каюмова Гузал Нарзуллаевна,
Преподаватель кафедры психологии Термезского государственного университета*

Аннотация: В данной статье речь идет о священном месте-школе, где ребенок проводит основную часть своей жизни, обучаясь и приобретая новые знания, и развитию в ней личности ученика, представлены психологические исследования и их результаты. Умение расти как личность и выбирать правильную жизненную позицию начинается со школьных лет.

Ключевые слова: Школа, ученик, знания, образование, способности, интерес, учитель, общение, исследование.

Biz esimizni tanigan chog'imizdanoq, ko'chamizdan sumkasini taqib olib, chiroyli formalarda maktabga ketayotgan bolalarga havas qilamiz, ularga ergashamiz. Maktab bolaning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi, ularning kognitiv, ijtimoiy va hissiy o'sishini shakllantiradi va ularning umumiy farovonligi uchun oziqlantiruvchi muhitni ta'minlaydi. Akademik ta'limdan tortib, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishgacha, bola rivojlanishida maktabning o'rni katta.

Maktabning bolalar kelajagini shakllantirishga va ularning har tomonlama rivojlanishiga qanday ta'siri borligini biz bilamiz. Bola rivojlanishi deganda, bolalarda

tug'ilishdan boshlab o'smirlik davrida sodir bo'ladigan o'sish va kamolot jarayoni tushuniladi. U turli sohalarda, jumladan, jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarida sodir bo'ladigan jami o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, chunki bolalar yillar davomida o'sib boradi. Genetika, atrof-muhit va tajriba bolalarning qobiliyatlari, ko'nikmalari va xatti-harakatlarini shakllantirish uchun birgalikda o'zaro ta'sir qiladi. Maktablar va ularning pedagogik jamoasi bolaning bolaligida duch keladigan muhit va tajribalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. [1].

Maktablar bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ularning intellektual, ijtimoiy, hissiy va jismoniy o'sishini ta'minlaydigan tizimli muhitni ta'minlaydi va har bir bola maktabda o'rgangan tajribalar tufayli kelajak uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan egallaydi. Maktablar bolalarning kognitiv va akademik rivojlanishiga bir necha asosiy yo'llar bilan hissa qo'shadi. Bu yerda, birinchi navbatda, maktabning asosiy maqsadi bolalarga pedagogik ta'lim berishdir. Shu munosabat bilan, maktab bolalarning bilim olishi, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishi va o'quv faoliyatini yaxshilashi mumkin bo'lgan tuzilgan va tashkil etilgan o'quv muhiti bilan intellektual rivojlanishni ta'minlaydi. O'qituvchilar samarali ta'lim berish, o'rganish tajribasini osonlashtirish va o'uvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun individual yordam ko'rsatadi, o'quvchi hayotida asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari, maktablar bolalarning akademik rivojlanishiga va ularni kelajakdagi ta'lim faoliyatiga tayyorlashga yordam beradigan resurslar, o'quv dasturlari va baholashlarni olib boradi. [2].

Maktablar turli vositalar yordamida bolalarning shaxsiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, maktablar bolalarga o'z qiziqishlari, iste'dodlari va ehtiroslarini o'rganish imkoniyatini beradi, bu esa mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab darsdan tashqari mashg'ulotlar bilan o'zini o'zi kashf qilish va shaxsiy o'sish hissinu uyg'otadi. Bundan tashqari, o'qituvchilar, tengdoshlar va turli xil ijtimoiy muhitlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali maktablar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini, qadriyatlarini va axloqini shakllantiradi, ularning fe'l-atvori, chidamliligi va hamdardlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir qiladi. Bolalar shaxsiyatini shakllantirish, ularning o'ziga ishongan, mas'uliyatli va barkamol shaxs bo'lib o'sishiga yordam beradi. Maktablar bolalarning axloqiy va madaniy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. [3, 4]. Ular turli qadriyatlar, e'tiqodlar va istiqbollarni o'rganish va tushunish uchun dasturlarni taqdim etadi. Ta'lim, turli madaniyatlar bilan tanishish va hamdardlik tuyg'usini rivojlantirish orqali maktablar bolalarda kuchli axloqiy ko'rinishni, boshqalarga hurmatni va madaniy xilma-xillikni qadrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Maktablar, shuningdek, bolalarga o'z madaniyatini va boshqalarning madaniyatini o'rganish imkoniyatini beradi. Madaniy tadbirlarni nishonlash va inklyuziv muhitni yaratish orqali maktablar madaniy xabardorlikni, hurmatni va qadrlashni rivojlantiradi. Turli millatdagi tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali bolalar kengroq dunyoqarashga ega bo'ladilar, madaniyatlararo muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va yanada ochiq fikrli bo'ladi. Maktabda bolaning aqliy va jismoniy qobiliyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Maktab ta'limi bolaning umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mana, bolaning rivojlanishida maktab ta'limining muhimligi va maktabning afzalliklarining ba'zi asosiy sabablari mavjud. Maktab ta'limi bolalarga hayotda yaxshi natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va tajribani beradi. Bu ularning o'sishi va aqliy, hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek ularni keyingi ta'lim va kelajakda ish bilan ta'minlaydi. Ijtimoiylashtirish: Maktabdagi bolalar tengdoshlari

bilan muloqot qilish va hamkorlik qilish, boshqalar bilan ishlash va nizolarni hal qilishni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maktab - bu bolalar boshqa bolalar bilan do'stlashish va munosabatlarni o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lgan joy. Ijtimoiylashuv, bolalarning umumiy rivojlanishining juda muhim qismi bo'lib, ularga o'z kelajagiga ishonch va yaxshi qarashga yordam beradi. Shaxsiy rivojlanish: Bu maktabning eng muhim afzalliklaridan biridir. [5].

Maktab ta'limi bolalarda o'z-o'zini hurmat qilish, o'ziga ishonch va o'zlikni anglash tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ularga o'z qiziqishlari va ko'nikmalarini topish imkoniyatini beradi, shuningdek, ularni orzularini amalga oshirishga undaydi. Farzand yurt kelajagi, farovon hayot bunyodkoridir. Undagi qobiliyat uchqunlarini payqash va uni alangaga aylanishida ota-ona va pedagoglarning hissasi beqiyosdir. Qobiliyat-individual psixologik xususiyat hisoblanadi. Qobiliyat bilim, ko'nikma, malakalarni egallash kabi jarayonlarga bog'liq bo'ladi. Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir.

Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. Hamda, ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilar, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Umumiy qobiliyatlar – bu umuminsoniy faoliyat turlari: mehnat, ta'lim, o'yin, bir-biri bilan muloqotga bo'lgan qobiliyatlar. Ular u yoki bu darajada barcha odamlarga xos. Bu guruhga mansub qobiliyatlarning har biri shaxs xossalari murakkab tarkibini tashkil etadi. Maxsus qobiliyatlar turli darajada emas, umuman barcha odamlarga xos bo'lmagan qobiliyatlar. Ular inson madaniyati tarixi jarayonida yuzaga keladigan ma'lum kasbiy faoliyatga bo'lgan qobiliyatlar hisoblanadi. Ular, odatda, kasbiy qobiliyatlar deb ataladi.

Tadqiqot va natijalar tahlili

Ushbu nazariy ma'lumotlarning amaliy natijalarini ko'rish maqsadida, maktabning 10-11-sinf o'quvchilaridan psixologik metodikalar olindi. Bir tadqiqot natijasiga aniq erishish uchun ekvivalent metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda 1-metodikamiz "Ma'qullanish motivatsiyasini baholash" shkalasida 50 nafar sinaluvchi 36 ta ayol va 14 ta erkak sinaluvchi ishtirok etdi. Bunda 41 ta berilgan savollarga o'z javoblarini berishlari orqali sinaluvchilar yuqori, o'rta va past natijalarni qayd etdi. Yosh kesimi 16-18 yosh oralig'i qayd etildi. 2-metodikamiz esa "O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini tashxis qilish" metodikasi edi. Bunda ham 50 nafar sinaluvchi 14 ta erkak va 36 ta ayol jinsli sinaluvchilar ishtirok etdi. Yosh kesimi 16-18 yosh oralig'i bo'ldi. Bu metodikamiz orqali o'quvchilarning o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasining yuqori, o'rtacha va past ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Ko'rsatgich	Ma'qullanish motivatsiyasini baholash shkalasi		O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini tashxis qilish metodikasi.	
Yuqori	20	40 %	24	48 %
O'rta	22	44 %	21	42 %
Past	8	16 %	5	10 %
Jami sinaluvchilar	50	100 %	50	100 %

O'quv motivini oshirish ta'lim sifatining ham rivojlanishiga olib keladi. Fanlarni yangi, zamonaviy, innovatsiyalar bilan o'tilishi ko'proq samara beradi. Eng muhimi, o'quvchi talaba yoshlarni ilm olishga kelajakda malakali kadr bo'lib yetishiga tashqi tomondan rag'bat berib turilsa, o'z ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yuksak marralarga erishadi.

Xulosa: Hozirgi kunda ta'limga, yoshlarga bo'lgan e'tibor yuqori darajaga ko'tarilgan. Yoshlarning kelajakda komil inson bo'lishi, kasb-hunar egallashlari uchun juda ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada olib borilayotgan islohotlar ham o'z samarasini bermoqda. Bola kelajakda o'z yo'lini topa olishida, ilmi, el-yurtga xizmat qiluvchi komil shaxs bo'lib rivojlanishida unga yoshligidan e'tibor berish, qo'llab-quvvatlash lozim bo'ladi. Shunday ekan yoshligidan motivatsiya olgan, rag'batlantirilgan insonlar o'ziga ishongan, kerakli to'g'ri yo'nalishda bora oladigan shaxs bo'lib rivojlanadi. Bolaning yoshligidan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash lozim. U kelajakda dadil o'z so'zini ayta oladigan bo'lishi lozim. Har doim atrofida gilar unga jim bo'lishini, qilyotgan ishidan qaytishini aytaversa, bola sekin-asta so'na boshlaydi. Buning o'rniga qilayotgan ishining xatoligini tushuntirish, to'g'ri yo'nalish berish lozim. Aynan bu fikrlarni xulosa qismida keltirib o'tishimdan maqsadim, olib borilgan tadqiqot vaqtida sinaluvchilarim shu fikrlarni bildirishdi va albatta, bu fikrlar to'g'ri. Inson hayotidagi eng muhim jarayon bu kasb tanlash. Inson o'z qiziqishlaridan emas, moddiy tomondan yoki ota-ona tomonidan majburlansa, bu kelajakda kerakli natija bermasligi mumkin. Eng muhimi, insonning ichki xohishi, istaklari, motividir. Inson o'zi yaxshi ko'rgan soha bo'yicha yetuk, malakali bo'lib yetishi mumkin. Maktab- keljagimiz poydevorini qo'yishdagi eng muhim maskan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eccles, J. S., & Wigfield, A. (2020). From expectancy-value theory to situated expectancy-value theory: A developmental, social cognitive, and sociocultural perspective on motivation. *Contemporary Educational Psychology*, 61, Article.

2. Fong, C. J. (2022). Academic motivation in a pandemic context: A conceptual review of prominent theories and an integrative model. *Educational Psychology*. Advance online publication.

3. Fong, C. J., & Krause, J. M. (2014). Lost confidence and potential: A mixed methods

study of underachieving college students' sources of self-efficacy. *Social Psychology of Education: An International Journal*, 17(2), 249–268.

4. Ismoilovna, A. Z., & Narzullayevna, K. G. (2022). In the Process of Forming a Person, Overcoming the Emotional State in The Family Environment. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 6, 31-33b.

5. Kayumova. G. N, Suyunova. D. H. Bola qobiliyatlarining yuzaga chiqishida ota-ona va o'qituvchining o'rni. *Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi*. 1-jild 1-son. 28-29 b.

6. Nishanova. Z. K. Kamilova. N. G', Abdullayeva. D. U, Xolnazarova. M. X. *Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Darslik.-T.:"Avto nashr"*, 2018.593 s.

TALABALARDA O‘Z-O‘ZINI MUSTAQIL RIVOJLANTIRISH MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING S METODLARI

*Maxmudova Darmonjon Bozorboyevna,
O‘zTPMI doctoranti Phd, dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim sharoitida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasini baholash va oshirish metodologiyasini o‘rganadi. Maqola motivatsiyaning nazariy asoslarini, o‘quvchilar motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillarni va motivatsiyaning rivojlantirishning samarali strategiyalarini o‘rganish orqali o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqaradigan o‘quvchilar bo‘lish imkoniyatini berish haqida tushuncha beradi. Talabalarning motivatsiyasini baholash metodologiyasi o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiya darajasini tushunish uchun miqdoriy va sifat usullarini birlashtirgan ko‘p qirrali yondashuvni o‘z ichiga oladi. Maqsadlarni belgilash, fikr-mulohazalar, avtonomiya va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish kabi strategiyalar talabalar motivatsiyasini oshirishning asosiy omillari sifatida ta’kidlangan. Kalit so‘zlar: talabalarning motivatsiyasi, motivatsiya o‘z-o‘zini rivojlantirish, metodologiya, baholash, ta’lim mazmuni, nazariy asoslar, omillar, strategiyalar.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ

*Махмудова Дармонжон Бозорбоевна,
Phd, доцент*

Аннотация: В данной статье исследуется методика оценки и повышения мотивации студентов к саморазвитию в образовательных учреждениях. В статье дается представление о том, как дать студентам возможность стать самостоятельными учениками, путем изучения теоретических основ мотивации, факторов, влияющих на мотивацию студентов, и эффективных стратегий развития мотивации. Методика оценки мотивации студентов включает в себя многогранный подход, сочетающий количественные и качественные методы для понимания уровня мотивации к саморазвитию. Такие стратегии, как постановка целей, обратная связь, самостоятельность и создание благоприятной среды обучения, были выделены в качестве ключевых факторов повышения мотивации учащихся.

Ключевые слова: мотивация студентов, мотивационное саморазвитие, методика, оценивание, содержание образования, теоретические основы, факторы, стратегии

METHODS OF FORMING STUDENTS’ INDEPENDENT DEVELOPMENT MOTIVATION

*Makhmudova Darmonjon Bozorboyevna,
doctoral candidate Phd, associate professor*

Abstrakt: This article explores the methodology of assessing and increasing students’ motivation for self-development in educational settings. The article provides insight

into empowering students to become self-directed learners by examining the theoretical foundations of motivation, factors affecting student motivation, and effective strategies for developing motivation. The methodology for assessing students' motivation includes a multifaceted approach that combines quantitative and qualitative methods to understand the level of motivation for self-development. Strategies such as goal setting, feedback, autonomy, and creating a supportive learning environment were highlighted as key factors in increasing student motivation.

Key words: student motivation, motivational self-development, methodology, assessment, educational content, theoretical foundations, factors, strategies

Kirish. Motivatsiyatushunchasi va uning o'z-o'zini rivojlantirishdagi o'rni. Motivatsiya — bu insonni harakat qilishga undovchi ichki va tashqi omillar yig'indisi. Psixologiyada motivatsiya jarayoni muayyan maqsadga erishish uchun qilingan harakatlar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon insonga qoniqish va muvaffaqiyat hissini beradi. O'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasi esa talabanning bilim olish, yangi ko'nikmalarni egallash va shaxsiy va kasbiy rivojlanishga intilishi bilan bog'liq. Motivatsiya ikki turga bo'linadi: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya talabanning ichki istaklari, qiziqishlari va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq bo'lsa, tashqi motivatsiya esa tashqi omillar, masalan, o'qituvchilarning baholari, ota-onalarning talablari yoki kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlar bilan bog'liq bo'ladi. O'z-o'zini rivojlantirishda ichki motivatsiya muhimroq bo'lib, u talabanning mustaqil o'qish va rivojlanishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Asosiy qism. O'z-o'zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish metodlari. O'z-o'zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirishda turli metodlar va yondashuvlar qo'llaniladi. Bu metodlar talabanning shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Quyida ayrim samarali metodlar keltirilgan:

a. Faol o'qitish metodlari. Faol o'qitish metodlari talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bu metodlar qatoriga interaktiv darslar, loyiha ishlari, guruhli faoliyatlar va boshqalar kiradi. Interaktiv darslar talabalarni muloqot qilishga, fikr almashishga va birgalikda ishlashga undaydi. Loyiha ishlari esa talabalarni mustaqil izlanishlar olib borish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Guruhli faoliyatlar talabalarni jamoa bo'lib ishlash, birgalikda muammolarni hal qilish va bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga o'rgatadi.

b. Mustaqil o'qish va tadqiqot ishlari. Talabalarga mustaqil o'qish va tadqiqot ishlari uchun sharoit yaratish ularning o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini oshiradi. Mustaqil o'qish talabalarga o'zlariga qiziq bo'lgan mavzular bo'yicha izlanishlar olib borish, yangi ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayonda talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, yangi bilimlarni kashf etish va o'z fikrlarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

c. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Onlayn kurslar, elektron kutubxonalar, interaktiv dasturlar va boshqa texnologik vositalar talabalarga bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar orqali talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirishi, yangi ko'nikmalarni egallashi va bilimlarini tekshirishlari mumkin.

d. O‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish. O‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini oshiradi. Bu jarayon talabalarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ulardan kelib chiqib, rivojlanish yo‘llarini belgilash imkonini beradi. O‘z-o‘zini baholash orqali talabalar o‘zlariga nisbatan tanqidiy yondashishni o‘rganadilar va o‘zlarini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladilar.

e. Individual yondashuv. Har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. Bu esa har bir talaba uchun individual rivojlanish rejasini tuzish imkonini beradi. Individual yondashuv orqali talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta‘lim jarayoni tashkil etiladi, bu esa ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini oshiradi.

Motivatsiyani oshirishda o‘qituvchining roli. O‘qituvchi talabalarning motivatsiyasini shakllantirish va oshirishda muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi talabalarga bilim berish bilan birga, ularning motivatsiyasini oshirish, ularni mustaqil faoliyatga yo‘naltirish va ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularga yordam berishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi talabalarga individual yondashishi, ularning qiziqishlarini o‘rganishi va ularga mos ravishda ta‘lim jarayonini tashkil etishi lozim. O‘qituvchi talabalarga motivatsiya berish uchun turli usullar va metodlarni qo‘llashi mumkin. Bular qatoriga talabalar bilan muloqot qilish, ularning fikrlarini tinglash, ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish kiradi. Shuningdek, o‘qituvchi talabalarga mustaqil o‘qish va tadqiqot ishlari uchun sharoit yaratishi, ularga kerakli resurslar va materiallarni taqdim etishi kerak.

Talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirishda oilaning ham roli katta. Ota-onalar farzandlariga bilim olish jarayonida qo‘llab-quvvatlash, ularning qiziqishlarini rag‘batlantirish va ularga zarur sharoitlarni yaratish orqali ularning motivatsiyasini oshirishlari mumkin. Ota-onalar farzandlariga o‘qish jarayonida yordam berish, ularni bilim olishga undash va ularga zarur bo‘lgan resurslar bilan ta‘minlash orqali ularga yordam berishi kerak. Ijtimoiy va madaniy omillar ham talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy muhit, talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari, ularning motivatsiyasini oshiradi. Madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, ijodiy faoliyatlar va boshqa ijtimoiy tadbirlar talabalarning qiziqishlarini oshiradi va ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi.

O‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini baholash usullari. O‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini baholash uchun turli usullar va metodlar qo‘llaniladi. Bu usullar talabaning motivatsiya darajasini aniqlash, uning rivojlanish jarayonida qanday usullar va yondashuvlar samarali bo‘lishini aniqlashga yordam beradi. Quyida ayrim baholash usullari keltirilgan:

a. So‘rovnomalar. So‘rovnomalar talabaning motivatsiya darajasini aniqlash uchun samarali usul hisoblanadi. So‘rovnomalar orqali talabaning ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishi, uning mustaqil o‘qish va rivojlanishga bo‘lgan intilishi aniqlanadi. So‘rovnomalar talabalarning fikrlarini bilish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash uchun ham qo‘llaniladi.

b. Intervyular. Intervyular talabaning motivatsiya darajasini aniqlash uchun yana bir samarali usul hisoblanadi. Intervyular orqali talaba bilan yuzma-yuz muloqot qilish,

uning fikrlarini tinglash va uning ta'lim olishga bo'lgan munosabatini aniqlash mumkin. Intervyular talabaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi.

c. Kuzatish. Kuzatish usuli talabaning motivatsiya darajasini baholash uchun yana bir samarali usul hisoblanadi. Kuzatish orqali talabaning dars jarayonidagi faoliyati, uning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va mustaqil o'qish jarayonidagi ishtiroki aniqlanadi. Kuzatish usuli talabaning real hayotdagi faoliyatini kuzatish va uning motivatsiya darajasini baholash imkonini beradi.

d. Portfolio. Portfolio usuli talabaning mustaqil o'qish va rivojlanish jarayonidagi yutuqlarini baholash uchun qo'llaniladi. Portfolio orqali talabaning mustaqil izlanishlar natijalari, uning ilmiy va ijodiy ishlari, loyiha ishlari va boshqa faoliyatlari baholanadi. Portfolio talabaning mustaqil o'qish va rivojlanish jarayonidagi yutuqlarini aniqlashga yordam beradi.

Motivatsiyani oshirishga qaratilgan dasturlar va loyihalar. Talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirish uchun turli dasturlar va loyihalar amalga oshirilishi mumkin. Bu dasturlar va loyihalar talabalarning qiziqishlarini oshirish, ularning bilim olishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish va ularni mustaqil o'qish va rivojlanishga yo'naltirishga qaratilgan. Quyida ayrim dasturlar va loyihalar keltirilgan:

a. Mustaqil o'qish dasturlari. Mustaqil o'qish dasturlari talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Bu dasturlar talabalarga mustaqil ravishda bilim olish, yangi ko'nikmalarni egallash va o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish imkonini beradi. Mustaqil o'qish dasturlari orqali talabalar o'z qiziqishlariga mos ravishda bilim olishlari va o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirishlari mumkin.

b. Ilmiy va ijodiy loyihalar. Ilmiy va ijodiy loyihalar talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu loyihalar talabalarning ilmiy izlanishlar olib borishlari, yangi bilimlarni o'zlashtirishlari va o'z ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishlariga yordam beradi. Ilmiy va ijodiy loyihalar talabalarning mustaqil izlanishlar olib borishlari, yangi bilimlarni o'zlashtirishlari va o'z ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishlariga yordam beradi.

c. Innovatsion dasturlar. Innovatsion dasturlar talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ushbu dasturlar talabalarga yangi texnologiyalar, ilmiy yutuqlar va innovatsion yondashuvlar bilan tanishish imkonini beradi. Innovatsion dasturlar orqali talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirishlari, yangi ko'nikmalarni egallashlari va innovatsion yondashuvlar orqali o'z bilimlarini kengaytirishlari mumkin.

Talabalarning o'z-o'zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish va oshirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayon talabaning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni mustaqil ravishda bilim olishga undash va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirish uchun turli metod va yondashuvlar qo'llanilishi mumkin. Bu metod va yondashuvlar talabaning shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Motivatsiyani oshirishda o'qituvchi, ota-onalar va jamiyatning roli katta. O'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini baholash uchun turli usullar va metodlar qo'llaniladi. Ushbu usullar va metodlar talabaning motivatsiya darajasini aniqlash, uning rivojlanish

jarayonida qanday usullar va yondashuvlar samarali bo'lishini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Motivatsiyali talabalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etadilar, mustaqil ravishda bilim olishga intiladilar va o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Motivatsiyani oshirish uchun turli metodlar va yondashuvlar qo'llaniladi. Faol o'qitish metodlari talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Mustaqil o'qish va tadqiqot ishlari esa talabalarni mustaqil izlanishlar olib borish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirishlari, yangi ko'nikmalarni egallashlari va bilimlarini tekshirishlari mumkin. O'z-o'zini baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish esa talabalarning o'zlariga nisbatan tanqidiy yondashishni o'rganishlariga va o'zlarini doimiy ravishda takomillashtirishga intilishlariga yordam beradi. Individual yondashuv esa har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olib, ularga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, ijodiy faoliyatlar va boshqa ijtimoiy tadbirlar talabalarning qiziqishlarini oshiradi va ularni o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi.

Dasturlar va loyihalar talabalarning qiziqishlarini oshirish, ularning bilim olishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish va ularni mustaqil o'qish va rivojlanishga yo'naltirishga qaratilgan. Mustaqil o'qish dasturlari talabalarga mustaqil ravishda bilim olish, yangi ko'nikmalarni egallash va o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish imkonini beradi. Ilmiy va ijodiy loyihalar esa talabalarning ilmiy izlanishlar olib borishlari, yangi bilimlarni o'zlashtirishlari va o'z ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudova D.B. Zamonaviy talaba shaxsini motivatsion sohasini shakllantirish. PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA xalqaro ilmiy jurnal 2022y № 1(1).-65 б.

2. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. «TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI.» Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.

3. Makhmudova D.B. Design activity as a means of developing creative and aesthetic skills of preschool children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 9, 2020 ISSN 2056-5852 EJRRS Vol. 8 No. 9, 2020

4. Makhmudova D.B. Design as a means of aesthetic education. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 9, Sept 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01040.X

YOSH BASKETBOLCHILARNI MUSOBAQALARGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH USULLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

*Nurov Shokir Roziqovich,
Qarshi davlat universiteti, "Sport faoliyati" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada yosh basketbolchilarni musobaqalarga psixologik tayyorlash usullarini o'rganish va tahlil qilish masalalari tadqiq qilingan. Basketbolchilarni musobaqa faoliyati tizimini psixologik jihatdan o'rganish va tahlil qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Basketbol o'yini, yosh basketbolchilar, musobaqa jarayoni, psixologik tayyorgarlik.

ИЗУЧЕНИЕ И АНАЛИЗ МЕТОДОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ К СОРЕВНОВАНИЯМ

*Нуров Шакир Разиқович,
Старший преподаватель кафедры «Спорт фаолияти»
Қаршинский государственный университет*

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы изучения и анализа методов психологической подготовки юных баскетболистов к соревнованиям. Разработаны предложения и рекомендации по психологическому изучению и анализу системы соревновательной деятельности баскетболистов.

Ключевые слова: баскетбол, юные баскетболисты, процесс соревнований, психологическая подготовка.

STUDY AND ANALYSIS OF METHODS OF PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF YOUNG BASKETBALL PLAYERS FOR COMPETITIONS

*Nurov Shokir Roziqovich,
Senior lecturer of the department of «Sports faoliyati»
Karshi State University*

Abstrakt: The article discusses the issues of studying and analyzing methods of psychological preparation of young basketball players for competitions. Proposals and recommendations for the psychological study and analysis of the system of competitive activity of basketball players have been developed.

Keywords: basketball, young basketball players, competition process, psychological preparation.

Dolzarblik. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan Jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilmoqda [1]. Buni keyingi yillardagi hukumatimiz tomonidan Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida ishlab chiqilayotgan va qabul qilinayotgan qaror va qonunlar yaqqol ko'rsatib turibdi. Mamlakatimizda ommaviy sport turlariga, jumladan sport o'yinlari, yakkakurash turlari, milliy sport turlari va boshqa sport turlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida esa, sportchilarimiz xalqaro yirik musobaqalarda munosib tarzda yurtimiz

shon-shuhratini yuqoriga ko'tarishmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston basketbolchilari tomonidan oldinga katta qadamlar qo'yildi. Milliy jamoamiz va klubli jamoalarimiz yildan-yilga dunyo miqyosidagi (Jahon chempionati, Olimpiya va Osiyo o'yinlari saralash bosqichlarida va Osiyo chempionlari Kubok bahslari) musobaqalarda qatnashgan holda o'z mavqelarini toboro yaxshilab borishmoqda [2].

Basketbolda o'quv-mashg'ulotining samaradorligi uning musobaqa faoliyatiga chambarchas bog'liq. Bu esa basketbol o'yini tizimini psixologik boshqarishni o'rganishni taqozo etadi. Shuning uchun bu masalaga alohida e'tibor berilib kelingan va bizningcha bu masalani o'rganishga kelajakda ham e'tibor beriladi. Negaki, basketbol boshqa hayotiy jarayonlar kabi, doimo o'zgarishda va o'sishda. Basketbolda hozirgi davrda taktika, o'yin strategiyasi va o'yin sistemalari, psixologik metodlar doimo o'zgarishda bo'lmoqda. Shu bois musobaqa faoliyatini psixologik boshqarish har qanday davrda ham dolzarbligicha qolaversa kerak [4,5].

Basketbol musobaqa faoliyati tizimini oxirgi yillardagi kuzatuv natijalari shuni ko'rsatyaptiki, bundan bir necha o'n yil oldin ko'rsatilayotgan basketbol va hozirgi basketbol o'yini orasida keskin farq va o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Shuning uchun basketbolchilarning musobaqa faoliyatini psixologik kuzatish va tahlil qilish dolzarb ahamiyatga egadir.

Tadqiqot maqsadi. Basketbolchilarni musobaqa faoliyati tizimini o'rganish va tahlil qilish boyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari. Bizning tadqiqotlarimizda basketbolchilarning bo'ladigan musobaqalarda yoki o'yinga ruhiy tayyorgarligini umumiy ruhiy tayyorgarlik asosida amalga oshirish va bu sportchilarning ushbu konkret musobaqaga tayyorgarlikning vazifalarini yechish bilan bog'liq ilmiy dalillar tahlil etildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Har bir basketbolchi o'yin oldidan, qolaversa o'yin vaqtida murakkab ruhiy holatni his qiladi. Bu holat basketbolchilarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayrim basketbolchilar o'yinni ko'tarinki ruhda o'tkazadilar. Bu esa organizmning bo'ladigan harakatlarini tayyorgarligini oshiradi. Ba'zi basketbolchilarda esa qiziqish yoki loqaydlik, o'ziga ishonmaslik, yutqazishdan qo'rqish hollari sodir bo'ladi. Bu esa organizmning tayyorgarligini susaytiradi, sportchining imkoniyatlari yo'qqa chiqadi. Tayyorgarlik darajasiga ta'sir etadigan omillardan biri, bu o'yinda bo'ladigan ruhiy holatdir.

Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Bo'ladigan musobaqaning xususiyatlari va vazifalarni o'yinchilar tomonidan anglash;
2. Bo'ladigan musobaqalarning aniq sharoitlarini o'rganish, vaqti, joyi, yoritishini, harorati va hokazolar;
3. Raqibning kuchli va zaif tomonlarini o'rganish va ularni hisobga olib qilinadigan harakatlariga tayyorgarlik ko'rish.
4. Ayni vaqtda o'zining imkoniyatlarini baholash va anglash;
5. O'yin oldidan paydo bo'lgan salbiy tuyg'ularni yengish;
6. Bo'ladigan o'yinda oldinga qo'yilgan vazifalarni bajarishda o'z kuchiga va imkoniyatiga qattiq ishonchini shakllantirish.

Musobaqalarni boshlanishi kuchli hayajonni keltirib chiqaradi, natijada ruhiy holat o'zgaruvchan bo'lib qoladi, bu holat o'rnini tezda mazmun e'tibori bilan mutlaqo

boshqacha holat egallaydi, o'yinchining salga jahli chiqib ketaveradi. Sirtidan bu o'zgarishlar oyoq va qo'l titrashida, ko'p terlashda nutq faoliyatining aktivlashuvida va boshqalarda ko'rinadi. Ba'zan aksincha ham bo'lishi mumkin. O'yin oldidan sportchida shunday loqaydlik paydo bo'ladiki, bunda ruhiy jarayonlar sustlashadi. Uyqu bosib, musobaqada ishtirok etish hohishi yo'qoladi, o'z kuchiga ishonchsizlik, kuch-quvvatning kamayishi kuzatiladi, idrok, diqqat, tafakkur jarayonlari sekinlashadi.

Sirtidan bu holat yuzda oqarish, nafas olish suratining o'zgarishi, sovuq ter chiqishi, og'iz qurishi va boshqalarda ko'rinadi. O'z-o'zini tinchlantirish holati irodani kuchlantirishda tayyorgarlikning yo'qligida o'z kuch va imkoniyatlariga ortiqcha baho berishda, raqib kuchini nazarga ilmaslikda va boshqalarda ifodalanadi.

Biz salbiy tuyg'ularni maxsus usullar yordamida yengish uchun quyidagi tadbirlarni qo'lladik:

1. Basketbolchi kuchli hayajonli ishonchsizlikni sirtiga chiqarmasligi kerak. Aksincha, butun harakatlari bilan o'zining tetikligini ifodalashga intilishi zarur. Salbiy hislarni ongli ravishda bosish sportchi harakatlarini tezlashishiga yordam beradi.

2. Badan qizdirishda ortiqcha hayajonlanish yoki tushkunlik holatini yengib o'tishga beradigan mashqlar va harakatlar bajarish.

3. Chuqurligi, tezligi, tozaligi, ritmi va davomiyligi jihatidan turlicha maxsus nafas olish mashqlari yordamida nafas olishni erkin boshqarish.

4. Sportchiga tinchlantiruvchi yoki qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatuvchi maxsus uqalash.

5. Turli sezgi organlari avvalo ko'rish va eshitish a'zolariga ta'sir o'tkazish tinchlantiruvchi ta'sir o'tkazuvchi sayrlar, muzeylarga borish, baliq ovlash, kuyning emotsional holatga ta'siri hammaga ma'lum. Ba'zi holatda kuy titroq, sho'x kayfiyat uyg'otadi. Boshqasida tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Rang ham ma'lum ta'sirga ega. Masalan: qizil rang asabni qo'zg'atadi. Yashil rang esa tinchlantiradi.

6. So'z orqali ta'sir, so'z bilan insonni ko'nglini ko'tarishi, o'ziga ishonch uyg'otish, xursand qilish, tinchlantirish yoki aksincha, ko'nglini og'ritishi mumkin. So'z odamni o'ldirishi mumkin, kechirish mumkin, jangga boshlashi mumkin.

Xulosa. Basketbol sport turining xususiyatlari inson psixologik rivojlanishining u yoki bu tarafiga ochiq iz qoldiradi, uning idrokiga, e'tiboriga, ongiga, xotirasiga, tasavvuriga, his-tuyg'ulariga, sport psixologiyasida sportchilarning ruhiy tayyorgarligi murakkab jarayon sifatida tekshiriladi va bu jarayonni shartli ravishda ikki bosqichga bo'ldik: umumiy psixologik tayyorgarlik va ochiq musobaqaga (o'yinga) psixologik tayyorgarlik. Bu psixologik tayyorgarlik turlarining har biri o'zining vazifalarini yechadi, shu bilan birga ular o'zaro bog'liq degan xulosaga keldik.

Biz qo'llagan uslublar sportchilarning ruhini ko'tardi. G'alabaga erishish uchun bo'lgan kuchli istak, ko'pincha kuchli raqib ustidan zafar qozonishga olib keladigan tuyg'ularni junbushga keltirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori (2017 yil 3 iyun).
3. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Prof. R.Salomovning umumiy tahriri ostida. 1 tom. T., "ITA Press" nashr., 2014 y. 78-b.
4. Rasulev O.T. Basketbol. T., 1998 y., 134-b.
5. Xurramov J.Q. Sport o'yinlarini o'qitish metodikasi (basketbol). Darslik. Qarshi. "Fan va ta'lim" nashriyoti. 2022 y.

YOSH VOLEYBOLCHILARINING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH USULLARI

*Nurumova Dinara Maqsudovna,
Urganch davlat pedagogika instituti magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqoloda yosh voleybolchilarni to'garak mashg'ulotlarida irodaviy tayyorgarlik darajasi, idrok qilish qobiliyatlari, diqqat vasezgi organlarni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy voleybolda yosh sportchilarni psixologik tayyorgarlikning dolzarb masalalari va jihatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Voleybol, mashg'ulot, irodaviy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, sport, texnika, vestibulyar analizator.

METHODS OF INCREASING THE PSYCHOLOGICAL READINESS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS

*Nurumova Dinara Maksudovna,
Master of Urganch State Pedagogical Institute*

Annotation: In this article, the level of willpower training, perception skills, attention and sensory organs development issues are analyzed in circle training of young volleyball players. Current issues and aspects of psychological training of young athletes in modern volleyball are described.

Key words: volleyball, training, will preparing, psychological preparing, sports, technique, vestibular mechanism.

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ

*Нурумова Динара Максудовна,
Магистр Ургенчского государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье анализируются уровень тренированности силы воли, навыков восприятия, развития внимания и органов чувств в условиях круговой тренировки юных волейболистов. Описаны актуальные проблемы и аспекты психологической подготовки юных спортсменов в современном волейболе.

Ключевые слова: Волейбол, тренировка, произвольная тренировка, психологическая подготовка, спорт, техника, вестибулярный анализатор.

Voleybol sport turlarini yanada ommalashtirish, yoshlar orasidan voleybol sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarni saralab olish tizimini yaxshilash, ushbu sport turi bo'yicha zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish hamda milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlash maqsadida: "Voleybol sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-274-son, 19.07.2024 y.) qabul qilindi. Qarorga ko'ra, 2025 yildan boshlab, har yili Respublika hududida an'anaviy tarzda quyidagi musobaqalar o'tkazib borilishi belgilab qo'yildi.

Bular Oliy ta'lim muassasalari talabalari, professional ta'lim va umumiy o'rta ta'lim

muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Volleyball Stars" O'zbekiston kubogi o'tkazish. Vazirlik va idoralar xodimlari o'rtasida uch bosqichli (tuman (shahar) – viloyat – Respublika) o'rtasida "Yangi O'zbekiston" Respublika musobaqasi tashkil qilish va o'tkazish. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida uch bosqichli maktabgacha va maktab talimi vazirligi kubogi o'tkazish. Nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida para voleybol sport musobaqalari tashkil qilish va o'tkazish. 2025-yildan boshlab, har ikki yilda bir marotaba voleybol bo'yicha Markaziy Osiyo voleybol assotsiasiyasi (CAVA)ga a'zo davlatlar o'rtasida "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turniri o'tkazib boriladi.

Jismoniy tarbiya va sport, jumladan voleybol bo'yicha o'qituvchi-murabbiy kasbiga ixlos qo'ygan, uni tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilingan har bir talaba O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqidagi Qonunlar talablariga muvofiq shaxs sifatida shakllanishi, kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni chuqur o'zlashtirish bilan bir qatorda, yuksak ma'naviy va madaniy xislatlarga ega bo'lishi, aqlan teran, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zida jo qilgan, murakkab vaziyatlarda tashabbus va mas'uliyatni o'ziga olishga qodir, keng dunyoqarashga ega inson bo'lib yetishishi taqdim etilayotgan o'quv qo'llanmaning ustuvor maqsadi qilib belgilangan [1, 26].

Voleybol o'zining hammabopligi, kamharajatligi, go'zal o'yin mazmuni, katta-yu kichik diqqatini o'ziga rom qiluvchi hujum va himoya kombinatsiyalari bilan yurtimiz shahar-qishloqlarida, mahallayu maskanlarda, to'y va bayramlarda bahs-raqobat, sihat-salomatlik, jismoniy va ruhiy barkamollik vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Mashg'ulotlar va o'yinlar doimo tabiiy yorug'lik (kunduzgi) va sun'iy yorug'lik (elektr yorug'lik) me'yorida bo'lgan zallarda o'tkazilishi zarur.

Yorug'lik etmagan yoki me'yordan tashqari yoritilgan zallarda shug'ullanish ko'z mushaklari va retseptorlarida zo'riqish alomatlarini yuzaga keltiradi, ko'rish hajmi, ko'rish kengligi – ko'z bilan o'lchash aniqligini keskin susaytiradi. [5]. Turli ranglar ham inson ruhiyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Rangning psixofiziologik funksiyasi – ko'rish, ko'rish orqali his qilish (idrok qilish), toliqishni kechiktirish, xatto yorug'likni ham yanada yaxshilash kabi qulay sharoitlarni yaratishi bilan bog'liqdir. Lekin barcha ranglar ham ko'rish funksiyasiga bir xilda ta'sir etavermaydi. Ranglar ichida oq, sariq va yashil rang boshqa ranglarga qaraganda ko'rish funksiyalariga ijobiy ta'sir etadi. Qora, qizil, binafsha, ko'k ranglar ta'sir etganda toliqish alomatlari tezroq yuzaga keladi. Rang o'zining turiga qarab issiq yoki sovuqni, uzunlikni o'zgarishi, xona kengligi yoki balandligi, buyumning og'irligini his qilish chegarasini o'zgartiradi.

Ranglar insonning emotsional holatini o'zgartirib, uning nerv sistemasiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Murabbiylar ana shu qayd etilgan omillarni bilishi va ularni o'z faoliyati davomida e'tiborga olishi lozim. Ko'z bilan oraliqni o'lchash aniqligini shakllantirishda asosiy talab – bu mashg'ulotlarda to'p uzatish, to'p o'yinga kiritish, hujum zarbalarini berish oraliqlarini o'zgartirib turishdan iborat. Buning uchun bu texnik usullarni turli tezlikda, yo'nalishda va balandlikda bajarilishi foydalidir. To'pni o'yinga kiritishni turli usullari, turli oraliq va yo'nalishlarda, zarba berishni murabbiy ko'rsatmasi bilan turli zonalar bo'ylab mashqlarni juftlikda, uchlikda va to'rtlikda bajarishi lozim. Ushbu jarayonda ko'rish funksiyalarini ishga solishga urg'u berish yanada foydaliroq natija beradi.

Voleybolchilar mashg'ulotlarda o'z harakatlarining elementlari, fazalari, koordinatsion tarkibi, texnik tuzilishlari va mazmunini nazorat qilishlari va ko'rish orqali his qilishlari lozim[3]. Voleybolga xos barcha texnik usullarni ijro etish – ongning nazorati ostida amalga oshiriladi. Voleybolchilar harakatlariga xos eng muhim psixologik xususiyatlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin. Masalan: o'yin jarayonida voleybolchi o'z xarakatlarini jamlaydi va boshqaradi. Mushaklar kuchlanishi va tezlanish darajasininazoratda ushlaydi, to'p bilan oraliq masofani mo'ljalini oladi, baholaydi va qaror qabul qiladi.

Bularni barchasi voleybolchilarni ko'rish harakat qobiliyatini koordinatsiyasini mashqlar yordamida shakillantirish bilan bog'liqdir. Bunda oraliqvaqt, aniqlik – tezlanish va kuchlanish darajalarini farqlash mahorati muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, voleybolda ijro etiladigan asosiy texnik usul - to'p uzatish bilan kaftbarmoqlari mushaklarining muvofiq holda to'g'ri his qilish bilan bog'liqdir. Bu qobiliyat sportchining mashg'ulotlarda mukammal shug'ullanganligi bilan belgilanadi. Jumladan, voleybolchi yuksak sport formasiga erishgan vaqtda mushaklar harakatining kuchlanish aniqligi 2,5 baravardan ortiq o'sadi. Mukammal shug'ullanmagan yoki yaxshi sport formasida bo'lmagan o'yinchilarda bunday natija bo'lmasligi aniqlangan.

Mushaklarkuchlanishini aniq farqlash darajasi bog'lovchi o'yinchilarda xujumchilarga qaraganda 3 baravar ortiq bo'ladi. [4]. Voleybol har bir o'yinchidan maksimal tezlik bilan javob reaksiya ko'rsatishni talab qiladi. Voleybolchi faoliyati keskin vaziyatda va vaqt tanqisligida javob reaksiyasini namoyish etishga tayyor bo'lishini talab etadi. Voleybolchilarning barcha harakati o'ta murakkab refleks, tanlash reaksiyasi va uni to'g'ri amalga oshirish bilan farqlanadi. Ushbu harakat nafaqat tezkor, balki uni o'z vaqtida aniq ijro etilishini talab qiladi. Buning uchun vaziyatni o'z vaqtida chamalash, payqash-farqlash va his qilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy voleybolda murakkab harakat reaksiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maydonda joyni tanlash, shu joyga o'z vaqtida etib kelish, to'pni uchish tezligi, yo'nalishi va balandligini aniqlash, o'zining va raqibining harakati, kerak bo'lgan oraliq – vaqt ko'rsatkichlarini xis qilish va foydali javob qaytarish – murakkab harakat reaksiyasining asosiy funksional elementlarini tashkil qiladi.

Shuni yodda tutish kerakki, bolalarga ta'sir ko'rsatish ostida emotsional qo'zg'alishni tez-tez o'zlarini yomon nazorat qiladi, ayrim vaqtda o'ylamasdan hal etish ko'pincha bu o'yin tayyorgarligini va texnikasini yetarli bo'lmasligi natijasida bo'ladi. O'z-o'zini nazorat qilish va tezda fikrlash, tajriba oshirilgan yuklamani bajarish jarayonida amalda orttirilgan bilim bilan o'tadi. Psixologik tayyorgarlik jarayoni umumiy tayyorgarlikka (asoslovchi tarbiya, muntazam ravishda shug'ullanishga undashga, harakat malakalarini takomillashtirishga, qiyinchiliklarni yengib o'tishga) va musobaqalarga tayyorlash, qachonki bir necha musobaqalarda yoki ushbu musobaqada qarshi kurashishga eng yuqori psixologik tayyorgarlikni yaratish bo'yicha ish o'tkaziladi.

Bolalardagi jasorat va jur'atlilik tez-tez emotsional momentlarni asoslaydi va logik dalil-isbot kuchini namoyon qilmaydi, balki bolani sezgi tezligini qamrab oluvchi kuchidir. Hattoki ayrim vaqtda o'yin usullarini u o'yin mashg'ulotda, musobaqada, bajarishga qo'rqadi, o'yinni emotsional holatida ta'sir qilishi ostida ko'proq muvaffaqiyatli bajaradi. Shuning uchun o'qituvchi yosh sportchilarni tayyorlashda, o'yin harakatini tahlil qilishda ma'lum momentni va sergirlik namoyon qilishi kerak, o'yinda qatnashishda ishonch ko'rsata bilish kerak.

Psixologik tayyorgarlikni ahamiyati quyidagi uslublar bilan amalga oshiriladi:

- kiyinchiliklarni yengib o'tish bo'yicha mashq uslubi;
- zarur bo'lgan psixologik holatda sportchilarni to'g'rilash maqsadida mashqni to'g'rilash uslubi;
- ideomotor mashqini, kelgusi harakat faoliyatini aniqlashtirish va fikran o'ziga qabul qilish, qayta ishlab chiqishga imkon beradigan usul;
- bo'lajak faoliyatga tayyorlash yosh sozlash va mashq yordamida zo'riqishni pasaytirishga imkon beradigan mashg'ulotni psixoboshqarish uslubi;
- bolalar bilan ishlashda irodaviy sifatni tarbiyalash bo'yicha asosiy tavsiyalar:
 - a) irodaviy zo'r berishni namoyon qilish bo'yicha vazifani tushunarli, aniq qo'yish shart, shug'ullanuvchilarni yosh imkoniyatlariga har doim mos kelishi kerak.
 - b) topshirilgan vazifalarini o'z vatida aniq bajarishga erishish;
 - v) mashg'ulotda jismoniy yuklamani bajarishga faol munosabatni shakllantirish, musobaqada berilgan ko'rsatmani o'z vaqtida bajarishga erishish;
 - g) dam olish va mehnat rejimigari oyaq qilishga jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligidagi o'zini kamchiliklarini bartaraf qilish ustida ishlashga shug'ullanuvchilarni majbur etish;

Bolalar bilan albatta o'tkazilgan o'yin natijalarini muhokama qilish kerak. Uni dam olishida yoki ertasi kuni barcha ruhiy kechinmalarga ishonib, bolalar o'zlarini xatti-harakatlarini baholay olish, kamchiliklarni tan olish imkon bo'lganda o'tkazish tavsiya etiladi. Muhokamada albatta barcha sportchilar qatnashishlari zarur. Muhokama vaqtida yo'q bo'lganlar nomiga umuman kamchiliklar aytish tavsiya etilmaydi. Muhokama vaqtida o'qituvchi juda ehtiyotkorlik bilan har bir holatni, o'yinchisi shaxsiga tegmasdan tahlil etilsa, kelgusida ushbu o'yinchilarni irodasi, psixologik holati mustahkamlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, voleybolchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab yoki ularni sport formasiga erishganligiga qarab qayd etilgan diqqat ko'rsatkichlari o'zgarib boradi. Jumladan, mashg'ulotlarda bir oy shug'ullanmagan o'yinchilarda diqqat hajmi 25-30% ga zaiflashishi aniqlandi.

Ko'rinib turibdiki, voleybolchilarga xos psixologik tayyorgarlik, jumladan taktik fikrlash (tafakkur, xotira, idrok, ong, diqqat, iroda va analizatorlar) faoliyatini integral tartibda maxsus voleybolchilarga ixtisoslashtirilgan mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlash jarayonining fundamental asosi sifatida xizmat qiladi. O'ta keskin raqobat ostida kechadigan turli nufuzli musobaqalarda g'alabaga erishish, shu g'alabani ta'minlashga zamin bo'ladigan texnik-taktik harakatlar, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlarni shakllantirish bilan bog'liqdir.

Buning uchun har bir murabbiy o'z kasbiy-pedagogik faoliyatida o'rgatish-takomillashtirish uslublavri, vositalari va tamoillarini mukammal bilishi hamda ularni qo'llash texnologiyasini o'zlashtirgan bo'lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: Fan va texnologiya. 2012
2. Y.Masharipov. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: 2010.23 b.
3. X.B.Tulenova Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. Ma'ruzalar matni. -T: 2001.43 b.
4. A.A.Pulatov, Sh.X.Israilov Voleybol nazariyasi va uslubiyati // O'quv qo'llanma. - T., 2007. 64-66 b.

HARBIY AYOLLARDA SEMIZLIKNI OLDINI OLISH

*Bekmurodova Gulnora Uktamovna,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi hizmatchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola harbiy ayollarda semizlikni oldini olishga qaratilgan chet el tajribalarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi davlatlarning harbiy tizimlarida semizlikni oldini olish bo'yicha qo'llanilayotgan samarali yondashuvlar, jumladan, to'g'ri oziqlanish, muntazam jismoniy faoliyat, stressni boshqarish va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi tadbirlar tahlil qilinadi. Harbiy ayollarda sog'lom turmush tarzini saqlash uchun kompleks yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlanadi. Ushbu tajribalar harbiy xizmatchilarga semizlikni oldini olishda va sog'likni yaxshilashda yordam berishi mumkin.

Kalit so'zlar: harbiy ayollar, semizlik, oziqlanish, jismoniy faollik, stressni boshqarish, psixologik qo'llab-quvvatlash, chet el tajribasi, sog'lom turmush tarzi, Avstraliya, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya.

ПРОФИЛАКТИКА ОЖИРЕНИЯ У ЖЕНЩИН-ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

*Бекмуродова Гульнора Уктамовна,
Сотрудник Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан.*

Аннотация: Данная статья посвящена изучению зарубежного опыта, направленного на профилактику ожирения у женщин-военнослужащих. В статье анализируются эффективные подходы к профилактике ожирения в военных системах таких стран, как США, Канада, Великобритания и Австралия, включая такие вмешательства, как правильное питание, регулярная физическая активность, управление стрессом и психологическая поддержка. Подчеркивается важность комплексных подходов к поддержанию здорового образа жизни женщин-военнослужащих. Эти эксперименты могут помочь военнослужащим предотвратить ожирение и улучшить здоровье.

Ключевые слова: женщины-военнослужащие, ожирение, питание, физическая активность, управление стрессом, психологическая поддержка, зарубежный опыт, здоровый образ жизни, Австралия, США, Канада, Великобритания.

PREVENTION OF OBESITY IN MILITARY WOMEN

*Bekmurodova Gulnora Uktamovna,
An employee of the Armed Forces Academy of the Republic of Uzbekistan*

Abstrakt: This article is devoted to the study of foreign experiences aimed at preventing obesity in military women. The article analyzes effective approaches to preventing obesity in the military systems of countries such as the USA, Canada, Great Britain and Australia, including measures such as proper nutrition, regular physical activity, stress management and psychological support. The importance of comprehensive approaches to maintaining a healthy lifestyle in military women is emphasized. These experiences can help military personnel prevent obesity and improve their health.

Keywords: military women, obesity, nutrition, physical activity, stress management, psychological support, foreign experience, healthy lifestyle, Australia, USA, Canada, Great Britain

Harbiy ayollar — nafaqat jismoniy kuch va qat'iyatlilik, balki sog'liqni saqlash va to'g'ri oziqlanishni ham bir vaqtda boshqarish zarur bo'lgan maxsus guruhdir. Ularning hayoti doimo faoliyat va jismoniy mashqlar bilan bog'liq bo'lib, shuningdek, harbiy xizmatning stressli va talablari yuqori sharoitlari ularni semizlik yoki ortiqcha vazn kabi sog'liq muammolariga duchor qilishi mumkin. Shunday ekan, harbiy ayollarda semizlikning oldini olish juda muhimdir. Harbiy ayollar o'z xizmatlarida doimiy jismoniy faollikni talab qiladi. Ammo ular orasida semizlik Ba'zi harbiy xizmatlar stress, qisqa uyqu, yuqori yuklama va o'z vaqtida ovqatlanmaslikka olib kelishi mumkin. Harbiy ayollar o'z maqsadlariga erishish uchun yuqori psixologik bosimda bo'lishi mumkin, bu esa ovqatga bo'lgan qiziqish va noxush odatlarga olib kelishi mumkin. Gormonal o'zgarishlar, homiladorlik va laktatsiya kabi biologik holatlar semizlikka olib kelishi mumkin. Semizlik harbiy ayollar uchun nafaqat estetik muammo, balki sog'liqni saqlash bilan bog'liq jiddiy xavf tug'diradi. Semizlik jismoniy ishlarda cheklovlar keltirib chiqaradi, bu esa harbiy vazifalarni bajarish qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Ortiqcha vazn yurak va qon tomir kasalliklari, diabetes, osteoporoz va boshqa kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Semizlik ayollar orasida o'zini kamroq qadrlash va psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Harbiy ayollar uchun oziqlanishda balans muhimdir. Ular yuqori energiya sarfi bilan shug'ullanishi kerak bo'lganligi sababli, ularning ovqatlanishi samarali bo'lishi zarur Meva, sabzavotlar, to'yimli oqsillar (masalan, parranda go'shti, baliq), va yong'oqlarni o'z ichiga olgan dietani tanlash. Oziqlanishda uglevodlar va yog'larning ortiqcha iste'mol qilishidan saqlanish kerak. Kam yog'li va past glysemik indeksga ega oziq-ovqatlarni tanlash muhim. Harbiy ayollar jismoniy faoliyatda bo'lgani uchun, etarli miqdorda suv ichish muhimdir, bu tanani toza tutadi va oziq moddalarini samarali olib yurishni ta'minlaydi. Harbiy ayollarga jismoniy faoliyatda muntazamlilik va yuqori intensivlikni saqlash zarur: O'ziga xos mashqlar, yugurish, yoga yoki pilates kabi mashqlarni o'z ichiga olgan rejimni yaratish muhimdir.

- Kuch va chidamlilikni oshirish: Og'irlik ko'tarish va chidamlilikni oshirish uchun maxsus mashqlarni bajarish nafaqat vaznni nazorat qilishga yordam beradi, balki umumiy jismoniy holatni ham yaxshilaydi.

- Sog'lom tana va yurakni saqlash: Harbiy ayollar uchun yurak va qon tomir tizimini mustahkamlash uchun aerobik mashqlarni bajarish muhimdir.

Stressning ortishi semizlikka olib kelishi mumkin, chunki ko'pincha stress davrida noxush ovqatlanish odatlari yuzaga keladi: Meditatsiya, nafas olish mashqlari yoki stressni kamaytirish uchun qisqa dam olishlar yordam beradi. Harbiy ayollar uchun psixologik maslahatlar va guruh qo'llab-quvvatlash sessiyalari stressni kamaytirishga yordam beradi. Harbiy ayollar o'z vaznini va sog'lig'ini muntazam ravishda nazorat qilishlari kerak: O'rtacha vaznni saqlab turish uchun o'z vaznini muntazam tekshirib turish kerak. Muntazam tibbiy ko'riklar va sog'liqni nazorat qilish, ayniqsa, gormonlar va metabolizmni tekshirish, semizlikni oldini olishga yordam beradi. Harbiy ayollar uchun semizlikni oldini olish faqat estetik jihatdan emas, balki jismoniy va psixologik salomatlikni saqlash uchun ham muhimdir. To'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faoliyat, stressni boshqarish va sog'liqni nazorat qilish harbiy xizmatni muvaffaqiyatli

va sog'lom davom ettirishga yordam beradi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uni davom ettirish harbiy ayollarning professional faoliyatida muvaffaqiyat va sog'likni ta'minlash uchun zarurdir. Chet El Tajribasini O'rganish: Harbiy Ayollarda Semizlikni Oldini Olishdagi Yondashuvlar

Chet eldagi harbiy xizmatlarda semizlikni oldini olishga qaratilgan yondashuvlar va tajribalar harbiy ayollar uchun samarali va innovatsion usullarni taqdim etadi. Turli davlatlar o'zlarining harbiy ayollariga bo'lgan yondashuvlarini shakllantirishda turli faktorlarni inobatga olgan, bu esa xalqaro miqyosda semizlik va sog'liqni saqlashni muhim masala deb hisoblashadi. Quyida chet elda o'rganilgan ba'zi samarali tajribalar keltirilgan:

AQSh armiyasida harbiy ayollarni semizlikdan saqlash va jismoniy salomatlikni yaxshilash uchun ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. AQShning Army Wellness Program (Armiyadagi Sog'liqni Saqlash Dasturi) doirasida harbiy xizmatchilarga sog'lom turmush tarzini yaratishga qaratilgan turli resurslar va qo'llab-quvvatlashlar taqdim etiladi. Harbiy ayollarga xos ratsionlar va energiya sarfi hisobga olingan maxsus ovqatlanish rejaları taqdim etiladi. Harbiy xizmatchilar uchun tez-tez sog'lom ovqat tayyorlash va jismoniy mashqlarni bajarish imkoniyatlari mavjud. Harbiy xizmatchilarni semizlikdan saqlash uchun muntazam ravishda jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkaziladi, jumladan, yengil yugurish, kardio mashqlar va kuchaytirish treninglari. Stressni boshqarish bo'yicha psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlari va stressni kamaytirishga yordam beruvchi treninglar ham amalga oshiriladi. Bu tizimning muvaffaqiyati shundaki, AQSh armiyasi faqatgina jismoniy mashqlar va ovqatlanish bilan cheklanmay, balki harbiy xizmatchilarni psixologik jihatdan ham qo'llab-quvvatlaydi. Kanadada harbiy xizmatchilar uchun semizlikni oldini olishda holistik yondashuv tatbiq etiladi. Bu yondashuvda sog'liqni saqlashning barcha jihatlari — jismoniy faollik, ovqatlanish va psixologik barqarorlik bir-birini to'ldiruvchi sifatida qaraladi. Harbiy ayollarga moslashtirilgan dietalar va o'zgaruvchan faoliyatni hisobga olgan holda dietologlar tomonidan o'qitishlar o'tkaziladi. Bu orqali ular individual ehtiyojlariga qarab ratsionni sozlashlari mumkin. Harbiy xizmatchilarni faol saqlash uchun o'ziga xos jismoniy tayyorgarlik dasturlari tuziladi. Bunga jismoniy mashqlar va aerobik faolliklar kiradi, masalan, velosipedda yurish, yugurish va suzish. Stressni kamaytirish uchun yoga va meditatsiya kabi mashqlar jismoniy va ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar uchun sog'liqni saqlash va yengilmaslikni ta'minlash bo'yicha individual konsultatsiyalar mavjud. Kanadadagi harbiy tizimda jismoniy faollik va psixologik salomatlikni yaxshilashga qaratilgan yondashuv, harbiy ayollarni semizlikdan saqlashda muvaffaqiyatli bo'lib kelmoqda. Buyuk Britaniya armiyasida semizlikni oldini olishga qaratilgan yondashuvlar sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga asoslanadi. Harbiy xizmatchilarni jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'riladi. Harbiy xizmatchilarga yuqori energiyali va maqsadga muvofiq oziqlanish uchun ratsion tayyorlash bo'yicha treninglar o'tkaziladi. Shuningdek, armiyada ovqatlanish bo'yicha maxsus sog'lom variantlar mavjud. Harbiy xizmatchilarga muntazam ravishda jismoniy tayyorgarlik va jismoniy holatni saqlashga qaratilgan treninglar, masalan, ochiq havoda mashqlar, yoga va kuchli chidamlilikni talab qiluvchi mashqlar. Buyuk Britaniya armiyasi, harbiy xizmatchilarni semizlikdan saqlash uchun o'z vaqtida tibbiy tekshiruvlar va ortiqcha vazn bilan kurashish bo'yicha mutaxassislar bilan maslahatlashish imkoniyatlarini taqdim etadi. Buyuk Britaniyada

bu tizim jismoniy faoliyat va sog'lom ovqatlanishni birlashtirgan holda muvaffaqiyatli ishlamoqda. Avstraliya armiyasida harbiy ayollar uchun jismoniy tayyorgarlik va semizlikni oldini olish bo'yicha keng qamrovli yondashuv mavjud. Bu yondashuvda harbiy ayollarga quyidagilarni o'rgatishadi. Jismoniy faollikni oshirish va to'g'ri ovqatlanishni o'rgatish bo'yicha kurslar tashkil etiladi. Stressni kamaytirish va o'zini qadrlashni oshirish uchun psixologik maslahatlar va qo'llab-quvvatlash dasturlari taqdim etiladi. Harbiy xizmatchilarni semizlikni oldini olish uchun maqsadga muvofiq oziqlanish va jismoniy faoliyatga rag'batlantirish. Avstraliya harbiy tizimi o'ziga xos tarzda semizlikni oldini olish uchun aqlga sig'adigan va boshqariladigan yondashuvni qo'llaydi.

Chet eldagi harbiy tizimlarda semizlikni oldini olishga qaratilgan tajribalar ko'rsatadiki, harbiy ayollarni semizlikdan saqlash uchun kompleks yondashuvlar zarur. To'g'ri oziqlanish, muntazam jismoniy mashqlar, stressni boshqarish va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi ko'p jihatlarni o'z ichiga olgan tizimlar harbiy ayollarga sog'lom turmush tarzini saqlashda yordam beradi. Bu yondashuvlar o'rganiladigan va tatbiq etiladigan eng yaxshi amaliyotlarni ko'rsatadi, bu esa harbiy ayollar uchun semizlikni oldini olishda samarali yechimlar taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. World Health Organization (WHO). (2021). *Global Strategy on Diet, Physical Activity and Health*.
2. Morris, J. N., Hardman, A. E. (1997). *Walking to Health*. *Sports Medicine*, 23(5), 306-332.
3. Kelley, G. A., Kelley, K. S. (2017). *Effects of Exercise on Body Composition in Older Adults: A Meta-Analysis*. *Journal of Aging and Physical Activity*, 25(1), 1-10.
4. CDC Nutrition, Physical Activity, and Obesity

IJODIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR VA ULARNING KASBIY TA'LIM MUASSASASI O'QUVCHILARI RIVOJIGA TA'SIRI

*Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodiy kompetensiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Motivatsiya, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini anglash kabi psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda, pedagoglar roli, oila muhitining qo'llab-quvvatlashi va jamoaviy ishning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Kasbiy ta'lim muassasalarida ijodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun innovatsion va integrativ yondashuvlardan foydalanish taklif etiladi. Maqola ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha samarali usullar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ijodiy kompetensiya, psixologik omillar, ijtimoiy muhit, motivatsiya, kasbiy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические и социальные факторы, влияющие на формирование креативной компетенции. Рассматриваются такие психологические аспекты, как мотивация, эмоциональная устойчивость и самоосознание, а также роль педагогов, поддержка семьи и значимость коллективной работы. Предлагаются инновационные и интегративные подходы для развития креативной компетенции в профессиональных учебных заведениях. Статья содержит эффективные методы и рекомендации для развития креативного мышления.

Ключевые слова: Креативная компетенция, психологические факторы, социальная среда, мотивация, профессиональное образование, педагогические технологии, креативное мышление.

Annotation: This article analyzes psychological and social factors influencing the development of creative competence. Psychological characteristics such as motivation, emotional stability, and self-awareness are discussed, alongside the role of educators, family support, and the importance of teamwork. Innovative and integrative approaches to fostering creative competence in vocational education institutions are proposed. The article provides effective methods and recommendations for enhancing creative thinking.

Keywords: Creative competence, psychological factors, social environment, motivation, vocational education, pedagogical technologies, creative thinking.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning tezkor rivojlanishi va zamonaviy texnologiyalarning kundalik hayotga kirib kelishi o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Ayniqsa, kasbiy ta'lim muassasalarida ijodiy kompetensiyani shakllantirish, kelajakdagi mutaxassislarni innovatsion yondashuvlar bilan ta'minlash uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi. Ijodiy kompetensiya, o'z navbatida, muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ifodalaydi.

Shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bularning orasida motivatsiya, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini anglash kabi psixologik omillar muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy muhit va jamiyat talablariga moslashuvchanlik ijodiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining ajralmas qismidir. Ushbu maqolada ijodiy kompetensiyani shakllantirishga ta'sir qiluvchi psixologik va ijtimoiy omillar o'rganilib, ularning kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarining rivojiga ta'siri ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi.

Maqolaning asosiy maqsadi – ijodiy kompetensiyani rivojlantirishga ko'maklashadigan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash yo'llarini ko'rsatishdir. Bu o'z navbatida, o'quvchilarni nafaqat o'z kasbiy sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari, balki hayotning turli sohalarida yangi imkoniyatlarni yaratishlariga yordam beradi.

Ijodiy kompetensiyani shakllantirish insonning ichki psixologik xususiyatlari va bu xususiyatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga bog'liq. Ushbu omillar ijodiy jarayonni harakatga keltiruvchi ichki kuch sifatida namoyon bo'ladi va o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarni ishlab chiqish,

muammolarni o'ziga xos usullarda hal qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Quyida ijodiy kompetensiyaga ta'sir ko'rsatuvchi muhim psixologik omillar tahlil qilinadi.

Motivatsiya ijodiy fikrlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun ichki va tashqi motivatsiya muhim ahamiyatga ega. Ichki motivatsiya o'quvchining ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi, unga erishish istagi bilan belgilanadi. Masalan, yangi g'oyalarni amalga oshirishdan olingan zavq ichki motivatsiyaning asosidir. Shu bilan birga, tashqi motivatsiya mukofot, maqto'v, tan olinish yoki ijtimoiy maqom orqali shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilar ijodiy faoliyatda yanada samaraliroq bo'lishadi, chunki ular ichki ehtiyojdan kelib chiqib faoliyat olib boradilar.

Ijodiy fikrlash jarayonida emotsional barqarorlik alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarda stress va tashvish holati ijodiy salohiyatni cheklashi mumkin, chunki bunday holatlar yangi g'oyalarni ishlab chiqish jarayoniga to'sqinlik qiladi. Emotsional barqarorlik ijodiy jarayonlarni samarali amalga oshirish uchun zarurdir. Shaxsning o'z hissiyotlarini boshqarishi, o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Ijodiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida shaxsning o'z-o'zini anglash darajasi muhim rol o'ynaydi. O'quvchining o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlay olishi, o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholay bilishi uning ijodiy salohiyatini oshiradi. O'ziga bo'lgan ishonch esa ijodiy jarayonlarning samarali kechishini ta'minlaydi. Bu shaxsning o'z fikrlarini ochiq-oydin ifoda etishi, yangi g'oyalarni sinashga tayyorligini oshiradi. O'quvchilarning o'z imkoniyatlariga ishonganligi ularning ijodiy topshiriqlarni bajarishda mustaqillik darajasini oshiradi.

Ijodiy kompetensiya insonning kognitiv qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Xotira, e'tibor, mantiqiy fikrlash, tasavvur kabi kognitiv qobiliyatlar ijodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Tasavvur qilish qobiliyati o'quvchiga yangi g'oyalarni ishlab chiqish imkonini bersa, mantiqiy fikrlash ushbu g'oyalarni amalga oshirish uchun zarur strategiyalarni belgilashga yordam beradi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mantiqiy masalalar, ijodiy topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlardan keng foydalanish zarur.

Ijodiy jarayonlar muayyan qarorlarni qabul qilishni talab qiladi. O'quvchilarning qaror qabul qilishdagi dadilligi, xatolardan qo'rqqanlik va muqobil variantlarni o'rganish qobiliyati ijodiy kompetensiya rivojlanishiga yordam beradi. Qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish uchun o'quvchilarga mustaqil faoliyat uchun imkoniyat yaratish, shuningdek, xatolarni o'rganish orqali tajriba olish imkonini beruvchi vazifalarni berish muhimdir.

Ijodiy kompetensiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardan iborat. Motivatsiya, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini anglash va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali o'quvchilar ijodiy faoliyatga tayyor bo'ladi. Ushbu omillarni inobatga olib, pedagogik jarayonni tashkil qilish o'quvchilarda ijodiy kompetensiyani samarali shakllantirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijodiy kompetensiyani shakllantirishda psixologik omillardan tashqari, ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning atrof-muhiti, ularni o'rab turgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlari va ijtimoiy muhitning talab va ehtiyojlari ijodiy salohiyatni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlovchi yoki cheklovchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Pedagoglar ijodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida asosiy vositachilar hisoblanadi. O'qituvchilar o'z darslarida ijodiy faoliyatni rag'batlantirish uchun turli pedagogik usullarni qo'llashi lozim. Ular:

- O'quvchilarga yangicha yondashuvlarni o'rgatishi,
- Innovatsion topshiriqlarni berishi,

Yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlashi orqali ijodiy fikrlash muhitini shakllantiradi.

Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni muammolarni guruh bo'lib hal qilishga jalb qilganida, bu jarayon ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. O'quvchilar bir-biridan o'rganadi va yangi yechimlar ishlab chiqadi. Pedagoglarning motivatsion va qo'llab-quvvatlovchi munosabati o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, bu esa ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Oila muhitining o'quvchining ijodiy rivojlanishiga ta'siri katta. Oilada o'quvchining fikrlarini tinglash, qo'llab-quvvatlash va ijodiy tashabbuslarini rag'batlantirish uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O'quvchilar oiladan olgan psixologik va emotsional barqarorlik asosida ijodiy

fikrlashga moyil bo'ladilar.

Masalan, ota-onalar o'z farzandlarining qiziqishlarini aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash orqali ijodiy faoliyatni rivojlantiradi. Oila ichidagi ijobiy muloqot, bolaga yangi imkoniyatlar yaratish va uni sinovlardan qo'rqmaslikka o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Jamoadagi sog'lom muhit ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi asosiy omillardan biridir. O'quvchilarning o'zaro munosabatlari, birgalikda ishlash ko'nikmalari va guruhdagi hamkorlik jarayonlari ijodiy kompetensiya shakllanishida katta rol o'ynaydi. Jamoada bir-birini qo'llab-quvvatlash, fikr almashish va yangi g'oyalarni birgalikda ishlab chiqish orqali ijodiy qobiliyat rivojlanadi.

Masalan, kasbiy ta'lim muassasasida o'quvchilarni guruh loyihalari yoki muammolarni hal qilish bo'yicha vazifalarga jalb qilish ularda hamkorlikda ishlash va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Bu jarayonda har bir o'quvchining fikri muhim ekanligi e'tirof etiladi, bu esa ularning ijodiy faolligini rag'batlantiradi.

Ijtimoiy madaniyat va an'analar o'quvchilarning ijodiy kompetensiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Madaniy muhitning ochiqligi, yangiliklarni qabul qilishga moyilligi ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Jamiyatda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ilm-fanga qiziqish uyg'otish va ijodkor shaxslarni qadrlash madaniyati o'quvchilarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Zamonaviy ijtimoiy muhit texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini kengaytirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, internet resurslari, grafik va multimedia vositalari o'quvchilarga o'z g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiyalar yordamida guruhlarda ishlash va dunyo bo'ylab boshqa ijodkorlar bilan aloqada bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Ijtimoiy omillar ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda asosiy o'rin tutadi. Pedagoglarning qo'llab-quvvatlashi, oila muhitining roli, jamoaviy munosabatlar va madaniy sharoit ijodiy faoliyatning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarni yangi g'oyalarni izlash va ularni amalga oshirishga rag'batlantirish mumkin. Ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil etish o'quvchilarni kelajakda innovatsion faoliyat uchun tayyorlaydi va ularning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon qilish imkonini beradi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida ijodiy kompetensiyani rivojlantirish o'quvchilarni kelajakdagi professional faoliyatlariga samarali tayyorlash uchun zarurdir. Bu jarayon o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli pedagogik usullar va texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Kasbiy ta'limda ijodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Kasbiy ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlarning o'rni beqiyosdir. Amaliy mashg'ulotlar:

- O'quvchilarga nazariy bilimlarni hayotiy muammolarni hal qilishda qo'llash imkonini beradi.
- Yangi usullar va texnologiyalarni sinab ko'rish uchun sharoit yaratadi.

Masalan, texnik ta'lim muassasasida o'quvchilarga muayyan loyiha ustida ishlash vazifasi topshirilsa, ular o'z bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashga imkon topadilar. Bu jarayon ijodiy yondashuvni talab qiladi va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy kasbiy ta'lim texnologiyalari ijodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Quyidagi texnologiyalar buning samarali vositalaridan hisoblanadi:

- Problemali o'qitish texnologiyasi: o'quvchilarga muayyan muammolarni hal qilish topshirig'i beriladi va bu jarayonda ular ijodiy yechimlarni qidiradilar.
- Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi: o'quvchilar o'z bilimlarini muayyan loyihalarni ishlab chiqish orqali mustahkamlaydilar.
- Raqamli texnologiyalar: grafik dasturlar, virtual laboratoriyalar va boshqa raqamli vositalar orqali ijodiy fikrlashni rag'batlantirish mumkin.

Interaktiv o'qitish usullari o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi va ularni jarayonga faol jalb qiladi. Quyidagi usullar bunda muhim rol o'ynaydi:

- Guruhli ish: o'quvchilar birgalikda ishlash orqali yangi g'oyalarni ishlab chiqadilar va muammolarga turlicha yondashuvlarni sinab ko'radilar.
- Rolli o'yinlar: o'quvchilarni turli kasbiy vaziyatlarga moslashish va ijodiy qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

- Muzokaralar va bahslar: o'quvchilar turli nuqtai nazarlarni tahlil qilib, ijodiy fikrlash va o'z fikrlarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Integrativ yondashuv kasbiy ta'limda ijodiy kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish va o'quvchilarga yanada keng qamrovli bilim berish mumkin. Masalan, texnologiya va san'at fanlarini birlashtirish orqali o'quvchilarda ijodiy yondashuv va dizayn qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda mustaqil ishlarning o'rni katta. Mustaqil ishlash jarayonida o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlaydi, yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazadi va muammolarga yechim topadi. Shu maqsadda:

- O'quvchilarga individual loyihalar topshirilishi.
- Nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishga yo'naltirilgan mustaqil vazifalarni berish.
- Xatolarni o'rganish va ularni tuzatish orqali o'z qobiliyatlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish muhimdir.

Kasbiy ta'lim muassasasida ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi madaniy muhitni shakllantirish ham zarur. Bu uchun:

- Ijodkorlikka asoslangan tanlovlar, ko'rgazmalar va tadbirlarni tashkil etish.
- O'quvchilarni o'z g'oyalari va yutuqlari bilan bo'lishishga undash.
- Ularning fikrlarini hurmat qilish va yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash orqali ijodiy muhitni yaratish lozim.

Xulosa. Kasbiy ta'lim muassasalarida ijodiy kompetensiyani rivojlantirish o'quvchilarning kelajakdagi professional muvaffaqiyatlari uchun zarurdir. Amaliy mashg'ulotlar, innovatsion texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar va mustaqil ishlar orqali ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, pedagoglar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ijodiy muhit va o'quvchilarning yangi g'oyalarni rivojlantirishga qaratilgan sharoitlar ularning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon qilishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va madaniy muhitni shakllantirish orqali kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ijodiy kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Psixologik va ijtimoiy omillar ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Motivatsiya, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini anglash, va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish orqali o'quvchilar ijodiy salohiyatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, pedagoglar, oila muhitining qo'llab-quvvatlashi, va sog'lom ijtimoiy muhit ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida ijodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun turli innovatsion va interaktiv pedagogik texnologiyalarni joriy etish, amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratish, va o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash zarur. Bu jarayon o'quvchilarning yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularni zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan ijodkor va innovator mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, texnologiyalar va integrativ yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarni ijodiy jarayonlarga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jamiyatning o'zgaruvchan talablari, texnologik rivojlanish, va pedagogik innovatsiyalarni inobatga olgan holda, kasbiy ta'lim tizimi ijodiy kompetensiyani rivojlantirishga doimiy ravishda moslashib borishi kerak. Bu esa o'quvchilarni muvaffaqiyatli kelajak uchun tayyorlashda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аванесов, В. С. Психология творчества: Теоретические основы и практическое применение. – Москва: Просвещение, 2018.
2. Гильфорд, Дж. Креативность и интеллект. – Москва: Академический проект, 2020.
3. Назарова, И. И. Развитие креативного мышления студентов в профессиональном образовании. – Санкт-Петербург: Лань, 2019.
4. Юнг, К. Г. Психологические аспекты творчества. – Москва: Наука, 2021.
5. Dewey, J. How We Think. – Boston: D.C. Heath, 1933.

TALABALAR GURUHIDAGI INDIVIDUAL HOLATNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Haydarova Sarvinoz Saydullayevna,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalar guruhidagi shaxsning holatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar ko'rib chiqiladi. Guruhdagi talabalarning ijtimoiy-psixologik holatining turli darajalari va talabalar o'rtasidagi munosabatlarning ustunlik turlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish bo'yicha empirik tadqiqot ma'lumotlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: individuallik, ijtimoiy muhit, psixologik omillar, shaxslararo munosabatlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИНДИВИДУАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ В ГРУППЕ СТУДЕНТОВ

Хайдарова Сарвиноз Сайдуллаевна,
преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация. В статье рассматриваются социально-психологические факторы, влияющие на состояние человека в студенческой группе. Представлены данные эмпирического исследования по установлению связей между разными уровнями социально-психологического состояния студентов в группе и преобладающим типом взаимоотношений между студентами.

Ключевые слова: индивидуальность, социальная среда, психологические факторы, межличностные отношения.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE INDIVIDUAL SITUATION IN A GROUP OF STUDENTS

Haydarova Sarvinoz Saydullayevna,
Teacher of Termez State University

Annotation. The article examines the socio-psychological factors that affect the state of a person in a group of students. Empirical research data on the establishment of relationships between different levels of the social-psychological condition of students in the group and the predominant types of relationships between students are presented.

Key word: individuality, social environment, psychological factors, interpersonal relations

Kirish: Hozirgi vaqtda ijtimoiy psixologiya oliy kasbiy ta'lim tizimidagi talabalar guruhlarini o'rganishga katta qiziqish bildirmoqda. Tadqiqotchilar ushbu guruhlarining uning ishtirokchilari uchun yuqori dolzarbligini, ayniqsa, guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarning muhimligini ta'kidlaydilar [1-4]. Shaxslararo munosabatlarning sub'ekti bo'lgan har bir shaxs odamlar o'rtasidagi sub'ektiv tajribali aloqalar va munosabatlar sifatida, odamlarning birgalikdagi faoliyati va ularning muloqoti mazmuni bilan belgilanadigan shaxslararo munosabatlar, yo'nalishlar, kutishlar tizimi sifatida kiradi [5]. Turli ijtimoiy shakllanishlarda, shu jumladan, kichik ijtimoiy guruhlarda. Kichik ijtimoiy guruhlardagi munosabatlar birgalikdagi faoliyatning samaradorligiga, muloqot jarayonining tabiatiga ta'sir qiladi va selektivlik va hissiy ohanglar bilan tavsiflanadi [5].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Talabalarning guruhdagi statusining psixologik jihatdan o'rganilishiga doir tadqiqotlar uzoq xorij va qo'shma shtatlarda tadqiq etilgan. Galina Mixaylovna Andreyeva - sovet va rus ijtimoiy psixologi va sosiologi guruhni sub'yektlari ma'lum umumiy xususiyatlar, shu jumladan birgalikdagi faoliyatning tabiati bilan birlashtirilgan shaxs sifatida belgilaydi. Artur Aleksandrovich Rean - rus psixologi va Yakov Lvovich Kolominskiy ijtimoiy psixologiyada olingan ma'lumotlar statuslar farqlarini aniqlashning yaxlit rasmini yaratmaydi. Talabalarning muloqot sub'yektlari sifatidagi xususiyatlarini rivojlanishning ijtimoiy holati nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin. Talabalik davri yetakchi faoliyatning o'zgarishi, ijtimoiy maqomning o'zgarishi, yoshlarning yangi ijtimoiy rolga kirishi bilan tavsiflanadi G.M. Andreeva [6] guruhni sub'ektlari ma'lum umumiy xususiyatlar, shu jumladan birgalikdagi faoliyatning tabiati bilan birlashtirilgan shaxs sifatida belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib, guruh - bu odamlar jamoasi bo'lib, u quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: birgalikdagi faoliyat, tuzilish, rivojlanish darajasi va boshqalar faoliyati guruh ichidagi dinamika jarayonlari, bir-birining sub'ektlarini idrok etish bilan o'zaro bog'liqdir. Guruhlar va birgalikdagi faoliyat muammolari an'anaviy ravishda ijtimoiy psixologiyada ko'rib chiqiladi [2]. Ammo ko'plab masalalar, jumladan, shaxs va guruhning o'zaro ta'sir mexanizmlari muammosi keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. Shaxslararo o'zaro ta'sirning muhim xususiyatlaridan biri - bu shaxsning guruhdagi yoki maqomdagi pozitsiyasi, bu shaxsning shaxslararo munosabatlar tizimidagi mavqeini va uning guruh a'zolari tomonidan «psixologik maqbulligi» o'lchovini bildiradi. Buni shaxsning kommunikativ faoliyati muvaffaqiyatining etarlicha ob'ektiv ko'rsatkichi deb hisoblash mumkin. Ya.L. Kolominskiy [1] maqomni integral tushuncha sifatida belgilaydi, bu ikkala ob'ektiv parametrlarni, masalan, guruh ichidagi tuzilmadagi shaxsning pozitsiyasini va turli darajada aks ettirilgan o'z pozitsiyasining sub'ektiv aksini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, zamonaviy ijtimoiy psixologiyada [6] maqom sub'ektning shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'rni sifatida qaraladi, uning huquqlari, majburiyatlari va guruhdagi muayyan imtiyozlarni belgilaydi. Ishbilarmonlik va hissiy etakchilikni farqlash odatiy holdir. Instrumental «biznes» rahbarining roli har bir ishtirokchiga va butun guruhga qo'yilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan harakatlardan iborat va hissiy rahbarning roli guruhdagi munosabatlarning hissiy jihatlari bilan o'zaro bog'liqdir. Guruhlardagi sotsiometrik maqom muammosi bo'yicha tadqiqotchilarning ko'plab ishlari sotsiometrik maqom va turli individual tipologik xususiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan edi, masalan, ekstroversiya, introversiya, tajovuzkorlik darajasi, tashqi jozibadorlik intellektual ma'lumotlari, yoshi va boshqalar. Shu bilan birga, A.A. Reana va Ya.L. Kolominskiy [4], ijtimoiy psixologiyada olingan ma'lumotlar statuslar farqlarini aniqlashning yaxlit rasmini yaratmaydi. Mavjud ma'lumotlar juda ko'p va ba'zida bir-biriga zid. Tengdoshlar guruhlarida individual maqom muammosi ko'proq bola rivojlanishi, o'smirlik va yoshlik davri tadqiqotchilari tomonidan ko'proq o'rganilgan [6-7], «talabalik yoshi» kabi muhim bosqich bu borada etarlicha o'rganilmagan. Talabalarning muloqot sub'ektlari sifatidagi xususiyatlarini rivojlanishning ijtimoiy holati nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin.

Talabalik davri yetakchi faoliyatning o'zgarishi, ijtimoiy maqomning o'zgarishi, yoshlarning yangi ijtimoiy rolga kirishi bilan tavsiflanadi. Talabalik yoshi - bu insonning kattalikka o'tishiga vositachilik qiladigan maxsus hayot bosqichidir. Mustaqil hayotga qadam qo'ygan talaba mohiyatan mustaqil emas, ko'pincha iqtisodiy va psixologik jihatdan ota-onasiga qaram bo'ladi. Ijtimoiy yetuklikning rasmiy boshlanishi va uning haqiqiy «boshlanmaganligi» o'rtasidagi bunday tafovut ushbu rivojlanish davrining jiddiy qarama-qarshiligidir. Talabalik yoshi bu qarama-qarshilik bartaraf etilganda, faol yo'nalish va yangi ijtimoiy funksiyalarning rivojlanishi sodir bo'lgan davrda shaxs uchun bosqich bo'ladi [2]. Oliy o'quv yurtida talaba maqomida qolish yangi vakolatlar va yangi xulq-atvor strategiyalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi [1]. Ular ko'pincha dominant, mustaqil xatti-harakatlar bilan bog'liq. Talabalar muloqotda atrofida sodir bo'layotgan hamma narsani nazorat qilish, atrofdegilar ular haqida nima qilishlari, his qilishlari yoki o'ylashlariga ta'sir qilish istagi bilan ajralib turadi. Ular boshqa odamlarning ta'sirini qabul qilishni va ularga bo'ysunishni xohlamaydilar. Shaxslararo o'zaro ta'sirning intensivligi va ijtimoiy doiraning kengayishi bilan tavsiflanadi.

Talabalar uchun shaxsning hissiy holatini optimallashtiradigan va qiyin hayotiy vaziyatlarda yordam beradigan norasmiy muloqot ayniqsa muhimdir. Tan olish, o'z-o'zini hurmat qilish va o'zini o'zi qabul qilish zarurati aniq ifodalangan [2]. Tvorogova ular kiritilgan guruhning ahamiyati darajasi talabalar uchun juda muhim ekanligini ko'rsatdi. Talabalar uchun asosiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq holda ma'lumot guruhlarining ta'siri ayniqsa katta: muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik, guruhda yuqori mavqeni saqlab qolish, o'z-o'zini anglash va guruhning boshqa a'zolari tomonidan shaxsni baholash o'rtasidagi ziddiyatga yo'l qo'ymaslik, muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj, yuqori maqom, guruhning obro'siga, tegishli bo'lish va qabul qilish ehtiyojlari. Talabalar o'zlarini topadigan ijtimoiy rivojlanish holatijuda demokratik bo'lib, unda o'z-o'zidan va samimiylik rag'batlantiriladi. Universitet tizimi maktab tizimiga nisbatan ancha demokratik va talabaning maqomi maktab o'quvchisi maqomiga nisbatan mustaqilroqdir. Shu bilan birga, shaxslararo munosabatlar tizimida sub'ektning egallagan o'rni talaba shaxsining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Keling, E.V Drozdovanning tadqiqot ma'lumotlariga murojaat qilaylik, bunda boshqalar qatorida, guruhdagi talabalarning ijtimoiy-psixologik holatining turli darajalari va talabalarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarining ustunlik turlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish vazifasi qo'yilgan.

Guruhdagi talabalarning turli ijtimoiy-psixologik holatini ifodalash darajasini aniqlash uchun sotsiometrik protsedura qo'llanildi. «Guruhingizning qaysi a'zosi bilan bo'sh vaqtingizni o'tkazishni xohlaysiz» mezoniga asoslanib, hissiy holat aniqlandi. Biznes maqomi «o'qishda yordam so'rab guruhingizning qaysi a'zosiga murojaat qilgan bo'lardingiz» mezoni asosida aniqlandi. «Muhim hayotiy muammoni hal qilishda guruhingizning qaysi a'zosiga maslahat so'rab murojaat qilgan bo'lardingiz» mezoni asosida «psixoterapevtik» maqomi aniqlandi. Ijtimoiy-psixologik holatning har bir turini ifodalash darajasi qabul qilingan tanlovlar yig'indisi asosida aniqlandi. Har bir guruh a'zosi uchun ijtimoiy-psixologik holatning har bir turi uchun sotsiometrik indekslar hisoblab chiqilgan. Tadqiqotda qatnashgan guruhlarining miqdoriy tarkibi har xil bo'lgani uchun ijtimoiy-psixologik holat saylovlarning mutlaq soni bilan emas, balki individual sotsiometrik ko'rsatkichga muvofiq belgilandi. Guruh a'zolarining sotsiometrik holati indeksleri har uch turdagi ijtimoiy-psixologik holat bo'yicha alohida hisoblab chiqilgan. Keyin tadqiqotda ishtirok etuvchi talabalar guruhida uchta maqom turib o'yicha indekslarning o'rtacha qiymatini topib, ijtimoiy-psixologik holatning umumiy indeksi aniqlandi. Undan tashqari, V.Stefansonning «Q-sarting» texnikasi yordamida o'quvchilarning bir-biriga nisbatan ustun bo'lgan munosabatlari aniqlandi. Ushbu uslub bizga guruhdagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini quyidagi parametrlar bo'yicha aniqlashga imkon beradi: «qaramlik - mustaqillik», «umumiylik – murosasizlik», «kurashni qabul qilish – kurashdan qochish». Tadqiqot maqsadlariga muvofiq, sotsiometrik protsedura yordamida yuqori, o'rta va past ijtimoiy-psixologik holatga ega bo'lgan talabalar aniqlandi: hissiy, ishbilarmon va «psixoterapevtik». Guruhdagi talabalarning ijtimoiy-psixologik holatining barcha turlar bo'yicha ko'rsatkichlari va guruhdagi ijtimoiy-psixologik holatning umumiy indeksi quyidagicha izohlandi: 0,10dan kam indeks olganlar past maqom, indeks olganlar 0,10 dan 0,20 gacha o'rtacha maqom, indekslar 0,30 dan yuqori maqomgacha tasniflandi. Guruhdagi talabalarning har bir ijtimoiy-psixologik holati darajasining og'irlik darajasining foiz nisbati aniqlandi, so'ngra Spearman r-korrelyatsiyasini tahlil qilish protsedurasidan foydalanib, biz har xil turdagi statuslarning ifoda darajalari qanchalik o'zaro bog'liqligini aniqladik. Guruhdagi talabalar. Korrelyatsiya munosabatlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, guruhdagi talabalarning ijtimoiy-psixologik holatining uch turi o'rtasida sezilarli aloqalar mavjud. Emotsional holat qanchalik yuqori bo'lsa, guruhdagi talabalarining biznes va «psixoterapevtik» maqomi shunchalik yuqori bo'ladi ($r \leq r_{0,05}$; $r \geq r_{0,01}$) va aksincha. Shunday qilib, o'rganilayotgan talabalar guruhlarida yetakchilik tuzilmasi uyg'undur. Keyinchalik, Spearman r korrelyatsiya koeffitsientidan foydalanib, mavjud munosabatlar va turli xil ijtimoiy-psixologik holatning jiddiyligi o'rtasidagi munosabatlar aniqlandi. Ishbilarmonlik holati va «jangdan qochish» munosabati o'rtasida statistik jihatdan muhim, ishonchli bog'liqlik aniqlandi. Ya'ni, ko'pchilik o'qishlarida yordam so'rab murojaat qiladigan talabalar buni afzal ko'radilar shaxslararo munosabatlarda kurashdan qoching, ziddiyatli o'zaro ta'sirlardan qochishga intiling va guruh bahslarida betaraflikni saqlang.

Tadqiqotga ko'ra, yuqori sotsiometrik maqomga ega bo'lgan talabalar uchun, uning modalligidan qat'i nazar (hissiy, ishbilarmonlik va «psixoterapevtik») umumiy bo'lgan narsa shundaki, ular muvaffaqiyatli kommunikatorlardir; ular boshqalarga qaraganda yaxshiroq ifodalash qobiliyatini namoyish etadilar (shu jumladan, o'z fikrini shakllantirish qobiliyati). tashqi ko'rinishi), Yuqori maqomli talabalar o'zini-o'zi hurmat qilishlari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, munosabatlarning yaqinlik darajasidan qat'i nazar, yuqori maqomli talabalar boshqa talabalar uchun «muhim boshqalar» dir, ya'ni ular talabalar guruhlarida a'zolarining o'zini o'zi qadrlashiga sezilarli ta'sir qiladi. Zamonaviy talabalar guruhlarining o'ziga xos xususiyati, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra [2-4], uning ishtirokchilarining ma'lum bir tarqoqligi (oldingi o'n yilliklarga nisbatan). Bunday tarqoqlikning sabablari: mustaqil ish vaqtining ko'payishi, o'quv jarayonida internet resurslaridan foydalanish imkoniyati, ishlovchi talabalar sonining ko'pligi, oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish an'analari yo'qolishi va hokazo. Ammo talaba Guruh yoshlarni ijtimoiylashtirishning eng muhim instituti bo'lib qolmoqda va ularning shaxsiyatining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Guruh a'zosining sotsiometrik maqomi kasbiylashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismidir, chunki u ko'pincha nisbatan barqaror qiymatni ifodalaydi va shaxsning munosabatlar tizimini tavsiflaydi, shaxsning guruhda moslashuvchan xatti-harakatlar strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatining mezoni hisoblanadi. va turli turmush sharoitlarida ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichidir. Talabalar yoshini tavsiflovchi tadqiqotchilar ushbu davrda kasbiy ta'lim masalalari eng keskin tarzda paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. o'z taqdirini o'zi belgilash, bundan tashqari, ko'plab talabalar uchun bu davr oilani yaratish yoki uzoq muddatli, hissiy jihatdan muhim munosabatlarni o'rnatish bilan bog'liq.

Bu jiddiy inqirozlar, og'ir yuklar, tashvishlar va muammolar davri.

Xulosa: Demak, kasbiy ta'lim jarayonida shaxsning nafaqat kasb sub'ekti, balki shaxslararo munosabatlarning sub'ekti sifatida shakllanishi sodir bo'ladi va shu munosabat bilan o'quvchilar va talabalar jamoasining o'rni, uning guruhdagi mavqei, guruh ichidagi shaxslararo munosabatlar tizimida sub'ektning egallagan o'rni nihoyatda katta. Talabalar guruhidagi shaxsning holatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilish ma'lumotlari talabalarning turli bosqichlarida moslashuvi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish jarayonida universitetning psixologik xizmatlari faoliyati uchun foydali bo'ladi. o'qitish, talabalar guruhining faoliyatini optimallashtirish, shaxsning guruhga kirishini optimallashtirish uchun, bu kasb-hunar ta'limi kasbida ta'lim funktsiyalarini yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Коломинский Я.Л. Социальная психология взаимоотношений в малых группах. М.: АСТ, 2010. 448 с.

2. Краснова В.В., Холмогорова А.Б. Социальная тревожность и студенческая дезадаптация / Психологическая наука и образование. 2011. №1. С. 140-150.

3. Сачкова М.Е. Статусные отношения в подростковых ученических группах / Вопросы психологии. 2006. №4. С. 58–58.

4. Творогова Н.Д. Экспериментальное изучение социальной перцепции в процессе общения студентов в учебной группе // Вопросы психологии. 1981. № 4. С. 119-123. Инженерный вестник Дона, №4 (2014) ivdon.ru/ru/magazine/archive/n4y2014/2698 © Электронный научный журнал «Инженерный вестник Дона», 2007–2014

5. Психология. Словарь. / Под ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. М., 1990. 494 с.

6. Saydullayevna, H. S. (2023). Study of Psychological Characteristics of Personal Aggression. European journal of innovation in nonformal education, 3(12), 76-79.

7. Haydarova, S. S. (2024). The role of status in the development of a student's personality. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 123-125.

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR INTEGRATSIYASI ORQALI O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Shoyimova Shoirra Sanakulovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirish texnologiyasini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ilmiy-nazariy, metodologik mezon va tamoyillarga asoslanib fanlararo integratsion-innovatsion qiyosiy tahlilini mavzu, maqsad, mazmun, yakuniy xulosa komponentlari orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, ta'lim usullari, dars texnologiyasi, kasbga yo'naltirish, takomillashtirish, uzluksiz ta'lim.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОФОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАЦИЮ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН

Шойимова Шоира Санакуловна

Доктор философии по педагогический наук (PhD). Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования технологии профориентации учащихся посредством интеграции социально-гуманитарных дисциплин. Также раскрывается междисциплинарный интеграционно-инновационный сравнительный анализ на основе научно-теоретических, методологических критериев и принципов через предметные, целевые, содержательные, заключительные компоненты.

Ключевые слова: интеграция, методы обучения, технология обучения, профориентация, совершенствование, непрерывное образование.

ISSUES OF IMPROVING THE TECHNOLOGY OF DIRECTING STUDENTS TO THE PROFESSION THROUGH THE INTEGRATION OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES

Shoyimova Shoirra Sanakulovna

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD). Fergana Public Health Medical Institute

Annotation. This article examines the issues of improving the technology of guiding students to the profession through the integration of social and humanitarian sciences. Also, based on scientific-theoretical, methodological criteria and principles, interdisciplinary integrative-innovative comparative analysis is revealed through the components of topic, goal, content, and final conclusion.

Key words: integration, educational methods, teaching technology, career orientation, improvement, continuous education.

KIRISH. Ilm-fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas darajada tezlashgan jarayonda fanlararo integratsiya uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kasbga yo'naltirishda fanlar integratsiyasi o'quvchilarni haqiqiy dunyo muammolarini hal qilishga, ularning bilimlarini birlashtirishga va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu o'quvchilarni turli kasblarga tayyorlashga va ularga o'z salohiyatini to'liq ochishga imkon beradi.

O'zbekistonda fanlar integratsiyasi borasida salmoqli ishlar olib borilganligini sanab o'tish joizdir. Jumladan, O.R.Roziqov, R.G'.Safarova, B.R.Adizov, B.X.Xodjayev K.Y.Og'ayev, M.H.Mahmudov, U.Musayev va boshqalarning ishlarida bu muammo ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari doirasida bilvosita o'rganilgan. Bu borada D.N.Yo'ldoshevaning "Ta'lim maqsadini belgilashning tadrijiy taraqqiyoti", Sh.Yusupova, D.Rajabovalarning "Integratsiyali darslar tashkil qilish metodikasi (ona tili va botanika darslariaro integratsiyali ta'lim)", B.Abdullayevaning "Fanlararo aloqadorlik turlari haqida", D.Yo'ldosheva, R.Ashurbayeva, G.Ne'matovalarning "Maktabda ona tili darslarini adabiyot, biologiya mavzulari bilan bog'lab o'qitish" qo'llanmalari ham e'tiborga molik.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hamda xorij olimlaridan Y.A.Komenskiy, A.S.Makarenko, N.K.Krupskaya, V.A.Suxomlinskiy, S.V.Kulnevich, T.P.Lakotsenina, D.B.Elkonin, V.V.Davidov,

Dj.Dyui, F.Xofman kabi olimlarning qarashlarida mazkur integrativ ta'limotga ko'proq pedagogik, pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan yondashilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning barchasida ta'limda fanlararo aloqadorlik masalasi umumintegratsiya hodisasining bir qirrası sifatida keng doirada tahlilga tortilgan bo'lsa-da, ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirish texnologiyasi tadqiqi hozirgacha amalga oshirilgan emas. Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasini adabiyot fani misolida tahlil qilishdan iborat.

NATIJALAR. Kasbga e'tiqod o'quvchilarga ularning qiziqishi, layoqati, qobiliyatlariga va jamiyatning turli xil kasblarga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq holda kasb tanlashga yordam beruvchi maqsadli jarayondir. U fanlararo rivojlanuvchi nazariya va amaliyotning birligi asosida vujudga kelib, o'quv-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Integratsiya atamasi lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib qo'shilish, birlashish ma'nolarini anglatadi. Ma'lumki, integratsiya (lot. integratio – tiklash, to'ldirish, integer – butun so'zidan olingan) 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Integratsiya aloqaga, ya'ni o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalar hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir. Biror muammoning yechimini fanlararo aloqaga asoslangan holda integratsion o'rganish uchun o'qituvchi, avval maqsadni aniq belgilab olishi, o'rganiladigan materialni qayta qarab chiqishi, uning samarali o'zlashtirilishi uchun mos metodlarni tanlashi, dars jarayonini tashkil etishning shakli va zaruriy ashyolarini aniqlashi hamda olinadigan natijalarni oldindan belgilab chiqishi taqozo etiladi.

Integratsiyalashgan ta'limning qulayliklari:

- Chuqurroq tushunish: Turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish o'quvchilarga mavzuni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Masalan, "Ekologiya" mavzusini geografiya, biologiya va kimyo fanlari orqali o'rganish o'quvchilarga ekologik muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish hamda muhandislik, geologiya, energetika va ekologiya kabi turli kasblar haqida tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

- Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish: Integratsiyalashgan ta'limda o'quvchilar o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, tarix, tarbiya va adabiyotni birlashtirgan loyihada o'quvchilar tarixiy voqealarni o'sha davr adabiyotining asosida tahlil qilib, tadqiqot olib borish, taqdimot tayyorlash va o'z g'oyalarini muhokama qilish hamda tarixiy va zamonaviy kasblarni taqqoslash imkoniga ega bo'ladi.

- Motivatsiyani oshirish: O'quvchilar o'zlariga qiziqarli bo'lgan mavzuni turli fanlar orqali o'rganishda, ularning motivatsiyasi va qiziqishi oshadi, ularning bilim olishiga bo'lgan munosabatlari ijobiylashadi.

- Turli ko'nikmalarni rivojlantirish: Integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarning kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish, taqdimot qilish va o'z g'oyalarini ifoda etish kabi turli ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan ta'limning samaradorligi:

- Yaxshiroq o'rganish natijalari: O'quvchilarning integratsiyalashgan ta'limda o'qish natijalari an'anaviy ta'limga qaraganda yaxshiroq bo'ladi.

- Bilimning mustahkamlanishi: Bir nechta fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga va ularning amaliy hayotdagi qo'llanilishini tushunishga yordam beradi.

- O'quvchilarning mustaqilligini oshirish: O'quvchilar turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish orqali mustaqil o'rganishga, o'zlarining fikrlarini shakllantirishga va o'ziga xos yondashuvlarni topishga o'rganadilar.

Kasb-hunarlar to'g'risidagi axborotlarni o'quvchilarga yetkazishda o'quv fanlarining imkoniyatlari katta. Maqolada kasbga yo'naltirishda adabiyot fani orqali boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasining takomillashtirish texnologiyasi keltirib o'tildi.

Maktab adabiyot darslarida o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berishning nazariy asoslari

quyidagicha belgilandi:

1) adabiyot darslarida o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berish o'qitishning tashkiliy shakli, ayni paytda o'quvchida maqbul kasb tanlashga xizmat qila oladigan bilim, ma'lumot va amaliyotlar bilan ishlash usuli hamdir;

2) adabiyot darslarida o'quvchilarga integratsiyalashgan holda ta'lim berish jarayoni o'qitish samaradorligining yuqori bo'lishi ko'zlangan holatda oldindan aniq va pishiq loyihalashtirilishi (o'zaro mos faktlar tanlanishi, tizimlashtirilishi, tahlil etilishi, ular orasidagi uyg'unlikka urg'u berilishi va h.) muhim;

3) integratsiyalashgan ta'lim berish jarayonida adabiyotdan o'tilishi rejalashtirilgan kasbga yo'naltiruvchi mavzuga tanlangan boshqa o'quv predmetlari mavzulari aynan teng kelishi, o'quvchilarda bitta mavzu doirasida ma'lumot, xabar va axborotlar almashinuvining ta'minlanishiga erishish zarur;

4) o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berish jarayonida kognitivlikka (o'zi izlab topishiga) ko'proq imkon berish kerak;

5) adabiyot darslarida o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni o'quvchilarni dalillar asosida to'g'ri kasb tanlashga yo'llagandagina ahamiyatli sanaladi;

6) adabiyot darslarida integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni nazariya va amaliyot uyg'unligi, soddadan murakkabga qarab borish, tushunarliklik, izchillik va uzviylikni ta'minlash, kasbiy shakllanish (o'zgaruvchan optatsiya, optatsiya, kasbiy tayyorgarlik) bosqichlari, o'quvchining qiziqish va qobiliyatini inobatga olish kabi umumdidaktik tamoyillarga rioya qilishni taqozo etadi;

7) adabiyot darslarida integratsiyalashgan ta'lim berish jarayoni kelgusida o'quvchining to'g'ri kasb tanlash ehtiyojlarini qondirishga xizmat qila olishi kerak;

Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish uchun mos usullarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilishni lozim topdik:

1. Fanlararo integratsiya badiiy asar tahlilini yuksak saviyada bo'lishi bilan bir qatorda, o'quvchilarni asar mavzusi va mazmunini his qilish orqali kasbga yo'naltirilishi lozim.

2. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyani amalga oshirishda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalarning harakatlanish shakli aniqlanadi. Bu o'z navbatida mavzu mazmunini to'liq ochib bersa, boshqasi uni to'ldirishi uchun imkon tug'diradi.

3. Tanlangan usullarni o'quvchilar o'quv imkoniyatiga to'liq mos kelishi, bunda o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlar birligi ta'minlanadi.

Real o'quv imkoniyatlarini aniqlashda quyidagi shartlarni aniqlash kerak: o'quvchilarning mustaqil faoliyatga tayyorgarligi (o'quv ishlarini rejalashtirish, mashg'ulotning maqsad va vazifalarini to'liq belgilab olish, o'z-o'zini nazorat qilish, aniq qaror qabul qilish); o'quvchilarning ijodiy faoliyatga tayyorgarligi (fikrlash mustaqilligi, asarni badiiy idrok etish bilan birga kelajakdagi tanlangan kasbi, topshiriq shartlarini belgilash va uni yechish metodlarini mustaqil topish ko'nikmasi); kasb tanlashga munosabat va boshqalar.

Ijtimoiy fanlar o'z tarkibiga kiruvchi ona tili, adabiyot, tarbiya fanlarini o'rganishning asosiy sharti o'rganiladigan hodisa va qonuniyatlarning tarixiylik, adabiy-badiiylik, til xususiyatlarini birgalikda o'rganishda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy fanlar o'zaro bog'liq holda o'rganilmasa, o'quvchilar ongida har bir fan bo'yicha bir-biridan ajralgan tushunchalar hosil bo'ladi, ular tarixiy, falsafiy, adabiy dalillar va qonuniyatlarning haqida bir butun bilimga ega bo'lmaydilar. Ijtimoiy fanlarni, ayniqsa, adabiyot, ona tili va tarbiyani o'zaro bog'liq holda o'rganishda axloqiy, estetik va ijtimoiy-siyosiy tarbiya har tomonlama kamol topgan faol shaxsni o'stirish vazifalari bilan uyg'unlashib ketadi hamda umumiylikni tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida, mashg'ulotlarda o'quvchilar inson ideallari faqat nazariy tushuncha bo'lmay, obrazli umumlashma ekanini ham bilib olishlariga imkon beradi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berish usullari:

1. Adabiyot o'quv predmetini ona tili bilan bog'lab o'qitish. Umumiy o'rta ta'limda ona tili ta'limining bosh maqsadi bolalarda ijodiylik, mustaqil va kreativ fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda yozma va og'zaki shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilishini yaxshi bilamiz. Maktabda adabiyot o'qitishning bosh maqsadi sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlariga mas'ul bo'la oladigan komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

2. Adabiyot o'quv predmetini tarbiya fani bilan bog'lab o'qitish har ikkala fanning bir maqsad muddao uchun xizmat qilishini bildiradi. Har qanday tarbiyaning negizida ilm turishi tarixdan ma'lumdir. Bugungi kunda dunyoning qator mamlakatlarida global muammolar maydonga chiqayotgan tahlikali paytda yoshlarni yot g'oyalardan asrash, ularda mantiqiy tafakkur, tanqidiy fikrlashni barqaror rivojlantirish, ma'naviy yetuklik hamda kelajagi uchun to'g'ri kasbiy tanlovni amalga oshirishiga alohida e'tibor qaratish kerakligi muhim hisoblanadi. Ushbu muammoning yechimi sifatida fanlararo integratsiya jarayoni ijobiy natija berish bilan birga adabiyot fanining imkoniyatlaridan foydalanish uchun zamin yaratadi.

Maqolada yuqoridagi ilmiy-nazariy, metodologik mezon va tamoyillarga asoslanib 5, 7, 11-sinf adabiyot, tarbiya, ona tili darsligida aynan kasbga yo'naltiruvchi mavzular doirasida integratsiyalash texnologiyasini takomillashtirishdi. Ushbu fanlararo (adabiyot, ona tili, tarbiya) integratsion-innovatsion qiyosiy tahlilini mavzu, maqsad, mazmun, yakuniy xulosa komponentlari orqali ochib berildi.

5-sinfda berilgan kasbga yo'naltiruvchi integratsiya – bu ta'lim turlari orasida, fanlararo va mavzulararo o'zaro bog'liqlik hamda munosabatlarni to'g'ri o'rnatilishini ta'minlashdan iborat bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining ta'sir ko'rsatuvchi muhim tushunchasi sifatida ta'limning ma'lum bosqichi, fan yoki mavzularining muayyan ketma-ketlik va izchilligini ta'minlash orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda samarali xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

O'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi integratsiyalashgan darslar texnologiyasi (5-sinf)

Komponentlar	Fanlararo integratsion-innovatsion qiyosiy tahlil			Kasbga yo'naltirish bosqichi
	5-sinf			
	adabiyot	ona tili	tarbiya	
Mavzu	Sa'diyning "Hunar o'rganmoq haqida"gi hikoyati	Kasbga oid terminlar	Vatanga muhabbat	O'zgaruvchan optatsiya (7-12 yosh)
Maqsad	O'quvchilarni kasb-hunar o'rganishga da'vat etish bilan birga vatanga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'usini vatanning porloq kelajagi uchun xizmat qilayotgan yurtdoshlarimiz haqida ma'lumot berish orqali o'z kasbiy yo'lini topishga qaratilgan			Kasb mo'ljal olishga qiziqish va moyillik
Mazmun	Otaning o'g'illariga hunar o'rganish lozimligi haqidagi o'giti	Kasbiy terminlarni bilish bilan bir qatorda har bir kasb-hunarning o'z gashti borligi haqida fikrlar ifodasi. Naqqoshlik, etikdo'zlik, dehqon, cho'pon, kasblari nomini keltirilishi	Vatanga astoydil xizmat qiluvchilar deya o't o'chiruvchilar, shifokorlar, o'qituvchilar, quruvchilar kabi kasblarning mas'uliyati haqida ma'lumotlarning berilishi	O'quvchi kasbiy mo'ljal olishi uchun qiziqish va moyilligini inobatga olish
Yakuniy natija	Ushbu fanlar o'rtasida bog'liqlikdagi umumiy g'oya o'quvchini kasb tanlashi uchun munosabatlar dinamikasini kuzatib borish, bu jihat ularning faoliyatida qay tarzda aks etganini tekshirishning muhim shartidir			

Demak, ijtimoiy-gumanitar fanlarning integratsiyasini ta'minlash jarayoni ko'p qirrali masala bo'lib, ta'lim va tarbiya bilan bir qatorda kasbga yo'llash jarayonini tatbiq qilish hamda fanning maqsadini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Fanlararo integratsion-innovatsion kasbga yo'naltiruvchi 7-sinf mavzularining qiyosiy tahlilidan foydalanish umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi(2-jadval).

2-jadval

O'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi integratsiyalashgan darslar texnologiyasi (7-sinf)

Komponentlar	Fanlararo integratsion-innovatsion qiyosiy tahlil			Kasbiy shakllanish bosqichi
	7-sinf			
	adabiyot	ona tili	tarbiya	
Mavzu	Muhammad Alining "Gumbazdagi nur" dostoni	Kelajak kasblari	Oliy maqsadlar bilan yashash	Optatsiya (12-16 yosh)
Maqsad	Asardagi kasb-hunarlarni tasniflash, o'quvchilarni kasb tanlash faoliyati va kasb-hunarga yo'naltirish hamda ushbu jarayonning shaxs kamolotidagi beqiyos ahamiyatini amaliy hayotga joriy etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni bo'lajak kasbiy faoliyati sohasini tanlash masalasiga ongli yondashishlariga yordam berish bilan birga, ularda bo'lajak kasb-hunarlarga tegishli bo'lgan tushuncha, tasavvur va bilimlarining boyishiga erishish			O'quvchi o'z imkoniyatlarini anglagan holda muayyan aniq kasb tanlashiga erishish
Mazmun	sangtarosh, gilkor, naqqosh, ganchkor kasblarining o'quvchi ongida avvalgi va hozirgi kundagi ahamiyati haqida fikrlashga undashi	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari to'liq avtomatlashtirilayotgan bir paytda 20-30 yildan keyin ba'zi kasblarda inson resursiga talab mutlaqo yo'qolishi	Shifokorlik, o'qituvchilik va tadbirkorlik kabi kasblarning mas'uliyati haqida ma'lumotlarning berilishi	O'quvchi o'z individual xususiyatlariga mos kasb tanlashi uchun o'quv-kasbiy o'z-o'zini aniqlash shart-sharoitlariga ega bo'lishi
Yakuniy natija	Ushbu fanlar o'rtasida bog'liqlikdagi umumiy g'oya o'quvchini kasb tanlashi uchun munosabatlar dinamikasini kuzatib borish, bu jihat ularning faoliyatida qay tarzda aks etganini tekshirishning muhim shartidir. Ushbu yosh bosqichida to'g'ri kasbiy qaror qabul qilishga erishiladi			

Demak, o'quvchilarni kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirishni amalga oshirish uchun nazariy bilimlarni integratsiya va amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun foydalanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

11-sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish muammosining yechimini fanlararo aloqaga asoslangan holda integratsion o'rganish uchun avval maqsadni aniq belgilab olish, o'rganiladigan materialni qayta ko'rib chiqish, uning samarali o'zlashtirilishi uchun mos metodlarni tanlash, dars jarayonini tashkil etishning shakli va zaruriy ashyolarini aniqlash hamda olinadigan natijalarni oldindan belgilab chiqishni taqozo etadi (3-jadval).

O'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi integratsiyalashgan darslar texnologiyasi (11-sinf)

3-jadval

Komponentlar	Fanlararo integratsion-innovatsion qiyosiy tahlil			Kasbiy shakllanish bosqichi
	11-sinf			
	adabiyot	ona tili	Tarbiya	
Mavzu	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari	"Qalam haqida" matni	"Kasb mas'uliyati" matni	Kasbga tayyorgarlik (16-18 yosh)
Maqsad	O'quvchilarni aniq kasb tanlashiga erishish, asarlar mazmunidan kelib chiqib kasb-hunar haqida mukammal tushunchani shakllantirish bilan birga vatanga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'usini vatanning porloq kelajagi uchun xizmat qilayotgan yurtdoshlarimiz haqida ma'lumot berish orqali o'z kasbiy yo'lini topishga qaratilgan			Kasbga tayyorgarlik, kasbiy o'z-o'zini aniqlash, mustaqil ishga tayyorlik
Mazmun	Elig bilan O'gdulmishning savol-javoblari jarayonida kasb-hunar egalarining fazilatlarini haqida so'z borishi	Matnda shoir, olim, jurnalist, yozuvchilik haqida so'z borishi	Matn orqali hamshiralik kasbi haqida fikr yuritilishi	O'quvchilarning tanlagan kasbidan ko'ngli to'lishi, kasb tanlovining to'g'riligiga ishonch, kasbiy o'z-o'zini aniqlash, mustaqil ishga tayyorlikning kuzatilishi
Yakuniy natija	Ushbu fanlar o'rtasida bog'liqlikdagi umumiy g'oya o'quvchini kasb tanlashi uchun munosabatlar dinamikasini kuzatib borish, bu jihat ularning faoliyatida qay tarzda aks etganini tekshirishning muhim shartidir. Ushbu yosh bosqichida to'g'ri kasbiy qaror qabul qilinmagan bo'lsa, kasb tanlash inqirozi kuzatiladi. O'quvchining kasbiy o'z-o'zini anglashiga erishish			

Integratsiyalashgan darsda ijtimoiy-gumanitar fanlardagi kasbga yo'naltirishga oid ma'lumotlar

bir-birini to'ldiribgina qolmay, balki obyektни yaxlit holda idrok etish uchun zarur bo'lgan ma'lum bir qotishma, majmuani tashkil etadi.

Bizning nazarimizda, adabiyot fani ona tili va tarbiya fanlari o'rtasidagi integratsiyasining yakuniy natijasi ushbu fanlar o'rtasida bog'liqlikdagi umumiy g'oya o'quvchini kasb tanlashi uchun munosabatlar dinamikasini kuzatib borish, bu jihat ularning faoliyatida qay tarzda aks etganini tekshirishning muhim sharti sifatida alohida e'tiborga molik.

Maqoladakeltirilgan 5-7-11-sinf adabiyot fanini boshqa o'quv predmetlari bilan integratsiyalashuvining afzallik tomonlarini quyidagicha umumlashtirdik:

1. Har bir o'quvchi uchun birdek tanish bo'lgan va o'zlashtirilishi nisbatan oson bo'lgan o'quv predmetlari bilan aloqadorlikni ta'minlash asnosida, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilsa, sinfdagi har bir o'quvchini darsga jalb qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

2. Adabiyot darslarida kasb-hunarga yo'naltiruvchi mavzular takrorlangan boshqa o'quv predmetlariga aloqador bo'lgan ma'lumotlar yana bir karra o'quvchi xotirasida mustahkamlanadi va kasbiy tanlovda qat'iy qaror qabul qilishi uchun zamin yaratadi.

3. O'quvchilarning to'g'ri kasb tanloviga erishiladi va kelajakda jamiyat uchun foydasi tegadigan kadrlar soni oshishiga erishiladi.

Ushbu kasbga yo'naltiruvchi integratsiya – bu ta'lim turlari orasida, fanlararo va mavzulararo o'zaro bog'liqlik va munosabatlarni to'g'ri o'rnatilishini ta'minlashdan iborat bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim tushuncha sifatida ta'limning ma'lum bosqichi, fan yoki mavzularining muayyan ketma-ketlik va izchilligini ta'minlash orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda samarali xizmat qiladi.

XULOSA. Diqqat qilsak, har uchala o'quv predmeti maqsadi negizida ham hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri vatanparvarlik bilan bir qatorda o'z bilimi, kasb-hunari bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun raqobatbardosh, barkamol yetuk kadrlarni tarbiyalash masalasi yotadi. O'quvchilarning qobiliyatini hisobga olgan holda individual yondashuv asosida adabiyot fanini o'qitishda differensiallashgan o'qitish texnologiyalarini samarali joriy etish orqali kasbga yo'naltirish bosqichlarining inqirozsiz, me'yoriy kechishi, yosh xususiyatlariga muvofiq tarzda aniq maqsad asosida o'zining individual xususiyatlariga mos keluvchi kasb tanlashga erishiladi. Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasini ta'lim - tarbiya bilan bir qatorda kasbga yo'llash jarayoniga tatbiq etilishi orqali har bir fan maqsadini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi, degan xulosani beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashurbayeva R. K. Ona tili darslarida o'quvchilarga innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish usullari. //Ped. fan. fal. doktori (RhD) diss. ... avtoref. – Buxoro, 2023. –52 b.

2. Mirzayeva Z.I., Jalilov K.Q. Adabiyot.// Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.

3. Сафарова Р.Ф. Табақалаштирилган таълимга ўтишининг айрим масалалари. //“Умумтаълим мактабларида табақалаштириб ўқитиш муаммолари” Республика илмий амалий анжуман материаллари. Т.: ЎзПФТИ. 2003. - Б.124-127.

4. Климова Д.Н. Профильная ориентация обучающихся основной школы на основе межпредметной интеграции. //Дис. ...канд.пед.наук. - Кузбасс: КГПА, 2007. –239 с.

5. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika. - T.: "Sano-standart", 2017. – 433 b.

6. Shoyimova Sh.S. Differensial-individual yondashuv asosida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish texnologiyasi: Ped. fan. bo'y. fal.dok-ri (PhD)...dis-ya. – Qo'qon: QDPI, 2024.–150b.

O'SMIRLARDA PROFESSIONAL O'Z-O'ZINI ANGLASHDA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK JIHATLAR

Saidova Gulchiroy Shokirovna
BuxDU erkin izlanuvchisi

Saidov Shavkat Shokir o'g'li
OXU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarda professional o'z-o'zini anglash jarayoni ijtimoiy va psixologik jihatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. O'smirlik davrida, o'smirlar o'z qobiliyatlari, qiziqishlari va kasb tanlashda muhim omillar sifatida oilaning, do'stlarning, ta'lim tizimining va jamiyatning ta'siri ostida bo'lishadi. Oila, tengdoshlar, o'qituvchilar va madaniyat o'smirlarning professional yo'nalishini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'z-o'zini baholash, motivatsiya va shaxsiy qobiliyatlar ham o'smirlarning kelajakdagi muvaffaqiyatli kasb tanlash jarayonida katta ahamiyatga ega. Ushbu maqola o'smirlarga professional yo'nalishda yordam beradigan ijobiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: o'smirlar, professional o'z-o'zini anglash, ijtimoiy omillar, psixologik omillar, oila, do'stlar, ta'lim, motivatsiya, qobiliyatlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ ПОДРОСТКОВ

Саидова Гулчирой Шокировна
Свободный поисковик БухГУ

Саидов Шавкат Шокир углы
магистрант АМУ

Аннотация: В этой статье обсуждается процесс профессионального самосознания подростков с точки зрения социальных и психологических аспектов. В подростковом возрасте юноши и девушки подвержены влиянию семьи, друзей, системы образования и общества, что служит важным фактором их способностей, интересов и выбора профессии. Семья, сверстники, учителя и культура играют важную роль в определении профессиональной ориентации подростков. Самооценка, мотивация и личные способности также играют важную роль в выборе будущей успешной профессии. В этой статье содержатся рекомендации, направленные на создание благоприятных условий для профессионального развития подростков.

Ключевые слова: подростки, профессиональное самосознание, социальные факторы, психологические факторы, семья, друзья, образование, мотивация, способности.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL SELF-AWARENESS OF ADOLESCENTS

Saidova Gulchiroy Shokirovna
Free search engine BukhETI

Saidov Shavkat Shokir ugli
graduate student of AIU

Annatation: This article discusses the process of adolescent professional self-awareness in terms of social and psychological aspects. In adolescence, young men and women are influenced by family, friends, the educational system and society, which serves as an important factor in their abilities, interests and choice of profession. Family, peers, teachers and culture play an important role in determining adolescent career orientation. Self-esteem, motivation and personal ability also play an important role in choosing a future successful profession. This article contains recommendations aimed at creating favorable conditions for the professional development of adolescents.

Key words: teenagers, professional self-awareness, social factors, psychological factors, family, friends, education, motivation, abilities.

Professional o'z-o'zini anglash o'smirlik davrining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'smirlarning kelajakdagi kasbiy yo'nalishi, hayotda o'z o'rnini topish va jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishida katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayon ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, bu omillar orasida ijtimoiy-psixologik jihatlar yetakchi rol o'ynaydi. O'smirlar hayotining ushbu davrida ular nafaqat o'z shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini anglay boshlaydilar, balki jamiyat, oilaviy muhit va atrof-muhitning ta'siri ostida o'zlari haqida tasavvur shakllantiradilar. Mazkur maqolada o'smirlarning professional o'z-o'zini anglashida ijtimoiy-psixologik jihatlar tahlil qilinadi va bu jarayonda muhim bo'lgan omillar haqida batafsil ma'lumot beriladi. O'smirlik — inson hayotidagi o'tish davri bo'lib, bu davrda o'smirlar o'zlarining shaxsiy qobiliyatlarini, qiziqishlarini va kelajakda qanday kasbni tanlashlari kerakligini anglay boshlaydilar. Bu jarayon murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularning o'z-o'zini anglash jarayonida ko'plab psixologik va ijtimoiy omillar ishtirok etadi. O'smirlar bu davrda turli savollarni yechishga harakat qiladilar: «Kim bo'lishim kerak?», «Qanday kasb meni baxtli qiladi?», «Jamiyatdagi o'rnim qanday bo'ladi?». Ushbu savollarga javob berish jarayonida o'smirlar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar va kelajakda qanday professional yo'lni tanlashlariga qaror qiladilar. O'smirlik davrida professional o'z-o'zini anglashning muhim tomoni shundaki, bu davrda o'smirlar hayotiy qarorlarni qabul qilishda o'zlarini mustaqil his qila boshlaydilar. Bu jarayonda ularning qobiliyatlari, qiziqishlari va kasbga bo'lgan moyilliklari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'smirlar jamiyatdagi turli bosimlarga duch keladilar va bu ularning professional o'z-o'zini anglash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik omillarning o'rni. O'smirlarning professional o'z-o'zini anglashida ijtimoiy-psixologik jihatlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon nafaqat shaxsiy psixologik xususiyatlarga bog'liq bo'lib, balki ijtimoiy muhit, oila, do'stlar va ta'lim tizimining ham katta ta'siri ostida amalga oshiriladi. Keling, bu omillarni batafsil tahlil qilamiz.

1. Oila. Oila o'smirlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. O'smirlar uchun ota-ona, opa-uka yoki boshqa yaqin qarindoshlarning ta'siri katta. O'smirlar kasbiy yo'l tanlash jarayonida ko'pincha ota-onalarning fikrlariga tayanadilar. Ota-onalarning o'z farzandlari kasbi borasidagi tavsiyalari, ularning professional yutuqlari va oiladagi qadriyatlar o'smirning professional o'z-o'zini anglashiga sezilarli ta'sir qiladi. Ba'zida ota-onalar o'z farzandlarini aniq bir kasbni tanlashga undaydi, bu esa o'smirlar orasida ichki nizolar va qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, oila o'z farzandlariga kasbiy erkinlik berib, ularning qiziqishlari va kuchli tomonlarini qo'llab-quvvatlash, bu o'smirlar uchun professional o'z-o'zini anglash jarayonida ijobiy natijalar beradi.

2. Do'stlar va tengdoshlar. O'smirlik davrida tengdoshlarning ta'siri juda katta. O'smirlar o'z do'stlari va sinfdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda ko'p vaqt o'tkazadilar va bu munosabatlar ularning kasb tanlash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Do'stlar orasidagi muloqot, bir-birlariga bo'lgan taqlid va o'zaro maslahatlar o'smirlarning kelajakdagi professional qarorlarini qabul qilishlariga sezilarli ta'sir qiladi. Masalan, o'smirlarning bir guruh do'stlari o'z kasb tanlovlarida ma'lum yo'nalishlarni tanlagan bo'lsa, boshqa o'smirlar ham ularga ergashishi mumkin. Biroq, bu taqlid har doim ham ijobiy natijalarga olib kelavermaydi, chunki har bir o'smirning qobiliyatlari va qiziqishlari turlicha bo'ladi.

3. Ta'lim tizimi va o'qituvchilar. Ta'lim tizimi o'smirlarning professional o'z-o'zini anglashida muhim rol o'ynaydi. Maktablar va ta'lim muassasalari o'quvchilarga turli xil kasbiy imkoniyatlarni tanishtiradi va ularga qaysi sohada kuchli ekanliklarini anglashda yordam beradi. O'qituvchilarning o'smirlar hayotidagi ta'siri ham juda katta, chunki ular o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda va kelajakdagi kasbiy yo'lni tanlashda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi rahnamolar sifatida ishtirok etadilar. O'qituvchilarning professional yo'nalishlar bo'yicha bergan tavsiyalari o'smirlarning kasb tanlash qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktablardagi kasbiy yo'nalish beruvchi dasturlar va maxsus mashg'ulotlar o'quvchilarga o'zlarining qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kasb tanlashlariga yordam beradi.

4. Jamiyat va madaniyat. Jamiyat va madaniyat o'smirlarning professional o'z-o'zini anglashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy holatlar, kasblar haqidagi stereotiplar va qadriyatlar o'smirlarning kasb tanlash jarayonida katta rol o'ynaydi. Masalan, ayrim jamiyatlarda

muayyan kasblar hurmatga sazovor bo'lsa, boshqalarida ular kam qadrli hisoblanadi. Shuningdek, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalar o'smirlarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va motivatsiyalarini shakllantiradi. Jamiyatda kasblarning obro'si va ijtimoiy maqomi o'smirlarning professional qarorlarini qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Professional o'z-o'zini anglash jarayonida psixologik omillar. O'smirlarning professional o'z-o'zini anglashida nafaqat ijtimoiy omillar, balki psixologik omillar ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillar o'smirlarning shaxsiy xususiyatlari, motivatsiyalari, o'z-o'zini baholash darajasi va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchiga bog'liqdir.

1. Shaxsiy qiziqishlar va qobiliyatlar. Har bir o'smirning o'ziga xos qobiliyatlari va qiziqishlari bo'ladi. Bu qiziqishlar ularning kelajakda qaysi kasbni tanlashlarini belgilab beradi. O'smirlar o'zlariga yoqadigan va o'z qobiliyatlariga mos kasblarni tanlashga intiladilar. Shaxsiy qiziqishlar va qobiliyatlarni anglash jarayonida o'smirlar o'zlarini kelajakda qanday rolda ko'rishlarini, qaysi kasb orqali jamiyatda o'z o'rinlarini topishlarini aniqlaydilar.

2. O'z-o'zini baholash va ishonch. O'smirlarning o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchi professional o'z-o'zini anglash jarayonida katta rol o'ynaydi. Agar o'smir o'z qobiliyatlarini yuqori baholasa va o'ziga ishonch hosil qilsa, u kasbiy yo'lni tanlashda mustaqilroq bo'ladi va o'z qarorlarini dadilroq qabul qiladi. Biroq, o'z-o'zini past baholash o'smirni o'z qobiliyatlariga shubha bilan qarashiga va noto'g'ri kasb tanlashiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, o'z-o'zini baholash darajasi va ishonch o'smirlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

3. Motivatsiya va maqsad. O'smirlarning professional o'z-o'zini anglash jarayonida motivatsiya va maqsadlar ham muhim omillar hisoblanadi. O'smirlar kasb tanlashda o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'yib, ularga erishish uchun kuch sarflashlari zarur. Motivatsiya esa o'smirlarni kasbiy rivojlanishga undaydi va ularga o'z maqsadlariga erishishda yordam beradi.

O'smirlarda professional o'z-o'zini anglash jarayonida ijtimoiy va psixologik omillar o'zaro bog'liq bo'lib, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun katta ahamiyatga ega. Oila, do'stlar, ta'lim tizimi va jamiyatning ta'siri o'smirlarning professional qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga, o'z-o'zini baholash, ishonch va shaxsiy qobiliyatlar ham o'smirlarning kelajakdagi kasbiy yo'lni tanlashida asosiy rol o'ynaydi. O'smirlarning professional o'z-o'zini anglashida bu omillarning to'g'ri muvozanatlashuvi ularning jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishiga yordam beradi.

O'smirlarda professional o'z-o'zini anglash jarayoni ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon ijtimoiy va psixologik omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'smirlarning o'z qobiliyatlarini, qiziqishlarini va kelajakdagi kasb tanlash jarayonini shakllantiradi. O'smirlik davri — bu o'z-o'zini anglash, o'z qiziqishlarini aniqlash va kasbiy yo'nalishni belgilash jarayoni bo'lib, bu davrda o'smirlar o'zlarini tanish va jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadida turli xil tajribalarni o'tadilar. Oila, do'stlar, ta'lim muassasalari va jamiyat o'smirlarning professional o'z-o'zini anglashida kuchli ta'sir ko'rsatadi. Oila — bu o'smirlarning birinchi ijtimoiy muhitidir, unda ular o'z qobiliyatlarini va qiziqishlarini anglash uchun zarur bo'lgan dastlabki ko'nikmalarni oladilar. Ota-onalar va yaqin qarindoshlar o'smirlarga o'z qiziqishlarini va kasbiy yo'nalishlarini tanlashda yordam berishi, ularga maslahatlar berishi va o'z tajribalari bilan bo'lishishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, oila ichidagi ijtimoiy muhit, ota-onalarning kasblari va ularning qiziqishlari o'smirlarning professional o'z-o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tengdoshlar va do'stlar o'smirlarning hayotida muhim rol o'ynaydi. O'smirlar o'z tengdoshlaridan o'rganadi, ularning fikrlarini va ta'sirini hisobga olishadi. Do'stlar orasida amalga oshiriladigan bahslar, tajribalar va maslahatlar o'smirlarning kelajakdagi kasbiy yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'smirlar do'stlarining qarorlariga taqlid qilishlari yoki ularni qabul qilishlari mumkin, bu esa ularning o'z kasb tanlashiga ta'sir qiladi. Biroq, do'stlar ta'sirining salbiy tomoni ham mavjud, chunki o'smirlar ayrim hollarda do'stlarining fikrlariga haddan tashqari bog'lanib, o'z qobiliyatlarini unutib qo'yishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarda professional o'z-o'zini anglash jarayoni juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularning ijtimoiy va psixologik omillar bilan bog'liqdir. Oila, do'stlar, ta'lim tizimi va jamiyat ta'siri o'smirlarning kasb tanlash jarayonini belgilaydi. Shu bilan birga, o'z-o'zini baholash, motivatsiya va shaxsiy qobiliyatlar ham o'smirlarning professional o'z-o'zini anglashida muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillarni hisobga olish, o'smirlarga kelajakdagi muvaffaqiyatli kasb tanlashlariga yordam beradigan ijobiy sharoitlarni yaratishda yordam beradi. O'smirlarning professional o'z-o'zini anglash jarayonini

qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishiga, o'z qobiliyatlarini anglashlariga va jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi. Buning uchun ta'lim tizimida, oilalarda va jamiyatda o'smirlarga nisbatan ijobiy yondashuvni shakllantirish va ularni professional yo'nalishda rag'batlantirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buehler, R., & Schuett, M. (2018). *Adolescent development: An overview of theories and research*. Routledge.
2. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and crisis*. Norton.
3. Schunk, D. H., & Zimmerman, B. J. (2008). *Motivation and self-regulated learning: Theory, research, and applications*. Routledge.
4. Lent, R. W., Brown, S. D., & Hackett, G. (1994). Toward a unifying social cognitive theory of career and academic interest, choice, and performance. *Journal of Vocational Behavior*, 45(1), 79-122. <https://doi.org/10.1006/jvbe.1994.1027>
5. Savickas, M. L. (2005). The theory and practice of career construction. In *Career development and counseling: Putting theory and research to work* (pp. 42-70). Wiley.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Akramova Surayyo Renatovna.,
BDPI Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti

Askarova Umida A‘zamovna.,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslari orqali lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va uni rivojlantirib borishning o‘ziga xos usullari va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, lingvistik kompetensiya, tayanch kompetensiya, usul.

Аннотация. В данной статье освещаются особые методы и важность формирования и развития языковых компетенций на уроках родного языка у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: компетентность, языковая компетентность, базовая компетентность, метод.

Annotation. This article highlights the special methods and importance of forming and developing language competencies in primary school students' native language lessons.

Keywords: competence, linguistic competence, basic competence, method.

Kirish. Ma‘lumki, XXI asrda jahon miqyosida ta‘lim barqaror taraqqiyotni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida e‘tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta‘lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu ta‘lim tizimida pedagoglar, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.

Shuningdek, ta‘limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta‘limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o‘qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir.

Bugungi kunda dunyo ta‘limini yangilashning asosiy yo‘nalishi ta‘lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

Asosiy qism. Barcha fanda talab etilganidek, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ham fan doirasidagi lingvistik kompetensiyalarni anglatish, o‘zlashtirishga yordam berish, buning uchun turli innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zaruriyati tug‘iladi.

Bugungi kunda respublikamizning ta‘lim sohasida innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning me‘yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomil-lashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish, bilish faoliyatini shakllantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda vujudga keladigan muammolarga e‘tibor qaratish va uni bartaraf etish, ona tili darslarida o‘quvchilarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini o‘stirish uchun ijodiy materiallar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, fanga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish bilan bir qatorda, fan doirasida keltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotda qo‘llay olish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Keyingi yillarda maktab ona tili darsliklari va o‘qituvchilar uchun nashr qilingan qo‘llanmalar materiali mazmuniga qo‘yilgan talablar anchagina ortdi.

Materialning asosiy mezoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmatini, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog‘lanishi, matnlarning g‘oyaviy mavzuviy yo‘naltirilganligi, kichik yoshdagi o‘quvchilarga mosligidir. Ona tilini o‘rganish

jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o'quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Har bir sinf o'quvchisining individual yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'limni tashkil etish, boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish, so'zlardan nutqida to'g'ri va o'rinli foydalanishga o'rgatish maqsad qilib olingan. Har bir o'qituvchi 1-4-sinf ona tili fanidan yaratilgan multimedia ilovalari metodik qo'llanmalardan ta'lim sifatini oshirishda o'rinli va maqsadli foydalanishi zarur. Ayniqsa, ona tili darslarida matn ustida ishlashga va ularning xususiyatlari haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shuning uchun mazkur metodikalar mazmuni, unda berilgan didaktik materiallar, savol topshiriqlarga ilmiy va tanqidiy yondashuv asosida amaliyotga tatbiq etish talab etiladi.

O'quvchilar ona tili darslarida nafaqat lingvistik, balki nutqiy kompetensiyalari ham shakllanib boradi. Aksariyat tushunchalar mohiyati ona tili va o'qish darslarida shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi nutqiy ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi:

Anglash (passiv nutq ko'nikmalari)

buyumlar tasvirlangan qisqa gaplarni tushunadi

Kishilar haqidagi (kimligi, hol-ahvoli, Yoshi nechadaligi, qayerdanligi, qayerdaligi) qisqa gaplarni va matnlarni o'qiganda tushunadi

Atrofidagi narsalar haqidagi (rangi, hajmi, qayerda joylashganligi) gaplarni qisqa va matnlarni o'qiganda tushunadi

Aynan hozir nima bo'layotgani (qilayotgani) haqidagi qisqa gaplarni va matnlarni o'qiganda tushunadi

Oddiy so'zlar va qisqa jumlar bilan ifodalangan, rasmlar bilan to'ldirilgan voqeaviy hikoyalarni tushuna oladi

Tinglab tushunish

O'ziga qarata aytilgan salomlashish va xayrlashishlarni tushunadi

O'ziga qaratilgan oddiy savollarni (kimligi, hol-ahvoli, Yoshi nechadaligi, qayerdanligi, qayerdaligi) eshitganda tushunadi

Kishilar haqidagi (kimligi, Yoshi nechadaligi, qayerdaligi) oddiy savollarni va gaplarni eshitganda tushunadi

Atrofidagi narsalar haqidagi (rangi, hajmi, qayerda joylashganligi) oddiy savollarni va gaplarni eshitganda tushunadi

Aynan hozir nima bo'layotgani (qilayotgani) haqidagi oddiy savollarni va gaplarni eshitganda tushunadi

Ob-havo haqidagi oddiy savollarni va gaplarni eshitganda tushunadi

Lingvistik kompetensiya. Grammatika

Qaratqich, o'rin-payt, chiqish kelishiklari Kishilik olmoshlari Egalik qo'shimchalari

Ko'rsatish olmoshi (bu) Miqdor qo'shimchasi (-ta) So'roq olmoshlari "va" bog'lovchisi

Ot kesim yasovchi qo'shimchalar

Ob-havoni bildiradigan so'zlar

O'rin-joy ravishlarini (ustida, ostida,tagida, yonida...)

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", "FSMU", "Kichik guruhlarda

ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag”, “Oxirgi soʻzni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qoʻllanmoqda.

Maʼlumki, taʼlimda ilgʻor pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish oʻquv mashgʻulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qoʻllash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak maʼnaviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Taʼkidlash joizki, taʼlimda oʻquvchi shaxsini fikrlashga, oʻzgaralar fikrini anglash va shu fikrni ogʻzaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga oʻrgatish masalasiga eʼtibor qaratilgan boʻlib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy oʻrin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida oʻrganiladi.

3-sinf ona tili darslarida istalgan mavzuni oʻrganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun “beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi...) ortiqcha” metodini qoʻllash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid toʻrtta va taalluqli boʻlmagan (ortiqcha) bitta soʻz (tushuncha, fikr) beriladi.

Masalan, qoʻshimchalar mavzusida soʻz yasovchilar tanlanishi topshiriladi.

1) –chi; 2) –kash; 3) –ni; 4) –ga 5) –don; 6) –di 7) –lar 8) –dan

Oʻquvchi oʻrganilgan mavzu yuzasidan berilgan topshiriqqa binoan soʻz yasovchilar qatoridan “begona” boʻlgan qoʻshimchalarni aniqlab, ajratishi soʻraladi.

Koʻrsatilgan qoʻshimchalar orasida –ni, –ga, –di, –lar, –dan sintaktik shakl yasovchi sanaladi.

Yoki 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qoʻllash mumkin. Yozuv ekranda koʻrsatiladi. Oʻquvchilar ortiqcha soʻzni aniqlashadi.

1-sinf darsligidagi “Oshxona jihozlari”, “Qushlar”, “Uy hayvonlari va parrandalar” kabi mavzularini oʻrganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qoʻllash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid toʻrtta va taalluqli boʻlmagan (ortiqcha) bitta soʻz (tushuncha, fikr) beriladi.

Uy hayvonlari: sigir, qoʻy, toshbaqa, ot, it.

Soʻng bu soʻzlar ishtirokida gap tuzish topshirigʻi beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: Ot - insonning eng ishonchli doʻsti.

Oʻquvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida oʻquvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uygʻotiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda boʻlishga ham oʻrgatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. T. Gʻafforova, E. Shodmonov, X. Gʻulomova. Ona tili. T.: 2023.
2. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. Ona tili va oʻqish savodxonligi. T.: Respublika taʼlim markazi. 2021. – 104 b.
3. S.R.Akramova. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari bilimni baholashda xorijiy tajriba “PIRLS” ning mohiyati. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Maxsus son. 2019-yil. ISSN 2181-6883.
4. S.R.Akramova. Ona tili darslari orqali oʻquvchilarni matn ustida ishlashga oʻrgatishning ahamiyati. “Yoshlarning intellektual va maʼnaviy salohiyatini oshirishda navoiy va bobur ijodiy merosining oʻrni va ahamiyati” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2024-yil, 15-fevral.

IMPLEMENTING A BLENDED LEARNING APPROACH: CHALLENGES FACED AND INSIGHTS GAINED FROM AN ACTION RESEARCH STUDY

Urishev Abdumajid Ikromovich,
Teacher of Uzbekistan State World Languages University

Annotation: This article explores the implementation of a blended learning approach within an educational setting, examining the challenges encountered and the insights gained through an action research study. Blended learning, which combines traditional face-to-face instruction with online learning, offers the potential to enhance student engagement and learning outcomes. However, the transition to this approach presents several challenges, including technological barriers, resistance to change among educators and students, and the need for effective instructional design. This study employed a cyclical action research methodology, involving planning, action, observation, and reflection, to iteratively address these challenges and refine the blended learning model. Findings highlight the importance of robust technical support, ongoing professional development for educators, and the integration of interactive and collaborative online activities. The insights gained from this study provide valuable guidance for educators and institutions seeking to adopt or improve blended learning practices, emphasizing the need for flexibility, continuous feedback, and a student-centered approach. The article concludes with recommendations for overcoming common obstacles and maximizing the benefits of blended learning.

Keywords: blended learning, action research, educational technology, instructional design, student engagement, professional development, online learning.

ВНЕДРЕНИЕ СМЕШАННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ: ПРОБЛЕМЫ, ПОЛУЧЕННЫЕ В РЕЗУЛЬТАТЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ДЕЙСТВИЯ

Уришев Абдумажид Икромович,
Преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: Эта статья исследует применение смешанного подхода к обучению в рамках образовательной среды, изучая проблемы, с которыми сталкиваются, и представления, полученные в результате исследования действий. Смешанное обучение, которое сочетает в себе традиционное обучение лицом к лицу с онлайн-обучением, предлагает потенциал для повышения участия учащихся и результатов обучения. Однако переход к этому подходу представляет собой ряд проблем, включая технологические барьеры, сопротивление изменениям среди педагогов и студентов и необходимость эффективного учебного проектирования. Это исследование использовало методологию исследований циклических действий, включая планирование, действие, наблюдение и размышление, чтобы решать эти проблемы и усовершенствовать модель смешанного обучения. Результаты исследования подчеркивают важность надежной технической поддержки, постоянного профессионального развития для педагогов и интеграции интерактивных и совместных онлайн-активностей. Информация, полученная в результате этого исследования, является ценным руководством для преподавателей и учреждений, стремящихся принять или улучшить методы смешанного обучения, подчеркивая необходимость гибкости, непрерывной обратной связи и ориентированного на студентов подхода. В заключение статьи содержатся рекомендации по преодолению общих препятствий и максимизации выгод от смешанного обучения.

Ключевые слова: смешанное обучение, исследование действия, образовательные технологии, учебный дизайн, участие студентов, профессиональное развитие, онлайн-обучение.

ARALASH TA'LIM YONDASHUVINI JORIY ETISH: DUCH KELGAN QIYINCHILIKLAR VA AMALIY TADQIQOTDAN OLINGAN TUSHUNCHALAR

O'rishev Abdumajid Ikromovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola aralashgan ta'lim yondashuvini ta'lim sharoitida qo'llashni o'rganadi, duch keladigan muammolarni va harakat tadqiqotidan olingan tushunchalarni o'rganadi. An'anaviy yuzma-yuz ta'limni onlayn ta'lim bilan birlashtirgan aralash ta'lim talabalarning faolligi va ta'lim

natijalarini yaxshilash potentsialini taklif etadi. Biroq, bu yondashuvga o'tish texnologik to'siqlar, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zgarishlarga qarshilik va samarali o'qitishni loyihalash zarurati kabi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqot bu muammolarni hal qilish va aralash ta'lim modelini takomillashtirish uchun rejalashtirish, bajarish, kuzatish va aks ettirishni o'z ichiga olgan tsiklik harakatlar tadqiqoti metodologiyasidan foydalangan. Tadqiqot natijalari ishonchli texnologiyani qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilar uchun doimiy kasbiy rivojlanish, interaktiv va hamkorlikdagi onlayn faoliyatni birlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotdan olingan ma'lumotlar moslashuvchanlik, uzluksiz fikr-mulohaza va talabaga yo'naltirilgan yondashuv zarurligini ta'kidlab, aralash ta'lim amaliyotlarini qabul qilish yoki yaxshilashga intilayotgan o'qituvchilar va muassasalar uchun qimmatli yo'l-yo'riq beradi. Maqola umumiy to'siqlarni bartaraf etish va aralash ta'limning afzalliklarini maksimal darajada oshirish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, harakat tadqiqoti, ta'lim texnologiyasi, o'quv dizayni, talabalarning faolligi, kasbiy rivojlanish, onlayn ta'lim.

Blended learning, which integrates traditional face-to-face instruction with online and digital learning components, has emerged as a transformative approach in contemporary education. This method leverages the strengths of both in-person and virtual learning environments to create a more flexible, engaging, and personalized learning experience. The rationale for adopting blended learning is supported by numerous studies that highlight its potential to enhance student engagement, improve learning outcomes, and accommodate diverse learning styles (Graham, 2006; Garrison & Vaughan, 2008). Moreover, blended learning offers significant advantages in terms of accessibility and convenience, making it possible for students to learn at their own pace and revisit course materials as needed (Allen & Seaman, 2013). The primary purpose of this study is to explore the implementation of a blended learning approach within an educational setting and to identify the challenges and opportunities it presents. This research aims to contribute to the growing body of knowledge on blended learning by providing practical insights and evidence-based recommendations for educators and institutions. The specific objectives of the study are:

1. To identify and address the technological and pedagogical challenges associated with the transition to blended learning.
2. To evaluate the impact of blended learning on student engagement and learning outcomes.
3. To develop effective instructional design strategies that facilitate the integration of online and face-to-face learning activities.
4. To provide actionable recommendations for educators and institutions seeking to implement or enhance blended learning practices.

This study employs an action research methodology, which is particularly well-suited for educational settings due to its iterative, reflective, and participatory nature (Kemmis & McTaggart, 2000). Action research involves a cyclical process of planning, action, observation, and reflection, allowing researchers to systematically address practical problems and implement changes based on real-time feedback and evidence (McNiff & Whitehead, 2010). In this study, the action research process was conducted over multiple cycles, each involving the identification of specific challenges, the implementation of targeted interventions, and the evaluation of their effectiveness. Data were collected through a combination of surveys, interviews, and classroom observations, providing a comprehensive understanding of the blended learning implementation from multiple perspectives. This iterative approach enabled the continuous refinement of strategies and practices, ultimately leading to a more effective and sustainable blended learning model.

Blended learning, often described as a hybrid approach, integrates traditional face-to-face classroom methods with online educational technologies. This approach is characterized by a significant portion of instruction delivered through digital and online media, providing students with some degree of control over the time, place, path, or pace of their learning (Graham, 2006). Models of blended learning vary widely, but commonly referenced ones include the Rotation Model, Flex Model, A La Carte Model, and Enriched Virtual Model (Staker & Horn, 2012). The Rotation Model, for instance, involves students rotating between different learning modalities, one of which is online learning. The Flex Model delivers most of the curriculum online, with teachers providing support as needed. Each model aims to combine the strengths of both online and traditional classroom environments to optimize learning

